

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Gulchehra G‘AFFAROVA, Avazbek YO‘LDOSHEV,
Oybek BERKINOV

IJTIMOIIY FALSAFA

O‘quv qo‘llanma

Toshkent
“ZEBO PRINT”
2026

UO'K-303;122
KBK-66.52;87
G'-13

Gulchehra G'affarova, Avazbek Yo'ldoshev, Oybek Berkinov.
Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. – T.: “ZEBO PRINT”, 2026. 276 b.

Ushbu o'quv qo'llanma talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda ijtimoiy falsafa fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari; inson falsafasi; jamiyat hayotining asosiy sohalari va qonunchilik taraqqiyoti; o'rta asrlar hamda O'rta Osiyodagi ijtimoiy-falsafiy fikrlarning natijalari; ijtimoiy rivojlanish va beqarorlik, erkinlik hamda mas'uliyat kabi muhim masalalarning falsafiy talqini yoritilgan. Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida erishilgan yutuqlar, bugungi holat va istiqbollar tahlil etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 22-dekabr № 3779-3769-48c9-60ea-5397-6770-1563-sonli (ariza raqami: 228667251) buyrug'iga asosan nashr etishga tavsiya etilgan.

9420



ISBN 978-9910-14-340-3

KIRISH

Ijtimoiy falsafa – inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning murakkab tabiatini falsafiy nuqtai nazardan o‘rganadigan fan sifatida zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu o‘quv qo‘llanma universitet talabalari uchun ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari va insonning ushbu jarayonlardagi o‘rnini tushunishga yordam berishga qaratilgan. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy falsafa nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish va global muammolarga falsafiy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu qo‘llanmaning dolzarbligi uning zamonaviy jamiyatning dolzarb muammolarini yoritishi, talabalarni ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotning murakkab masalalarini tushunishga tayyorlashi bilan belgilanadi.

Zamonaviy dunyoda jamiyatning tezkor o‘zgarishi, globallashuv jarayonlari, iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalar ijtimoiy falsafaning ahamiyatini yanada oshiradi. Talabalar uchun ijtimoiy falsafa nafaqat jamiyatning tuzilishi va rivojlanishini tushunish vositasi, balki o‘zlarining fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatdagi mas’uliyat va erkinlik kabi muhim tushunchalarni anglash imkonini beradi. Ushbu qo‘llanma jamiyat hayotining asosiy sohalari – ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy – o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatib, talabalarga ushbu sohalardagi o‘zgarishlarning falsafiy mazmunini tushunishga yordam beradi. Masalan, ijtimoiy taraqqiyotning subyektlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi bilimlar talabalarga jamiyatning rivojlanish dinamikasini tahlil qilish va undagi o‘z o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

O‘quv qo‘llanmaning dolzarbligi, shuningdek, uning tarixiy va zamonaviy kontekstlarni birlashtirish qobiliyatidadir. O‘rta asrlarda ijtimoiy falsafiy fikrlarning rivojlanishi, ayniqsa O‘rta Osiyoda musulmon falsafasining shakllanishi kabi mavzular talabalarga o‘tgan davrlarning ijtimoiy-siyosiy muammolarini tushunish va ularni hozirgi zamon bilan solishtirish imkonini beradi. Al-Farobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning asarlari nafaqat o‘sha davrning ijtimoiy tuzilishi haqida ma’lumot beradi, balki insonning jamiyatdagi o‘rni, adolat va ma’naviy qadriyatlar kabi

abadiy savollarga javob izlashga undaydi. Bu esa talabalarga o'tgan tajribalarni zamonaviy muammolarga qo'llash imkonini beradi.

Inson falsafasi masalasi ushbu qo'llanmaning markaziy yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy dunyoda insonning o'z-o'zini anglashi, jamiyatdagi mas'uliyati va erkinlikka bo'lgan intilishi dolzarb muammolar sifatida qolmoqda. Ushbu qo'llanma talabalarga insonning jamiyatdagi o'rnini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish, erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni tushunishga yordam beradi. Bu bilimlar talabalarga nafaqat o'z shaxsiy pozitsiyalarini shakllantirishda, balki jamiyatdagi ijtimoiy adolat, tenglik va barqarorlik masalalariga yondashishda muhim yo'l-yo'riq bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etish masalasi qo'llanmaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonning zamonaviy rivojlanish yo'lida fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy barqarorlik va demokratik islohotlar muhim o'rin tutadi. Ushbu qo'llanma talabalarga O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini, yutuqlarini va istiqbollari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Bu jarayon nafaqat mahalliy, balki global kontekstda ham muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy dunyoda fuqarolik jamiyati tamoyillari demokratiya va inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq. Talabalar ushbu mavzu orqali o'z mamlakatlarining rivojlanish yo'lini tushunish va unda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik mezonlari zamonaviy jamiyatlarda muhim muammo sifatida qolmoqda. Ushbu qo'llanma talabalarga ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash omillari, shuningdek, beqarorlikka olib keluvchi sabablarni tahlil qilishga yordam beradi. Bu bilimlar talabalarga global va mahalliy miqyosda ijtimoiy muammolarni tushunish va ularni hal qilishda falsafiy yondashuvlardan foydalanish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu o'quv qo'llanma talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlaydi, balki ularni zamonaviy dunyoning murakkab muammolariga tayyorlaydi.

1-MAVZU. IJTIMOIIY FALSAFA FANINING OBYEKTI, PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

- 1. Ijtimoiy falsafa fanining obyekt va predmeti**
- 2. Ijtimoiy falsafa faning maqsad, vazifa va funksiyalari**
- 3. Ijtimoiy falsafa fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi**

***Tayanch tushunchalar:** Ijtimoiy falsafa, antropologiya, gnoseologiya, metodologiya, ontologiyasi, differensiya, aksiologik, jamiyat, antropologik, ijtimoiy adolat va tenglik, ijtimoiy ong va ideologiyalar.*

1. Ijtimoiy falsafa fanining obyekt va predmeti

Ijtimoiy falsafa falsafaning muhim sohasi sifatida jamiyatning tabiatini, tuzilishini, rivojlanish qonuniyatlarini va insonning undagi o'rnini o'rganadi. **Ijtimoiy falsafa fanining obyekt** jamiyat, ya'ni insonlarning birgalikdagi hayot faoliyati, ijtimoiy munosabatlar va ularning tuzilishi hisoblanadi. Jamiyat murakkab tizim sifatida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohalarni o'z ichiga oladi. Ushbu sohalarning har biri ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan o'rganiladi, chunki ular inson faoliyatining turli jabhalarini ifodalaydi.

Ijtimoiy falsafa kishilik jamiyatining mohiyati, kelib chiqishi, tarkibi, haqida bahs yuritadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat haqidagi eng umumiy bilimlar, tushunchalar majmui bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy rivojlanish yo'lida kelib chiqadigan muommolarni oqilona hal etish, jamiyat istiqbolini oldinda'n ko'rish imkonini beradi. Ijtimoiy falsafa fanining obyekt quyidagilardan iborat:

1. Jamiyat va uning tuzilishi: Jamiyatni tashkil qiluvchi turli ijtimoiy tizimlar (iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy). Jamiyatning tuzilmasidagi qatlamlar va ularning o'zaro aloqasi.

2. Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar: Inson faoliyatining jamiyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omil sifatidagi ahamiyati. Shaxs va ijtimoiy guruhlarining o'zaro munosabatlari.

3. Ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlari: Jamiyatdagi taraqqiyot jarayonlari va inqirozlarning sabab va oqibatlarini. Ijtimoiy o'zgarishlarning dialektikasi va ularning rivojlanish bosqichlari.

4. Ijtimoiy ong va qadriyatlar: Axloqiy, diniy, siyosiy, madaniy va boshqa ong shakllari. Ijtimoiy qadriyatlar va ularning jamiyat hayotidagi o'rni.

5. Global va mahalliy ijtimoiy muammolar: Zamonaviy davrda texnologik taraqqiyot, ekologik masalalar, tenglik va adolat kabi muammolar. Ijtimoiy-siyosiy global jarayonlarning mahalliy jamiyatlarga ta'siri.

Ijtimoiy falsafa ushbu obyektni o'rganishda quyidagi falsafiy usullardan foydalanadi:

Dialektik usul: Jamiyat va uning hodisalarini o'zaro aloqada, harakatda o'rganish.

Tarixiy usul: Jamiyatni tarixiy rivojlanish jarayonida tahlil qilish.

Sistemali yondashuv: Jamiyatni murakkab ijtimoiy tizim sifatida ko'rib chiqish¹.

Ijtimoiy falsafa obyekti haqida faylaf va olimlar haqida turli fikrlarni bildirib o'tgan xususan, Karl Marks(1818–1883) quyidagi fikrlarni aytib o'tgan. Marks ijtimoiy falsafaning obyekti sifatida iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning o'zgarishini ko'rib chiqadi. Uning fikricha, jamiyatning tuzilishi iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi, va bu munosabatlar sinfiy kurash orqali o'zgaradi. Marksning “Kapital” asarida kapitalizmni va uning ijtimoiy tasirini tahlil qilgan, bu tizimni sinfiy ajratilgan jamiyat sifatida ko'rgan. U jamiyatni o'zgartirish uchun mehnatkash sinfnining proletariyatining o'z kuchini anglashini va inqilob qilishini zarur deb hisoblaydi. Marksning ijtimoiy falsafasining asosiy obyekti – sinflar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, boylikni taqsimlash va kapitalist tizimning qiyinchiliklari².

Platon(Eramizdan avvalgi 427–347 yillar). Platonning ijtimoiy falsafasi “Davlat” asarida jamiyatni adolatli va tartibli tuzilma sifatida

¹ Nodir Kuziyev “Ijtimoiy falsafa” o'quv qo'llanmasi Buxora davlat universiteti 2023y 412 bet 12-15-betlar

² Karl Marks – "Kapital" 1- jildining 1- bobi

tasvirlaydi. U jamiyatni uchta qatlamga bo'lib, har bir qatlamning o'z vazifalarini bajarishini ta'kidlaydi:

Hukmdorlar(filosoflar): Yuksak donolik va bilimga ega bo'lib, jamiyatni boshqarishi kerak.

Harbiylar: Jamiyatning himoya qilish va tartibni saqlash funksiyasini bajaradilar.

Ishchilar: Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish.

Platon jamiyatning yuksak va adolatli tuzilishini yaratish uchun, har bir inson o'zining tabiiy qobiliyatlariga mos ravishda o'z vazifasini bajarishi kerakligini ta'kidlaydi. U ijtimoiy tartibni faqat barcha a'zolar o'zining tabiatiga mos ravishda harakat qilganda barqaror bo'lishini ko'radi³.

Aristotel(384–322 yillar). Aristotel ijtimoiy falsafaning asoslarini “Politika” asarida o'rganadi. U, Platon kabi, jamiyatni adolatli boshqarish masalasini ko'rib chiqadi, lekin Aristotel jamiyatni sinflar bo'yicha emas, balki “qonun asosida boshqarish” prinsipiga asoslaydi. U ijtimoiy adolatni “boshqaruv va fuqarolik jamiyati” o'rtasidagi munosabatlar orqali ko'radi. Aristotel jamiyatda erkinlik, tenglik va adolatga erishish uchun barcha fuqarolarning aqliy va axloqiy o'sishi zarurligini ta'kidlaydi⁴. Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarning hammasiga ham qo'shila olmaymiz chunki, Platonning fikriga ko'ra jamiyatni 3 qatlamga bo'la olmaymiz negaki, jamiyat o'rtasida ko'plab noroziliklar kelib chiqadi va hamma uchun umumiy qonun bo'lmaydi. Yuqori qatlam pastki qatlam ustidan hukmronlik qila boshlaydi. Aristotelning fikri qo'shila olamiz, qonunlar asosida boshqarish prinsipiga asoslanadi va jamiyatda bu prinsipga amal qilinadi.

Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida ijtimoiy hayot haqidagi fanning predmeti va vazifalari, ijtimoiy guruhlarining kelib chiqishi, tarkibi va turlari, shuningdek jamiyat shakllari, shahar-davlat, (Al-madina) davlat boshqaruvining xususiyatlari masalalari atroflicha tahlil etiladi. Bundan tashqari fozil shahar tushunchasi sotsial model sifatida boshqa bir qator

³ Platon “Davlat” asari 4- kitobi

⁴ Aristotel “Politika” asari 3- kitob

ijtimoiy-falsafiy tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: Donishmand boshqaruvchi, ezgulik, yaxshilikka yetaklovchi g'oya va boshqalar. Bular esa, Farobiy ta'limotiga ko'ra, jamiyatni yaxlitligini, uning barqaror ideal jamiyat tomon rivojlanishini ta'minlaydi. Farobiy bu ijtimoiy xolatni sog'lom kishining organizmiga qiyoslaydi. Farobiy ijtimoiy-falsafiy tushunchalar tizimini yaratdi. Mazkur tizimda umumiy farovonlik masalasi markaziy o'rindan birini egallaydi. Aql va yuksak axloqiy normalar farovon ijtimoiy hayotning ma'naviy madaniyat takomilining substansional asosi bo'lib xizmat qiladi⁵.

Ijtimoiy falsafaning predmeti – insonni bilishga qiziqish uyg'otadigan, bilimlar va tajribalar, muayyan e'tiqod, institutsiyaga asoslangan holda jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlarini, tuzilishi va ijtimoiy munosabatlarni ilmiy tahlil qilishdan iborat. Falsafaning predmeti, umuman, jamiyat hayotiga doir eng umumiy savollarga javob izlashdan iborat bo'lsa, ijtimoiy falsafa bu savollarni jamiyat kontekstida ko'rib chiqadi. Masalan, "Ijtimoiy falsafa qanday savollarni o'rganadi?", "Jamiyat nima va u qanday shakllangan?", "Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari qanday ishlaydi?", "Inson jamiyatni qanday o'zgartiradi yoki unga qanday moslashadi?", "Ijtimoiy muammolarni qanday hal qilish mumkin?"⁶.

Ijtimoiy falsafa — bu falsafaning jamiyat haqidagi umumiy bilimlarini tizimlashtiruvchi va ularning qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan yo'nalishidir. Ushbu fan inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, ijtimoiy hayotning mohiyatini, rivojlanish jarayonlarini va umumiy qonuniyatlarini tahlil qiladi.

Ijtimoiy falsafa fanining predmeti quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. *Jamiyatning tuzilishi va rivojlanishi.* Ijtimoiy falsafa jamiyatni o'rganishda uning tuzilishi va rivojlanish jarayonlarini markaziy masala sifatida tahlil qiladi. Bu yo'nalish insoniyot hayotining umumiy qonuniyatlarini, jamiyatning ichki tuzilishini va uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tushuntiradi. Ijtimoiy falsafa jamiyatni yaxlit tizim sifatida

⁵ Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. – T., «Sharq», 1999 yil

⁶ Habermas, J. (1987). *The Theory of Communicative Action*. Boston: Beacon

ko'rib chiqib, undagi asosiy tarkibiy qismlarni va ularning o'zaro aloqalarini tadqiq qiladi.

2. *Jamiyatning rivojlanish qonuniyatlari.* Ijtimoiy falsafa jamiyatni tushunish, uning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish va ijtimoiy jarayonlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi falsafaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu yo'nalish jamiyatdagi umumiy qonuniyatlar, ijtimoiy munosabatlar va taraqqiyotning dinamikasini aniqlashga qaratilgan.

3. *Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar.* Ijtimoiy falsafa inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi. Bu munosabatlar falsafiy jihatdan 2 asosiy yo'nalishda tahlil qilinadi: insonning jamiyatdagi o'рни va jamiyatning insonga ta'siri.

4. *Ijtimoiy ong va ideologiyalar.* Ijtimoiy falsafada ijtimoiy ong va ideologiyalar inson va jamiyatni tushunishning muhim tushunchalaridan hisoblanadi. Bu tushunchalar jamiyatdagi g'oyaviy jarayonlar, qadriyatlar, dunyoqarashlar va mafkuralarni tahlil qilishda markaziy o'rin tutadi. Ijtimoiy ong – jamiyatni tushunishga xizmat qiladigan bilim va tasavvurlar yig'indisi. Ideologiyalar jamiyatni boshqarish uchun ishlatiladigan g'oyalar tizimidir.

5. *Madaniyat va qadriyatlar tizimi.* Ijtimoiy falsafa jamiyatning ichki mohiyatini, uning rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilarkan, madaniyat va qadriyatlar tizimini asosiy tushunchalar sifatida o'rganadi. Bu tushunchalar jamiyatning ijtimoiy hayoti, shaxsning shakllanishi va taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlarini belgilashda markaziy o'rinni egallaydi.

6. *Ijtimoiy adolat va tenglik.* Ijtimoiy adolat va tenglik ijtimoiy falsafaning asosiy tushunchalari bo'lib, ular insonlar o'rtasidagi munosabatlar, jamiyat tuzilmasi va ijtimoiy institutlarning maqsadlariga nisbatan muhim falsafiy masalalarni ko'taradi. Ushbu tushunchalar jamiyatda erkinlik, huquq va imkoniyatlar muvozanatini ta'minlash masalasida markaziy o'rinni egallaydi. Ijtimoiy adolat – bu insonlar o'rtasida teng imkoniyatlar va resurslarning adolatli taqsimlanishini ta'minlashga qaratilgan prinsiplar majmuasi. Bu tushuncha ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi: iqtisod, siyosat, ta'lim, huquq va boshqalar.

7. *Global va mahalliy muammolar.* Ijtimoiy falsafa jamiyat hayotidagi muhim masalalarni tahlil qiladi, bu jarayonda global va mahalliy muammolarni chuqur tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammolar jamiyatning rivojlanish yo‘nalishlari, ijtimoiy barqarorlik va insoniyatning kelajagini shakllantirishda asosiy omillar hisoblanadi. Global muammolar – butun insoniyatga taalluqli bo‘lgan va uning barqaror hayoti, xavfsizligi hamda rivojlanishini tahdid ostiga qo‘yuvchi masalalardir. Bu muammolar faqat bir davlat yoki hudud doirasida emas, balki butun dunyo hamkorligini talab qiladi⁷.

2. Ijtimoiy falsafa faning maqsad, vazifa va funksiyalari

Ijtimoiy falsafa fanining asosiy maqsadi – jamiyatni chuqurroq anglash, uning tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish orqali adolatli, rivojlangan va barqaror jamiyat qurish yo‘llarini izlashdan iborat. Bu maqsad quyidagi jihatlar orqali amalga oshiriladi. Jamiyatning umumiy qonuniyatlarini tushuntirish – Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning asosiy sabablarini aniqlash va tushuntirish orqali jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglashga yordam beradi. Jamiyat taraqqiyotini yo‘naltirish – Bu fan jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy maqsad va yo‘nalishlarni aniqlashda yordam beradi, yangi g‘oyalarni ilgari surish orqali ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi. Ijtimoiy ongni shakllantirish – Ijtimoiy falsafa kishilar ongiga ijtimoiy g‘oyalarni, qadriyatlar va me‘yorlarni singdiradi, insonlarda tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash – Inson va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish va ularni mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikka erishishni maqsad qiladi. Adolat va tenglikni ta‘minlash – ijtimoiy falsafa adolatli jamiyat barpo etishga intilib, teng huquqlar, imkoniyatlar va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash yo‘llarini ko‘rsatadi. Global va mahalliy muammolarni hal qilishga ko‘maklashish – Ijtimoiy falsafa adolatli jamiyat barpo etishga intilib, teng huquqlar, imkoniyatlar va ijtimoiy tenglikni ta‘minlash yo‘llarini ko‘rsatadi. Global va mahalliy

⁷ "Falsafa asoslari" (O‘zbekiston Milliy universiteti nashri, T., 2020) darsligida "Ijtimoiy falsafa" bo‘limi 189-bet

muammolarni hal qilishga ko'maklashish – ijtimoiy falsafa zamonaviy dunyoda yuzaga kelayotgan ekologik, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy muammolarni hal etish uchun nazariy va falsafiy yechimlar taklif qiladi. Umuman olganda, ijtimoiy falsafani jamiyatni yaxshiroq tushunish, uning rivojlanishiga yordam berish va insonlar hayotini yanada yaxshilash uchun ilmiy asos yaratishni maqsad qilib qo'yadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat, inson, ulaming mohiyati, shakllanish va taraqqiyot omillari, jamiyatning tarkibi, unda kechadigan xilma-xil ijtimoiy jarayonlarni, insonning olamga munosabatini tahlil qiladi va shu asosda jamiyatda amal qiladigan qonunlarni ochib beradi⁸.

Ijtimoiy falsafa fanining vazifasi – jamiyatni, uning rivojlanish qonuniyatlarini va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali adolatli, barqaror va farovon jamiyat qurishga hissa qo'shishdan iborat. Bu vazifalar bir nechta muhim yo'nalishlarga bo'linadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat qanday shakllanadi, rivojlanadi va o'zgaradi, bu jarayonlarga qanday ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tahlil qiladi va jamiyatdagi o'zgarishlarning sabablarini tushuntirib beradi.

1. *Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish* – insonning jamiyatdagi o'rni va roli, uning huquq va majburiyatlari, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonlarini o'rganadi. Shaxsiy manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi munosabatlar muvozanatini saqlash, jamiyatda individ va jamiyatni uyg'unlashtirish yo'llarini ishlab chiqadi.

2. *Ijtimoiy ong va ideologik jarayonlarni shakllantirish* – ijtimoiy falsafa ijtimoiy ong, ideologiyalar, e'tiqodlar va qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda yuksak axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi.

3. *Adolat, tenglik va erkinlik masalalarini o'rganish* – ijtimoiy falsafa adolatli va teng jamiyat barpo etish yo'llarini o'rganadi, ijtimoiy tenglik va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan nazariy asoslarni

⁸ Karimov, S.Valieva, K.Tulenova. Ijtimoiy falsafa. Uslubiy qo'llanma. - T., 2005y, 6-bet

ishlab chiqadi. Shu bilan birga, jamiyatda adolat va tenglikni ta'minlash, barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish masalalarini tahlil qiladi.

4. *Tanqidiy va analitik fikrlashni rivojlantirish* – ijtimoiy falsafa shaxs va jamiyatning falsafiy dunyoqarashini shakllantirish orqali tanqidiy va analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shaxslarning jamiyatdagi hodisalar va jarayonlarga nisbatan mustaqil va ongli munosabat bildirishga yordam beradi.

5. *Jamiyat taraqqiyotini yoʻnaltirish va yangi gʻoyalarni ishlab chiqish* – ijtimoiy falsafa yangi ijtimoiy gʻoyalar va istiqbolli rivojlanish yoʻllarini ishlab chiqadi, turli ijtimoiy konsepsiyalar va falsafiy nazariyalarni yaratish orqali jamiyatni taraqqiyot sari yoʻnaltiradi. Innovatsion gʻoyalar va taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy siyosatlarni shakllantirish uchun nazariy asoslar yaratadi.

6. *Ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun yechimlar taklif qilish* – ijtimoiy muammolar, masalan, ishsizlik, qashshoqlik, ekologik muammolar, urush va tinchlik masalalarini tahlil qilish va ularga yechim topish yoʻllarini koʻrsatadi. Xalqaro muammolar, madaniy qarama-qarshiliklar, ijtimoiy konfliktlar va ularni hal qilishning ma'naviy-axloqiy asoslarini ishlab chiqadi.

7. *Global va mahalliy muammolarni hal qilishga koʻmaklashish* – ijtimoiy falsafa zamonaviy jamiyatda yuzaga keladigan ekologik, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy muammolarni hal qilish uchun nazariy va amaliy asoslar yaratadi. Global muammolarni tushuntirish, turli xalqlar va davlatlar oʻrtasidagi madaniy hamkorlik va hamjihatlikni rivojlantirishda ishtirok etadi⁹.

S.L.Frankning fikricha, ijtimoiy falsafaning vazifasi “jamiyat oʻzi bu nima, uning inson hayoti uchun qanday ahamiyati bor, uning borligi nimada va u bizdan nimani talab etadi” singari savollarga javob berishdir¹⁰.

⁹ Yoʻldoshev O., Gʻofurov I. "Ijtimoiy falsafa" (Oʻquv qoʻllanma). Toshkent, 2018, 19-21-bet

¹⁰ Барулин В. С. Социальная философия. Учебник для вузов. М., 1999, с-3

Ijtimoiy falsafaning funksiyalari — bu ijtimoiy hayotni, uning rivojlanishini, ijtimoiy institutlarni va insonlarning jamiyatdagi o‘rnini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladigan vazifalardir. Ijtimoiy falsafa jamiyatning chuqur qatlamlarini tahlil qilish va uning taraqqiyotiga hissa qo‘shish uchun bir qancha muhim funksiyalarni bajaradi.

1. *Ijtimoiy falsafaning dunyoqarash funksiyasi.* Dunyoqarash – insonni assimilyatsiya qilish va o‘zgartirishning boshlang‘ich nuqtasi va faol ma’naviy omilidir. Murakkab ma’naviy hodisa sifatida dunyoqarash e’tqodlar, ideallar, maqsadlar, xulq-atvor motivlari, qiziqishlar, qiymat yo‘nalishlar, bilish tamoyillari, axloqiy me’yorlar, estetik qarashlar va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Dunyoqarashning barcha elementlari nafaqat jismoniy shaxslarning, balki ijtimoiy guruhlar, sinflar, millatlar, umuman jamiyat ma’naviy ko‘rinishi va hayotiy pozitsiyasi ularning umumiyligini belgilaydi; ijtimoiy falsafa xuddi falsafa kabi insonning jamiyat haqidagi ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi. Albatta inson dunyoqarashini shakllantirishda barcha bilim sohalari qatnashadi. Lekin ijtimoiy falsafa yaxlit ta’limot sifatida insonda jamiyat, insonning jamiyatdagi o‘rni haqidagi bilimlarining shakllanishiga yordam beradi, unga jamiyatda ro‘y beradigan turli ijtimoiy jarayonlarga o‘z ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. *Ontologik funksiyasi.* Ontologik funksiya – falsafaning “mavjudlik”, “materiya”, “tizim”, “determinizm”, “rivojlanish”, “zaruriyat va tasodif”, “imkoniyat va voqelik” va boshqa kategoriyalari orqali dunyoni tasvirlash usulidir. Falsafa barcha fanlarning yutuqlaridan keng foydalanadi, dunyoni tasvirlash, umumlashtirishga intiladi. Ontologik funksiya, dunyoning ilmiy-falsafiy manzarasini yaratishda zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanadi va ularni umumlashtiradi.

3. *Gnoseologik funksiyasi.* Jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari va tendensiyalari, shuningdek yirik ijtimoiy guruhlar darajasidagi ijtimoiy jarayonlarni eng ko‘p tadqiq qilish va tushuntirishdan iborat.

4. *Ijtimoiy-madaniy funksiyasi.* Ijtimoiy falsafa, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, jamiyatni yaxlit organizm sifatida uning barcha tarkibiy qismlarining aloqasi va roli (iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy tuzilish,

madaniyat va boshqalar)ni, jamiyatni o'zgarishi va rivojlanishidagi obyektiv va subyektiv omillarning o'rnini, jamiyat rivojlanishining tarixiy bosqichlarini, insoniyat sivilizatsiyasi, madaniyatning ko'p qirrali munosabatlari va insonning jamiyatdagi o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini anglash, zamonaviy 17 voqealar rivoji hamda global paydo bo'lishi muammolari va istiqbollari o'rganadi.

5. *Metodologik funksiyasi.* Ijtimoiy falsafa jamiyat tizimi va rivojlanishidagi umumiylik va ayrimlik o'rtasidagi yechimni topish, ijtimoiy hayot sohalarining o'rnini ko'rsatib berish, inson borligi va mohiyatini yoritishda, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berish bilan boshqa ijtimoiy fanlar uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi deganda, ijtimoiy falsafaning jamiyatni ilmiy anglash metodlar haqidagi fan ekanligi nazarda tutiladi. Falsafa tarixida olamni, shu jumladan jamiyat va insonni bilishning ikkita asosiy metodi: dialektika va metafizika shakllangan. Ijtimoiy hayotni o'rganishda dialektika va metafizikaning o'ziga xos o'rnini bor:

- agar dialektika ijtimoiy hayot hodisalarini organishda, ular orasidagi eng umumiy universal aloqadorliklarga e'tibor berishni taqozo etsa, metafizika jamiyatning har bir tarkibiy qismini alohida holatda olib o'rganadi;

- agar dialektika ijtimoiy hayot va insonni pastdan yuqoriga, soddadan murakkabga qarab borayotgan jarayon sifatida o'rganishda taraqqiyot tamoyilidan kelib chiqsa, metafizika esa taraqqiyotni faqat miqdoriy o'zgarishlar sifatida talqin etadi;

- agar dialektika olamning barcha ko'rinishlari kabi jamiyat va inson olamining mohiyatida ham ziddiyatlar amal qilsa, ziddiyatlarning birligi va mutanosibligi jamiyat va inson mavjudligida namoyon bo'ladi, ayni vaqtda ziddiyatlar orasidagi munosabat taraqqiyotga olib boradi, deb bilsa, metafizika jamiyatdagi ziddiyatlar, ularning o'zining qarama-qarshi tomoniga og'ib ketishini e'tibordan soqit qiladi. Ijtimoiy hayotga ilmiy munosabatlarni qaror toptirishda sinergetika metodining ham o'ziga xos o'rnini bor. Bu metod yoqlikdan qanday qilib odam paydo bo'lgani va jamiyat o'zidan-o'zi shakllanganini anglab olishga aniqlik kiritadi. Bunda

tabiat va jamiyatda bifurkatsiya hodisasi borligi nazarda tutiladi. Unga ko'ra, tasodiflar o'zidan-o'zi yig'ilib, muayyan miqdoriy parametrlar chegarasida qonuniy aloqadorliklarning shakllanishiga sabab bo'ladi. Jamiyat rivoji va tanazzulida inson omili muhim rol o'ynashini nazarga olsak, sinergetika metodi tamoyillariga tegishli "amal qilish, bifurkatsiya" hodisasini nazarda tutish muhimdir.

6. *Bashorat funksiyasi.* Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lda ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasi (mayli) va istiqbolini, kelajakni anglash, ilmiy bashorat qilish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy falsafaning bashorat qiluvchi funksiyasi ijtimoiy hayot va inson rivojlanishining umumiy tendensiyalari to'g'risidagi farazlarni yaratishdan iborat.

7. *Aksiologik yoki qadrlash funksiyasi.* Har qanday ijtimoiy-falsafiy konsepsiya o'rganilayotgan obyektни baholashni o'z ichiga oladi. Aksiologik funksiya bu inson hamma narsaning o'lchovi degan yondoshuvga asoslanib, uning barcha harakatlari, ishlari, kashfiyotlar, ixtirolar, obyektiv dunyoni yaratishi va boshqa natijalarini "yaxshilik" va "yomonlik" axloqiy kategoriyalari nuqtai nazaridan qadrlashda namoyon bo'ladi.

8. *Pedagogik-didaktik funksiyasi.* Ushbu funksiya insonni tarbiyalashda, yuksak insoniy, axloqiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirishni ham nazarda tutadi¹¹.

9. *Insonparvarlik funksiyasi.* U komil va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson, uning mohiyati, qadr-qimmatı masalalari qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining ma'nosini o'ylashdan boshlangan. Ijtimoiy falsafa "Odam va olam" muammosini hal qilishga yordam beradi. I.Kant o'zini "Sof aql tanqidi" asarida falsafiy bilimlarning mohiyati 3 savolda ifoda topgan, deb hisoblaydi. Bular: "Men nimani bila olaman?", "Men nima

¹¹ U. Yazdonov. Ijtimoiy falsafa. O'quv –uslubiy qo'llanma. SamDU. 2018.316-bet,21-22-bet

qilishim kerak?”, “Nimaga umid qilishim, ishonishim kerak?” Insoniyat barcha davrlarda ularga javob topishga intilgan.

Bu funksiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ular yaxlit holda ijtimoiy falsafiy bilimlarning o‘ziga xosligi va mohiyatini belgilaydi. Ijtimoiy falsafa o‘z mohiyati bilan jamiyat istiqbolini ilmiy asosda ko‘ra oladigan fandır. Uning asosiy vazifasi tarixiy voqyealarni va ijtimoiy sistemaning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlari (tendensiyalari)ning hal qiluvchi omillarini aniqlashdir. Ijtimoiy falsafa bilishning turli-tuman nazariy modellaridan foydalanadi. Bilish ob'ektiga har tomonlama yondashadi. Tarixiy jarayonga jahon tarixi nuqtai nazaridan yondashadi. Unda formatsiyali, sivilizatsiyali, ko‘p variantli shakllar mavjud. Shuningdek, siklli rivojlanish jamiyatning rivojlanishida tarixiy bosqich va xakozolar o‘z ifodasini topadi. Turli-tuman yondashuv jamiyat xaqida to‘liq tasavvur beradi. Ijtimoiy falsafa insonga tarixning subyeksi va obyeksi sifatida qaraydi. Insoniyat tarixi turli-tumanlikdan iboratdir¹².

3. Ijtimoiy falsafa fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Ijtimoiy falsafa fani bir qancha fanlar bilan aloqadordir xususan, falsafa, siyosatshunoslik, ijtimoiy fanlar, psixologiya, tarix, iqtisodiyot, huquqshunoslik, ekologiya va atrof-muhitshunoslik kabi fanlar shular jumlasidandir.

Falsafa bilan aloqadorlik. Ijtimoiy falsafa va umumiy falsafa o‘rtasidagi aloqalar juda muhim va chuqur. Ijtimoiy falsafa, asosan, jamiyat va uning tuzilishini, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni, adolat, tenglik, erkinlik va mas’uliyat kabi tushunchalarni o‘rganadi. Umumiy falsafa esa kengroq ma’noda, dunyoqarash, mavjudlik, bilish, axloq, estetik va boshqa asosiy falsafiy sohalarni o‘rganadi. Ijtimoiy falsafa umumiy falsafaning bir bo‘lagi sifatida, uning etik va siyosiy tarmoqlarida izlanishlar olib boradi.

Siyosatshunoslik bilan aloqadorlik. Ijtimoiy falsafa va siyosatshunoslik o‘rtasidagi aloqalar juda kuchli. Siyosatshunoslik jamiyatning siyosiy tizimlarini, qonunlarni va hokimiyatni o‘rganadi,

¹² Karimov, S.Valieva, K.Tulenova. Ijtimoiy falsafa. Uslubiy qo‘llanma. - T., 2005y, 120-bet, 7-8 bet.

ijtimoiy falsafa esa bu tizimlarning etik va gumanitar jihatlarini, odamlar o'rtasidagi adolat va tenglikni tahlil qiladi. Ijtimoiy falsafa, masalan, huquq va erkinliklar, hukumatning roli, siyosiy partiyalar va ijtimoiy tenglikni muhokama qilishi mumkin. Siyosatshunoslik davlat, hokimiyat va siyosiy institutlarni o'rganadi. Ijtimoiy falsafa esa siyosiy tuzumlarning falsafiy asoslarini, masalan, adolat, erkinlik va tenglik kabi tushunchalarni tahlil qiladi. Jon Roulzning "Adolat nazariyasi" asari bu sohada muhim hissa qo'shgan¹³.

Ijtimoiy fanlar bilan aloqadorlik. Ijtimoiy falsafa va ijtimoiy fanlar, masalan, sotsiologiya va antropologiya bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy fanlar odamlar va jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishi, qadriyatlari, urf-odatlar va tarixini o'rganadi, ijtimoiy falsafa esa ushbu tuzilmalarning etik va gumanitar jihatlarini baholaydi. Ijtimoiy falsafa sotsiologiya va antropologiyani o'rganish ob'ektlariga nazariy yondashuvni taqdim etadi.

Sotsiologiya bilan aloqadorlik. Sotsiologiya ijtimoiy tuzilmalar, institutlar va jarayonlarni empirik o'rganadi, ijtimoiy falsafa esa bu jarayonlarni umumiy falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Masalan, sotsiologiya jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishni statistik ma'lumotlar asosida o'rgansa, ijtimoiy falsafa bu tabaqalanishning falsafiy mohiyatini va uning jamiyat rivojlanishidagi o'rnini tahlil qiladi¹⁴.

Psixologiya bilan aloqadorlik. Psixologiya va ijtimoiy falsafa o'rtasidagi aloqalar ham muhimdir. Psixologiya insonlarning ongini, emotsiyalarini, xulq-atvorini o'rganadi, ijtimoiy falsafa esa bu xulq-atvorlarni jamiyatdagi umumiy qadriyatlar, adolat, tenglik va erkinlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Masalan, insonning ijtimoiy adolatga bo'lgan munosabati yoki guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar ijtimoiy falsafaning muhim mavzularidan biridir.

Tarix bilan aloqadorlik. Ijtimoiy falsafa tarix bilan ham aloqadordir, chunki u jamiyatlarning rivojlanishini, tarixiy jarayonlarni va insoniyatning ijtimoiy tizimlaridagi o'zgarishlarni tahlil qiladi. Ijtimoiy

¹³ Rawls, J. (1971). *A Theory of Justice*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

¹⁴ Durkheim, E. (1893). *The Division of Labor in Society*. New York: Free

falsafa, tarixiy yondashuvlarni va yirik tarixiy voqealarni jamiyatlarning ahloki va siyosiy qadriyatlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi.

Iqtisodiyot bilan aloqadorlik. Ijtimoiy falsafa va iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘lanish iqtisodiy tizimlar, boylik taqsimoti va adolat masalalariga bog‘liq. Ijtimoiy falsafa, iqtisodiy tizimlarning ijtimoiy adolatga qanday ta'sir ko‘rsatishini, boylikning adolatli taqsimlanishini yoki kapitalizm va sotsializm kabi tizimlarning ahloki tomonlarini muhokama qiladi.

Huquqshunoslik bilan aloqadorlik. Ijtimoiy falsafa va huquqshunoslik orasidagi aloqalar bevosita jamiyatdagi qonunlar, erkinliklar va huquqlar bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy falsafa huquqning etik va gumanitar asoslarini o‘rganadi, masalan, adolatli jamiyatda huquqlar qanday ta'minlanishi kerakligini, hukumat va fuqaroning o‘zaro munosabatlarini muhokama qiladi.

Ekologiya bilan aloqadorlik. Ekologiya va ijtimoiy falsafa o‘rtasidagi aloqalar atrof-muhit va tabiat resurslarining boshqarilishi, ekologik adolat va kelajak avlodlarga qarshi mas'uliyat masalalariga tegishli. Ijtimoiy falsafa ekologik muammolarni jamiyatdagi ijtimoiy tuzilmalar, adolat va barqarorlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi¹⁵.

Ijtimoiy falsafa ushbu fanlarning har biri bilan o‘zaro hamkorlikda ishlaydi va ularga umumiy metodologik asos beradi. Shu bilan birga, u o‘ziga xos falsafiy yondashuvi orqali jamiyatning murakkab tuzilishini tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rawls, J. (1971). *A Theory of Justice*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
2. Durkheim, E. (1893). *The Division of Labor in Society*. New York: Free
3. Nodir Kuziyev “Ijtimoiy falsafa” o‘quv qo‘llanmasi Buxora davlat universiteti 2023y 412 bet 12-15-betlar
4. Karl Marks – "Kapital" 1- jildining 1- bobi
5. Platon “Davlat” asari 4- kitobi

¹⁵ "Introduction to Social Philosophy" (Ijtimoiy Falsafaga Kirish)

6. Aristotel "Politika" asari 3- kitob
7. Falsafa. O'quv qo'llanma. E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. – T., «Sharq», 1999 yil
8. Karimov, S.Valieva, K.Tulenova. Ijtimoiy falsafa. Uslubiy qo'llanma. - T., 200Sy, 6-bet
9. Yo'ldoshev O., G'ofurov I. "Ijtimoiy falsafa" (O'quv qo'llanma). Toshkent, 2018, 19-21-bet
10. Барулин В. С. Социальная философия. Учебник для вузов. М., 1999, с-3
11. U. Yazdonov. Ijtimoiy falsafa. O'quv –uslubiy qo'llanma. SamDU. 2018.316-bet, 21-22-bet
12. Karimov, S.Valieva, K.Tulenova. Ijtimoiy falsafa. Uslubiy qo'llanma. - T., 200Sy, 120-bet, 7-8 bet.

MAVZU BO'YICHA GLOSSARIYLAR

Antropologiya – insonni va insoniyatni o'rganadigan fan. Bu fan insonning kelib chiqishi, rivojlanishi, biologik va madaniy xilma-xilligi, ijtimoiy munosabatlari, urf-odatlar va qadriyatlarini keng ko'lamda o'rganadi. Antropologiya so'zining ildizi yunoncha anthropos (inson) va logos (ta'limot) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "inson haqidagi ta'limot" degan ma'noni anglatadi. Antropologiya kelib chiqishi va rivojlanishi. Tarixiy kelib chiqishi: Antropologiya o'zining ilmiy asoslarini 18–19-asrlarda olgan. Dastlab antropologiya ko'proq odamlarning biologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik madaniy va ijtimoiy jihatlar ham muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Klassik asarlar: Dastlabki tadqiqotlar qadimiy qabilalar va xalqlarning hayot tarzini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, Bronislav Malinovskiy, E. B. Teylor, Margaret Mid kabi olimlarning ishlari antropologiya rivojlanishiga katta hissa qo'shgan. Antropologiya asosiy yo'nalishlari: 1. Fizik antropologiya - insonning biologik evolyutsiyasi va genetik xilma-xilligini o'rganadi. Qadimgi odamlardan tortib, zamonaviy insonning biologik va jismoniy xususiyatlarini tadqiq qiladi. Paleontologiya (qadimgi odam qoldiqlarini o'rganish) va osteologiya (suyak tuzilishini o'rganish) bilan chambarchas bog'liq. 2. Madaniy antropologiya (yoki ijtimoiy

antropologiya), insoniyatning madaniyatini va ijtimoiy tizimlarini o'rganadi. Turli xalqlarning urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, iqtisodiy tizimlari va ijtimoiy tashkilotlarini tadqiq qiladi. 3. Lingvistik antropologiya - inson tili va uning madaniyat bilan aloqasini o'rganadi. Tillarni rivojlanishi, tuzilishi va kommunikatsiyada tutgan o'rni haqida ma'lumot beradi. 4. Arxeologik antropologiya - qadimgi odamlar madaniyatini moddiy qoldiqlar orqali o'rganadi. Turg'un joylashuvlar, qurollar, sopol buyumlar va boshqa moddiy obidalaridan foydalanib, insoniyat tarixini o'rganadi. Antropologiya maqsadi va vazifalari: Insonning biologik va madaniy rivojlanishini tushunish, turli madaniyatlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni o'rganish, ijtimoiy muammolarni antropologik yondashuv orqali hal qilish, insonning kelajagini ilmiy asosda bashorat qilish.

Gnesologiya – bilish nazariyasini o'rganuvchi falsafiy fan sohasi. Bu soha bilishning mohiyati, kelib chiqishi, chegaralari, usullari va ishonchliligi bilan shug'ullanadi. Yunoncha gnosis ("bilim") va logos ("ta'limot") so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, "bilim haqidagi ta'limot" ma'nosini anglatadi. Gnesologiya maqsadi va vazifalari: 1. Bilimning mohiyati: Bilim deganda nimani tushunamiz? Bilimning haqiqatdan farqi nima? 2. Bilimning kelib chiqishi: Inson bilimni qanday hosil qiladi? Bilimning manbai aqlmi yoki tajriba? 3. Bilishning chegaralari: Inson o'zi o'rganayotgan narsani to'liq anglay oladimi? Haqiqatga to'liq erishish mumkinmi? 4. Bilishning usullari: Bilish jarayonida qanday usullar qo'llaniladi (mantiqiy tafakkur, tajriba, intuisiya va boshqalar)? Empirizm va ratsionalizmning o'zaro munosabati qanday? 5. Bilimning ishonchliligi: Olingan bilim haqiqat yoki noto'g'ri ekanligini qanday bilamiz? Skeptitsizm (bilimning ishonchliligiga shubha) qanchalik asosli? Gnesologiya tarixiy rivojlanishi: 1. Qadimgi davr: Yunon faylasuflari (Sokrat, Platon, Aristotel) bilishning mohiyatini va haqiqatga erishish yo'llarini muhokama qilganlar. Platon bilishning yuqori darajasini "ideyalar olami" bilan bog'lagan, Aristotel esa bilimni tajriba orqali olishni ta'kidlagan. 2. O'rta asrlar: Bilimning diniy asoslari rivojlantirildi. Tomas Akvinskiy bilimning manbai sifatida ilohiy vahiyni va aqlni birlashtirishga harakat qildi. 3. Yangi davr: Empirizm va ratsionalizmning qarama-

qarshiligi. Empirizm (Jon Lokk, Devid Yum): Bilim faqat tajriba orqali olinadi.

Ratsionalizm (René Dekart, Barux Spinoza): Aql va mantiq bilimning asosiy manbaidir. Immanuil Kant: Bilishning sintez nazariyasini ilgari surib, tajriba va aql bir-birini to'ldirishi kerakligini ta'kidlaydi. 4. Zamonaviy gneseologiya: Postmodernizm: Bilimning universal haqiqatlari yo'qligi va har bir inson o'z haqiqatini shakllantirishi mumkinligini ilgari suradi. Analitik falsafa: Bilishning tili va mantiqiy tahlilini o'rganadi. Gneseologiya asosiy yo'nalishlari 1. Empirizm: Bilimning manbai sezgi va tajribadir. Bilish jarayonida tajriba ustuvor o'rinni egallaydi. 2. Ratsionalizm: Bilimning asosiy manbai aql va tafakkurdir. Haqiqatga faqat mantiqiy fikrlash orqali erishish mumkin. 3. Skeptitsizm: Haqiqiy bilim olish mumkinligiga shubha bilan qaraydi. Har qanday bilim subyektiv yoki nisbiy bo'lishi mumkin deb hisoblaydi. 4. Konstruktivizm: Bilim inson ongida quriladi va obyektiv haqiqatga to'liq mos tushmaydi.

Ijtimoiy bashorat – atamasi ikki so'zdan iborat bo'lib, uning tarkibi quyidagicha:

1. "Ijtimoiy" – arabcha "ijtimo" (جمع) so'zidan olingan bo'lib, "jamiyat", "yig'ilish" yoki "birlik" ma'nosini anglatadi. Bu atama jamiyat bilan bog'liq bo'lgan hodisalar va jarayonlarni ifodalaydi. 2. "Bashorat" – arabcha "bashara" (بشارة) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "oldindan aytish", "kelajakni taxmin qilish" ma'nosini anglatadi. Bu so'z ko'proq diniy va ilohiy ma'noda ishlatilgan, lekin zamonaviy kontekstda ilmiy va nazariy tadqiqotlar doirasida ham qo'llanadi. Ijtimoiy bashorat – bu jamiyatdagi turli jarayonlarning rivojlanishini oldindan taxmin qilish va ularni aniqlash bilan shug'ullanuvchi ilmiy faoliyat turi. Bu usul kelajakda jamiyatda yuz berishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan o'rganish, ular bilan bog'liq muammolarni hal qilish, imkoniyatlarni aniqlash va muqobil rivojlanish yo'llarini ko'rsatishga qaratiladi. Ijtimoiy bashorat jamiyatda mavjud bo'lgan tendensiyalarni tahlil qilish orqali kelajakdagi ijtimoiy hodisalarni oldindan bilishga qaratilgan faoliyatdir. Bashorat ijtimoiy hayotning quyidagi jabhalarida qo'llaniladi: Siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, texnologiya, ta'lim va fan. Bashoratning asosiy maqsadi kelajakdagi ehtimoliy o'zgarishlarni aniqlash va ularga tayyorgarlik ko'rishdir.

Ijtimoiy bashoratning asosiy vazifalari: 1. Kelajakni taxmin qilish: Jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarni oldindan aytish. 2. Muammolarni aniqlash: Kelajakdagi ehtimoliy muammolarni oldindan ko'rib chiqish va ularga yechim topish. 3. Strategik rejalashtirish: Bashorat asosida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish. 4. Inqirozlarni oldini olish: Bashorat orqali ijtimoiy inqirozlarni aniqlash va ulardan qochish imkoniyatlarini yaratish. Ijtimoiy bashoratning rivojlanish tarixi. Qadimgi davr va o'rta asrlar. Qadimgi jamiyatlarda bashoratlar ko'proq diniy va mistik xarakterga ega edi. Kelajakdagi hodisalar ilohiy ilhom orqali aytilgan. Masalan, qadimgi Misr, Mesopotamiya va Yunoniston madaniyatlarida bashorat qilish bilan shug'ullanuvchi shaxslar – ruhoniylar va faylasuflar bo'lgan. Yangi davr. Bashorat ilmiy asosga ega bo'la boshladi. XVII-XVIII asrlarda ijtimoiy jarayonlarni ilmiy kuzatish va statistik tahlil usullarining paydo bo'lishi bilan ijtimoiy bashorat ilmiy shaklga ega bo'ldi. XX asr va zamonaviy davr. XX asrda ijtimoiy bashorat alohida ilmiy yo'nalishga aylandi. Texnologiyalar va kompyuter modellashtirish rivoji bashoratlar aniqligini oshirdi.

Fandagi differensiya – bu tushuncha fanning rivojlanish jarayonida ilm-fan, bilim yoki faoliyatning alohida yo'nalishlarga ajralishini anglatadi. Differensiya jarayoni fan va bilimlarning umumiy tizimidan yangi mustaqil sohalar yoki yo'nalishlar ajralib chiqishi natijasida yuzaga keladi. Differensiya, asosan, ilmiy bilimlarning ko'payishi, yangi tadqiqot usullari va texnologiyalarning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon quyidagicha xarakterlanadi: Biror fanning ichida tadqiqot obyektlarining ko'pligi sababli yangi, tor ixtisoslashgan yo'nalishlar ajralib chiqadi. Ilmiy-texnik taraqqiyot va murakkab muammolarni hal qilish ehtiyoji tufayli yangi fanlar shakllanadi. Differensiyaning ilmiy ahamiyati 1. Fanlarning ixtisoslashuvi: Differensiya jarayonida umumiy ilmiy bilimlar tor doiradagi ixtisoslashgan bilimlarga ajraladi. Bu yondashuv ilmiy natijalarning chuqurligini va aniqligini oshirishga xizmat qiladi. 2. Yangi fanlar va yo'nalishlar paydo bo'lishi: Masalan, biologiya fani ichidan genetika, ekologiya, bioinformatika kabi mustaqil fanlar ajralib chiqdi. 3. Ilmiy tadqiqotlarni samaradorligini oshirish: Tor ixtisoslashuv murakkab muammolarni hal qilishni osonlashtiradi va ilm-

fanning samaradorligini oshiradi. Differensiyaning asosiy omillari. 1. Ilmiy bilimlarning ko'payishi - yangi ma'lumotlar va kashfiyotlar ilmiy yo'nalishlarning bo'linishiga sabab bo'ladi. 2. Texnologik rivojlanish - yangi uskunalar va texnologiyalar yangi yo'nalishlarni shakllantiradi. 3. Ijtimoiy ehtiyojlar - jamiyatning yangi muammolari va talablariga mos keluvchi fanlar shakllanadi. 4. Ko'p fanlilik va integratsiya - ilm-fan differensiya jarayonida bo'linish bilan birga o'zaro bog'liq sohalarni ham shakllantiradi (masalan, biofizika, texnologik kimyo).

Fandagi integratsiya – bu fanlarning turli sohalari o'rtasida hamkorlik va o'zaro bog'lanishni ta'minlovchi jarayondir. Ilmiy integratsiya fanlararo chegaralarni yengib, ko'p fanlarning bilim va metodlarini birlashtirib, yangi va yanada murakkab sohalarni yaratishga imkon beradi. Integratsiya ilm-fanda turli yo'nalishlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, bilimlarning bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro yordamni ta'minlaydi. Bu jarayon ilmiy kashfiyotlarni yanada samarali qilishga xizmat qiladi, yangi muammolarni hal qilishda yanada kompleks yondashuvlarni talab etadi. Fandagi integratsiyaning ahamiyati. 1 Murakkab muammolarni hal qilish - integratsiya ilmiy yutuqlarga erishishda har bir sohaning kuchli tomonlarini birlashtiradi, shu bilan kompleks masalalarni hal qilish imkoniyatini yaratadi. 2. Yangi yo'nalishlar va fanlar paydo bo'lishi - turli fanlarning birlashuvi natijasida yangi, interdisipliner yo'nalishlar, masalan, bioinformatika, kiberfizika va ekologiya paydo bo'ladi. 3 Fanlararo bilim almashinuvi - fanlar bir-biriga ta'sir ko'rsatadi va bir ilmiy soha boshqa sohaning metodologiyalaridan foydalanib o'z bilimlarini kengaytiradi. Bu esa yangi bilimlar va kashfiyotlarga olib keladi. 4 Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar - integratsiya natijasida yangi texnologiyalar va innovatsiyalar yaratiladi, masalan, nanoteknologiyalar, sun'iy intellekt, genetik muhandislik kabi sohalarda.

Ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong – bu fanlarning turli sohalari o'rtasida hamkorlik va o'zaro bog'lanishni ta'minlovchi jarayondir.. Ijtimoiy borliq jamiyatdagi barcha mavjud resurslar, inshootlar, qonunlar, insonlar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy tizimlarning hammasini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy borliqqa kiruvchi elementlar: 1. Ijtimoiy tuzilma -

ijtimoiy tuzilma jamiyatdagi guruhlar, sinflar, tabaqalar, oila, davlat va boshqa ijtimoiy institutlarning mavjudligini anglatadi. Jamiyatdagi ijtimoiy tabakalar, sinflar, kasb va mutaxassisliklar — bularning barchasi ijtimoiy borliqqa kiradi. 2. Ijtimoiy munosabatlar - bu odamlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi, masalan, mehnat munosabatlari, o'qituvchi-o'quvchi, ishchi kabi munosabatlar. 3. Insonlarning iqtisodiy faoliyati - ijtimoiy borliqning bir qismi iqtisodiy tizimdir. Ishlab chiqarish jarayonlari, iqtisodiy tuzilmalar, boylik va resurslarning taqsimoti ijtimoiy borliqni tashkil etadi. 4. Siyosiy tizim - davlat tuzilmalari, hukumatlar, siyosiy partiyalar va ularning o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy borliqning muhim qismlarini tashkil etadi. 5. Madaniyat va axloq - madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, din, san'at kabi ijtimoiy borliqning madaniy jihatlari ham mavjud.

Ijtimoiy ong – bu insonlarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni, hodisalarni va tizimlarni qanday anglashlari, tushunishlari va ularga qanday qarashlarini ifodalaydi. Ijtimoiy ong odamlarning o'zlariga, atrofdagilarga va jamiyatga nisbatan fikr va qarashlarining umumiy jamlanmasidir. Ijtimoiy ongning elementi - ijtimoiy tafakkur bo'lib, ijtimoiy ongning bir turi bo'lib, odamlarning jamiyatdagi ijtimoiy tizimlarni qanday anglashini va ularga qanday qarashlarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiylashuv – inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishi jarayoni. Ijtimoiylashuv jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tarix va etnografiya tomonidan o'rganiladi. Ijtimoiylashuvning falsafiy talqiniga ijtimoiy psixologiya asoschisi G.Tard poydevor yaratgan. Shuningdek, ijtimoiylashuv muammolari Z.Freydning klassik psixoanalizida, interaksionizm, T.Parsonsning tarkibiy-funksional tahlilida tadqiq etilgan. Hozirgi kunda ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari Chikago va Ayovadagi simvolik interaksionizm maktablari va "psixodrama yo'nalishi namoyondalari tomonidan o'rganilmoqda. Ijtimoiylashuv - inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan milliy madaniyat an'analarining o'zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin

etilishi mumkin. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo‘yi davom etadi, biroq bu jarayon bolaning ikki yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan davrida boshlanadi. Mazkur davrda bola madaniy qadriyatlarni o‘rganish jarayonidan uzib qo‘yilsa, ijtimoiylashuv jarayoni to‘xtab qoladi. Insonning madaniy an‘analarni o‘zlashtirishi jarayoni uning individualligining shakllanishi bilan hamohangdir. Shu bois, ijtimoiylashuv jarayonining intihosida shaxs tarixiy tipining individual variantlari yuzaga keladi. Ushbu jarayon davomida shaxs tomonidan ijtimoiy rollarning o‘zlashtirilishi 305 “lazzatlanish – azoblanish” (Freyd) tamoyili yordamida muvofiqlashtirib boriladi. Ijtimoiylashuv jarayoni murakkab mexanizmga ega. Ushbu mexanizmning ruhiy va ijtimoiy-madaniy jihatlari mavjud. Ijtimoiylashuv mexanizmining ruhiy jihati individ tomonidan ma‘lum ijtimoiy rollarning qabul qilinishi (yoki qabul qilinmasligi)da namoyon bo‘ladi. Uning ijtimoiy-madaniy jihati esa insonning til, san‘at, din, va sh.k. orqali madaniy qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayonini qamrab oladi. Ijtimoiylashuv jarayoni o‘z bosqichlariga ega. Biroq, bu bosqichlarni aniqlashda turli yondashuvlar asos qilib olinadi. Masalan, J.Midning ontogenetik yondashuvi individual ijtimoiylashuv bosqichlarini belgilab beradi. Uning fikriga ko‘ra, bu bosqichlar quyidagilardan iborat: 1) psixogenetik bosqichda individ o‘z ehtiyojlarini qondirish yo‘llarini o‘rganadi; 2) simvolik bosqichda individning simvollar (obrazlar, ideallar va sh.k.) shakllanadi; 3) aqliy-konseptual bosqichda individ simvollar sistemasi uning faoliyatini boshqaruvchi mexanizmga aylanadi. Ontogenetik yonsashuvdan farqli o‘laroq, filogenetik yondashuvda (M.Petrov) ijtimoiylashuvning tarixiy evolyusiyasiga e‘tibor qaratiladi va quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: 1) nominatsiya bosqichida ismlarning ahamiyati katga bo‘lgan; har bir ism o‘z mazmuniga ega edi va ma‘lum faoliyat turi bilan bog‘lanardi (masalan, hindularda “Keksa Quyosh” ismi burgutlar tutib, qabila boshlig‘iga, bosh kiyimlari yasovchi kishiga bergan); 2) kasbiy-qabilaviy bosqichda ma‘lum mazmunga ega nomlar alohida individlarga emas, balki biror faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lgan oila, urug‘, qabilalarga berila boshlangan (masalan, qadimgi Yunonistonda tabiblik qiluvchilar o‘zlarini asklepidlar, temirchilik qiluvchilar o‘zlarini

gefestidlar deb atardilar); 3) universal-mantiqiy bosqichda ijtimoiy faoliyatning turlari shakllana va o'zlashtirila boshlandi, maxsus ta'lim institutlari vujudga keldi. Ijtimoiylashuv jarayonini tadqiq etayotganda ham ontogenetik, ham filogenetik yondashuvlarni inobatga olish zarur. Ijtimoiylashuvning ijtimoiy funksiyalari quyidagilardan iborat: 1) ijtimoiy-tarixiy jarayon sub'ektini shakllantiradi; 2) madaniyat va silvizatsiya taraqqiyotida vorisiylikni ta'minlaydi; 3) individni ijtimoiy muhitga moslashtirish orqali jamiyatning to'qnashuvlarsiz taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda ijtimoiylashuv muammolarini o'rganishda falsafiy, sotsiologik, ijtimoiy-psixologik va tarixiy-etnografik tahlil natijasida yaratilgan uslublar va yondashuvlar kompleksidan foydalanish tendensiyasi yuzaga kelmoqda.

MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Ijtimoiy falsafa fanining insonparvarlik funksiyasi ?

A. Ushbu funksiya insonni tarbiyalashda, yuksak insoniy, axloqiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirishni ham nazarda tutadi

B. Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'lda ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasi (mayli) va istiqbolini, kelajakni anglash, ilmiy bashorat qilish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy falsafaning bashorat qiluvchi funksiyasi ijtimoiy hayot va inson rivojlanishining umumiy tendensiyalari to'g'risidagi farazlarni yaratishdan iborat.

C. Har qanday ijtimoiy-falsafiy konsepsiya o'rganilayotgan obyektning baholashni o'z ichiga oladi. Bu inson hamma narsaning o'lchovi degan yondoshuvga asoslanib, uning barcha harakatlari, ishlari, kashfiyotlar, ixtirolar, obyektiv dunyoni yaratishi va boshqa natijalarini "yaxshilik" va "yomonlik" axloqiy kategoriyalari nuqtai nazaridan qadrlashda namoyon bo'ladi.

D. U komil va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson, uning mohiyati, qadr-qimmatini

masalalari qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining ma'nosini o'ylashdan boshlangan.

2. Ijtimoiy falsafa fanining predmeti nima?

A. Insonni bilishga qiziqish uyg'otadigan, bilimlar va tajribalar, muayyan e'tiqod, institutsiyaga asoslangan holda jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlarini, tuzilishi va ijtimoiy munosabatlarni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

B. Jamiyatni chuqurroq anglash, uning tuzilishi va rivojlanish qonuniyatlarini tahlil qilish orqali adolatli, rivojlangan va barqaror jamiyat qurish yo'llarini izlashdan iborat. Bu maqsad quyidagi jihatlar orqali amalga oshiriladi. Jamiyatning umumiy qonuniyatlarini tushuntirish – Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning asosiy sabablarini aniqlash va tushuntirish orqali jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglashga yordam beradi.

C. Jamiyatni, uning rivojlanish qonuniyatlarini va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali adolatli, barqaror va farovon jamiyat qurishga hissa qo'shishdan iborat. Bu vazifalar bir nechta muhim yo'nalishlarga bo'linadi. Ijtimoiy falsafa jamiyat qanday shakllanadi, rivojlanadi va o'zgaradi, bu jarayonlarga qanday ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy rivojlanish qonuniyatlarini chuqur tahlil qiladi va jamiyatdagi o'zgarishlarning sabablarini tushuntirib beradi.

D. Ijtimoiy falsafa jamiyat tizimi va rivojlanishidagi umumiylik va ayrimlik o'rtasidagi yechimni topish, ijtimoiy hayot sohalarining o'rnini ko'rsatib berish, inson borligi va mohiyatini yoritishda, insoniyat tarixining mohiyatini tushuntirib berish bilan boshqa ijtimoiy fanlar uchun o'ziga xos metodologik asos vazifasini bajaradi. Ijtimoiy falsafaning metodologik funksiyasi deganda, ijtimoiy falsafaning jamiyatni ilmiy anglash metodlar haqidagi fan ekanligi nazarda tutiladi. Falsafa tarixida olamni, shu jumladan jamiyat va insonni bilishning ikkita asosiy metodi: dialektika va metafizika shakllangan.

3. Ijtimoiy falsafa fanining obyektini o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?

A. Dialektik usul

- B. Tarixiy usul
- C. Sistemali yondashuv
- D. Hamma javob to'g'ri.

4. Platonning “Davlat” asarida jamiyatni adolatli va tartibli tuzilma sifatida tasvirlaydi. U jamiyatni uchta qatlamga bo'lib, har bir qatlamning o'z vazifalarini bajarishini ta'kidlaydi. Qaysi qatlamlarni aytib o'tgan?

- A. Hukmdorlar, savdogarlar, harbiylar
- B. Hukmdorlar, harbiylar, ishchilar
- C. Faylasuflar, ishchilar, zodagonlar
- D. To'g'ri javob yo'q

5. Ijtimoiy falsafaning qaysi funksiyasi ijtimoiy hayot va inson rivojlanishining umumiy tendensiyalari to'g'risidagi farazlarni yaratishdan iborat.

- A) Dunyoqarashlik funksiyasi
- B) Bashorat funksiyasi
- C) Metadologik funksiyasi
- D) Gnesologik funksiyasi

6. Forobiy qanday jamiyat shakllarini farqlagan?

- A) Fozil va johil
- B) Ibratli va nokomil
- C) Komil va monarxiyaga asoslangan
- D) Barqaror va beqaror

7. Quyidagilardan qaysi biri ijtimoiy falsafa fanining asosiy predmetiga kirmaydi?

- A) Jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganish
- B) Shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish
- C) Shaxsiy hissiy tajribalarni o'rganish
- D) Ijtimoiy ong shakllari evolyutsiyasini o'rganish

8. Ijtimoiy falsafaning maqsad va vazifalarini ajratib ko'rsatishda qaysi falsafiy yondashuvlar asosiy ahamiyatga ega?

- A) Metafizik va diniy yondashuvlar
- B) Dialektik va tarixiy materializm
- C) Subyektiv idealizm

D) Empirik tadqiqotlar

9. Ijtimoiy falsafa boshqa falsafiy yoʻnalishlardan qanday farq qiladi?

A) Faqat ijtimoiy adolat masalalarini oʻrganadi

B) Jamiyatni umumiy tushunchalar asosida tizimli ravishda tahlil qiladi

C) Jamiyatdagi dinamik jarayonlarni oʻrganishdan cheklangan

D) Faqat tarixiy tahlillarni amalga oshiradi

10. Ijtimoiy falsafa fanining pedagogik-didaktik funksiyasi.

A) Insonni tarbiyalashda, yuksak insoniy, axloqiy xislatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yoʻnaltirilgan. Insonni shakllantirish va rivojlantirish unda falsafiy fikrlash madaniyatini qaror toptirishni ham nazarda tutadi

B) U komil va barkamol insonni shakllantirishga xizmat qiladi. Eng qadimiy davrlardan falsafani inson, uning mohiyati, qadr-qimmati masalalari qiziqtirib kelgan. Aslida falsafa inson hayotining maʼnosini oʻylashdan boshlangan.

C) Ijtimoiy falsafa ijtimoiy jarayonlarni ilmiy boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yoʻlda ijtimoiy taraqqiyot qonunlaridan kelib chiqib, ijtimoiy jarayonlar tendensiyasi (mayli) va istiqbolini, kelajakni anglash, ilmiy bashorat qilish imkonini beradi. Umuman olganda, ijtimoiy falsafaning bashorat qiluvchi funksiyasi ijtimoiy hayot va inson rivojlanishining umumiy tendensiyalari toʻgʻrisidagi farazlarni yaratishdan iborat

D) Har qanday ijtimoiy-falsafiy konsepsiya oʻrganilayotgan obyektning baholashni oʻz ichiga oladi. Bu inson hamma narsaning oʻlchovi degan yondoshuvga asoslanib, uning barcha harakatlari, ishlari, kashfiyotlar, ixtirolar, obyektiv dunyoni yaratishi va boshqa natijalarini "yaxshilik" va "yomonlik" axloqiy kategoriyalari nuqtai nazaridan qadrlashda namoyon boʻladi.

11. Ijtimoiy falsafa fani huquqshunoslik bilan qaysi jihatdan bogʻliq?

A) Ijtimoiy falsafa huquqiy tizimlarni yaratuvchi asosiy fan hisoblanadi

B) Huquqshunoslik jamiyatdagi ijtimoiy adolat tamoyillarini ijtimoiy falsafiy yondashuv orqali tushuntiradi

C) Ijtimoiy falsafa huquqshunoslikdan mustaqil tarzda jamiyatni o'rganadi

D) Ijtimoiy falsafa faqat huquqiy nazariyalar bilan cheklanadi

12. Quyidagi fanlardan qaysi biri ijtimoiy falsafaga eng ko'p bog'liq va uni qo'llab-quvvatlaydi?

A) Fizika

B) Astronomiya

C) Sotsiologiya

D) Kimyo

13. Ijtimoiy falsafa va etika fanlari o'rtasidagi aloqaning asosiy jihati nima?

A) Ijtimoiy falsafa jamiyatdagi axloqiy tamoyillarni to'liq belgilaydi

B) Etika ijtimoiy falsafadan farqli ravishda faqat shaxsiy axloqni o'rganadi

C) Ijtimoiy falsafa jamiyatda axloqiy normalarning umumiy nazariyasini ishlab chiqadi

D) Etika ijtimoiy falsafa tamoyillariga tayanmaydi

14. Antropologiya bu...

A) Insonning mohiyati, kelib chiqishini o'rganadigan fan

B) Jamiyatning paydo bo'lishini o'rganadigan fan

C) Sinflarning kelib chiqishini o'rganadigan fan

D) Dunyoning yaratilishi borasidagi nazariyalarni o'rganadigan fan

15. Fandagi differentsiya nima?

A) bu fanlarning turli sohalari o'rtasida hamkorlik va o'zaro bog'lanishni ta'minlovchi jarayondir. Ilmiy integratsiya fanlararo chegaralarni yengib, ko'p fanlarning bilim va metodlarini birlashtirib, yangi va yanada murakkab sohalarni yaratishga imkon beradi. Integratsiya ilm-fanda turli yo'nalishlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, bilimlarning bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro yordamni ta'minlaydi. Bu jarayon ilmiy kashfiyotlarni yanada samarali qilishga xizmat qiladi, yangi muammolarni hal qilishda yanada kompleks yondashuvlarni talab etadi.

B) bu fanlarning turli sohalari o'rtasida hamkorlik va o'zaro bog'lanishni ta'minlovchi jarayondir. Ilmiy integratsiya fanlararo chegaralarni yengib, ko'p fanlarning bilim va metodlarini birlashtirib, yangi va yanada murakkab sohalarni yaratishga imkon beradi.

C) inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishi jarayoni. Ijtimoiylashuv jarayoni va uning o'ziga xos xususiyatlari falsafa, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, tarix va etnografiya tomonidan o'rganiladi. Ijtimoiylashuvning falsafiy talqiniga ijtimoiy psixologiya asoschisi G.Tard poydevor yaratgan.

D) bu insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, jamiyat tuzilmalari, ijtimoiy adolat, erkinlik, tenglik va boshqalar kabi ijtimoiy masalalarni o'rganuvchi falsafiy soha. Ijtimoiy falsafa insoniyatning jamiyatdagi o'rni, o'zaro munosabatlarining tabiati va ijtimoiy tizimlar haqida chuqur mulohazalar yuritadi. Ijtimoiy falsafa bir nechta asosiy masalalarni o'z ichiga oladi, jumladan: ijtimoiy tuzilma, adolat, erkinlik, davlatning roli, ijtimoiy tenglik, xususiy mulk, mehnat va iqtisodiy tizimlar

2-MAVZU. O‘RTA ASRLARDA IJTIMOIIY FALSAFIY FIKRLARNING RIVOJLANISHI

REJA:

- 1. O‘rta asr Sharq va G‘arb ijtimoiy-falsafiy qarashlarning shakllanishi. Ularning o‘ziga xos tomonlari.**
- 2. O‘rta asr faylasuflarining falsafiy fikrlari tahlili**
- 3. O‘rta asr falsafasiga diniy ta’limotlar ta’siri**

Tayanch tushunchalar: Islom falsafasi, inson, tasavvuf, patristika, feodalizm, xristianlik, sharqlashish, sivilizatsiya, inson huquqlari, xristianlik.

1. O‘rta asr Sharq va G‘arb ijtimoiy-falsafiy qarashlarning shakllanishi. Ularning o‘ziga xos tomonlari.

Odatda ijtimoiy fanlar va qadriyatlar sohasida masalalar sharq va g‘arbda shakllangan faylasuf va olimlar ilmiy merosi yoki xulosalarining komperalistik tahlili asosida mo‘ljal oladi. Ikki tomon ham falsafada gumanistik g‘oyalar asosida umuminsoniy qadriyatlarga qarab mo‘ljal olishiga qaramasdan ikki tomondagi o‘ziga xosliklar va makon va zamonga bo‘g‘liq faktorlar hisobiga ma’lum farqlar bor. Falsafa va falsafiy tafaakkur bilan bog‘liq falsafada davrlashtirish jarayonida u yoki bu mafkuraviy ilmiy qarash va yondashuv hisobiga turli xil davrlashtiriladi. Eng kuchli dialektik qaramarshilikda Osiosentrizm va Yevropasentrizmni ko‘rsata olamiz. Ilmiy falsafiy kontekstda hamisha ikki yondashuv raqobatda bo‘lib bundan falsafa nafaqat chetda qolmagan balki asosiy o‘rin tutadi. Bu ikki yondashuvdan eng keng tarqalgan kuchli tasirga ega yondashuv bu – Yevropasentrizm. U falsafiy taffakkur dunyoqarashning shakllanishidagi turfa xillikni suniy ravishda g‘arbona mentalitetni namoyon qilgan holda toraytiradi. Bu esa falsafada muhim bo‘lgan savollarni paydo bo‘lishi uchun sabab bo‘ladi¹⁶. Dunyo geografik jihatdan g‘arb va sharq qutbiga bo‘lingani singari falsafiy tafakkurda ham g‘arbona va sharqona tarixiy xususiyat va annasiga ega. Sharq falsafasi

¹⁶ T.Ismoilov “Ijtimoiy falsafa fanidan o‘quv-uslubiy majmua” Namangan-2023

deyilganda odatda o'z ichiga Hindiston, Xitoy, Uzoq Sharq, Musulumon sharqi, Eron va Markaziy Osiyo kabi hududlarni o'z ichiga oladigan va shu hududga xos falsafa tushuniladi. O'rta asrlar sharq falsafasi haqida fikr yuritilganda ko'proq Islom dinining vujudga kelishidan keyingi shakkillangan o'ziga xos sivilizatsiyaning natijasi tushiniladi. Ilk o'rta asrlar sharq falsafasi tarixida bugun juda ko'p takrorlanayotgan birinchi renesans tushunchasi bilan urg'ulanadi. Yaqin va O'rta sharqda g'arbiy va sharqiy ananalarning ta'siri muhim o'rin tutgan. Sharqda falsafa din bilan hamohanglikda namoyon bo'ladi va ular odatda farqlanmaydi. Yevropasentirizim nuqtayinazaridan sharqning mistik falsafasi falsafiy tizim sifatida ko'rilmasa ham sharq tafkkuri aynan sharqona mistik yo'nalishda dastlab rivoj topgan edi. Mistik falsafani tan olish g'arb uchun bu tafakkurning rivojlanish tarixini asosini sharqda deb e'lon qilish bilan barobar bo'lib qoladi shuning uchun ham bu o'rinlar skeptik yondashuvga muhtoj. Ilk o'rta asrlarda sharqda uyg'onish hodisasi ro'y berayotgan paytda G'arb "Dark Ages" Qorong'u asrlari boshidan o'tkazayotgan edi. Sharqda dastlab siyosiy barqarorlik Yunon, Fors, Hind manbalarini tarjima qilish uchun rag'bat berdi. Tarjima qilish natijasida juda keng madaniyat bilan tanishgan Arab Islom madaniyati o'zda yangi bilimlarni hosil qila boshladi va jamiyatning keng ommasini qamrab olgan madaniy uyg'onish ro'y berdi. Musulmon sharqida shakillangan falsafa o'ziga xosliklarga ega. Yunon falsafasiga berilgan xarakteristika bu o'rinda mos kelavermaydi. Yunon faylasuflari istilohlari va tafakkur uslubi bilan yozilgan Kindiy, Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushdlarning mukammal falsafiy asarlari mashshoiy yoki boshqacha aytganda, peripatetik falsafa sifatida g'arbda e'tirof etildi. Islom esa, aksincha, ularni yunon falsafasi targ'iboti deb bildi. Holbuki, Forobiy o'z asarlarida tushuntirishga uringanidek, yunon falsafasi aslida sharqda mavjud ilmlardan oziqlangan edi¹⁷. Yevropasentrik qarashlardan qutulib, Sharq falsafasining universal g'oyalari tahlili bilan shug'ullanish, sharq xalqlari diniy-falsafiy tizim otlarini o'zaro qiyosda, ta'sir doirasi ko'lamini kuzatish orqali yaxlit tizimda o'rganish dolzarb masaladir¹⁸. Sharq falsafasi bugungi kunda tanqidiy ko'rib chiqilishi

¹⁷ Abu Nasr Forobiy, "Fozil odamlar shahri". "Yangi asr avlodi", 2016-yil.

¹⁸ M.M.Xayrullayev. Forobiy va uning falsafiy risolalari 1963 25 - bet

epistemologik jihatdan ham metodologik jihatdan ham to'g'ri bo'ladi. Chunki asosiy olib borilgan tadqiqotlar yevropasentrizim mafkurasining metodi bo'lmish orientalizm tafakkur uslubi asosida olib borilganligi shunday xulosa qilishga sabab bo'ladi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridan e'tiboran G'arbda Sharq xalqlari falsafasiga qiziqish keskin darajada oshgani tufayli, uni asl manbalar, qadimgi yahudiy va lotin tillardagi tarjimalari asosida muntazam ravishda o'rganish, tadqiq etish ishlari tez sur'atda rivojlana boshladi. G'arb Sharqshunosligining mumtoz davri deb nomlangan ushbu bosqich davomida bir necha yirik olimlar, xususan, M. Shtaynshnayder, F. Diterisi, E. Zaxau, ularning davomchilari bo'lgan A.Myuller, M.Xorten, T.de Buur, I.Gol'dsier singari ko'pgina nemis tadqiqotchilari faoliyat olib borgan. Ular Sharq falsafasining yorqin namunasi bo'lgan asl manbalar, ularning G'arb tillarga amalga oshirilgan tarjimalarini hamda ularga doir ko'pgina ilmiy monografiya va maqolalarni nashr qilgan¹⁹. Bu davr aynan sharqshunoslik uchun bugun ham muhim hisoblangan davr bo'lib aynan shu davrda sharq ilmiy falsafiy merosiga bo'lgan yondashuvning paradigmal asoslari qo'yildi. IX asrda sharqda xususan o'rta osiyoda bugungi kunda etirof etilayotgan renesans hodisasi sodir bo'ldi. Akademik Muzaffar Xayrullayev yevropa va Sharqdagi Uyg'onish davri madaniyatida ma'lum farqlar bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida g'oyaviy bog'lanish bor va ular yaxlit bir butun bosqichning jahon madaniyati jahon falsafasining umumiy jarayonining turli jabxalari, jarayonlari sifatida namoyon bo'ladi deydi²⁰. SG'arbda bu davr falsafasiga nisbatan yondashuvda falsafa tarixi bo'yicha tadqiqotchi G. B. Shaymuhambetovanning fikriga ko'ra, G'arb sharqshunoslik fani arab tilidagi falsafani talqin qilishda o'zining asosiy tendentsiyasidan voz kecha olmagan, ya'ni ushbu falsafa namoyandalari ijodining originalligi, amalga oshirgan yangiligi haqida emas, balki unga qadimgi yunon falsafasi qanchalik ta'sir ko'rsatgani nuqtai nazaridan qarashdan nariga o'tmagan. Bunday tendentsiya, ayniqsa, T.de Buur, Karra de Vo, A. Myullerlar kabi

¹⁹ Жўракулов фурқат норйигитович. Абу райҳон беруний табиий - илмий ва ижтимоий -фалсафий меросининг ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши toshkent 2007.14-15- bet

²⁰ Хайруллаев М. Культурное наследие., с. 66

olimlarning asarlarida aks etgan. Ular “islom falsafasi”ni asosan sharhlash mohiyatiga ega bo’lgan fan deb, uni antik davri bo’yicha yangi ma’lumot manbai sifatida talqin qilgan²¹. G’arbdagi falsafa, umuman, fan tarixi bilan bog’liq ilmiy yo’nalish Sharq falsafiy, tabiiyilmiy tafakkuri yoritilishi bir necha bosqichlardan o’tgan va ushbu muammo har bir bosqichning xususiyati va imkoniyatiga qarab hal qilingani ma’lum. Uning ayrim bosqichlarini ta’riflashda Farobiy falsafiy merosining misolida birinchi bo’lib akademik M.M.Xayrullaev qo’ygan. Bu esa biz uchun muhim metodologik ahamiyat kasb etadi²² Muzaffar Xayrullayev Farobiyning qayta kashf etgan olim sifatida Farobiy va uning zamondoshlarining merosiga bo’lgan munosabatdagi metodik jihatlariga urg’u beradi.

Ilk o’rta asrlar islom falsafasi uchun eng muhim nomlardan biri bu Farobiy uning falsafasining mohiyatini tushinish shu davrda shakillangan falsafaning katta bir qismini o’zida mujassam etganligi uchun ham muhim. Farobiy – islom falsafasining asoschisi va mustahkam ratsional (aqlga asoslangan) tafakkur tizimini yaratgan odam. Uning maktabi, yunon faylasuflarining qarashlari bilan jamiki o’xshash jixatlariga qaramay, umuman olganda ham, aloxida olganda ham, nodir xodisadir²³. Bu berilgan tarif eronlik faylasuf olim Sayyid Muhhammad Xotamiyga tegishli bo’lib Islom tafakkur tarixi asarida o’rta asrlar falsafasining vujudga kelishiga xususan Farobiy falsafasining mohiyatini ochib berishga harakat qiladi. Farobiyning falsafasining vujudga kelishida Aristotel Platon g’oyalarining ta’sirini kuzatish mumkin lekin bazi bir tadqiqotchilarning Farobiy ishiga nisbatan faktologik yondashuvlar yoki mafkuraviy asoslardan kelib chiqib talqinni ham kuzatish mumkin. Farobiyning ilmiy merosini o’rganishning muammolarini birinchi bo’lib O’zbekistonda ko’rib chiqqan Faylasuf Akademik M. Xayrullayev. Farobiy ilmiy falsafiy merosini qaytadan dunyoga tanitgan olim sifatida Muzaffar

²¹ Rosenthal F. Das Fortleben der Antike im Islam. –Zurich und Stuttgart, 1965. –P. 314.

²² Жўракулов фуркат норйигитович. Абу райхон беруний табиий - илмий ва ижтимоий -фалсафий Меросининг ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши toshkent 2007.12- bet

²³ Саййид Муҳаммад Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. / Тарж. Н.Қодирзода. – Тошкент: “Минҳож”, 2003. – Б.65

Xayrullayevning ishlari beqiyos. Biroq zamonga bog‘liq bo‘lgan faktorlar Farobiy ilmiy falsafiy merosiga olimning yondashuvida SSSR davrida olib borgan ishlarida mafkuraning tasiri sezilib turadi. Chunki SSSR Fanlar Akademiyasi Arab-musulmon falsafasi, al-Farobiyning, Ibn Sinoning falsafiy va ilmiy merosi bo‘yicha yirik tarjimalar va tadqiqotlarni tayyorlash va nashr etish koordinatori bo‘ldi²⁴. Birgina Farobiy falsafasining o‘rganilishdagi zamon va makonga bog‘liq bo‘lgan sabablar topilmoqda. Xususan Eronlik sharqshunos Faylasuf olim Sayid Muhammad Hotamiyning Islom tafakkur tarixi asrida berilgan talqin bilan Muzaffar Xayrullayevning talqini komperalistik talqin qilinar ekan ma’lum farqlar kuzatiladi. O‘zbekiston falsafa taixi maktabida Farobiyning ilmiy merosini o‘rganishning birinchi o‘rinda metodologik asoslariga e’tibor bergan olim bu aynan Muzaffar Xayrullayev. Olimning ishlarida sharq falsafasiga g‘arb yondashuvidagi metodologik nazariy xususiyatlar ochib berilgan. G‘arbning burjua sharqshunoslaridan R.Dozi va R.Flyueling esa sharq faylasuflarining fikirlarini nazarda tutgan xolda ochiqdan-ochiq Sharq xalqlari insoniyatga, dunyo sivilizatsiyasiga hech qanday yangilik beraolmadilar, ularning tafakkuri mistik xarakterga ega va Garbning Mantiqiy tafakkuridan uzoqdir deb davo qiladilar. Shlosser va G.Fatsari esa Xorazmiy , Farobiy, Ibn Sino kabi o‘rta Sharq tabiatshunoslari va faylasuflarining asosiy xizmati yunon ilmi va falsafasi takrorlash va uni g‘arbga yetkazib berish bo‘ldi deb aytadilar²⁵. Aynan bu yondashuvdagi sharq faylasuflarining komentator yoki tarjima qilish bilan bog‘lovchi maqomida sharq faylasuflarining ko‘rilishi sharq faylasuflarining nodir ishlarini yoinki g‘arb faylasuflarining keying davrdagi ilmiy ishlaridagi asosiy dastoklovchi omillar g‘oyalar transformatsiyasiga qadar baziz bo‘lgan yangiliklarning etiborsiz qolishiga sabab bo‘ladi. Bu holat qachonki biz qiyosiy metodologiya asosida sharq va g‘arb fikr maktablarini taqqoslaganimizda ochiq oydin namoyon bo‘ladi. Chunki falsafiy qonuniyatga tayanadigan bo‘lsak hech qaysi fikr o‘z xolicha vujudga bo‘lmaydi.

²⁴ Историко-философская арабистика в России на рубеже веков (вторая половина XX - начало XXI вв.) | Кирабаев

²⁵ М. М. Xayrullayev. Forobiy va uning falsafiy risolalari. 1963 25 -bet

O'rta asr falsafiy merosini o'rgangan rus olim G. Shaymuhambetovning ta'kidlashicha, o'rta asrlarda falsafiy tafakkur Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida "teologik aqidalardan" ajralgan holda rivojlanib kelgan. Bu xulosa albatta, qaytadan ko'rib chiqish va aniqlashga muhtojdir. Ikkinchi tomondan, muallif ushbu falsafaning yangiligi va originalligini ochib berishda nafaqat Arastu, balki platonizm, neoplatonizm, stoisizm, qadimgi yunon naturfalsafasiga tarixiy munosabatlar, keyingi davrlarda ularga nisbatan erishilgan yangi yutuqlar nuqtai nazaridan baholashga harakat qilish lozim deb ta'kidlagan.

XVII va XVIII asr G'arbiy Yevropa taraqqiyotida yangi davr hisoblanadi. Bu asrlarda Angliya, Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlarida kapitalistik munosabatlar tez sur'atlar bilan rivojlana boshlaydi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli yangi ishlab chiqaruvchi kuch ehtiyojiga muvofiq tabiatni ilmiy bilish jarayonini tezlashtiradi. Dengizda savdo munosabatlarining rivoji, kemasozlikning taraqqiyoti, yangi shaharlar qurilishi, astronomiya, matematika va mexanikaga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Mazkur fanlarning taraqqiyoti tabiat hodisalariga analitik qarash kerakligini talab etar edi. Bu paytda tabiat hodisalarini o'rganishning asosiy usuli dalillar to'plash ularni har tomonlama tahlil etish, tajriba o'tkazishdan iborat edi. Qadimgi davrdan boshlab yig'ilgan tabiat to'g'risidagi bilimlar umumiy mazmunga ega bo'lib, u yangi davrning tajribasi va fan talabiga javob bera olmaydi. Shuning uchun yangi davr tabiatshunoslari tabiatdagi hodisalar, dalillarni yig'ish va o'rganish, chuqurroq bilish maqsadida ularni bir-biridan ajratib organadilar. Bu xil tekshirish usuli tabiatshunoslik taraqqiyotida ijobiy xizmat qilgan bo'lsada, lekin u olimlar diqqatini dunyoning umumiy ko'rinishidan, uning bir butunligidan, narsa va hodisalar o'rtasidagi ichki aloqa va bog'lanishlar borlig'idan, ularning bir-biriga o'tib turishidan chetga tortdi, olam qotib qolgan, bir-biriga bog'liq bo'lmagan tasodifiy hodisalar yig'indisidan iborat bo'lib ko'rindi²⁶.

Grostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining qiyofasini belgilaydi.

²⁶ Основы философии. Учебник. Издание 2-е. /Под редю М.А.Ахмедовой, В.С.Хана. Т.: Mehnat. 2004.

Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan grostitsizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnəq iga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha, Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlak sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihan bilan sudoga moslashgan. Bu masalada grostitsizm faylasuflari xristianlikni yuron falsafasi bilan birlashirishga harakat qildilar.

Dualizm grostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud, deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Apologetlar xristianlik tarixida I va III asrlarda vujudga keldi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi "himoya qilish", demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'kid qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qilganlar, o'z asardarida mushriqlik (ko'p Xudolik) adabiyotlaridan olingan baxslashish (dialog) shaklidan yoki apologetikaning mumtoz shaklidan foydalanganlar²⁷. Apologetlar asarlarida ikki an'ana yaqqol sezilib turadi. Ya'ni, inkor qilish va tasdiqlash. Ular eng avval mushriqlar tomonidan xristianlikka qo'yilgan ayblar g'ayriodatiy harakatlar, dabdababozlik kabilarni inkor qilganlar. Xristianlikning sofligini esa tasdiqlaganlar. Bu sohada Yustinning "Birinchii apologeva", "Ikkinchi apologeya" asarlarini. Tulcan va Anaksagor kabi faylasuflar faoliyatini ta'kidlash lozim. "Patristika" so'zi "ota" ("padre") so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda Evropada yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640 ta davatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida Injilni amaliy qo'llash sof axloqiy masalalar bilan qorishib ketgan. G'arbda eng yirik cherkovotalandan bin "Pok" degan invonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354-430) hisoblanadi. U faylasuf va ilohiyotchi bo'lgan. Uning o'sha davrdagi eng mashhur asarlaridan birini

²⁷ Falsafa. (O'quv qo''llanma) /E.Yusupovning taxriri ostida ostida. - T.: Sharq, 1999.-496 b.

“Sig‘inish” 401 yilda yozilgan²⁸. Buasanda uo zining xristianlikkacha bo‘lgan hayotini yozadi. "Bibliya oyatlarín samziy timsoliy bayon qilinadi. U mushriqlik falsafasini qoralaydi. Uningcha, bu falsafa insonni xristian dinichalik hech mahal haqiqatga olib kelmaydi. Avgustin bahs shaklida boshqa (dialog) falsafiy asarlar yozgan. “Sxolastika” so‘zi yunoncha “shkola”dan sxola olingan bo‘lib, “o‘kish joyi”, “maktab” ma’nolarini anglatadi. Buyuk Karl saroyida o‘qituvchilik kilganlarni yoki umuman saroy maktabidagi o‘qituvchilarni sxolastlar deb ataganlar. Shuningdek, dinni o‘rganishda falsafani tatbiq qilgan o‘rta asr olimlarini ham ssolastlar deb ataganlar. Sxolastikani ma'lum darajada ilohiyotni aqiga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo‘lgan intilish, deh ham baholash mumkin. Osha davıda ilohiyotni muqaddas kitoblar akidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish toqozo qilinadi. Sxolastlarning maqsadi e'tiqod aqlga muvofiqmi, degan savolga javob berish bo lgan. Realizm Uning yirik vakillaridan bin kenterberiyalik Anselm (1038-1109)dir. U Shimoliy Italiyada tug‘ilgan, 1093-yilda Kenterberiysk shahrining arhiepiskopi etib tayinlanadi. Anselm o‘zining ikki asari bilan mashhur.

2. O‘rta asr faylasuflarining falsafiy fikrlari tahlili hamda tanqidiy yondashuvlari.

O‘rta asrlar falsafasi tarixiy jihatdan juda murakkab va qiziqarli davrni tashkil etadi. Bu davrda G‘arb va Sharq dunyosida turli falsafiy yondashuvlar, g‘oyalar va qarashlar shakllandi. O‘rta asr faylasuflarining fikrlarini tahlil qilishda, ularning ijtimoiy, diniy va axloqiy qarashlarini, shuningdek, ilmiy izlanishlarga bo‘lgan munosabatlarini hisobga olish zarur. Ushbu davrning ko‘plab faylasuflari, klassik yunon falsafiyasining merosini qayta tiklashga, uni Xristianlik yoki Islom ta'limotlari bilan uyg‘unlashtirishga harakat qilganlar.

Britaniyada tug‘ilgan P.Abelyar (1079-1142) juda yoshlikidanok o‘z bilimi bilan mashhur edi. Abelyar mo‘tadil realistdir. Uning ta'kidlashicha, reallik yoki universalıy dastlab xudo aqlida mavjuddir, undan keyin narsalarning o‘zida mavjuddir va Nihoyat, odamlarning ongida mavjuddir.

²⁸ Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012.

Abelyar “Men e’tikod qilish uchun bilaman” degani g‘oyani ilgari surgan. Ya’ni bilmaydigan, bilimsiz kishidan ko‘ra, din va uning asosiy tamoyillarini yaxshi o‘rgangan kishi afzal. Bunday kishi aqidaparast emas, balki o‘zi bilgan narsaning qadrini biladigan insondir. Abelyar haqiqatni topishda tafakkurning xizmatini ta’kidlab, unga hamma vaqt murojaat qiladi. Uning ta’kidlashicha, shubha hamma vaqt tadqiqotga yo‘llaydi, tadqiqot esa haqiqatni topadi. Uning fikricha, insonning o‘limi xudoni rozi qilish uchun emas, balki odamlarni xudoga bo‘lgan muhabbat bilan taajjubga solish va odamlarga ahloqiy ta’sir ko‘rsatish maqsadida sodir bo‘ladi. Bu bilan odamlar o‘z hayotini xudoga buysundiradilar. Bu qarash ahloqiy ta’sir qilish nazariyasi deb ataladi²⁹.

Foma Akvinskiy (1224-1292) mo‘tadil realizmning yana bir yirik vakili bo‘lib hisoblanadi. Foma o‘sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan CARXIV UZ birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo‘tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastiganing eng yirik namoyandasi bo‘lgan. Uning fikricha, natural falsafada tafakkur va Arastu mantiqiy ta’limoti yordamida xudo mavjudligi haqidagi haqiqatga erishishi mumkin. Fomaning “Ilohiy summalar” asari 3000 maqoladan iborat bo‘lib, 600 masalani yoritishga bag‘ishlangan. U ilohiyotning sistemali bayon qilinishi vazifasini bajaradi. “Ilohiy summalarning birinchi qismi xudoning mavjudligi va borligi” masalasida bahs yuritadi. Ikkinchi qismi “xudoga qarab harakat” haqida xikoya qiladi. Akvinskiy ta’limoticha, dunyo iyerarxik narvondan iboratdir. Uning eng quyi qismida yer va 4 elementdan iborat bo‘lgan hamma narsalar mavjuddir. Odam ruhi xudo va moddiy dunyo o‘rtasidagi joyni egallaydi. Dunyoviy jamiyat tepasida esa, papa boshchiligidagi ilohiy davlat turadi. Yerdan uzoqlashgan sari u ilohiylashib boradi. Sayyoramiz dunyosinning tepasida farishtalar dunyosi mavjuddir. Butun koinot tuzilishi uch shaxsni birlashtirgan yagona xudo tomonidan boshqarilib turadi. Akvinskiy ta’limotidan keyinchalik “tomizm” oqimi shakllandi va u “neotomizm” tarzida garbda xozir ham saqlanib qolgan.

²⁹ Mo‘minov I.M. O‘zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. — T.: Fan, 1998

O'sha davrning mashhur faylasuflaridan biri Vilyam Okkamdir (1309-1349). Uning fikricha, ilohiyot aqidalari rasional (aql) yo'l bilan isbotlanishi mumkin emas. Ular faqat Muqaddas kitob nufuzi tufayligina qabul qilinishi mumkin. Bu qarash e'tiqod va tafakkurni bir-biridan ajratardi, ularni omuxta qilishni qoralardi. Okkam, shuningdek, universalialarning obyektiv mavjudligini inkor qiladi. Uningcha, universalialar tafakkur tushunchalari uchun faqat ismdirlar. Bu tushunchalarni odam o'z ongida yaratgan. Uningcha, alohida odam insonga nisbatan realroq va muhimroqdir.

Rodjer Bekon (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XVII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi. Nominalistlar va realistlar o'rtasidagi qarama-qarshilik O'rta asr sxolastikasining muhim muammolaridan biri edi. Butun O'rta asrlardasxolastiganing bu ikki oqimi o'rtasida kurash ketgan. Sxolastiganing avjga chiqqan davri 1150 va 1300 yillarda Foma Akviniyskiyning mo'tadil realizmi nominalizm ustidan galaba qozondi. Lekin 1300 yildan keyin cherkov ilohiyotchilari tafakkurida nominalizm yuqori mavqeyini egallay boshladi. Bu ko'p jihatdan uyg'onish davri falsafasiga ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, haqiqatga erishishning tajribaviy metodini (rasionalizm) vujudga kelishida katta xizmat qildi³⁰.

Mirzo Abdulqodir Bedil (1644-1721) Hindistonning Azimobod shahrida tug'ildi. Uning hayoti va ijodi Boburiylar sulolasi hukmronligi davriga tug'ri keldi. Bedil ko'p asarlar yozib qoldirdi: «Chor unsur» («To'rt unsur»), «Nukot» («Askiya»), «Irfon» («ma'rifat»), «Ruboiyot» («Ruboiylar») va boshqalar.

Borliq haqida ta'limot. Bedil Sharq mashoiyunlari (Arastu izidan boruvchilar) an'anasini davom ettirdi. Uning fikricha, moddaning ibtidosi ham, intihosi ham (boshi va oxiri) yo'q. U panteistik aqidaga ega bo'lib, «*Vahdati mavjud*» - borliqning yagonaligi nuqtai nazarida turar edi.

³⁰

<https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/falsafa/o-rta-asrlar-va-yangi-davr-ovropadagi-falsafiy-fikrlar>

Barcha narsalar zaruriyat yuzasidan vujudga keladi: - «Barcha ashyolarda ularning bo‘lakchalari o‘zgarganligi sababli, yangi narsa kelib chiqadi: - bu ajoyib sirli hodisa zaruriyat yuzasidan ro‘y beradi, bu zaruriyat ashyolarning o‘zida va ular orasidagi o‘zaro munosabatlarda mavjud bo‘ladi. Masalan, yog‘, pilik, va olovning bir-biriga qo‘shilishidan zaruriy ravishda yorug‘lik kelib chiqadi»³¹. Dunyo o‘zgarishda va doimiy harakatdadir. Dunyoni asosi sifatida Bedil *havoni* oladi.

Bedil fikricha, modda va shakl birlik holatidadirlar: - «Agar modda shaklsiz bo‘lsa, shakl qaerdan kelib chiqadi, agar shakl – har narsaga qodir bo‘lsa, modda qanday kiyim kiyadi?»³². Bedil *ozodlik* va *zaruriyat* haqidagi masalaga ham to‘xtaydi. Uning fikricha, inson o‘z hatti - harakatlarida erkindir. Uning o‘zi qanday ish tutishligini belgilashi lozim. Bedil tabiiy zaruriyatni, tabiat qonunlarini tan oladi. Ikkinchi tomondan, u zaruriyatni ilohiy irodaning namoyon bo‘lishi, deb qaraydi. Bedil sufiylarning *tarki dunyochilik* g‘oyalarini, taqdiri azalga ishonish nazariyasini tanqid qiladi. U Hindistonda keng tarqalgan *tanosux* - ruhni ko‘chib yurishi haqidagi aqidaga tanqidiy munosabat bildiradi, dinning ba'zi qoidalariga shubha bilan qaraydi. Bedil fikricha, dunyoning va insonning kelib chiqishi quyidagicha:

Xudo tuproq, suv va olovni birga qo‘shdi,

Hazillashib tartibga soldi.

Undan o‘simlik o‘sib chiqdi.

Rivojlanishda davom etib hayvonga aylandi,

Og‘izni nutq uchun ochib-inson bo‘lib qoldi.

Bilish nazariyasi. Bilishning birinchi bosqichi tashqi his-tuyg‘u yordamida amalga oshadi. Aql, tafakkur bilishning mukammalroq bosqichidir. Faylasuf hissiy va aqliy bilishni yagonalikda va o‘zaro aloqadorlikda qaraydi. U aqlga katta ahamiyat beradi: «*Tafakkur* sirli ma'noni tushundi, hukm ishning kelib chiqish va oqibatini idrok etdi. Agar aql uni ozmagan bo‘lsa, hyech kim hyech narsani ko‘rmadi»³³. Aql bilan

³¹ Материалы истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. Т., 1976. 509-б.

³² O‘sha joyda. 515-b

³³ O‘sha joyda 510-b.

bilib olingan barcha narsa, insonga berkdir». Dunyoni aqlan bilishda ilm-fan katta ahamiyatga ega:

Ilm qalamini qo'lingga olmaguningcha,
Hech qanday ashyoning tasvirini chiza olmaysan.
Ilmdan boshqa nimaiki yozilgan bo'lsa,
Be'manilikdan boshqa hech narsani anglatmaydi.
Ilm hamma yerda –aqliy me'yorlarga kafillikdir,
G'alaba – faoliyat dalilidir³⁴.

Borliqni tushunib yetishda, tabiat sirlarini bilishda falsafa muhim o'rin tutadi. *Falsafa – bu hikmat, u ilm-fan sirlarini ochadi, ruhning ashyolarga bo'lgan munosbatini o'rganadi.*

Ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Bedilning dunyoqarashida uning ijtimoiy va insonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Bedil mehnatkash insonni ko'ylaydi. Ayniqsa u barchani iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlovchi dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi. Uning fikricha, u baxt-saodatga erishishi mumkin. Hunari yo'q odam, arzimas va ojizdir.

Podsho va uning atrofida gilar to'kin-sokinlikda va farog'atda yashaydilar, dehqonlar esa faqirona hayot kechiradilar, ochlikdan o'ladilar, zolimlardan azob chekadilar. Shoir o'z zamonasi haqida alam bilan yozadi:

Mamlakat hokimiyat ostida qoldi:
Boyliklar ayrim shaxslar qo'lida to'plandi,
Oliy tabaqalar yerini dehqonlar haydab boshladilar,
Dehqonlarning ezilishi, chorasizligidan
Podsholar paydo bo'ldilar, takabbur davlatpanohlar.
Fir'avnlr nafsi, Nasrudlar zo'ravonligi
Hayotning barcha tomonlariga yoyildi.
Oltin va kumush o'ljalar nimlaar qildi...
Saroylar qurilishi, o'zini xudo deb e'lon qilishlar rasm bo'ldi³⁵.

Ochko'z va manfaatparast kishilar boylik uchun kurashib, qurollana boshladilar va qo'shin yig'dilar. Natijada o'zaro urushlar boshlanib, begonalar yerini zabt qilish odatga kirdi. Shunday qilib, hokimiyat va davlat paydo bo'ldi:

³⁴ O'sha joyda 512-b.

³⁵ O'sha joyda 507-b.

Keskin kurash boshlandi,
G'oliblar va mag'lublar paydo bo'ldi,
Hukmronlik qilish istagi mukammallashadi,
Saltanat paydo bo'ldi³⁶.

Bedil, o'tmishdagi ko'plab mutaffakirlar kabi, mamlakatni ma'rifatli va adolatli hukmdor boshqarishini orzu qilar edi.

Boborahim Mashrab (1657-1711) yirik o'zbek shoiri va mutafakkiri edi. U Namanganda tavallud topdi. U Qashg'ar, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qarshi va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida, Hindiston va Yaqin Sharqda bo'ldi. Shoir qayerda bo'lmasin, dinning va tasavvufning asosiy qoidalariga to'g'ri kelmaydigan hatti - harakatlarini keskin tanqid ostiga olib, o'z she'rlarida ular ustidan kulganligi uchun ruhoniylar tomonidan qarshilikka uchradi.

Mashrab hayotining so'nggi yillarida Balx shahriga (hozirgi Afg'onistonda) keladi. O'zining hur fikrligi va hukmron doiralarni tanqid qilganligi uchun 1711 yilda Balx hukmdori Mahmudxon farmoniga binoan qatl etiladi. Uning qabri Xonobod shahrining janubidagi Ishkoshim qishlog'idadir (Afg'oniston). Boborahim Mashrab katta ijodiy meros qoldirdi. Unga taalluqli «Mab dai nur» («Nur asosi») dostoni, «Devoni Mashrab» to'plami, ko'plab ruboiylar, g'azallar, muxammaslar, musaddaslar xalq orasida keng tarqalgan.

Boborahim Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyandalarining ilg'or an'analarini o'rganib yirik shoir bo'lib shakllandi, kamolga yetdi. U qoldirgan merosda, birinchi navbatda, ishqiy mavzudagi g'azal-muxammaslardan ana shu an'analarning barakali ta'sirini aniq kuzatish mumkin. Mashrabning ijodiy kamolotida, ayniqsa, Navoiy merosining ijobiy ta'siri katta bo'ldi.

Bobrahim Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g'oyalar ham, o'sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohanglari ham sezilarli o'rin egallaydi. Mutafakkir islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz qabul etadi. Ammo, ayni zamonda, islom ta'limotining bir qator zohiriy belgilarini, birlamchi deb hisoblagan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim ko'rsatma-talablarini, farz-sunnatlarini tan

³⁶ O'sha joyda 514-b.

olmaslik va past nazar bilan qarash ham ko'zga tashlanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va muqaddas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va aqidalarga shubha bilan qarash, hatto, ochiqdan-ochiq mensimaslik va masxaraomuz munosabat ancha-muncha uchraydi.

Turli-tuman shakl va talqinlarda jilovlanuvchi bu dunyoqarashning butun mohiyat-mag'zi shoirning quyidagi qat'iy e'tirofida nihoyatda yaqqol va lo'nda ifodalangan:

-Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,

Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?!

Mashrab qoldirgan ijodiy merosda hayotiylik, tirik inson va uning insoniy kechinmalarini ifodalash, xislat-fazilatlarini ta'riflash, orzu-umidlari, shodlik-kuvonchlari va g'am-tashvishlarini haqqoniy tasvirlash ishq-muxabbatni ulug'lash, go'zal yorni-ma'shuqa xusnu latofatini ta'riflash, oshiqning sevgi-sadoqatini ishonchli tasvirlash jarayonida tahlil etiladi.

3. O'rta asr falsafasiga diniy ta'limotlar ta'siri

O'rta asr falsafasi (yoki o'rta asrlar falsafasi) tarixiy jihatdan Xristianlik, Islom, yahudiylik va boshqa diniy ta'limotlar bilan bog'liq bo'lgan eng muhim falsafiy ta'limotlar davri bo'lib, V-VI asrlardan XI-XV asrlargacha davom etgan. Bu davrda falsafiy tafakkur, asosan, diniy falsafaga asoslangan bo'lib, ilm-fan va falsafaning o'zaro aloqalari chuqur rivojlanib bordi. O'rta asr falsafasi asosan Yevropa, Islom va yahudiy falsafiyasidan tashkil topgan bo'lib, unda falsafiy yutuqlar, ilmiy yondashuvlar va mantiqiy fikrlash usullari muhim rol o'ynagan.

Xristian ijtimoiy falsafasi o'rta asrlarning boshlang'ich davrlarida shakllanib, keyinchalik jamiyatning etakchi axloqiy va diniy tamoyillarini tashkil etdi. Xristian falsafasi, ayniqsa, Avliyo Augustin (354-430) va Avliyo Tomas Akvinskiy (1225-1274) kabi faylasuflar tomonidan rivojlantirildi. Bu faylasuflar jamiyatdagi adolat, tenglik, va axloqiy qadriyatlarni Xudo tomonidan belgilangan qonunlar va buyruqlar bilan bog'lashga harakat qilishdi. Avliyo Augustin o'zining eng mashhur asari bo'lgan "Xudo shahriga nisbatan" (De civitate Dei)da ijtimoiy va siyosiy hayotning Xudo bilan bo'lgan aloqasini tahlil qiladi. U jamiyatda ijtimoiy

tartibni, erkinlikni va tenglikni Xudoning hukmronligi va ilohiy adolat asosida tashkil etishga chaqirgan. Augustinning fikriga ko'ra, insonlar Xudoning buyruqlariga mos ravishda ijtimoiy hayotda o'z vazifalarini bajarishi lozim edi. U ijtimoiy ijtimoiy tuzumdagi adolatni faqat Xudo tomonidan amalga oshirilgan haqiqiy adolatga asoslashni ta'kidlagan. Islom falsafasi o'rta asrlarda o'zining ijtimoiy va siyosiy ta'limotlari bilan keng tarqalgan. Islom dini, avvalambor, adolat, tenglik va ijtimoiy huquqlarni muhim qadriyatlar sifatida tan olgan. Islomiy ijtimoiy falsafaning asosiy yutuqlari, asosan, Qur'on va Hadislarda ifodalanadigan axloqiy me'yorlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, Islomiy faylasuflar, xususan, al-Farobiy (870-950) va Ibn Rushd (1126-1198), jamiyatdagi ijtimoiy tuzumni tartibga solishda mantiqiy va ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqdilar. Ibn Rushd, Islom falsafasining eng katta vakillaridan biri bo'lib, o'zining "Bidayat al-Mujtahid" asarida shariat qonunlari va dunyoviy qonunlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ko'rib chiqqan. U ijtimoiy tuzumning asosiy mezoni sifatida adolatni va barqarorlikni tan olgan. Ibn Rushdning fikriga ko'ra, ijtimoiy tuzumda diniy qonunlar va aqlli tafakkur birlashtirilgan bo'lishi kerak, chunki adolat va tenglikni faqat ilmiy va diniy asoslarda qo'llab-quvvatlash mumkin. O'rta asr falsafasida ijtimoiy tenglik va inson huquqlari masalasi ham o'zining o'рни va yutuqlari bilan ajralib turadi. Avvalambor, Xristian va Islom falsafalarida insonning ulug'ligi va tengligi Xudo tomonidan berilgan muqaddas huquq sifatida qaralgan. Bu tushunchalar, ayniqsa, ijtimoiy tenglik va sinfiy tafovutlarga qarshi bo'lishni ta'kidlagan. O'rta asr falsafasining ijtimoiy yutuqlarining yana bir muhim jihati siyosatga ta'siridir. Falsafiy tafakkur orqali siyosiy hokimiyatning asoslari va qonunlarining adolatliliigi muhokama qilindi. Avliyo Tomas Akvinskiy, masalan, o'z asarlarida adolatli hokimiyatni, hukmdorning mas'uliyatini va uning xalqqa bo'lgan munosabatini izohlagan. Yahudiy falsafasi, ayniqsa, Maimonid tomonidan taqdim etilgan. Maimonidning "Misnah Torah" asari o'rta asr yahudiy falsafasining yirik yutuqlaridan biridir. U o'z asarlarida diniy qonunlar va falsafiy tafakkurni birlashtirishga harakat qildi va Xudoning borligini isbotlash uchun falsafiy va diniy dalillarni keltirdi. Uning asarlari, asosan,

Xristianlik va Islom falsafasidan ta'sirlangan bo'lib, yahudiy ilmiy tafakkurining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi³⁷.

O'rta asr falsafasi ilm-fanning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdi. O'rta asrlarda ilmiy tafakkurning asosiy yo'nalishlari, mantiq, matematika, astronomiya va tibbiyot kabi sohalarga qaratilgan edi.

O'rta asr ijtimoiy falsafasining yutuqlari diniy, siyosiy va axloqiy sohalarda alohida ahamiyatga ega bo'lib, o'sha davr jamiyatining shakllanishida katta rol o'ynadi. Xristian va Islom falsafasining ta'siri, ijtimoiy adolat, tenglik, axloqiy me'yorlar va inson huquqlarining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'rta asr falsafasi nafaqat diniy tafakkur bilan, balki jamiyatni boshqarish, ijtimoiy tuzumni barqarorlashtirish va adolatni ta'minlash borasida yangi yondashuvlar va g'oyalar yaratdi. Bu yutuqlar, o'z navbatida, keyingi davrlarning ijtimoiy va siyosiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asr ijtimoiy falsafasining yutuqlariga oid matnni tahlil qilishda uning kamchiliklari yoki zaif tomonlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. O'rta asrlar ijtimoiy falsafasining ko'plab yutuqlari bo'lsa-da, ba'zi nuqtalarda ushbu yondashuvlar zamonaviy ijtimoiy va siyosiy fikrlarga qarshi keladi yoki ularning cheklanishiga olib kelgan. O'rta asr ijtimoiy falsafasida mavjud bo'lgan eng katta kamchiliklardan biri, sinfiy tafovutlarning va ijtimoiy qatlamlarning hukmronligidir. O'rta asr falsafasi, xususan, Xristian va Islom falsafalari ko'pincha ijtimoiy tenglikni ta'kidlasa-da, real hayotda sinfiy tafovutlar va ijtimoiy qatlamlarning mavjudligi hamda ularga oid adolatning sustligi ko'zga tashlanadi. Xristian ijtimoiy falsafasida tenglik g'oyasi ko'plab diniy asarlarda ta'kidlangan, ammo o'sha davrda sinfiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar, asosan, feodal jamiyatning mustahkamlanishi bilan yanada kuchaygan. Xristianlik, garchi Xudoning barcha insonlarga teng ekanligini ta'kidlagan bo'lsa-da, jamiyatda ruhoniylar va xudo xizmatida bo'lgan shaxslarning jamiyatdagi ijtimoiy o'rni yuqori edi. Bu sinfiy va iqtisodiy tafovutlarni legitimlashtirishda muhim vosita bo'ldi. O'rta asr falsafasi, ayniqsa Xristian va Islom falsafasi, ko'pincha insonning erkin iroda va erkinligini cheklagan. Xristianlikda Xudoning irodasi, o'zgarishsiz,

³⁷ T. Ismoilov "Ijtimoiy falsafa fanidan o'quv-uslubiy majmua" Namangan-2023

mustahkam bo‘lib, insonning erkin irodasi hamda o‘z taqdiri Xudo tomonidan belgilangan deb hisoblanardi. O‘rta asrlarning ko‘p faylasuflari insonning erkinligini Xudo irodasiga bo‘ysundirishga, hatto ba’zi joylarda erkinlikni rad etishga moyil bo‘lishgan. O‘rta asr falsafasida ayollarning ijtimoiy o‘rni va ularning huquqlari juda cheklangan edi. Ayniqsa, Xristian va Islom falsafalari ayollarni odatda erkaklardan pastroq holatda ko‘rgan. Ayollarning diniy va ijtimoiy huquqlari jamiyatda cheklangan bo‘lib, ko‘pincha erkaklar tomonidan boshqarilgan jamiyatda ular qat’iy ro‘lni bajarishga majbur bo‘lgan³⁸. O‘rta asr ijtimoiy falsafasining yutuqlari juda katta bo‘lsa-da, uning cheklovlari ham muhimdir. Sinfiy tafovutlar, insonning erkinligi va irodasi, ayollarning huquqlari, ilmiy va falsafiy cheklovlar kabi masalalar o‘sha davrning kamchiliklarini tashkil etdi. O‘rta asr falsafasining cheklanishlari zamonaviy ijtimoiy, siyosiy va axloqiy qarashlar bilan solishtirilganda aniq ko‘zga tashlanadi. Shunday bo‘lsa-da, o‘rta asr falsafasi jamiyatning axloqiy va diniy jihatlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, uning yutuqlari bugungi kungacha ta’sirini ko‘rsatmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. T. Ismoilov “Ijtimoiy falsafa fanidan o‘quv-uslubiy majmua” Namangan-2023
2. Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri”. “Yangi asr avlodi”, 2016-yil.
3. M. M. Xayrullayev. Forobiy va uning falsafiy risolalari 1963 25 - bet
4. Rosenthal F. Das Fortleben der Antike im Islam. –Zurich und Stuttgart, 1965. –P. 314.
5. Саййид Муҳаммад Хотамий. Ислом тафаккури тарихидан. / Тарж. Н.Қодирзода. – Тошкент: “Минҳож”, 2003. – Б.65
6. Историко-философская арабистика в России на рубеже веков (вторая половина XX - начало XXI вв.) | Кирабаев
7. М. М. Xayrullayev. Forobiy va uning falsafiy risolalari. 1963 25 - bet

³⁸ O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalari fondi. Inv. № 1387.

8. Основы философии. Учебник. Издание 2-е. /Под редю М.А.Ахмедовой, В.С.Хана. Т.: Mehnat. 2004.
9. Falsafa. (O'quv qo' 'llanma) /E.Yusupovning taxriri ostida ostida. - T.: Sharq, 1999.-496 b.
10. Shermuxamedova N.A. Falsafa.-T.: Noshir, 2012.
11. Mo'minov I.M. O'zbekistondagi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar. — T.: Fan, 1998
12. Материало истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. Т., 1976. 509-б.
13. O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondi. Inv. № 1387.

MAVZU YUZASIDAN GLOSSARIYLAR

1. Yevropasentrizm – bu Yevropa madaniyati va dunyoqarashini markazga olib, boshqa madaniyatlarni va xalqlarni Yevropa bilan solishtirgan holda baholash va tushunish yondashuvi. Bu falsafiy va ilmiy qarashlar, umuman, tarixiy kontekstdan yirik davrlarning yuksalishi va pasayishi haqida bir taraflama, ba'zan noaniq tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Yevropasentrizm, asosan, G'arbning ilmiy va falsafiy yutuqlarini dunyoning qolgan qismiga nisbatan dominant deb biladi.

2. Sharq falsafasi - bu Hindiston, Xitoy, Eron, Musulmon dunyosi va Markaziy Osiyo kabi hududlarda rivojlangan falsafiy tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu falsafalar asosan diniy va mistik o'ziga xosliklarga ega bo'lib, g'arbiy falsafa bilan qiyoslaganda, an'anaviy tarzda ko'proq spiritual yoki transsendental masalalarga e'tibor qaratadi. Sharq falsafasi ko'pincha intuitivlik, diniy tasavvurlar va zamon va makonning doimiy o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi.

3. Renessans - o'rta asrlarning oxirlarida va yangi davrda G'arbda yuzaga kelgan ilmiy va madaniy uyg'onish. Bu davrda ilm-fan, san'at, adabiyot va falsafa rivojlandi, klassik yunon va rim merosiga qaytish, insonning ijodiy va rasionallik imkoniyatlarini kengaytirish asosiy maqsadlaridan biri edi. Sharqda ham renesansga o'xshash uyg'onishlar bo'lib o'tdi, lekin ularning xususiyatlari G'arbgacha nisbatan farq qilgan.

4. Osiyosentrizm - Osiyo madaniyatlari va falsafalarini markazga qo'ygan yondashuv. Bu konsepsiya Sharqdagi falsafiy tizimlarni va umuman Sharqni G'arbga qarshi yoki undan ajratib ko'rsatishda ishlatiladi. Osiyosentrizm Sharq falsafasining diniy, mistik va ma'naviy o'ziga xosliklarini qadrlashni maqsad qiladi.

5. Mistik falsafa - tasavvur qilish va sezgi orqali haqiqatni izlashga asoslangan falsafiy yondashuv. Mistik fikrda inson o'z ichki dunyosiga sayohat qilish orqali haqiqatga erishadi, va bu ko'pincha diniy yoki ruhiy tajribalar bilan bog'liq. Sharq falsafasi, xususan Islom falsafasida mistik tafakkur, ruhiy o'sish va "yashirin bilimlar"ni izlashda katta o'rin tutadi.

6. Skeptitsizm - barcha bilimlarni shubha ostiga olishga asoslangan falsafiy qarash. Skeptiklar haqiqatni aniqlashda insonning cheklangan aqliy imkoniyatlari, bilimning noaniqligi va mavjud nazariyalarning shakllanishiga sabab bo'lgan xatolarni ta'kidlaydi. Falsafa tarixida skeptitsizm ko'plab o'zgarishlarga sabab bo'lib, ilmiy qarashlarning sinovdan o'tishiga yordam bergan.

7. Tafakkur - aql va fikrni ishlatib, biror narsaning mohiyatini, sababini va natijasini tushunish jarayoni. Tafakkur orqali inson o'z ongini kengaytiradi, haqiqatni aniqlaydi va ilmiy yoki falsafiy nuqtai nazardan dunyoni anglaydi. Falsafa uchun tafakkur asosiy vositadir, chunki uning yordami bilan inson o'zining hayotiy qarashlarini shakllantiradi.

8. Peripatetik falsafa - Aristotel va uning izdoshlari tomonidan ishlab chiqilgan tafakkur tizimi bo'lib, u tabiatni, insonni va dunyoning asosiy qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan. Peripatetik falsafada, ayniqsa, aql va tajriba asosida bilim olish muhim ahamiyatga ega. Aristotelning o'ziga xos metodologiyasi va dunyoqarashi bu yondashuvni juda samarali qilishga yordam bergan.

9. Dualizm - tabiiy yoki falsafiy yondashuvda, ikki qarama-qarshi yoki o'zaro bog'liq elementlarning mavjudligini ta'kidlovchi kontsepsiya. Masalan, ruh va tananing ajratilishi, moddiy va ruhiy dunyo o'rtasidagi ajralish dualizmning bir shakli sifatida qoraladi. Dualizm ko'plab falsafiy tizimlar, xususan diniy va metafizik qarashlarda uchraydi.

10. Mo‘tadil realizm-bu falsafiy qarash bo‘lib, u universallar (umumiy tushunchalar)ning mavjudligini tan oladi, ammo ular faqat xudo, tabiat va inson ongida bo‘lib, ular haqiqatan ham mavjuddir. Mo‘tadil realistlar real dunyoda umumiy xususiyatlar mavjud, lekin ularning mavjudligi faqat insonga yoki xudo tomonidan tasavvur qilinadi. Bu qarash o‘rta asr falsafasining asosiy oqimlaridan biri bo‘lib, ko‘pincha Xristianlik yoki Islom ta’limotlari bilan birlashtiriladi.

11. Ilohiyot — bu xudo va uning xususiyatlarini o‘rganadigan ilmiy soha yoki tafakkur yo‘nalishi. O‘rta asr faylasuflarining asosiy masalalaridan biri bo‘lib, ular xudoning mavjudligi, uning dunyo bilan aloqasi, insonning xudo bilan munosabati haqida fikr yuritganlar. Ilohiyot, ko‘pincha diniy falsafaning bir bo‘lagi sifatida ko‘rilgan.

12. Sinfiy tafovutlar — jamiyatda turli ijtimoiy qatlamlar orasidagi farqlarni ifodalovchi tushuncha. O‘rta asr falsafasi sinfiy tafovutlarni ko‘pincha adolatga xalaqit bermasdan, ijtimoiy tizimni o‘zgarishsiz saqlashni ko‘zlagan. Bu tafovutlar, asosan, feodal jamiyatda sezilarli bo‘lgan.

13. Diniy aqidalar — diniy ta’limotlar va tushunchalar to‘plami bo‘lib, ular insonning axloqiy, ijtimoiy va metafizik masalalarni qanday tushunishini belgilaydi. O‘rta asr falsafasida diniy aqidalar jamiyatni boshqarishda va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda asosiy o‘rin tutgan.

14. Ijtimoiy tuzum — jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar, tashkilotlar va ularning o‘zaro munosabatlarini ifodalovchi tushuncha. O‘rta asr falsafasida ijtimoiy tuzum ko‘pincha Xudo tomonidan belgilangan va uning adolatiga asoslangan tarzda tashkil etilgan. Bu tushuncha, ayniqsa, Xristian va Islom falsafalarida muhim rol o‘ynagan.

15. Ilmiy tafakkur — haqiqiy bilimni o‘rganish va tushunish jarayoni. O‘rta asrlarda ilmiy tafakkur asosan mantiq, astronomiya, matematika, va tibbiyot kabi sohalarga yo‘naltirilgan. Bu tafakkur diniy aqidalar bilan uyg‘unlashtirilgan va insoniyatning haqiqatni tushunishga bo‘lgan intilishlarini shakllantirgan.

MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. O'rta asr falsafasi qaysi davrni o'z ichiga oladi?

- A) IV-IX asrlar**
- B) V-VI asrlar va XI-XV asrlar**
- C) X-XI asrlar**
- D) III-V asrlar**

2. Xristian ijtimoiy falsafasining asosiy yutug'i nima?

- A) Erkinlik va tenglikni faqat dunyoviy qonunlarga asoslash**
- B) Jamiyatdagi adolat va tenglikni Xudoning hukmronligi bilan bog'lash**
- C) Siyosiy hokimiyatni xudolar orqali tashkil etish**
- D) Aksariyat insonlar o'rtasidagi tafovutlarni inkor etish**

3. Avliyo Augustinning "Xudo shahriga nisbatan" asarida qanday masala ko'rib chiqiladi?

- A) Insonning erkin irodasi**
 - B) Ijtimoiy hayotning Xudo bilan aloqasi**
 - C) Hukmdorning mas'uliyati**
 - D) Shariat qonunlarining ta'siri**
- 4. Islom falsafasining eng yirik vakillaridan biri kim?**
- A) Avliyo Tomas Akvinskiy**
 - B) Ibn Rushd**
 - C) Maimonid**
 - D) Avliyo Augustin**

5. Ibn Rushdning "Bidayat al-Mujtahid" asarida qanday masala tahlil qilingan?

- A) Xristianlik va Islomning diniy farqlari**
- B) Shariat qonunlari va dunyoviy qonunlar o'rtasidagi munosabat**
- C) Siyosiy hokimiyatning asoslari**
- D) Ijtimoiy tuzumdagi sinfiy tafovutlar**

6. Avliyo Tomas Akvinskiy nimalarni o'rgangan?

- A) Xudo va insonning erkin irodasini birlashtirish**
- B) Jamiyatdagi sinfiy tafovutlarni inkor etish**
- C) Diniy va dunyoviy qonunlarni uyg'unlashtirish**
- D) Hukmdorning ijtimoiy mas'uliyatini ta'kidlash**

7. O'rta asr falsafasida "sinfiy tafovutlar"ning ta'rifi qanday?

- A)Jamiyatda ijtimoiy tenglikni ta'minlash
- B)Insonlarning o'rtasidagi farqlarni tabiiy tarzda tasdiqlash
- C)Ijtimoiy tuzumni ixtiyoriy ravishda o'zgartirish
- D) Jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar

8. Maimonidning "Misnah Torah" asarida qanday yondashuv mavjud?

- A)Diniy qonunlarni inkor etish
- B)Ilmiy tafakkurga qarshi chiqish
- C)Diniy va falsafiy tafakkurni birlashtirish
- D) Xudo borligini isbotlash uchun ilmiy dalillar keltirish

9. O'rta asr ijtimoiy falsafasida ayollarning ijtimoiy o'rni qanday edi?

- A)Ayollarning huquqlari kengaygan va erkaklarga tenglashtirilgan
- B)Ayollar ijtimoiy va diniy hayotda yuqori o'ringa ega edi
- C)Ayollarning huquqlari cheklangan va erkaklardan pastroq holatda

edi

- D) Ayollarga ijtimoiy ro'llar berilmagan

10. O'rta asr falsafasining "ilmiy tafakkur" yo'nalishlari qaysilar edi?

- A)Tabiatshunoslik va hayotshunoslik
- B)Mantiq, astronomiya, matematika, tibbiyot
- C)Politika va iqtisodiyot
- D) San'at va adabiyot

11. "Erkin iroda" tushunchasi o'rta asr falsafasida qanday talqin qilingan?

- A)Inson erkinligini faqat din amr etadi
- B)Inson o'z erkinligini faqat jamiyat qonunlariga bo'ysundiradi
- C)Xudo irodasi bilan cheklangan va insonning irodasi erkin emas
- D) Inson faqat o'zining shaxsiy tanlovi bilan erkin

12. O'rta asr falsafasida "ijtimoiy adolat" qanday amalga oshirilgan?

- A)Adolat faqat sinfiy tafovutlar orqali ko'rsatilgan
- B)Xudoning hukmronligi asosida, ijtimoiy tartib Xudo tomonidan belgilangan

C) Insonning ijtimoiy erkinligi e'tiborga olinmagan

D) Ijtimoiy adolat, asosan, dunyoviy qonunlar bilan amalga oshirilgan

13. O'rta asr falsafasidagi "sinfiy tafovutlar"ning asosi nimada edi?

A) Diniy farqlarda

B) Ijtimoiy va iqtisodiy farqlarda

C) Falsafiy yondashuvlarda

D) Siyosiy hokimiyatdagi farqlarda

14. O'rta asr ijtimoiy falsafasining eng katta kamchiliklaridan biri nima edi?

A) Ayollarning huquqlari ko'paygani

B) Jamiyatda tenglik va erkinlikning mukammal ta'minlanishi

C) Sinfiy tafovutlar va ijtimoiy qatlamlarning hukmronligi

D) Ijtimoiy tizimdagi erkinlikning to'liq ta'minlanishi

15. Ibn Rushd qanday tamoyillarni muhim deb hisoblagan?

A) Siyosiy hokimiyatni butunlay inkor etish

B) Diniy va ilmiy tafakkurni uyg'unlashtirish

C) Xudo irodasini inkor etish

D) Ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun sinfiy farqlarni kuchaytirish

3-MAVZU. INSON FALSAFASI

Reja:

1. Inson falsafasi haqida umumiy tushuncha.
2. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi.
3. Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi.

Tayanch tushunchalar: antropologiya, antroposentrizm, epistemologiya, ekzistensializm, iluminasizm, individ, individualizm, inson, shaxs.

1. Inson falsafasi haqida umumiy tushuncha.

Inson falsafasi – insonning mavjudligi, mohiyati, maqsadi, hayoti va uning jamiyatdagi o'rnini haqida fikr yurituvchi falsafiy yo'nalishdir. Bu soha insonni o'z-o'zidan va atrof-muhit bilan aloqasi nuqtai nazaridan o'rganadi. Inson falsafasi, insoniyatning tabiati, maqsadi va mavjudligi haqidagi savollarga javob berishga qaratilgan falsafiy fikrlar yig'indisidir. Bu soha turli xil falsafiy yo'nalishlar, maktablar va an'analar orqali rivojlangan bo'lib, insonning o'zini anglashiga, axloqiy qadriyatlariga va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Inson falsafasi Insonning mohiyati nima? Inson erkinligi va mas'uliyati qanday amalga oshiriladi? Inson hayotining ma'nosi nimada? Inson boshqa insonlar bilan qanday munosabatda bo'lishi kerak? kabi savollarga javob berishga harakat qiladi.

Inson falsafasi falsafiy antropologiya deb ham ataladi. „Antropologiya“ so'zi yunoncha „antropos“ so'zidan kelib chiqqan bo'lib, inson haqidagi bilim, ta'limot degan ma'noni anglatadi. Ya'ni falsafiy antropologiya insonni falsafiy jihatdan barcha qirralarini o'rganuvchi fandir. Antropologiya insonni biologik, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, estetik jihatdan tahlil qiladi. Buni ayrim misollar yordamida ko'radigan bo'lsak, biologik antropologiya insonning evolyutsiyasini, populyatsion genetikasini, insonning eng yaqin qarindoshlarini, qon guruhlari va inson genomi bilan shug'ullanadi. Madaniy antropologiya esa etnografiyaga asoslangan bo'lib, ma'lum bir xalq to'g'risida, uning kelib chiqishi, urf-odatlarini, moddiy madaniyati, infratuzilmalari, gender

munosabatlari, dini, ramzlari, dunyoqarashi, ijtimoiylashuvi haqida ma'lumotlarni beradi.

Inson falsafasining asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

1. Ontologiya – insonning mavjudligi va uning tabiatini o'rganadi, insonning ruhiy va jismoniy holati haqida savollarni ko'taradi.

2. Epistemologiya – inson bilimining manbalari va cheklovlarini tahlil qiladi, qanday qilib haqiqatlarni anglashini o'rganadi.

3. Axloq falsafasi – inson axloqi, yaxshi va yomon tushunchalari haqida fikr yuritadi va haqiqiy axloqiy xulq-atvorni belgilashga harakat qiladi.

4. Psixologiya – inson ruhiyatini o'rganishga qaratilgan bo'lib, his-tuyg'ular va xulq-atvorini o'rganadi.

5. Inson erkinligi va mas'uliyat – insonning, erkinligi, huquqlari va ijtimoiy tenglik, majburiyat haqida o'rganadi.

6. Sotsiologiya – insonlararo munosabatlar, jamiyat tuzilishi va ijtimoiy tizimlarni tahlil qiladi³⁹.

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, insonning tabiati va shu kabi inson haqidagi fikrlarini bayon etmagangan faylasuf bo'lmasa kerak. Masalan, Sokrat, Platon, Aristotel – qadimgi Gretsiyada. Rene Dekart, Immanuel Kant, Fridrix Nitsshe, Jan-Paul Sartr - yangi davrda.

Xususan, buyuk faylasuf Sokratning inson to'g'risidagi qarashlari „o'zlikni anglash“ tamoyili asosida ochib beriladi. Ya'ni inson o'zining haqiqiy mohiyati va tabiatini bilishi, chegaralarini ko'ra olishi kerakligini ta'kidlagan. O'zlikni anglash borasida yana bir qancha faylasuflarning fikrlari mavjud. Jumladan, qadimgi xitoy faylasufi Lao Szi fikriga ko'ra, „boshqalarni biluvchi - oqil, o'zini biluvchi - donishmanddir“. Prtagorning: „Inson barcha narsalar mezonidir“, degan fikri juda mashhurdir. „Tangri saltanati bizning ichimizdadir“, deb o'rgatadi Iso Masih. Buddaviylarning: „O'zligingga nazar tashla, sen Buddasan“, degan chorlovi ham yuqoridagi fikrlarni ta'kidlaydi. Islomda „Kimki o'zini bilsa, u Allohni ham bilgaydir⁴⁰“, deyiladi. Shuningdek, Sokrat axloqiy bilimni o'rganishga katta e'tibor bergan. Unga

³⁹ „Existensializm is a Humanism“ Jean-Paul Sartre, 1946, Paris, Maintenant.

⁴⁰ Falsafa. Sh.O.Madaeva, „Mumtoz so'z" 2019.

ko'ra, yaxshilikni bilish va amalga oshirish oson, lekin insonlar ko'pincha notog'ri xulq-atvor qilishadi, chunki ular yaxshi va yomon haqida yetarlicha bilmaydilar. Sokrat muloqotda savol-javob usulidan foydalangan. Bu usul orqali u odamlarni o'z fikrlarini tanqidiy tarzda qayta ko'rib chiqishga undagan. Inson hayotining maqsadi baxtga erishishdir, lekin bu baxtga erishish faqat axloqiy fazilatlar orqali mumkin bo'ladi. Sokrat ijtimoiy adolat va daxldorlikni muhim deb hisoblagan. U shaxsning jamiyatdagi roli va mas'uliyatini tushunishni urg'ulamagan. Sokratning bu fikrlari zamonaviy falsafa va etikaga katta ta'sir ko'rsatdi va uning merosi bugungi kungacha davom etmoqda.

Sokratning shogirdi, qadimgi yunon falsafasining yirik namoyandasi Platon ham inson haqida juda ko'plab falsafiy qarashlarga ega bo'lgan. U „Inson ikki qismdan: ruh va tanadan iborat, ruh tanadan mustaqil va abadiydir“ degan fikrlarni bayon etgan. Platon idealizm g'oyalarini ilgari surgan, unga ko'ra hamma narsa ideal formada bo'lishi kerak. Ya'ni barcha narsalarning mukammal va o'zgarishlardan holi shakllari mavjud, inson o'zini ana shu shakl deb hisoblashi zarurligini ta'kidlagan. U bilimni tajriba orqali emas, balki aql orqali olish mumkin deb hisoblagan. Platon o'zining „Davlat“ asarida ideal jamiyat modelini ishlab chiqib, unda har bir inson o'z joyini bilishi, jamiyatda o'z vazifasini bajarishi kerakligini keltirib o'tgan. Axloqiy qadriyatlarga ham alohida e'tibor qaratib, adolat, go'zallik va yaxshilik kabi tushunchalarni mukammal tarzda tasavvur qiladi va insonlarni bu ideallarga mos ravishda yashashga chaqiradi⁴¹.

Aristotel (mil. avv. 384-322) - qadimgi yunon falsafasining eng mashhur va ta'sirchan namoyandalaridan biridir. Uning inson falsafasi, asosan, etik, psixologiya va metafizika sohalarida shakllangan. Aristotel inson falsafasiga oid bir qancha fikrlarni bayon etgan bo'lib, „Nikomax etikasi“ asarida keltirilishicha ular quyidagilar: Insonga „hayvon“ sifatida qaragan, lekin uni „ma'naviy hayvon⁴²“ deb atagan. U insonni boshqa hayvonlardan ajratib turadigan xususiyat - mantiqiy fikrlash qobiliyati ekanligini ta'kidlagan. „Eudaimoniya“ yunoncha „yaxshi ruh“, „baxt“ ma'nosini anglatadi, ya'ni insonning haqiqiy baxti va

⁴¹ Internet Encyclopedia of Philosophy, Plato's entry.

⁴² Aristotel „Nicomachean Ethics“

ma'naviy rivojlanishi. Aristotelning etikasi markazida eudaimoniya tushunchasi joy oladi. U inson hayotidagi maqsad – baxtli va to'laqonli hayot kechirish ekanligini ta'kidlaydi. Eudaimoniya faqat shaxsiy manfaatlar uchun emas, balki jamiyat va boshqalarga ham foyda keltirish orqali erishiladi. Fazilatlar – u fazilatlarni o'rganib chiqdi va ularni ikki toifaga bo'ldi: aqliy fazilatlar (bilim, donolik) va axloqiy fazilatlar (sabr-toqat, adolat). Fazilatlar - bu odatlarning o'zgarishi orqali shakllanadigan xususiyatlardir. O'qitish va o'rganish jarayonini tajriba orqali amalga oshirilishi kerakligiga, bilimni amaliy faoliyat bilan birlashtirishga ahamiyat beradi. Shuningdek, Aristotel insonga ijtimoiy mavjudot sifatida qaraydi, u inson birgalikda yashashi kerakligini va jamiyatda o'z rolini bajarishi zarurligini ta'kidlaydi. U moddiy (jismoniy) va nomoddiy (ruh yoki aql) elementlar o'rtasidagi munosabatni o'rganib, inson ruhini jismoniy tanadan ajratmaydi, balki ularning bir-biri bilan chambarchas bog'langanini ko'radi⁴³. Aristotelning bu fikrlari ko'p asrlar davomida falsafa, etika va psixologiya sohalariga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, uning asarlari hozirgi kunda ham keng tarqalgan tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

Immanuel Kant (1724-1804) – nemis faylasufi, gumanizm va iluminasizm⁴⁴ning asoschilaridan biri hisoblanadi. U inson haqidagi fikrlarini etik, epistemologiya (bilimshunoslik), va metafizika sohalarida rivojlantirgan. Kantning inson haqidagi asosiy fikrlari quyidagilar:

1. Insonning aqliy qobiliyati. Kant, insonni aqliy mavjudot sifatida ko'radi va uning fikriga ko'ra, inson tafakkur qilish, tushunish va bilim olish qobiliyatiga ega. U „Qayta tiklash“⁴⁵ asarida bilish jarayonini tahlil qilib, bilishimiz subyektiv va obyektiv elementlardan iborat ekanligini ta'kidlaydi.

2. Erkinlik. Kant erkinlikni insonning asosiy xususiyatlaridan biri deb biladi. U „Amal qilish uchun etika“⁴⁶ asarida erkin ixtiyor

⁴³ „Metaphysics“ Aristotel (mill. Avv. IV asr).

⁴⁴ Iluminasizm – ma'naviy va falsafiy harakat bo'lib, ko'pincha bilim, ongni oshirish va ichki nurga erishish bilan bog'liq. Bu tushuncha 18-asrda Yevropada rivojlangan. Iluminasizm davrida odamlar ilm-fan, ratsionallik va inson erki kabi konsepsiyalarga e'tibor qaratgan.

⁴⁵ „Kritik der reinen Vernunft“, Kant, I. 1781

⁴⁶ „Grundlegung zur Metaphysik der Sitten“, Kant, I. 1785

kontsepsiyasini ishlab chiqdi, bu esa shuni anglatadiki, odamlar o'z xatti-harakatlarini axloqiy qonunlarga muvofiq ravishda tanlashlari kerak.

3. Axloqiy qonun. Kant axloqiy falsafasining markazida „kategorik imperativ“ tushunchasi yotadi. Bu prinsip universalizatsiya deb ataladi va uning mazmuni shundan iboratki „Sizning xatti-harakatlaringiz shunday qoidaga asoslangan bo'lishi kerakki, siz uni hamma uchun umumiy qonun sifatida qabul qilishingiz mumkin“. Bu prinsip inson axloqi va axloqiy mas'uliyatga asoslangan⁴⁷.

4. Inson qadri. Kant insonni o'z-o'zining maqsadi sifatida ko'radi – bu esa har bir insonning muhimligini va ularning hurmatga loyiq ekanligini anglatadi⁴⁸. Bu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, u insonlarga boshqalarning maqsadlari uchun vosita sifatida qaramaslikka chaqiradi.

5. Tinchlik va adolat. Kant tinchlik va adolat prinsiplarini rivojlantirgan, u xalqaro munosabatlarda tinchlikka erishishga intilish zarurligini ta'kidlagan.

Rene Dekart (1596-1650) – fransuz faylasufi, matematik va tabiatshunos olim bo'lgan. U falsafaning asosiy masalalariga yangi yondoshuvlarni kiritgan, ko'plab ilmiy va falsafiy g'oyalarni rivojlantirgan⁴⁹. Uning eng mashhur g'oyalari „Cogito, ergo sum“ („Men o'ylayman, demak men mavjudman“) prinsipiga asoslanadi. U bilimning asosini aql sifatiga ko'rib, tajribani 2-darajali ahamiyatga ega deya baholaydi. U aql orqali kelayotgan bilimlarni ishonchliroq hisoblaydi. Dekart Xudoning mavjudligini isbotlash uchun bir necha argumentlarni keltirib, Xudo haqidagi tasavvurlarimizda mukammallik hissi borligini ta'kidladi va bu hissiyot Xudoning mavjudligi bilan izohlanishi mumkin deb hisoblagan. Shuningdek, Dekart dualizm g'oyasiga asos soladi, ya'ni ruh va jismlarning ikki xil mohiyatga ega ekanini ta'kidlagan⁵⁰. U ruhni materiyadan ajratib ko'rsatdi va ularning o'zaro munosabatlarini tushunishga harakat qildi. Shuningdek, o'z asarlarida inson mohiyati

⁴⁷ Allen Wood: „Kant's ethical thought“ (Kant etikasi haqida zamonaviy sharh).

⁴⁸ Paul Guyer: „Kant and the claims of knowledge“ (Kant epistemologiyasi haqida chuqur tahlil).

⁴⁹ Gaukroger S., „Descartes: An Intellectual Biography“, 1995.

⁵⁰ Descartes R., „Meditation on first Philosophy“ 1641.

masalasiga nisbatan butunlay o'zgacha yondoshuv bilan qaraydi. U „inson fikrlovchi narsadir“, deydi.

2. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi. Yangi davr insonga qiziqish asosan, ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki bilan bog'landi. Bu davrda insonga biluvchi subyekt sifatida yondashildi. Dekart insonning mohiyati, o'ziga xos xususiyatini uning tafakkuri, fikrlash qobiliyatida ko'rgan bo'lsa, XVIII asr fransuz materialistlari bo'lmish Didro, Golbax, Galvetsiy, Lametrilar – tabiatshunoslik va mexanika sohasida erishilgan yutuqlar ta'sirida insonning jonini ong bilan, tanasini esa – avtomat, mashina bilan tenglashtirib, uni mexanistik talqin qildilar. G'arb uyg'onish davrida inson o'zlikni anglash tuyg'usi va ijtimoiy nuqtayi nazari o'sishi natijasida o'z manfaatlarini ifoda eta boshladi. Inson shaxs sifatida kamol topdi, o'zini o'z shaxsiy hayoti va taqdirining bunyodkori sifatida tobora kuchliroq anglay boshladi. O'rta asrlar yevropa faylasufi Seneka qalb, ruh yetukligini, hurligini birinchi o'ringa qo'yadi. „Shunday narsani izohlash kerakki, hech nima unga hukmronlik qilolmasin, hech nima unga g'ov bo'lolmasin. Bu nima deysanmi? U mag'rur, oliyjanob, yuksak ruhdur⁵¹“, – deydi. Uning nazarida ezgulik, poklik, adolat va yetuklik izlagan kishi eng avvalo o'z ruhini ilohiy talablarga monand qilishi darkor. Ilohiylik – bir timsol, simvol, unga yetish kishi ixtiyoridadir. Kishi qayerda yashamasin, nimalarni izlamasin, kimlarga hamroh bo'lmasin o'zining ruhini poklamaguncha, uni yuksaklikka yo'naltirmaguncha hayotdan zavq, orom, buyuklik topolmaydi. Faylasuf kishidagi barcha illatlar umimg qalbi, ruhidagi nopok tuyg'ular tufaylidir deb biladi. Ba'zi kishilar boshqalarni pok, sofdil, ezgu amalli, xushaxloq kovrishni istaydi, hatto ulardan ilohiy sifatlarni talab etadi, o'zida yo'q xislatlarni boshqalardan talab etish zo'ravonlik bo'lmasa-da, axloqsizlikdir.

Hozirgi davrda fanning yangi sohasi bo'lmish kibernetikaning muvaffaqiyatlari munosabati bilan jonsiz tabiat predmetlarida ham fikrlash qobiliyati bor deb qaralmoqda. Turli boshqaruvchi sistemalarni va boshqaruv jarayonlarini o'rganuvchi kibernetika fani asosida ajoyib mashinalar yaratildi. Ulardan ayrimlari samolyotlarni, poyezdlarni yoki

⁵¹ Seneka L.A. „Nravstvenniye pisma k Lutsiliyu“. – Kemerovskoye 1986.

murakkab ishlab chiqarish jarayonlarini boshqara olsa, boshqalari matnni tez va aniq bir tildan boshqa tilga tarjima qiladi, eng qiyin matematik topshiriqlarni bajaradi va hokazo. Bu mashinalar tashqaridan turli ma'lumotlar olishga, ularni „esda saqlab qolishga“ layoqatlidir. Bu esa ayrim olimlarning „aqli mashinalar“ sezish va hatto, fikrlash qobiliyatiga egadir, deb aytishiga bahona bo'ldi. Xo'sh, bu kabi kibernetik mashinalarni takomillashtirishning chegarasi bormi? Mashinalar o'z yaratuvchisi bo'lgan insondan o'zib ketishi va undan aqlliroq chiqishi mumkinmi? Bunday savollarga hozircha javob yo'q. Bu bahslarda turli nuqtai nazarlar ta'rifi mavjud. Kibernetika asoschisi N.Viner hisob mashinalarining imkoniyatlarini kattalashtirib yubormaga holda ularning fahm-farosatga o'xshash xislati bo'lishi kerak degan fikrni aytgan edi. Akademik A.Kolmagarovning fikriga ko'ra, avtomatlar eng murakkab sistemalar, masalan, tirik organizmlar va hatto inson miyasidek barcha asosiy xossalarga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday sistemalar uchun avtomatlar degan so'zning o'zi birmucha – shartli bo'lib, biz ularni tirik mavjudotlar deb atashimiz mumkin bo'ladi.

Nevrolog Pol Kossa fikricha, inson yasagan mashina uning ishtirokisiz hech narsa qila olmaydi. Mashina inson xohlagan holatdaligicha, ya'ni ajoyib qurol holdagicha qolaveradi. Mashinada fikr qilish qobiliyati butunlay yo'q bo'lib, ijodchisining fikrini aks ettiradi, xolos. Chunki u ongdan batamom mahrumdir. Akademik A.Berg esa kibernetika sanoatda ham, fanda ham, ijtimoiy hayotda ham inson o'rnini bosa olmaydi, hech qachon mashina jamiyati mavjud bo'la olmaydi, deb ta'kidlaydi. Insoniyat bir necha asrlardan buyon miya faoliyati haqidagi bilimlarni to'plashga urinib keldi va bu hozir ham davom etmoqda. Miya kishiga bilish, yaratishdek kata baxt keltiradi, koinot qa'riga chiqib borishga, bepoyon va benihoyat atom sirlarini bilishga imkon beradi. Miya murakkab biologik organizm bo'lib, uning o'rtacha vazni 1000-1400 gramm keladi. Odam miyasining mutlaq vazni qariyb barcha hayvonlarning miyasi vaznidan katta. Miya vaznining gavda vazniga teng nisbati jihatidan esa, inson umuman barcha hayvonlardan ancha yuqori turadi. Inson miyasida 14 milliarddan ortiq nerv hujayralari bo'lib, ularning kattaligi 5-200 mikron chamasi keladi. Inson xotirasi

murakkabligi, samaradorligi jihatidan mashina xotirasidan ancha ustun turadi. Kibernetik mashinaning „elektron miyasi“ issiqda, sovuqda, namlikda, silkinishda ishlay olmagani holda inson miyasi esa bunday sharoitga osonlikcha moslasha oladi. Shuningdek, inson miyasi tejamli ishlashidan tashqari juda puxta sistemadir. Kibernetik mashinaning biron joyi ishdan chiqsa, butun mashinaning ishi to‘xtab qolishi mumkin. Insonda esa unday emas, agar inson biron a‘zosi ishdan chiqsa (masalan ko‘zi ko‘rmay qolsa) ham yashayveradi, o‘z faoliyatini davom ettiraveradi. Har qanday texnika va mashinalarning yaratilishi inson bilan bog‘liq, ular inson faoliyatining natijasidir. Shu sababdan ham biz J.Lametri(1709-1751)ning fikriga qo‘shilmaymiz. Inson - mashina emas, balki mashinadan murakkab va mukammal jonzotdir. Mashina – bu inson faoliyatining bir mahsuli xolos.

Yuqoridagi faylasuflarning fikrlarining bunday rang-barangligi sababini insonning o‘z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, asosiy muammolardan biri hisoblanib, hali-hanuz unga qayta-qayta murojaat etiladi. Bu yerda insonning kelib chiqishi haqidagi muammo eng muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qayerdan va qanday paydo bo‘lgani haqidagi g‘oyalarning eng muhimlarini ajratib oladigan bo‘lsak, insonning kelib chiqishini ikkita asosiy konsepsiyaga bo‘lish mumkin. Birinchi konsepsiya – insonning tabiiy kelib chiqishi haqida. Bunda insonning kelib chiqishi tabiat qonunlari bilan bog‘lanilib, inson avval jonsiz, keyin esa jonli moddaning tabiiy evolyutsiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya 1859-yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmiy talqiniga asos bo‘lgan Ch.Darvinning „Hayvon va o‘simlik turlarining kelib chiqishi haqida“ deb nomlangan evolyution nazariyaga tayanadi. Yana shuni ta’kidlab o‘tish joizki, insonda nafaqat o‘ta rivojlangan tirik jonzotlar, balki o‘ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o‘xshashlik mavjud. Masalan, bunday o‘xshashlik shimpanze bilan 98%, kalamush bilan 80% va hatto banan bilan 50%ni tashkil etadi. Ikkinchi konsepsiya g‘ayritabiiy, ya’ni insonga Xudo yoki kosmik aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, uni g‘ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi konsepsiyaga yon bersa-da, lekin falsafiy nuqtai nazardan u insonning tabiiy-ilmiy kelib chiqishi konsepsiyasi kabi

mavjudlik huquqiga egadir, zero har ikkala yondoshuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

Sharq mutaffakkirlari ham inson muammosini o'rganib, o'zlarining falsafiy qarashlarini bayon etganlar. Xususan, Abu Nasr Farobiy „Inson shaxsini shakllantiradigan, uni boshqa maxluqotlardan ajratib turadigan va unda insoniy xislatlarni rivojlantiradigan narsa uning faol aqlidir. Bu kuch avvalboshda faqat qobiliyatdir, bu quvvat o'ylash, mulohaza yuritishga qobil, ammo hayotga tatbiq etish, ya'ni joriy qilishga qobil emas“ deb hisoblaydi. Aqlni hayotga tatbiq etish uchun, unga tashqi kuch ta'sir etishi kerak, bu esa faol aqlidir. Faol aql – mustaqil quvvat bo'lib, o'z mohiyati, birinchi va ikkinchi va boshqa sabablar mohiyati haqida fikrlay oladi. Aynan shu faol aql odam imkoniyatlarining tashqi voqealarga ta'sir etishi va uni rivojlantirishga turtki beradi. Farobiy ta'biri bilan aytganda „moddiy aqldan amaliy aql yuqoriroq pillapoyasiga ko'tariladi va uning faol aqlga munosabati quyosh bilan ko'zni solishtirgandek bo'ladi“. Agar quyosh bo'lmasa, inson narsalarni ko'ra olmaydi. Faol aql quyoshi inson ruhida paydo bo'lganidan keyin, aqliy quvvat faol aqlga qaraydi. Inson tabiat gultoji, ya'ni aqlli mavjudot. Shuningdek, „Odamlar o'zlarining xos xususiyatlariga va tabiiy ehtiyojlariga ko'ra jamiyat tuzadilar. Ularning harakat va fe'llarini dastavval bora-bora odatlarga aylanadigan tabiiy qonuniyat belgilaydi“. Demak, inson o'zini dunyodan oldinroq va ko'proq biladi, ayni shu sababi u dunyoni o'zidan keyin va o'zi orqali anglab yetadi. Ya'ni insonda mutlaq borliq, insondan tashqarida esa - nisbiy borliq namoyon bo'ladi. Inson barcha yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan o'ziga xos, betakror va barkamol mavjudot – cheksiz mikrokosmos sifatida ham, inson tabiatning norasoligi va buzuqligi tufayli halokatga mahkum bo'lgan tabiat xatosi sifatida ham, Xudo yaratgan banda sifatida ham, boshqa odamlar faoliyatining mahsuli sifatida ham talqin qilinadi. „Inson shunday maxluqotki, u faqat jamiyatda o'z ehtiyojlarini qondirishi va oliy ma'naviy darajaga ko'tarilishi mumkin⁵²“. Inson o'z tabiatiga ko'ra hayotini tartibga keltirish, mustahkamlash va takomillashtirish uchun boshqa insonlarga muhtoj bo'ladi. Yakka holda

⁵² Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

hech kim buning uddasidan chiqolmaydi. U o'z hayotining me'mori, ijodkori bo'lmog'i, o'zida fozila xislatlar, iste'dodlarni tarbiyalashi lozim. Bunga esa u jamiyatda yashab faoliyat ko'rsatgandagina erishadi. Inson ijtimoiy mavjudot. Yolg'izlik, uzlat uni qashshoqlashtiradi, insoniy qiyofasini va baxtga olib boradigan iste'dodini yo'qotadi. Ibn Xaldun ham insonga ijtimoiy voqelik sifatida qaraydi. Undan ijtimoiy mohiyat izlaydi. Inson jonzot sifatida ezgulik va yovuzlik olamidir. Shunga ko'ra, u umrining har daqiqasini yovuzlikdan ko'ra ezgulikka, yomonlikdan ko'ra yaxshilikka, nafratdan ko'ra muhabbatga intilib yashashga mahkum etilgan aql sohibi, bebaho ne'matdir. Sharqning buyuk allomasi Yusuf Xos Hojibning fikricha inson dunyoda abadiy emas, bu dunyoga kelgan har qanday odam vaqti kelgach ketadi. Inson umrining qimmatini necha yil yashagani bilan emas, qanday ezgu ishlarni amalga oshirganligi, hayotda qoldirgan izi bilan belgilanadi. U kishi olamdan o'tgandan so'ng, bu dunyoda undan ikki xil, biri yomon, biri yaxshi degan nom qoladi. Inson iloji boricha o'zidan yaxshi nom qoldirishi, yaxshi olqish olishi lozim deb ta'kidlagan. Yana bir Sharq mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy jahon fanida birinchi marta inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan sifatida o'rgandi. U „odamlar tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, odam yashaydigan joyning turlichaligi hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan bu iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan⁵³“, deb hisoblaydi. Beruniyning fikricha, insonning fe'l-atvori va ma'naviy qarashlari, surati va siyrati bevosita tabiiy muhit ta'sirida shakllanadi. „Inson o'z tabiatiga ko'ra murakkab tanaga egadir. Insonning tanasi bir-biriga qarama-qarshi qismlardan iborat bo'lib, bu qismlar tobeklik kuchi asosida birlashgan“. Beruniyning fikriga ko'ra, hamma odamlarda o'zaro bir-biriga o'xshash va ayni paytda farq qilib turadigan jihatlar mavjud. Shuningdek, Ibn Sino ham inson haqida fikrlarini bildirib, shunday degan: „Inson boshqa barcha

⁵³ Beruniy. Tanlangan asarlar. 1jild. –Toshkent: Fan, 1968.

hayvonot olamidan soʻzi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi. Inson aqli turli fanlarni oʻrganish yordamida boyiydi“.

Qadimgi Sharq, xususan Xitoy falsafiy tizimlari asosan sotsiosentrik konsepsiyalardan iborat boʻlib, ularda inson, odatda, jamiyat bilan uzviy bogʻliq deb qaraladi. „Ideal munosabatlar qonuni“ga odamlar oʻrtasida, oila, jamiyat, davlatda rioya qilish inson hayotining muhim maʼnosi hisoblanadi. Bunga jamiyatda qabul qilingan meʼyorlar, qoidalar, rasm-rusumlar va shu kabilarga izzat-ikrom bilan yondashish imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, inson oʻz shaxsiy hayotini doim jamiyat ravnaqi, kamoloti bilan oʻlchashi lozim, xususan, u keyinchalik oila va davlatni takomillashtirishga harakat qilish uchun oʻzini kamol toptirishi lozim. Shu maʼnoda mashhur qadimgi Xitoy faylasufi Konfutsiyni fikrlari diqqatga sazovor boʻlib, u shunday deb saboq beradi: „qilmishlarning asoslari va tamoyillarini oʻrgansang, yaxshilik va yomonlik haqidagi fikrlaring (axloqiy bilimlar) barkamollikning eng soʻnggi darajasiga yetadi. Niyat sof va xolis boʻlsa, qalb rostgoʻy va samimiy boʻladi, qalb rostgoʻy va samimiy boʻlsa, inson toʻgʻri yoʻlga kiradi, kamol topadi. Inson toʻgʻri yoʻlga kirib kamol topsa, oilada tartib oʻrnatiladi. Oilada tartib hukm sursa, xalqlarni boshqarish osonlashadi. Xalqlarni boshqarish osonlashsa, butun dunyo tinch-totuv yashaydi“.

Qadimgi hind falsafasiga insonning ichki dunyosini birinchi oʻringa qoʻyish, yaʼni antroposentrizm xosdir. Masalan, buddizmda nirvanaga erishish inson barcha niyatlarining pirovard maqsadi deb eʼlon qilinadi. Nirvana(soʻnish) jonning shunday bir holatiki, bunda har qanday mayllar yoʻqoladi va ichki uygʻunlik yuzaga keladi, mutlaqo erkinlik va tashqi dunyoga qaram emaslik tuygʻusi paydo boʻladi. Qadimgi hindlarning yana bir diniy-falsafiy taʼlimoti – jayнизм nuqtai nazaridan inson oʻzining maʼnaviy mohiyati bilan moddiy mohiyatni nazorat qilish va boshqarishga erishish uchun uzoq va ogʻir yoʻl – jonning erkinlashuvi yoʻlini bosib oʻtishi lozim.

Inson falsafasi koʻp qirrali fan boʻlib, u nafaqat individ sifatida insonga balki uning jamiyatdagi oʻrniga ham taʼsir qiladi. Bu soha doimiy ravishda rivojlanmoqda va yangi savollarni murojaat qilishga undamoqda. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va globalizatsiya kabi omillar

insonga bo'lgan munosabatlarni tubdan o'zgartirmoqda. Tabiat haqida bilimlar to'planishi va ularning rivojlanishiga qarab, odamzotning o'z-o'ziga bo'lgan qiziqishi ham kuchayib bordi, inson borlig'ining bu sohadagi tadqiqotlar uchun yanada kengroq imkoniyatlar yaratuvchi yangi va o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Odatda, jamiyat hayotida tarixan qisqa vaqt ichida jiddiy va teran o'zgarishlar yuz bergan, insoniy munosabatlar negizini tashkil etuvchi eskicha tasavvurlar va qarashlar ta'sirida butunlay o'zgargan davrlarda insonga bo'lgan falsafiy qiziqish ayniqsa kuchaygan. Bunday davrlarda falsafada insoning mohiyati, uning burchi, vazifasi va yuz berayotgan voqealar uchun javobgarligi haqidagi azaliy masalalarga bo'lgan qiziqish yanada kuchaygan. Shunday qilib, falsafaning ontologiya, gnoseologiya, etika, estetika kabi bo'limlari bilan bir qatorda, inson haqidagi bilimlar sohasi asta-sekin shakllanib bordi. Bu yerda inson nafaqat turli tomonlardan tahlil qilindi, balki uning ijtimoiy, tabiiy va kosmik jarayonlar bilan o'zaro aloqalari ham o'rganildi.

Insonni bilish borasidagi ko'p asrlik sa'y-harakatlarni bir yerga jamlab, ularning orasidan uzil-kesil yechilgan deb hisoblash mumkin bo'lganlarini ajratib olsak, shubhasiz yutuqlar soni uncha ko'p bo'lmaydi. Ular orasida avvalo shu dalilni qayd etish lozimki, insonning paydo bo'lishi Yerda hayotning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u o'z ibtidosi va muayyan tarixiga egadir. Xususan, 1982-yil Vaikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan xulosaga keldilar. Falsafiy antropologiya doirasidagi muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masala alohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyutsiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun ham aniq-ravshan va deyarli shakl-shubhasiz dalilga aylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir⁵⁴. Biroq ayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot

⁵⁴ Inson falsafasi. N.A.Shermuxeimedova, Toshkent. „Innovatsiya ziyo“ , 2021.

ekanligi, uning o'ziga xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy va axloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shakshubhasizdir. Inson nafaqat bioijtimoiy mavjudot, balki unda fizik, kimyoviy, psixoneyrofizik mavjudot hamdir. U tabiiy olamda bo'lgani kabi 70% suvdan tarkib topgan va kimyoviy elementlarning yig'indisidir. Aynan shu sababli inson individi nafaqat ijtimoiy, balki biologik mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqacha aytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida u nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan muayyan obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Ya'ni, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shunday qilib, individ muayyan insonning umumiy obrazi sifatida amal qilsa, individuallik uni muayyan o'ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflasa, „shaxs“ tushunchasiga yanada torroq ma'no yuklaydi, chunki ayni holda inson uning barcha ijtimoiy sifatlari bilan jamuljam holda olinadiki, bu faqat ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu tizimini nazarda tutgan holda shaxs to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Ya'ni keng talqinga yo'l qo'yadigan „individ“ va „individuallik“ tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. „Shaxs“ tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog'liq bo'lib, faqat shu ma'noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o'rni, „ijtimoiy qiyofasi“ nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. Shuningdek, inson yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, o'z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro'yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Bu omillar o'zaro ta'sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida ovziga xos

xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo'ljallar, ma'naviyat va shu kabilarga ega bo'ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o'ynashini qayd etish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy e'tirof etilgan me'yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma'noda ijobiy shaxslar to'g'risida ham, salbiy shaxslar to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolyutsiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o'zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, odamlar ongidan umuminsoniy me'yorlar mustahkam o'rin olishi bilan bog'lamoqdalar. Bunda inson o'zining butun umri mobaynida, bir tomondan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o'zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit ta'sirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini e'tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o'zining kamol toppish jarayonida u doim ham subyekt, ham obyekt hisoblanadiki, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

„Inson“ – yoshlar , o'rta yoshlilar, qariyalardan iborat guruhlariga bo'lingan ijtimoiy voqelikdir. Qariyalar ijtimoiy demografik guruh bo'lib, ular o'z xususiyatiga egadirlar. O'zbekistonda erkaklarni 60 yoshdan, ayollarni esa 55 yoshdan pensiya safiga kiritish mumkin. Mana shu yoshdan boshlab shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi aloqa o'zgara boshlaydi. Ma'lumki, qarilik ayrim hollarda mehnatga layoqatsizlikni, yordamga muhtojlik va turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shunday hollarda har bir millatga xos urf-odat, qadriyatlar, diniy e'tiqod, insoniy tamoyillarga asoslangan hayot tarzi qariyalarga bo'lgan munosabatni belgilab beradi. Shu ma'noda Sa'diy Sheroziyning „Inson nimadan boshlanadi?“ degan savolga hech ikkilanmasdan: „Inson marhumga motam tutishdan

boshlanadi“, deb javob beradi va „Dunyoga kedimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim⁵⁵“ deb ta’kidlaydi.

3. Falsafiy antropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi.

Falsafiy antropologiya yunoncha „sophia“ – donishmandlik, „anthropos“ – inson va „logos“ – ta’limot degan soʻzlardan tarkib topgan boʻlib, inson haqidagi falsafiy ta’limotni anglatadi. Falsafiy antropologiya insonning alohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining oʻziga xos xususiyatlariga doir falsafiy qarashlarni aks ettiradi.

Shu ma’noda falsafiy antropologiyaning ilk ildizlariga XVIII asr fransuz mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin. Ammo Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning „birdan-bir, universal va oliy“ predmeti darajasiga koʻtaruvchi antropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan va asoslab bergan Feyerbax sa’y-harakatlari bilan falsafiy antropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi. Falsafiy antropologiya XX asrning 20-yillarida asosan nemis faylasuf va sotsiologi, mutafakkirlari M.Sheler, A.Galen va X.Plenser asarlari ta’sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, Shelerning „Insonning kosmosdagi oʻrni“ asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. Sheler falsafiy antropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdan anglab yetishda birlashtiruvchi rol oʻynashi lozim, deb hisoblaydi. U „Falsafiy antropologiyaning vazifasi insonning barcha oʻziga xos monopoliyalari, ishlari va amallari: til, vijdon, asboblari, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borligʻining asosiy strukturasidan qanday kelib chiqishini aniq koʻrsatib berishdan iboratdir⁵⁶“, deb qayd etadi.

Jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va boshqa ziddiyatlarni Sheler inson, uning shaxsiyati inqirozining alomatlari deb hisoblaydi. U inson shu paytgacha hali hech qachon bu darajada „muammoli“ boʻlmaganligini ta’kidlaydi. Buning asosiy sababini Sheler insonni oʻrganish antropologik tafakkurning bir-biri bilan

⁵⁵ Sa’diy Sheroziy. Ruboiylar. -Tashkent: Sharq, 1995.

⁵⁶ Sheler. „Tanlangan asarlar“ Moskva: 1994.

uncha bog'liq bo'lmagan turli yo'nalishlari – teologik, falsafiy, tabiiy-ilmiiy antropologiya doirasida amalga oshirilishida ko'radi. Uning fikriga ko'ra, falsafiy antropologiyaniing vazifasi inson borlig'i strukturasidan insonning barcha ishlari va amallari, shu jumladan til, fan, mif, san'at, din, jamiyat, davlat, tarix, g'oyalar, vijdon va insonni tavsiflovchi boshqa omillar qanday kelib chiqishini ko'rsatib berishdan iborat. Shu nuqtai nazardan inson falsafasi barcha fanlar fani maqomini kasb etadi.

Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtai nazaridan inson haqidagi ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa falsafiy antropologiya shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatladi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Falsafiy antropologiya izlanishlarining bosh mo'ljali va o'zagini inson va faqat inson tashkil etadi. Shu ma'noda falsafiy antropologiyani antroposentristik falsafiy ta'limot deb nomlash mumkin, chunki unda inson atrofida borliqning boshqa barcha muammolari aylanuvchi o'ziga xos „markaziy o'q“ hisoblanadi. Falsafiy antropologiyaniing antroposentrizmi falsafaning tadqiqot markazida inson turishi bilangina emas, balki uning barcha maktablari uchun inson dunyoning markazi hisoblanishi bilan belgilanadi. Mazkur yondoshuv zampirida antic falsafaning Protogor ta'riflab bergan „Inson hamma narsalar mezonidir“, degan tamoyili yotadi. Falsafiy antropologiyaniing antroposentrizmi Yevropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi.

Shunday qilib, ko'pgina faylasuflar tomonidan qo'yilgan „Inson nima?“, degan savol Yevropa falsafiy antropologiyasi uchun uning falsafiy muammolari majmuini belgilovchi bosh masala hisoblanadi va u falsafiy tafakkurning boshqa yo'nalishlaridan aynan shu jihatdan farq qiladi. Falsafiy antropologiya insonning borlig'i nuqtai nazaridan inson

haqidagi ta'limotdir. Inson va uning borlig'i to'g'risidagi mulohazalar muammolarning keng doirasini qamrab oladi. Bularning barchasi antropologizm, ya'ni insonning mohiyati muammolarini izchil o'rganuvchi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi – tor ma'nodagi falsafiy antropologiya to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Keng ma'noda esa falsafiy antropologiya shu jumladan inson, uning tabiat va jamiyatdagi borlig'i haqidagi ta'limotni ham o'z ichiga oluvchi falsafiy qarashlar tizimi sifatida maydonga chiqadi.

Falsafiy qiziqishlar markazida tabiat va inson mohiyati to'g'risidagi masala turuvchi falsafiy antropologiya fani o'rganadi. Antropologik yondoshuv inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi, insonning ekzistensial tahlili bilan shug'ullanadi. „Ekzistensiya“ tushunchasi taqqiqotchining fikrini, avvalo, inson qilmishlari va azob-uqubatlarida namoyon bo'luvchi inson hamda dunyo aloqalarini izlash, aniqlash tomonga yo'naltiriladi. Ekzistensializm insonni ilmiy metodlar yordamida bilib bo'lmasligi haqidagi g'oyani qattiq himoya qiladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Yevropa sivilizatsiyasida insonparvarlikning taqchilligi fanga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keldi. Insonning haqiqiy mavjudligi, ya'ni ekzistensiya uning obyekt tarzidagi haqiqiy borlig'iga teng emas. Atamalar, tushuncha va abstraksiyalar bilishning ilmiy obyektivligini insonning haqiqiy borlig'idan uzoqlashtiradi. Inson doim hayotida muayyan yo'lni tanlash holatida bo'ladi, u o'zlikni anglash yo'lida ko'p karra o'zgaradi. Ekzistensializm asoschisi S.Krekegor an'anaviy fandan voz kechib, haqiqiy ekzistensiya sari yuksalishning ancha izchil uch bosqichli nazariyasini taklif qildi. Tashqi borliqni aniqlash bilan bog'liq birinchi – estetik bosqichda lazzatlanishga intilish yetakchilik qiladi. Ikkinchi – axloqiy bosqichda burch hissi va axloq qonuni me'yorlari hukm suradi. Uchinchi – diniy bosqichda ongli ravishda qabul qilingan azob-uqubat mavjudlik prinsipi hisoblanadi. Bu o'z kechinmalarini xayoldan o'tkazish borliqning yangi „transsendent“ mezonini tushunib yetish imkonini beradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, odam zotining ona zamindagi hayoti, inson umri, uning ma'nosi, shaxs kamoloti bilan bog'liq masalalar

tavsifi va ularga nisbatan yondoshuvlar xilma-xilligi davom etmoqda. Insonning imkoniyatlari, qobiliyatlari va qator sifatleri to'g'risida yangi qarashlar paydo bo'lmoqda.

Lekin bir narsa aniqki, haligacha hech kim bu masalada nima asl haqiqat, nima ikkilamchi, nimaning ahamiyati boshqasidan ko'p yoki kamligi haqida mutlaq to'g'ri va hamma tan oladigan xulosaga erisha olgani yo'q. Balki buning iloji ham yo'qdir va bunday haqiqat kerak ham emasdir. Agar bunday haqiqatlarga erishilsa doimo yangilikka, kashfiyotlarga intiladigan inson uchun bu dunyoning qizig'i ham qolmasligi mumkin. Bu esa odam zoti mavjud ekan uning uchun o'zi va boshqa odamlar, ularning hayoti, faoliyati, insonlar orasidagi munosabatlar, aloqalar, shaxsning olamdagi va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq masalalar azaldan to' abadgacha mavjud va dolzarb bo'lib qolaverishidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o'rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'yorlarni poymol etib, ko'proq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar yo'lida hatto jinoiy guruhlariga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladilar. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, hokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korrupsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyohvand, poraxo'r, terrorchi va shuhratparastlar kabi jmiyat uchun noxush odamlardir.

Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini e'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliy manfaat va ijtimoiy qadriyatarni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarni egallash orqali O'zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari

uyg'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezoni va uning oldida turgan muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Falsafa asoslari. Q. Nazarov. „O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati“ 2018.
2. Falsafa. Sh.O.Madaeva, „Mumtoz so‘z“ 2019.
3. „Inson falsafasi“ N.Shermuxeimedova, Toshkent. „Innovatsiya ziyo“ , 2021.
4. „Inson falsafasi“ Anvar Choriyev. „O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti“ 2007.
5. Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
6. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild. –Toshkent: Fan, 1968.
7. Sa'diy Sheroziy.Ruboiylar.-Tashkent: Sharq, 1995.
8. Internet Encyclopedia of Philosophy, Plato's entry.
9. Sheler. „Tanlangan asarlar“ Moskva: 1994.

MAVZU YUZASIDAN GLOSSARIY

Antropologiya – so‘zi yunoncha „antropos“ so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, inson haqidagi bilim, ta’limot degan ma’noni anglatadi. Ya’ni falsafiy antropologiya insonni falsafiy jihatdan barcha qirralarini o‘rganuvchi fandir. Antropologiya insonni biologik, madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, estetik jihatdan tahlil qiladi. Antropologiyaga doir fikrlar bundan bir necha ming yil ilgari paydo bo‘lganiga qaramay, u fan sifatida faqat XIX asrning 2-yarmidan shakllana boshladi. Antropologiya muhim sohasi – odam organizmining tuzilishi va rivojlanishiga ta’sir qiladigan fiziologik, biokimyoviy va genetik omillarni o‘rganadigan bo‘limi – „Odam biologiyasi“ degan umumiy nom bilan -asr o‘rtalaridan boshlab rivojlandi. Odamning paydo bo‘lishida faqat tabiat olamining qonuniyatlarigina emas, balki ijtimoiy omillar ham muhim rol o‘ynagan. Odam paydo bo‘lgandan hozirgi holatigacha uning butun hayoti ijtimoiy jamiyatning rivojlanish qonuniyati bilan chambarchas bog‘langan.

Antropologiyaning fan bo'lib rivojlanishida tabiat va jamiyat to'g'risidagi fanlar ijobiy rol o'ynadi.

Antroposentrizm – voqea-hodisa to'g'risidagi atama (yunon. anthropos – inson, sentron – markaz). Bu tasavvurga ko'ra, inson-koinot markazi bo'lib, olamdagi barcha voqea-hodisalar o'zgarishning tub maqsadidir. Antroposentrizmga ko'ra, inson tabiatdan ustundir, tabiiy resurslar va ekologik muhit inson manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak. Bu qarash sanoat rivojlanishiga va texnologik taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatgan. Axloq va qadriyatlar insondan kelib chiqadi, axloqiy normalar va qadriyatlar inson hayoti va farovonligiga qaratilgan. Ilm-fan va falsafiy izlanishlar markazida inson turadi, inson o'zining bilimi va tajribasi orqali olamni o'rganadi va tushunadi. Antroposentrizm Yevropa madaniyati asoslaridan biri sanalgan xristianlik mafkurasidan ham kelib chiqadi. Aynan xristianlik dunyoviy hayot markaziga insonni qo'yadi, uni Xudo o'ziga o'xshatib yaratgan, degan g'oyani ilgari suradi. Protogorning „Inson barcha narsaning mezonidir“ degan fikrlari ham antroposentrizmning mohiyatini ochib beradi.

Epistemologiya – inson bilimining manbalari va cheklovlarini tahlil qiladi, qanday qilib haqiqatlarni anglashini o'rganadi. U bilish qonuniyatlari va imkoniyatlari, bilimning obyektiv reallikka munosabatini o'rganadi, bilish jarayonining bosqichlari va shakllarini, bilishning ishonchliligi va haqqoniyligi shartlari va mezonlarini tadqiq qiladi. Bilish nazariyasi hozirgi zamon fanida qo'llaniladigan usullar (tajriba, modellashtirish, analiz, sintez va hokazo)ni umumlashtirib, uning falsafiy metodologik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Bilish jarayonida tajriba va amaliyotning katta ahamiyati bor. Bu yerda amaliyot keng ma'noda bo'lib, insonning jamiyatga ta'siri, tabiat hodisalarini o'zgartirishi, yangi narsalar, jamiyatning yashashi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishi tushuniladi. Kishilarning tabiat qonunlari haqidagi bilimiga asoslangan amaliy faoliyatlari bilish taraqqiyotini, fan va texnika ravnaqini belgilaydi. Sezgi, tasavvur va tushunchalarimizning obyektivligini tekshirish bilish jarayonining eng muhim vazifasidir.

Ekzistensializm – „Ekzistensiya“ tushunchasi taqdiqotchining fikrini, avvalo, inson qilmishlari va azob-uqubatlarida namoyon bo'luvchi

inson hamda dunyo aloqalarini izlash, aniqlash tomonga yo'naltiriladi. Ekzistensializm insonni ilmiy metodlar yordamida bilib bo'lmashligi haqidagi g'oyani qattiq himoya qiladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Yevropa sivilizatsiyasida insonparvarlikning taqchilligi fanga bo'lgan ishonchning yo'qolishiga olib keldi. Insonning haqiqiy mavjudligi, ya'ni ekzistensiya uning obyekt tarzidagi haqiqiy borlig'iga teng emas. Atamalar, tushuncha va abstraksiyalar bilishning ilmiy obyektivligini insonning haqiqiy borlig'idan uzoqlashtiradi. Inson doim hayotida muayyan yo'lni tanlash holatida bo'ladi, u o'zlikni anglash yo'lida ko'p karra o'zgaradi.

Illuminasizm – ma'naviy va falsafiy harakat bo'lib, ko'pincha bilim, ongni oshirish va ichki nurga erishish bilan bog'liq. Bu tushuncha 18-asrda Yevropada rivojlangan bo'lib, u ilm-fan, mantiq va sabablilikka asoslangan fikrlashni targ'ib qilgan. Illuminasizm davrida odamlar ilm-fan, ratsionallik va inson erki kabi konsepsiyalarga e'tibor qaratgan. Illuminasizm falsafada bilish nazariyasiga oid qarash bo'lib, inson ongi va ma'naviyatini rivojlantirish orqali chin haqiqatga yetishish mumkin, deb hisoblaydi. Illuminasizm natijasida ko'plab ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bu harakat O'rta asrlarning qattiq nazoratidan keyin inson erkinligi, huquqlari va demokratiya prinsiplari rivojlantirishga olib keldi.

Individ – (lot. individuum „bo'linmas“) – shaxs. Individ – alohida, mustaqil holda mavjud bo'lgan organizm, shaxsning o'ziga xos mavjud bo'lish usuli. „Individuallik“, „individuallik“ triadasi sotsiologiya, ijtimoiy falsafa va falsafa tomonidan inson mavjudligining turli tomonlarini tasvirlash va aks ettirish uchun ishlatiladi. „Individual“ tushunchasi „inson tanasi“, „shaxsiyat“, „subyektivlik“, „individuallik“ va „ma'naviyat“ tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular shaxsning fazilatlarini, qobiliyatlari yig'indisini ifodalash uchun ishlatiladi. ontogeneza inson rivojlanishining muhim darajalari. Biroq, „individual“ tushunchasining mohiyatini faqat uning xususiyatlarini „shaxs“ va yoki „individuallik“ xususiyatlaridan ajratish orqali tushunish mumkin.

Individualizm – (lotincha individium – bo‘linmas) – insonning shaxsiy hayoti jamoaga bog‘liq bo‘lmagan, faqat uning o‘ziga tegishli alohida bir hodisa deb qaraydigan, jamiyat manfaatlaridan inson huquqlarini mutlaq ustun qo‘yadigan falsafiy-axloqiy ta’limot. Individualizmning nazariy talqini negizida har qaysi shaxsning yagona beqiyos ekanini, uning huquqlarini mutlaqlashtirish yotadi. Aksariyat hollarda inson tabiatining o‘zida individualizm mavjud deb hisoblanadi. Individualizmning mohiyatini asoslashga qaratilgan qarashlar shaxsni jamoaga qarshi qo‘yish, shaxsiy manfaatlarni jamiyat manfaatlaridan ustun ko‘rish bilan bog‘liq holda qadimgi zamonlardan boshlab shakllangan. Ayrim faylasuflar antik davrlardayoq shaxsiy va jamiyat manfaatlari o‘rtasida keskin ziddiyat vujudga kelishi mumkinligiga e’tibor qaratgan. Bu ziddiyat turli falsafiy oqim va maktablar vakillari tomonidan o‘ziga xos tarzda talqin etilgan.

Inson – bu jamiyat ichida yashab, o‘zaro munosabatlar orqali shakllanuvchi mavjudot. Inson tushunchasi biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarni o‘z ichiga olgan murakkab bir mavjudot sifatida insonning mohiyati va uning hayotdagi o‘rnini ifodalovchi atama. Inson nafaqat jismoniy tanaga ega bo‘lgan, balki fikrlovchi, his qiluvchi, ijtimoiy munosabatlar o‘rnatadigan va madaniyatni yaratadigan mavjudotdir. Aristotel insonni „ijtimoiy hayvon“ deb atagan, ya’ni inson jamiyatdan ajralgan holda yashay olmaydi. Aqliy mavjudot sifatida inson – bu aql va tafakkur yordamida olamni anglab, uni o‘zgartiruvchi mavjudot. Falsafiy qarashlarga ko‘ra, insonning asosiy mohiyati uning fikrlash qobiliyatida, bilim olishga va yaratishga intilishidadir. Shuningdek, inson o‘z hayotini ongli ravishda boshqaradigan va tanlovlar orqali maqsadlarni belgilaydigan mavjudot sifatida qaraladi. Falsafada inson erkinligi uning irodasi va javobgarligi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

Shaxs – alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok,

tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig'i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin. Shaxs - bu insonning o'zligini anglash darajasi, uning fikrlash uslubi, hissiyotlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari orqali namoyon bo'ladi. Shaxsning shakllanishida genetik omillar, tarbiya, ijtimoiy muhit va shaxsiy tajribalar muhim rol o'ynaydi. Har bir insonning shaxsi noyob bo'lib, u ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladi.

MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1.Antropologiya so'zining ma'nosi nima?

- A) Qadriyatlar yig'indisi
- B) Inson haqida ta'limot
- C) Bilim haqida ta'limot
- D) Jamiyat haqida ta'limot

2.Antropologiya insonni qaysi jihatlardan tahlil qiladi?

- A) biologik, madaniy
- B) ijtimoiy-iqtisodiy
- C) estetik
- D) barchasi

3.Inson falsafasining asosiy yo'nalishlarini toping.

- A) ontologiya, epistemologiya
- B) axloq falsafasi, psixologiya
- C) inson erkinligi, sotsiologiyasi
- D) barchasi

4.Yangi davr G'arb inson falsafasi faylasuflari kimlar?

- A) Immanuil Kant, Fridrix Nitsshe, Jan-Paul Sartr
- B) Sokrat, Aristotel, Platon
- C) Rene Dekart, Ibn Xaldun
- D) Beruniy, Forobiy

5.O'zlikni anglash borasida xitoy faylasufi Lao Szining fikrini toping.

- A) O'z-o'zingni angla.
- B) Inson barcha narsalar mezonidir.
- C) Boshqalarni bilguvchi – oqil, o'zini bilguvchi donishmanddir.

D) O‘zingga nazar tashla, sen Buddasan.

6. Platonning fikriga ko‘ra, inson ikki qismdan iborat. Shu ikki qismni toping.

A) materiya va idea

B) ruh va tana

C) aql va qalb

D) ruh va aql

7. Eudaimoniya nima?

A) yaxshi ruh, baxt

B) bilim, donolik

C) moddiy element

D) tafakkur qilish qobiliyati

8. Dualizmning mohiyati nima?

A) insonning ham moddiy, ham ruhiy mavjudot ekanligi

B) ruhning tanadan alohida ekanligi

C) ruh va jismlarning ikki xil mohiyatga ega ekanligi

D) materiya va ruh ajralmasligi

9. Qaysi faylasuflar insonning jonini ong bilan, tanasini mashina bilan tenglashtirgan?

A) Rene Dekart, Immanuel Kant

B) Sokrat, Aristotel

C) Prtagor, Nitsshe

D) Lametri, Golbax

10. Quyidagi fikrlardan xatosini toping.

A) Mashinada fikr qilish qobiliyati yo‘q, u ijodchisining fikrini aks ettiradi xolos.

B) Qachondir mashina jamiyati paydo bo‘lishi mumkin.

C) Kibernetika ijtimoiy hayotda insonning o‘rnini egallay olmaydi.

D) Mashina inson faoliyatining mahsuli xolos.

11. Qaysi sharq mutafakkiri jahon fanida ilk bor inson va tabiat, olam va odam munosabatlarini dunyoviy fan sifatida o‘rganadi?

A) Beruniy

B) Forobiy

C) Ibn Sino

D) Ibn Xaldun

12. Ekzistensializmning mohiyati qaysi qatorda berilgan?

A) insonning haqiqiy mavjudligi

B) insonning obyekt sifatida mavjudligi

C) insonning abstraktligi

D) a va b javoblar to'g'ri

13. Inson, uning tabiati va jamiyatdagi borlig'ini o'rganuvchi ta'limot – ...

A) sotsiologiya

B) antropologiya

C) falsafiy antropologiya

D) ekzistensializm

14. Antroposentrizmning mohiyati – ...

A) falsafaning tadqiqot markazida inson turadi

B) tabiat inson mehnatining mahsuli

C) dunyodagi barcha narsalar insonga xizmat qiladi

D) inson borlig'i tabiatdan alohida yaralgan

15. Shelarning fikriga ko'ra, jamiyat inqirozi, ijtimoiy qarama-qarshiliklarning sababchisi – ...

A) tabiiy ofatlar

B) aholining ko'pligi

C) inson faoliyati

D) inson shaxsiyatining inqirozi

4-MAVZU. JAMIYAT HAYOTINING ASOSIY SOHALARI (IJTIMOIY, IQTISODIY, SIYOSIY VA MA'NAVIY HAYOTI) VA TARAQQIYOTI OMILLARI

Reja:

- 1. Jamiyat hayoti sohalari tushunchasi.**
- 2. Jamiyat sohalarining turlari.**
- 3. Jamiyat sohalarining taraqqiyot omillari.**

***Tayanch tushunchalar:** Jamiyat, jamiyat hayoti, jamiyat sohalari, iqtisodiy, soha, ijtimoiy soha, ma'naviy soha, siyosiy soha, siyosiy partiya, jamiyat sohalari taraqqiyotining asosiy omillari, ijtimoiy omillar, iqtisodiy omillar, texnologik omillar, global omillar, madaniy omillar, siyosiy omillar, iqtisodiyot, moliya, bozor.*

1. Jamiyat hayoti sohalari tushunchasi

Jamiyat – insonlarning oila, tabaqa, guruhlar o'rtasidagi murakkab, jo'shqin aloqalar, ijtimoiy ahamiyatga molik munosabatlar tizimi. Jamiyat odamlarning shunday uyushmasiki, unda irsiy qonunlar emas, balki ijtimoiy qonunlar hukmronlik qiladi⁵⁷.

Jamiyat aynan bir xil yaxlit tizimdir. U quyidagi barcha xususiyatlarga ega:

- jamiyat alohida qismlardan iborat: odamlar va ular o'rtasidagi aloqalar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy hayot sohalari;

- jamiyatning qismlari faqat uning doirasidagina ma'noga ega – masalan, ijtimoiy institutlar jamiyatdan ajralgan holda mavjud bo'lolmaydi, chunki ular shu tufayli paydo bo'lgan;

- jamiyatning qismlari bir-biri bilan o'zaro ta'sir qiladi – masalan, barcha ijtimoiy sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir sohadagi o'zgarishlar, qoida tariqasida, boshqa sohalarda o'zgarishlarni keltirib chiqaradi;

- jamiyat shunchaki uning elementlari yig'indisidan ko'proq – masalan, ijtimoiy institutlar va odamlar ular o'rtasidagi o'zaro ta'sir kabi

⁵⁷ Saydullaev.Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent. 2021. 27-B

muhim elementsiz jamiyatga aylanmaydi va o'zaro ta'sir odamlardan ajratilgan holda mavjud bo'la olmaydi⁵⁸.

Jamiyatimizning ma'naviy asoslari asrlar davomida ajdodlar o'giti , milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligida shakllangan va rivojlangan. U insonning qonqoniga ona suti, oiladagi tarbiya orqali singib boradi. Ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan milliy madaniyatimiz va turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf odat va ananalarimizsiz hayotimizni tasavvur qilib bo'lmaydi . Xo'sh, fikrimizni jamiyat so'zini tasniflash orqali tushuntiradigan bo'lsak, jamiyat lotincha so'z bo'lib, socium — “umumiy”) — kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jamiyatning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bular ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlardir. Jamiyat moddiy ishlab chiqarishsiz bo'lmaydi. Unda insonlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa tushunchalarga bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi.

Jamiyatda jamiyatning tabiat bilan o'zaro ta'siri namoyon bo'ladi. Odamlar o'zining moddiy ishlab chiqarish faoliyatida irodasi va ongiga bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadi. Jamiyat taraqqiyoti tabiiy-tarixiy, qonuniy jarayondir. Moddiy ishlab chiqarish jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, ya'ni muayyan ijtimoiy qatlam, toifa va guruhlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jamiyatda turli qatlam va toifalarning mavjudligi mehnat taqsimoti, shuningdek, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik munosabatlari, jamiyatda yaratilgan moddiy boyliklardan oladigan ulushiga bog'liq. Bular jamiyatdagi kishilarning faoliyati hamda daromadiga qarab turli kasbiy va ijtimoiy guruhlariga ajralishining negizidir. Jamiyat hayoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy sohalarga ajraladi.

⁵⁸ Jiyanmuratova G. Sotsiologiya tarixi. Toshkent. Innovatsiya Ziyos. 2020. 189-190-B

Iqtisodiy soha moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishni o'z ichiga oladi. Unda mamlakatning xo'jalik hayoti tashkil etiladi, uning turli tarmoqlarining o'zaro bog'likligi hamda xalqaro iqtisodiy hamkorlik amalga oshiriladi. Bu jamiyat taraqqiyoti uchun eng asosiy sohadir. Ijtimoiy soha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini uyg'unlashtiradi. Siyosiy soha turli ijtimoiy toifa va guruhlar, milliy birliklar, siyosiy partiyalar va harakatlar, jamoat tashkilotlarning o'z siyosiy faoliyatini amalga oshiruvchi makondir. Ularning faoliyati jamiyatdagi o'rnatilgan siyosiy munosabatlar asosida o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirishga qaratiladi.

Ma'naviy sohada kishilar turli ma'naviy qadriyatlarni yaratadi va jamiyatning turli qatlamlari tomonidan o'zlashtiriladi. Bu sohaga adabiyot, san'at, musiqa asarlari bilan bir qatorda kishilarning bilim saviyasi, fan, axloqiy me'yor va umuman olganda, jamiyat hayotining ma'naviy mazmunini tashkil qiluvchi tushunchalar kiradi. Bu esa ma'anaviyat tushunchasi bilan bir uyg'unlik kasb etadi. Ma'naviyat — inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi.

Ma'naviyat arabcha so'z bo'lib, "ma'no" degan tushunchani anglatadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'ybasti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati kabi tushunchalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi. Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan

ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi.

Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi. Jamiyat va ma'naviyat tushunchalarining rivojlanish bosqichlarida qadriyatlar ham quloch yoyadi⁵⁹.

Jamiyat sohalari tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining muhim yo'nalishlarini ifodalaydi. U insonlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish hamda umumiy manfaatlarni amalga oshirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Har bir soha o'ziga xos vazifalar va tamoyillar asosida faoliyat yuritadi, bu esa jamiyatning barqarorligi va rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jamiyat sohalari o'zaro bog'langan bo'lib, ular bir-biriga ta'sir qiladi va umumiy tizim sifatida ishlaydi. Ularning har biri jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega bo'lib, insonlarning ehtiyojlarini qondirish, muammolarni hal qilish va farovonlikni oshirishga qaratilgan. Bu sohalar o'z ichiga iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, siyosiy boshqaruv tizimlarini yo'lga qo'yish va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishni oladi⁶⁰.

Shunday qilib, jamiyat sohalari jamiyat hayotining muhim jihatlarini tashkil etib, insonlarning farovon hayot kechirishini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Ular birgalikda jamiyatning ijtimoiy tuzilishini, rivojlanish yo'nalishini va barqarorlikni belgilaydi.

⁵⁹ D.O.Alimova. Jamiyatning ma'naviy asoslari / Международный научный журнал № 12(100), часть 1

«Новости образования: исследование в XXI веке» Июля , 2023. С-1-2

⁶⁰ S.Qozoqov. Shaxs va jamiyat. Namangan.2017. 85-86-B

2. Jamiyat sohalari turlari.

Jamiyat hayotining asosiy sohalari 4 ta:

- 1) Iqtisodiy soha;
- 2) Siyosiy soha;
- 3) Ijtimoiy soha;
- 4) Ma'naviy soha;

Jamiyat sohalari tushunchasi jamiyat hayotining turli yo'nalishlari va ularning o'zaro bog'liqligini ifodalaydi. Har bir soha jamiyatda o'ziga xos vazifalar bajaradi va jamiyatning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jamiyat sohalari bir-biridan ajralgan bo'lsa-da, ularning o'rtasida chuqur o'zaro bog'liqlik mavjud. Ularning har biri jamiyatni tashkil etuvchi va uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim jihatlarni tartibga soladi. Jamiyat sohalari turlari o'rganish, tahlil qilish va jamiyatni anglash uchun juda muhim bo'lib, bu sohalar jamiyatning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda asosiy omil bo'ladi. Quyida jamiyat sohalarining turli turlariga alohida to'xtalib, ularning mazmuni va ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

1. Ijtimoiy soha

Ijtimoiy soha jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar va shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Bu soha jamiyatning eng asosiy jihatlari bilan bog'liq bo'lib, odamlarning o'zaro muloqoti, ijtimoiy o'zgarishlar va ijtimoiy tenglikni ta'minlashni nazorat qiladi. Ijtimoiy soha ijtimoiy adolat, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozoridagi munosabatlar, uy-joy, ijtimoiy himoya va boshqa ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy soha, asosan, quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Ta'lim: Har bir shaxsning ma'lum bir ta'lim darajasiga ega bo'lishi jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Ta'lim orqali insonlar o'z qobiliyatlarini rivojlantirib, jamiyatda faol ishtirok etadi.

Sog'liqni saqlash: Ijtimoiy soha doirasida sog'liqni saqlash tizimi aholi salomatligini yaxshilashga qaratilgan. Bu soha sog'liqni saqlash xizmatlarini taqdim etish, kasalliklarni oldini olish va aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga mo'ljallangan.

Bandlik: Ijtimoiy sohaning yana bir muhim jihati – bu jamiyatdagi har bir kishining mehnat faoliyatini tashkil qilish va ularga barqaror ish joylarini taqdim etishdir.

Ijtimoiy himoya: Yordamga muhtoj bo‘lgan fuqarolarni, masalan, keksalar, nogironlar yoki o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar bilan yuzlashganlar uchun maxsus ijtimoiy dasturlar mavjud. Bu dasturlar insonlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Ijtimoiy soha jamiyatdagi barcha ijtimoiy guruhlar va qatlamlarni birlashtiruvchi mexanizm bo‘lib, insonlarning hayotini yaxshilash, muammolarni hal etish va adolatni ta’minlashga xizmat qiladi⁶¹

Ijtimoiy soha. Ruhiyat, shu jumladan, irodaga ega bo‘lgan kishilar iqtisodiy faoliyatidan tashqari ham muayyan tarzda birikib hududiy (ovul, qishloq va shahar o‘rtasidagi farqlar), demografiyaviy (aholining jinsi, yoshi, kasb-kori va hokazo jihatlari), etnik (el-elat va millat bilan bog‘liq), sinfiy (tipik holda ko‘proq evropaga oid) jihatlarda ijtimoiy faoliyat alohida sohani – ijtimoiy sohani namoyon etadi. Ijtimoiy soha ikki – keng (butun jamiyatga tegishli) va tor (jamiyat hayotining muayyan sohasi) ma’nolarida farqlanadi. Ikkinchi holda «ijtimoiy soha» tushunchasi yuqoridagi tuzilmalardan tashkil topganlik ma’nosida qo‘llaniladi).

Hududiy umumiylikning barqaror ijtimoiylik kasb etishi kishilarning muayyan ma’muriy hududlardagi hayot tarziga aloqador bo‘lib, tegishli ravishda, masalan, bizning mamlakatimizga tatbiqan ovul, qishloq va shaharlardagi mulkchilik, hokimiyatni tashkil etish shakllari, xilma-xil infratuzilmalar faoliyati bilan bog‘liqdir.

Demografiyaviy omil ijtimoiy sohaga tug‘ilish, o‘lim, jinslar nisbati, jins va yosh tarkibini o‘rganish, aholi ko‘payishi darajalarini hisobga olish bilan, shuningdek, bu tarmoqqa doir boshqaruv institutlari faoliyatlari orqali tegishli bo‘ladi. Ijtimoiy soha tarkibiga kirgan etnik shakllarning o‘zi xiyla katta mazmunni tashkil etadi. Ulardan urug‘ dastlabki ijtimoiy umumiylik (birlik) hisoblanadi va ijtimoiy tarixning uzoq davom etgan ibtidoiy jamoa davriga to‘g‘ri keladi. Urug‘lar tadriji natijasida qabila

⁶¹ D.O.Alimova. Jamiyatning ma’naviy asoslari / Международный научный журнал № 12(100), часть 1
«Новости образования: исследование в XXI веке» Июля, 2023. С-3-4.

umumiyligi hamda qabilalar ittifoqi qaror topadi. Ular, o'z navbatida, keyingi umumiyliklarning – elat va millatning paydo bo'lishiga zamin hisoblanadi. Hozirgi sharoitlarda millatlararo va davlatlararo munosabatlarning tig'izlashuvi jarayonida alohida umumiylik sifatida xalq shakllanmoqda. ipik holda aholining ko'proq evropaga oid olinganidagi sinfiy tabaqalanishi ijtimoiy soha tuzilmalarida muhim o'rin tutadi. Sinflarning mavjudligi, dastavval, mulkchilik shakllari va ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'liq. ozirgi rivojlangan davlatlarda sinfiy farqlanish avvalgi o'tkirligini yo'qotib bormoqda. Zero, uning o'rnini ijtimoiy qatlamlardagi bilim darajalari, mavjud hokimiyatga munosabatlari, yashash tarzlarining o'xshashligi singari belgilariga ko'ra ajralib turadigan ijtimoiy guruhlar egallamoqda. O'z navbatida, ijtimoiy guruhlar kishilarning ijtimoiy ahamiyatga molik mezonlarga ko'ra farqlangan istagan tarzidagi birligidir. u jihatdan yondashganda ijtimoiy maqomni – insonning jamiyatdagi o'rnini, ahvolini ham farqlash lozim bo'ladi. Buni quyidagi misolda – ayni bir odamni turli jihatlardan olib ko'rish mumkin: kasbi – o'qituvchi; yollanib ishlab o'rtacha ish haqi oluvchi – iqtisodiy belgi; 50 yoshdagi erkak – demografik ko'rsatkich; siyosiy partiya a'zosi – ijtimoiy pozitsiya va hokazo.

Ijtimoiy sohani yuqorida qarab chiqilgan tashkil etuvchilari qatoriga yana ishlab chiqarishning muayyan tarmoqlarida band bo'lgan mehnat jamoalari, shuningdek, fermerlar, turli tarzidagi ijarachilar, savdo sohasi ehnat jamoalari ikkinchi bo'lim. Jamiyat – sotsiumning tashkiliy shakli dallollari (brokerlari) va boshqalarning egallagan ijtimoiy maqomidan kelib chiqib qo'shish mumkin.

Savodxonligi, ma'lumoti darajasi (masalan, boshlang'ich, o'rta yoki oliy) va xarakteriga ko'ra ijtimoiy-kasbiy (konkret kasb, aqliy va jismoniy mehnat egalari) maqomiga binoan farqlanish ham aholining muayyan qismi sifat holatini ifodalaganligiga ko'ra ijtimoiy sohaga mansub hisoblanadi.

Kishilarning yuqoridagicha farqlanishi, agar ular oladigan daromadlari darajalariga (yashash minimum doirasida o'rtacha yoki yuqori daromadga ega bo'lganlar) bog'liq holda belgilansa, bu ham ijtimoiy sohaga tegishli bo'ladi. Jamiyat hayotining ijtimoiy sohasi tarkibi haqida

gapirganda nikoh va oilani chetlab o'tib bo'lmaydi. Zero, nikoh huquqiy shartnoma bo'lib er-xotin, bolalar va qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Oila esa nikohga, qon-qardoshlikka, maishiy hayot umumiylikiga, axloqiy va o'zaro yordam mas'uliyatiga asoslangan kichik guruh, alohida ijtimoiy institutdir⁶².

“Har qanday jamiyatning buyukligi va barqarorligini bitta oddiy mezon bilan baholash mumkin, ya'ni: bu jamiyat bolalar, qariyalar va bemorlarga qanday g'amxo'rlik qiladi” - Arnold Toynbi.

2. Iqtisodiy soha

Iqtisodiy soha jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish, ishlab chiqarish, taqsimot, almashuv va iste'mol jarayonlarini tartibga soladi. Iqtisodiy soha jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir jamiyat o'z resurslarini qanday taqsimlashni, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarini qanday tashkil qilishni o'ylab ko'radi. Iqtisodiy soha ikki asosiy yo'nalishda faoliyat yuritadi: ishlab chiqarish va taqsimot.

Ishlab chiqarish: Iqtisodiy sohada ishlab chiqarish jarayonlari materiallar va resurslar yordamida turli mahsulotlar yaratishga qaratilgan. Bular qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va boshqa sohalarda bo'lishi mumkin.

Taqsimot: Iqtisodiy soha resurslarni taqsimlashni va undan samarali foydalanishni ta'minlashga intiladi. Bu iqtisodiy tizimni boshqarishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga asoslanadi.

Almashuv va iste'mol: Iqtisodiy soha mahsulotlar va xizmatlarning almashuvini, shuningdek, ulardan foydalanuvchilar tomonidan iste'mol qilinishini tartibga soladi. Bu jarayonlar bozor mexanizmlari va narx tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Iqtisodiy soha jamiyatni moddiy jihatdan ta'minlash, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Iqtisodiy tizimning samarali ishlashi insonlarning turmush darajasi va farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi.

⁶² Sh Azizov. Shaxs va jamiyat. Toshkent. 2010. 81-82-B.

Iqtisodiy soha. Keng ma'noda kishilarning o'z moddiy sharoitlarini yaratish, ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha faoliyat turlari yig'indisiga iqtisodiyot deyiladi. Mana shu faoliyat turlari insonning boshqa jonzotlardan farqini ko'rsatadi. Inson tabiatdan oladiganlari bilan cheklana olmaydi. Unda ilgari bo'lmagan mahsulotni inson ehtiyojiga moslab yaratish lozim bo'ladi. Inson tabiatga ta'sir etish uchun tana kuchlarini harakatga keltirib, o'z hayotining doimiy va zaruriy asosi hamda sharti bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarishni amalga oshiradi. Bunda bir tomondan inson bilan tabiat o'rtasida yuz beradigan modda va quvvat almashuvining, inson mehnatining ilk mahsuli, ikkinchi tomondan esa inson mehnatining dastlabki vositasi bo'lgan ish qurolidan ham foydalaniladi.

Inson quvvatining nechog'li oqilona sarf etilganligi mehnat unumdorligining darajasini belgilaydi. Uning unumdorligini oshirish vazifalari tufayli ilk mehnat taqsimoti – chorvachilik kelib chiqqan, hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan. Qadimdan hozirgacha mehnat taqsimotining ko'pdan ko'p shakllari yuzaga kelgan. Jumladan, aqliy va jismoniy mehnatga bo'linishi va o'tmishda chorvadorlar ovulidan dehqonlar qishlog'i, undan shahar ajralib chiqqan. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning texnologiyaviy va tashkiliy jihatlarini kuchaytirmasligi mumkin emas edi.

Ishlab chiqarishda fan va amaliyot talablari asosida ta'sir etuvchi usul – bu texnologiyadir. shbu ta'sir muayyan texnika (lotinchada «texnika», «mahorat», «san'at» ma'nolarini anglatadi) yordamida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishning tashkiliy jihatlarini – bu mehnat faoliyatini turli ko'rinishlarda yo'lga qo'yish, uning texnologiyaviy, tarmoq, hududiy taqsimlanishi, mehnatning ixtisoslanishi, shirkatchilik va hokazolarni ifodalaydi. texnika taraqqiyoti fandagi chuqur o'zgarishlarsiz yuz bermaydi. Hozir esa bu o'zgarishlar bir vaqtning o'zida yuz beribgina qolmay, balki sifat xususiyatlariga ham ega bo'lgani uchun fan-texnika inqilobi (FTI) deb atalmoqda. Namoyon bo'lishiga ko'ra FTI o'zining hozirgi bosqichida mikroelektronika, biotexnologiyaning rivojlanishi, yalpi kompyuterlashtirish va hokazolardan iborat bo'lmoqda. Ishlab chiqarishni tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarsiz

tasavvur qilib bo'lmaydi. ulardan birinchisi ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonida kelib chiqadigan munosabatlarni ifodalasa, ikkinchisi mulk munosabatlarini aks ettiradi. Ilk tushunchasi inson o'ziga tegishli bo'lgan narsalar, shu jumladan, o'zining hayotini, jismoniy va ma'naviy kuchlarini tasarruf etish huquqiga ega bo'lgandagina yuzaga keladi⁶³.

Iqtisodiy sohaning asosiy yo'nalishlari⁶⁴:

1. Mehnat taqsimoti va mutaxassislik
2. Byudjet
3. Bozor mexanizmi
4. Maxsulotlar va xizmatlar
5. Monopoliya
6. Ish haqi va mehnatni rag'batlantirish
7. Davlatning iqtisodiy maqsadlari va vazifalari
8. Davlatning iqtisodiy maqsadlari va vazifalari.

3. Siyosiy soha

Siyosiy soha jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini, hokimiyatni amalga oshirish mexanizmlarini va fuqarolarning huquqlarini tartibga soladi. Siyosiy soha jamiyatning ijtimoiy tizimini boshqarish, qonunlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va nazorat qilishga qaratilgan. Siyosiy soha jamiyatda barqarorlikni saqlash, davlat tuzilmasini yaxshilash va fuqarolarga huquqlarini himoya qilish uchun muhimdir.

Siyosiy soha quyidagi muhim sohalarni o'z ichiga oladi:

Hokimiyat: Siyosiy tizimda hukumat va davlat organlari fuqaro va jamiyatni boshqaradi. Bu tizimni boshqaruvchi tashkilotlar, prezident, parlament va hukumat idoralari faoliyatiga asoslanadi.

Qonunlar: Siyosiy soha qonunlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ularni amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Qonunlar jamiyatdagi har bir kishining huquqlarini ta'minlashga, adolatni saqlashga va tartibni yaratishga xizmat qiladi.

Fuqarolar huquqlari va erkinliklari: Siyosiy soha fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlaydi. Bu

⁶³ Sh Azizov. Shaxs va jamiyat. Toshkent. 2010. 79-80-B.

⁶⁴ S.Qozoqov. Shaxs va jamiyat. Namangan. 2017. 30-B.

huquqlarni ta'minlash jamiyatdagi adolat va demokratiya prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Siyosiy soha jamiyatning rivojlanishida va uning barqarorligini saqlashda markaziy ahamiyatga ega. Siyosiy boshqaruv tizimi davlat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarib, jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Siyosiy soha. Davlatchilikni rivojlantirish bilan siyosiy boshqaruvning murakkab tartiboti maydonga keladi. unda, eng avvalo, jamiyatning siyosiy sohasida yuzaga keladigan siyosiy tashkilotlar turkumi, masalan, partiyalar nazarda tutiladi.

Siyosiy partiya – bu jamiyat ma'lum qismi manfaatlarini ifodalab, ularni hokimiyat ishlarida qatnashishi yoki davlatni qo'lga kiritish orqali amalga oshirishni ko'zlagan hamfikrli kishilarning uyushgan guruhidir. Uning kurtaklari juda qadimga borib taqaladi. ozirgi maqomdagi siyosiy partiyalarning dastlabki ko'rinishlari evropada – asrlarda ro'y bergan inqiloblar bilan bevosita bog'liqlikda yuzaga keldi va xalq vakolatchiligini ifodaladi. Hozirgi vaqtda siyosatga xalq ommasining tortilishi munosabati bilan siyosiy partiyalarning roli oshib ketdi hamda ular siyosatning asosiy subyektlaridan va demokratik davlat zarur unsurlaridan biriga aylandi. uni davlatning vakolatli organlariga o'tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish (nomzodlar tavsiya etish, saylovoldi targ'iboti, saylov komissiyalari ishida qatnashish va hokazo) da ko'rish mumkin. Davlat ham partiyalarni qonun yo'li bilan (partiyalarning siyosiy tizimdagi o'rni va roli belgilashi; ularning tashkil etilishi va faoliyatining to'xtatilish tartibi, shartlari; dasturlari va mafkurasiga doir talablar; partiyalarning moddiy-iqtisodiy bazasining belgilanishini va hokazo) nazorat qiladi. artiyaviy tizim odatda ko'ppartiyaviylik (demokratiya mavjudligida) va bir partiyaviy (totalitar davlatlarda) ko'rinishidan iborat⁶⁵.

4. Ma'naviy-madaniy soha

Ma'naviy-madaniy soha jamiyatning ma'naviy qadriyatlari, madaniy va axloqiy me'yorlarini shakllantirish, san'at, ilm-fan, diniy va ma'naviy o'zgarishlarni boshqarish bilan bog'liq. Bu soha jamiyatda insonlarning

⁶⁵ Sh Azizov. Shaxs va jamiyat. Toshkent. 2010. 85-B.

ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, madaniy o'zgarishlarni amalga oshirish va ularni rivojlantirishga yordam beradi.

Madaniyat: Madaniyat sohasida insonlarning san'ati, adabiyoti, an'analari, urf-odatlar va boshqa madaniy elementlari rivojlanadi. Bu jamiyatdagi ma'naviy merosni saqlash va yangi madaniy qiymatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ilm-fan: Ilm-fan sohasida yangi bilimlarni yaratish va ulardan amaliyotda foydalanish ko'zda tutiladi. Bu soha jamiyatning intellektual rivojlanishiga yordam beradi va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Diniy qadriyatlar: Diniy madaniyat va qadriyatlar jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni belgilaydi va insonlarning ma'naviy o'sishiga hissa qo'shadi.

Ma'naviy-madaniy soha jamiyatdagi ruhiy va axloqiy rivojlanishni ta'minlaydi, insonlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazadi.

Ma'naviy soha. Jamiyat a'zolari uning asosiy jihatlarining tashuvchilari bo'lgan kishilar ichki dunyolarida bir tomondan o'zlariga tegishli, ikkinchi tomondan esa umumijtimoiylikni ifodalagan eng oddiy his-tuyg'u, hayajon, hissiy bilish, tajriba, odatlardan tortib ruhiyatning oliy bosqichi darajalari va ko'rinishlari qadriyatlarigacha joylaydilar. Ma'naviyat deb ataladigan ichki tuzilma kishilar moddiy borlig'iga muqobildir. An'anaviy hodisalar takror hosil etib turishlikni taqozo etadi. Bular tegishli sohalar qadriyatlari bo'lib, o'z navbatida madaniyat umumiy tizimi tarkibiga kiradilar.

Madaniyat kishilarning va ular mansub bo'lgan jamiyatning keng ma'noda olingan bilish, axloq-odob, adabiyot va san'at, falsafa, huquq, din va hokazolarni o'z ichiga oladi. Bu hodisalar mavjudligi bilan bog'liq holda tegishli tashkilotlar va muassasalar faoliyati ham ma'naviylik kasb etadi. Barcha holatlarda bularning ma'naviy mohiyati borliq to'g'risidagi axborotlardan nechog'lik xabardorligini taqozo etadi. Aniqrog'i, jamiyatda axborotlar muayyan tarzda yig'iladigan, saqlanadigan va qayta ishlanadigan soha ma'naviyat sohasidir. Inson shunday tuzilganki, u «sof holda» olingan axborotni shunchaki qayd etib qolmaydi, balki undan

foydalanadi. Bu axborotning moddiy tashuvchisi miyada joylashgan bo‘lib, inson uning borligini bilsa-da, lekin his eta olmaydi.

Ziyolilar alohida ijtimoiy guruhni, so‘ngroq qatlamni tashkil etadi. Ular kasbiy jihatdan asosan murakkab aqliy faoliyat bilan shug‘ullanadilar. Ayni vaqtda, ular faoliyati ma‘naviy-amaliy xarakter ham kasb etishi mumkin. Masalan, ma‘naviy qadriyatlarni taqsimlash, tarqatish va iste‘mol masalalari muayyan mutaxassislarning nazorati bo‘lishligini taqozo etadi.

Ijtimoiy voqelikni ma‘naviy-axloqiy o‘zlashtirish mavjud jamiyatda amalda bo‘lgan huquqiy, axloqiy, diniy va hokazo me‘yorlar tizimi doirasida amalga oshadi. Agar huquqda bular davlat hokimiyati, jamoa tashkilotlari tomonidan belgilangan va nazorat qilinadigan, shuningdek, ilgaridan davom etib kelayotgan an‘anaviy me‘yorlar bo‘lsa, axloqda boshqacha tarzda mavjuddir. Unda jamiyat tomonidan kishilarning ezgulik, adolat, burch, sha‘n va bularning muqobillari to‘g‘risidagi axloqiy bilimlariga muvofiq belgilanadi va jamoatchilik fikri kuchi bilan nazorat qilinadi.

Dinda bulardan farqli o‘laroq ijtimoiy me‘yorlar kishilarning Olamni, shu jumladan, kishilarning o‘zini ham yaratgan xudo to‘g‘risidagi tasavvurlarga tayanadi.

Ziyolilar qadimda aytarli badavlat bo‘lmagan erkin fuqarolardan, undan keyingi asrlarda bir qismi mehnatkash ommaning, shu jumladan, kambag‘al tabaqaning ham iqtidorli vakillaridan yetishgan. unday hol kishilik jamiyati tadrijining keyingi bosqichlarida ham garchi saqlangan bo‘lsa-da, ammo ma‘naviy qadriyatlarga bo‘lgan katta ijtimoiy ehtiyoj tufayli ziyolilar safi tobora keng xalq ommasi vakillari hisobiga to‘lib bormoqda⁶⁶.

Hozirgi vaqtda barcha rivojlangan davlatlarda ziyolilar mavjud ko‘pchilik – O‘rta qatlamning asosiy qismini tashkil etadilar va xizmat ko‘rsatuvchi barcha sohalarda ularning soni tobora oshib bormoqda. Unda ta‘lim tizimining o‘rni, ahamiyatining qanday bo‘lishi, o‘z-o‘zidan, ravshandir. Hozirgi jamiyatda yuksak bilimli, o‘ziga ishongan, mas‘ul qarorlar qabul qilishga tayyor, zamonaviy texnika va texnologiyadan zarur darajada xabardor mutaxassisni faqat maxsus tayyorlash mumkin.

⁶⁶ S.Qozoqov. Shaxs va jamiyat. Namangan. 2017. 49-B.

Masalan, Shvetsiyada bu maqsadda har bir o'quvchiga individual yondashiladi. amlakat bo'yicha har 9 o'quvchiga bitta o'qituvchi to'g'ri keladi. Yoki Germaniyada texnik ta'lim ko'zdan kechirilsa, ma'lum bo'ladiki, bu yerda rasman ma'lumot olish uchun 4 yildan kam bo'lmagan vaqt ajratilgan. ekin talabalarga chuqur mutaxassis bo'lish uchun 6–7 yil o'qish berilgan. Chunki firmalarga diplom egalari emas, balki mutaxassislar kerak, shunga ko'ra talabalar vaqtni qizg'anmasdan ixtisoslik egallaydilar⁶⁷.

Jamiyat sohalari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida faoliyat yuritadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy sohalar jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir soha o'zining alohida vazifalari va funksiyalari bilan jamiyatni barqarorlashtirishga yordam beradi. Bu sohalar o'zaro uyg'unlikda ishlaganda, jamiyatning taraqqiyoti va farovonligi ta'minlanadi⁶⁸.

3.Jamiyat soharining taraqqiyot omillari.

Jamiyat taraqqiyoti o'zgaruvchan va ko'p qirralarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, unda iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy omillar o'zaro bog'lanib, jamiyatni yaxshilashga qaratilgan harakatlarni shakllantiradi. Jamiyatning taraqqiyot omillari ijtimoiy tuzum, iqtisodiyot, texnologiyalar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu omillar bir-birini ta'sir qiladi va o'zgaradi.

1. Iqtisodiy omillar

Iqtisodiy omillar jamiyatning taraqqiyotiga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiyotni rivojlantirish jamiyatning yashash darajasini oshiradi, ish o'rinlarini yaratadi, infratuzilmani yaxshilaydi va boshqa sohalarda yuksalishga sabab bo'ladi. Bunga quyidagi omillar kiradi:

Mehnatkash omma moddiy boyliklarni ishlab chiqaradi, mehnat qurollarini xarakatga keltiradi, ularni takomillashtiradi.

Xalqning ijtimoiy-siyosiy xayotdagi o'rni beqiyos. Xalqning manfaatini xisobga olish siyosatda o'z ifodasini topadi. Xalq erkinliklar, demokratik xuquqlar uchun kurash olib boradi. Xalqning xal qiluvchilik roli ayniqsa sosial inqiloblar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq butun insoniyat tarixi davomida ozodlik uchun qaramlikka, bosqinchilikka, istibdodga qarshi kurash olib borgan.

Xalqning ma'naviy xayotdagi o'rni nihoyatda katta. Ma'naviyatning asosini til tashkil etadi. Xalq tilni yaratgan, uni avloddan-avlodga yetkazgan. Xalq – ma'naviy qadriyatlar manbai. Barcha fan, adabiyot, san'at namoyondalari o'z asarlarida xalqning orzu-intilishlarini aks ettirganlar, eng buyuk olimlar, san'at arboblari xalq orasidan yetishib chiqqan.

Ijtimoiy taraqqiyotning sub'ekti sinflar, ijtimoiy guruhlar, millatlar hisoblanadi. Xalq turli sinflar, ijtimoiy guruhlardan iborat. Ularning jamiyatdagi o'rni, manfaatlari xalqni xarakatga keltiradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida sinflar orasidagi kurash 3 xil ko'rinishda namoyon bo'lgan: a) iqtisodiy kurash; b) siyosiy kurash; v) g'oyaviy kurash¹⁰¹.

Sinfiy kurash jamiyat hayotini xarakatga keltiruvchi kuch xisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyotning sub'ektlari doirasiga millatlarni kiritish lozim bo'ladi. Milliy ozodlik xarakatlari ijtimoiy taraqqiyotning muxim omili hisoblanadi.

¹⁰¹ Karimov I, Valiyeva S, Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo'llanma).- T., 2008 yil. Havola: <https://www.samdu.uz/upload/content-files/Ijtimoiyfalsafa.pdf>

Xalq ommasi, sinflar, millatlarning tarixiy taraqqiyotdagi o'zni va ahamiyatini pasaytirmagan holda tarixdagi shaxslarning o'rniga xam alohida e'tibor bermoq lozim.

Tarixda shaxsning tutgan o'zni deganda, 2 narsani e'tiborga olmoq lozim:

1. Jamiyat taraqqiyotida har bir odamning o'ziga xos o'zni borligi. Bu ijtimoiy taraqqiyotdagi inson omili, deb yuritiladi.

2. Buyuk zotlar, tabiiy shaxslarning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'zni. Tarixiy taraqqiyot boshdan oyoq buyuk tarixiy shaxslari faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshadi. Tarixda buyuk zotlar, shaxslarning tutgan o'zni masalasi olimlarni qiziqtirib kelgan. Ayrim olimlar (masalan; Rizo, Min's, Gerri)¹⁰² tarixiy jarayonlar oldindan belgilab qo'yilgan, shaxslar tarixga ta'sir eta olmaydi, degan qarashni ilgari surganlar. Boshqalari esa tarixning xaqiqiy ijodkori buyuk shaxslar, tarix ular irodasini ifodalaydilar, degan qarashni ilgari surganlar. Bu xar ikki nuqtai-nazar shaxslarning tarixdagi o'rniga bir yoqlama munosabatning natijasi xisoblanadi. Tarixda shaxsning tutgan o'zni xaqidagi rus olimi G.V.Plexanovning qarashlari e'tiborga loyiq.

Uning fikricha buyuk shaxslarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri 2 omilga bog'liq: Birinchidan, shaxsning talant-qobiliyatlariga. Buyuk odam deganda hodisalar jarayonini o'z-o'ziga o'zgartira oladigan, yoki to'xtatib qola oladigan shaxs nazarda tutilmaydi. Bu shaxsning buyukligi uning ongilligi va tarixiy zaruratni qay darajada anglashda. Shu ma'noda buyuk shaxs muayyan sinf, ijtimoiy guruhlar manfaatlarining ifodachisi sifatida maydonga keladi¹⁰³.

Ikkinchidan, mavjud ijtimoiy tuzum, tarixiy shart-sharoitga bog'liq. Muayyan ijtimoiy tuzum, tarixiy vaziyat shaxs faoliyati uchun imkoniyat yarata oladi.

Shunday qilib, ijtimoiy taraqqiyot murakkab tabiiy-tarixiy jarayon. Ehtiyoj, manfaatlar jamiyat xayot iva taraqqiyotining harakatlantiruvchi

¹⁰² V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya– Moskva, 1999 g., str. 311-328. Havola: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-3971-Ijtimoiy_falsafa.pdf

¹⁰³ Choriyev A. Inson falsafasi. – T., 2006 yil Havola: https://edu.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/05/INSON_FALSAFASI.pdf

kuchi xisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot xalq ommasi, ijtimoiy guruhlar, sinflar, millatlar, tarixiy shaxslar faoliyati natijasida sodir bo‘ladi.

Ijtimoiy taraqqiyot subyektlari - bu jamiyat rivojlanishida faol ishtirok etuvchi guruhlar, tashkilotlar va shaxslar bo‘lib, ular o‘z faoliyati orqali ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni boshqarish, o‘zgartirish yoki qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi¹⁰⁴. Ular orasida quyidagilar mavjud:

1. Davlat – asosiy subyekt bo‘lib, ijtimoiy rivojlanishni boshqarish uchun qonunlar va dasturlar yaratadi. Masalan, O‘zbekistonning "Yangi Taraqqiyot Strategiyasi" orqali jamiyatning barqarorligini ta'minlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda¹⁰⁵.

2. Fuqarolik jamiyati institutlari – nohukumat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar harakati orqali jamiyat rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Fuqarolik jamiyatining ahamiyati demokratik rivojlanish uchun muhim deb hisoblanadi.

Davlat va jamoat institutlari ijtimoiy taraqqiyotning boshqaruv mexanizmini tashkil qiladi. J.Habermasning ta’kidlashicha, “davlat institutlari jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.”¹⁰⁶ Masalan, qonunchilik va boshqaruv tizimi ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridir.

3. Tadbirkorlik va biznes subyektlari – iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shib, jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi.

4. Ilmiy va ta’lim muassasalari – ijtimoiy taraqqiyotning intellektual asosini shakllantiradi va innovatsiyalarni rivojlantiradi.

5. Individlilar – har bir fuqaro jamiyatning rivojlanishida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi mumkin.

Ijtimoiy taraqqiyot subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik jamiyatdagi muammolarni hal qilish va barqarorlikni ta’minlash uchun muhimdir. Masalan, davlat va fuqarolik jamiyatining birgalikdagi harakatlari

¹⁰⁴ Karimov I, Valiyeva S, Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo‘llanma).- T., 2008 yil.Havola: <https://www.samdu.uz/upload/content-files/Ijtimoiyfalsafa.pdf>

¹⁰⁵ Havola: <https://lex.uz/docs/-5841063>

¹⁰⁶ Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Cambridge: Polity Press, 1984.Havola: <https://teddykw2.wordpress.com/wp-content/uploads/2012/07/jurgen-habermas-theory-of-communicative-action-volume-1.pdf>

O‘zbekistonning maqsadlariga erishish yo‘lidagi asosiy mexanizmlardan biridir

Shaxs ijtimoiy jarayonlarning markaziy subyekti hisoblanadi. Uning intellektual, ma’naviy va ijodiy salohiyati jamiyatni rivojlantirishning asosiy omilidir. K. Marks shunday degan: “Shaxsning faoliyati jamiyatni rivojlantiradi va uni harakatga keltiradi”¹⁰⁷.

Shaxs — alohida individ, mohiyatan yaxlit ijtimoiy-axloqiy olam. U o‘zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi. Shaxs ijtimoiy-gumanitar fanlarda o‘z yo‘nalishi, tadqiqot obyekti va maqsadi nuqtai nazaridan turlicha talqin etiladi. U o‘ta murakkab, ziddiyatli, qarama-qarshi, o‘zini o‘zi inkor etadigan mavjudot sifatida, biologik, fiziologik, ijtimoiy, ma’naviy, ruhiy, axloqiy va estetik aqlidrok, tafakkur obyekti sifatida, hatto, falsafiy va mantiqiy, yashash huquqi va hayot mantig‘i jihatidan tadqiqot manbaiga aylanishi mumkin.

Shaxsning shakllanish omillari ko‘p va xilma-xiddir. Masalan, genetik (nasliy), biologik-tabiiy, madaniy, ijtimoiy hayot tajribasi, o‘z turdoshlari bilan munosabatlar va boshqalar shaxsning genetik jihatini uning nasliy asosi, ajdodlaridan yetib kelgan fizionomiya, fe‘l-atvor bilan, biofiziologik jihatini esa yashash uchun quvvat olish, ovqatlanish, jinsiy aloqaga kirishish va nasl qoldirish singari individual ehtiyoj bilan belgilanadi.

Shaxs, mohiyatiga ko‘ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan, ijtimoiy-tarixiy an‘ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodlar vakili. Shaxs fenomeni inson olamining butun murakkabliklarini o‘zida mujassam etadi¹⁰⁸. Uni har tomonlama o‘rganish maqsadida turli davrlarda tadqiqot olib borilgan. Ayniqsa, sharqda u yuksak axloqiy ma’naviy me‘yorlar orqali tushunilgan va oliy xilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go‘zal va farovon bo‘lishiga ehtiyoj sezadi.

¹⁰⁷Choriyev A. Inson falsafasi. – T., 2006 yil.Havola: https://edu.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/05/INSON_FALSAFASI.pdf

¹⁰⁸ Turayev B.O. “Ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari”. Tiklangan asarlar. 1-tom, “O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, -T.: 2015 yil.Havola: <https://e-base.natlib.uz/>

Shaxsning hayot tarzi bevosita jamiyat hayotiga daxldor va hayot ne'matlaridan to'la foydalanishga haqli. Shaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. Har qanday odam tabiiy mavjudligi, yashash huquqi va hayot qadriyatiga ega bo'lgan jonzotdir. Biroq u hamma vaqt ham to'laqonli shaxs bo'lib yetilmasligi mumkin.

Ijtimoiy guruhlar jamiyatning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Masalan, oilalar, mehnat jamoalari va yoshlar ijtimoiy jarayonlarni boshqaruvchi asosiy guruhlardir. Durkheimning fikricha, ijtimoiy guruhlar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi¹⁰⁹.

Ijtimoiy guruhlar — muntazam ravishda bir-birlari bilan o'zaro muno-sabatga kirishadigan shaxslar guruhi. Turli sinflar, qatlamlar muhim ijtimoiy guruhlar hisoblanadi. Kasbga oid, diniy, etnik, turli demografik guruhlar (nuroniylar, ayollar, yoshlar va hokazo) ham ijtimoiy guruhlarga kiradi, chunki ularning jami-yatdagi mavqei hukmron ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liqdir. Bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'xshash, maqsad va qadriyatlari umumiy bo'lgan kishilar ham alohida ijtimoiy guruhlarini tashkil etadi. Ijtimoiy guruhlar katta va kichik (soni bo'yicha), boshlang'ich (guruh a'zolarining bevosita shaxsiy aloqalari va munosabatlariga asoslangan) va ikkilamchi (guruh a'zolari o'rtasida bevosita shaxsiy aloqalar bo'lmagan), rasmiy (tadqiqotchi tomonidan muayyan belgi asosida tashkil qilingan) va norasmiy (obyektiv holda mavjud) guruhlarga bo'linadi. Ijtimoiy guruhlar ning hajmi, shakli, xususiyatidan qat'i nazar, ularning muhim belgisi — a'zolarining bir umumiy guruhga mansub ekanliklarini anglashidir. Odamlar o'z hayotining ko'p qismini guruhlardagi muloqotlarda o'tkazadi. Hozir jamiyatdagi odamlarning aksariyati ko'pdan-ko'p turli guruhlarga mansubdir.

¹⁰⁹ Durkheim E. The Division of Labor in Society. — New York: Free Press, 1997.6
Havola: <https://durkheim.uchicago.edu/Summaries/dl.html>

3. Ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlari

1. Ehtiyoj va manfaatlar

Ehtiyojlar tushunchasi va ularning mohiyati

Ehtiyojlar — bu inson va jamiyatning yashashi, rivojlanishi uchun zarur bo'lgan, doimo yangilanib boradigan zarurat va talablar yig'indisi. Ehtiyojlar ijtimoiy taraqqiyotning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, ular inson faoliyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Psixolog va faylasuf Abraham Maslovning ehtiyojlar iyrarxiyasi nazariyasiga ko'ra, inson ehtiyojlari o'zaro tartiblangan piramida shaklida ifodalanadi:

Fiziologik ehtiyojlar (ovqat, suv, boshpana);

Xavfsizlik ehtiyojlari (himoyalaniish va barqarorlik);

Ijtimoiy ehtiyojlar (do'stlik, sevgi, jamiyat bilan aloqa);

Hurmat ehtiyojlari (o'zini hurmat qilish va boshqalar tomonidan tan olinishi);

O'zini namoyon qilish ehtiyojlari (qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish).¹¹⁰

Ehtiyojlar qondirilganda, inson yangi va murakkab ehtiyojlarni shakllantiradi. Shu tarzda jamiyatning rivojlanishi davom etadi.

Manfaatlar tushunchasi va ularning roli

Manfaatlar — bu shaxs, ijtimoiy guruh yoki davlatning o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilgan harakatlari. Manfaatlar ehtiyojlarning aniq maqsadga yo'naltirilgan shakli hisoblanadi.

Ijtimoiy manfaatlar jamiyatda umumiy va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, iqtisodiy manfaatlar ishlab chiqarishni rivojlantiradi, siyosiy manfaatlar esa davlat boshqaruv tizimini mustahkamlaydi.

Ehtiyoj va manfaatlarning ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri

Ehtiyoj va manfaatlar jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning asosiy sabablari hisoblanadi:

1. Ilmiy va texnologik rivojlanish:

¹¹⁰ Choriyev A. Inson falsafasi. – T., 2006 yil. Havola: https://edu.utu-ranch.uz/media/files/2024/09/05/INSON_FALSAFASI.pdf

Inson ehtiyojlarini qondirish jarayonida yangi texnologiyalar yaratiladi. Masalan, avtomobil, elektr energiyasi yoki internet kabi ixtirolar inson hayotini tubdan o'zgartirdi.

2. Ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash:

Ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini himoya qilish orqali jamiyatda tenglik va adolat talabini ilgari suradi. Bu esa siyosiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga turtki beradi.

3. Madaniyat va ma'naviyatning rivojlanishi:

Insonning intellektual va ruhiy ehtiyojlarini qondirish jamiyatda madaniy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu jarayon yangi ijodiy ishlar va ilmiy yutuqlarga olib keladi.

Misollar qilsak

Tarixdan misol: XV-XVI asrlarda Buyuk geografik kashfiyotlar savdo yo'llariga bo'lgan ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan. Bu jarayon ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirdi.

Hozirgi zamon misoli: XXI asrda internet texnologiyalarining rivojlanishi axborotga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida yuzaga keldi. Bu esa butunlay yangi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni shakllantirdi.

Ehtiyoj va manfaatlar ijtimoiy taraqqiyotning markazida turadi. Ular yangi maqsadlarni belgilaydi, resurslarni safarbar qiladi va jamiyatni oldinga siljitadi. Shu sababli, ehtiyoj va manfaatlarni chuqur o'rganish ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega¹¹¹.

Inson ehtiyojlari ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Masalan, ta'lim olish, sog'liqni saqlash, xavfsizlik kabi ehtiyojlar jamiyatni rivojlanishga undaydi. A. Comte ijtimoiy ehtiyojlarni taraqqiyotning ichki harakatlantiruvchi kuchlari sifatida ko'rsatadi¹¹².

Har qanday faoliyat inson harakatlarining sababi bo'lgan ong tomonidan dasturlashtirilgan va boshqariladi. Bu holatni faqat eng qo'pol falsafiy qarashlar muxlislari inkor etishlari mumkin, ular ong ideal

¹¹¹ V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya– Moskva, 1999 g., str. 311-328. Havola: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-3971-Ijtimoiy_falsafa.pdf

¹¹² О.Г.Данилян, В.М.Тараненко Философия –Москва “Ексмо” 2005 Ф. Havola: http://dspace.tnpu.edu.ua/bitstream/123456789/19806/3/Tsinnisni_Orien_Suchasn_Sv.pdf

shakllanish bo‘lib, og‘irlik, kengayish va boshqa “moddiy xususiyatlardan” mahrum bo‘lib, ijtimoiy voqelikni o‘z-o‘zidan o‘zgartirishga qodir emasligini va shuning uchun bu kabi o‘zgarishlarning sababi deb hisoblash mumkin emas. Darhaqiqat, Salyerining buyuk Motsartni o‘ldirish istagi (Agar biz Pushkin tomonidan qabul qilingan romantik gipotezaga ishonadigan bo‘lsak) bu vahshiylikni amalga oshirish uchun aniq yetarli emas. “Qorinda va qonda” tirik insonni fikr bilan o‘ldirish mumkin emasligi aniq (okkultizmning turli shakllari muxlislari bu haqda qanday fikrda bo‘lishidan qat’i nazar). Ammo shu asosda Motsart hasadgo‘y insonning yovuz irodasi bilan emas, balki jismoniy modda - o‘ldiradigan zahar dozasi bilan o‘ldirilgan deb aytish ham noto‘g‘ri¹¹³. Inson tafakkurining idealligi uni insonning jismoniy faoliyatini ong tomonidan tanlangan va boshqariladigan boshqa yo‘nalishga emas, balki aynan ushbu yo‘nalishga yo‘naltirishga sabab bo‘luvchi omil sifatida o‘rganib chiqmaslikka asos bermaydi. Shunday qilib, yana bir bor takrorlaymiz: insonlarning ongi, Aristotel ko‘rsatganidek, inson faoliyatining maxsus “maqsadli” sababi sifatida harakat qilishini inkor etish bema’nilikdir¹¹⁴. Va shunga qaramay, savol tug‘iladi: uni inson harakatlarining asosiy sababi deb hisoblash kerakmi yoki insonlarning maqsadlari va istaklari ortida chuqurroq, nomukammal sabab omillari bormi? Misol tariqasida o‘zi uchun uy qurayotgan insonning faoliyatini ko‘rib chiqsak. Keling, o‘zimizga sof ritorik savol bersak: bunday faoliyat mumkin, sabab bo‘lmaydi, yo‘naltirilmaydi va quruvchining ongi tomonidan boshqarilmaydi? Javob aniq salbiy. Inson o‘zi uchun uy qurishi mumkinligi aniq, agar u buni qilishni xohlasa va o‘z xohishini amalga oshira olsa. Uyning sifati va umuman qurilishi ko‘p jihatdan quruvchining mahoratiga (ya’ni uning ongining holatiga) va hokazolarga bog‘liq va hokazo. Shuning uchun, sodir bo‘layotgan voqealarning sabablari haqidagi savolga tabiiy javob shunday eshitiladi: inson uyga ega bo‘lish istagini his qilgani uchun uy quradi, bu istakni

¹¹³ Алексейев П.В. Социальная философия. Москва “ИРОСПЕКТ” 2003. Havola: http://web.krao.kg/12_filosofia/0_pdf/2.pdf

¹¹⁴ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159. Havola: <https://library.tsdi.uz/storage/books/March2022/gXGRWsIch5VUiruoJBh4.pdf>

amalga oshirishga qaror qildi, uni o'z imkoniyatlari bilan bog'ladi, qurilishni ta'minlash va uni boshlash to'g'risida qat'iy qaror qabul qilish bo'yicha ideal chizmani yaratdi, uyning, muayyan harakatlar dasturini shakllantirdi. Ko'rinib turibdiki, sodir bo'layotgan voqealarning barcha sabablari inson ongiga bog'liq. Va har qalay bunday emas. Bunga ishonch hosil qilish uchun o'zimizga eng oddiy savolni bersak: insonning uy qurish istagi o'z-o'zidan paydo bo'ladimi? Nega u to'satdan uyga ega bo'lishni, uni yaratishga ko'p kuch sarflashni xohladi? Bu istak inson ongining injiqligimi yoki buning ortida yanada chuqurroq sabab bormi? Bu savollarning barchasiga jiddiy javob bizni avvalo insonlar uylar qurishini hisobga olishga majbur qiladi, chunki ular issiq qonli jonzotlardir, chunki ular jismonan sovuq iqlim sharoitida issiq turarjoysiz omon qololmaydilar. Shu ma'noda, uy insonning omon qolishi uchun shart, mavjudlik muhitiga moslashishning haqiqiy vositasi bo'lib, unga aniq belgilangan xulq-atvor qoidalarini belgilaydi. Bu kabi mantiqqa asoslanib, biz harakatlarning haqiqiy asosiy sababi ong holatlari emas, balki inson faoliyatining moslashuvchan tabiatini ifodalovchi mavjudlikning asosiy va belgilovchi ehtiyojlari ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Bunday nuqtai nazar, ijtimoiy xulq-atvorning axborot dasturlari o'z-o'zidan maqsad emas, balki oxir-oqibat o'zini himoya qilish vositasi - tabiiy va ijtimoiy-madaniy muhitda inson mavjudligining obyektiv imperatividir, deya hisoblaydi. Keling, nima haqida so'z yuritayotganimizni tushuntirishga harakat qilsak. Keling, ehtiyojning ta'rifidan boshlasak, biz uni subyektning zaruriy mavjudlik shartlari yoki aniqrog'i, uning olamda mavjud bo'lishining muayyan shartlariga muhtojlik xususiyati bilan bog'liq holda ochib beradigan mulki sifatida tushunamiz. Ta'kidlash joizki, insonning har bir harakatida mavjud bo'lgan ehtiyoj uning boshqa qismlari - subyekt va obyekt bilan birga mavjud bo'lgan qism emas, balki faoliyat qismlaridan birining, uning predmetining xususiyatidir. Shu o'rinda, adabiyotda insonning ehtiyoji va faoliyatning tashkiliy jihatdan ajratilgan qismlari bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan ushbu ehtiyoj mavzusini ajratish odatiy holdir. Bu shuni anglatadiki, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon yoki uy-joy bizning ehtiyojimiz obyekti bo'lib, qorni to'q, kiyingan, sog'lom, tabiiy ofatlar injiqliklaridan himoyalangan, ehtiyojning

o‘zi esa bularning barchasiga muhtoj bo‘lish uchun uning atrof-muhitda mavjudligining sharti sifatida insonning mulkidan bo‘lak narsa emas. Ehtiyojni tasniflar ekanmiz, biz uning holatini emas, balki aynan ijtimoiy subyektning mulki ekanligini ta‘kidlashimiz joiz. Aynan hodisaning xususiyatlari, biz yodga olganimizdek, uning mohiyatini tashkil qiladi, shu bilan birga uning holatlari shu mohiyatdan kelib chiqadi va unga befarq bo‘lib tuyuladi (jumladan, suvning kimyoviy mohiyati uning agregat holatlariga befarq, chunki suv suvligicha qolishga qodir, ya‘ni, muhim xususiyatlar, har qanday o‘ziga xos agregat holatida - suyuq, bug‘li yoki qattiq). Mazkur oydinlashtirish subyektning ehtiyoji va uning dolzarb ehtiyojining holati sifatida ehtiyojni farqlash uchun muhimdir. Sodaroq qilib aytganda, insonning to‘yib ovqatlanishi va kiyinishi uning doimiy zaruriy mulki bo‘lib, u to‘la yoki libos xarid qilgan paytda o‘tmaydi, faqat o‘tkir ehtiyoj holatidan uning qoniqish holatiga o‘tadi (keyin u yana ehtiyoj holati bilan almashtiriladi). Ehtiyojlarning bu kabi eng umumiy tasnifi, ular inson faoliyatining har qanday shakllarining zarur funksional momenti ekanligini tasdiqlashga imkon beradi. Ishonch bilan aytishimiz mumkinki, insonlarning “ehtijojsiz” yoki “beehtiyoj” faoliyatining o‘zi yo‘q: biz qiladigan barcha narsa, biz tabiiy va ijtimoiy muhitda mavjud bo‘lishimiz joiz bo‘lgan narsalarga intilib, ko‘p va xilma-xil ehtiyojlarimiz uchun amalga oshiramiz. Inson ehtiyojlarini tasniflash muammosi fanning eng murakkab muammolaridan biridir. Quyida biz ushbu mavzuning ko‘p jihatlariga to‘xtalishimiz lozim (xususan, ijtimoiy ehtiyojlar tashuvchilari haqidagi savolni hal qilish uchun-ular faqat individual ravishda qabul qilinganmi yoki biz shaxslar tomonidan bo‘lmagan maxsus ehtiyojlar haqida gapirish huquqiga egamizmi? va ijtimoiy guruhlariga, shu jumladan butun insoniyat jamiyatlariga xosdir). Ayni paytda bizni insonning bir xil mavhum faoliyati faoliyatining zaruriy omili sifatida qaraladigan “umumiy ehtiyoj” ning eng muhim xususiyatlari qiziqtiradi. Shunga qaramay, aytish joizki, insonlarni o‘rganayotgan olimning eng katta xatosi - bu ularning muayyan muhitda jismonan omon qolishi uchun ularning ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan narsalar tizimini olib borishdir. Shak-shubhasiz, inson, har qanday tirik mavjudot singari, o‘z organizmining tabiati tomonidan belgilangan yeyish, ichish, nafas olish, uxlash, jinsiy aloqada bo‘lish va

hokazo ehtiyojlarni qondirish huquqiga ega. Biroq, organizmning bunday ehtiyojlari insonlarning ijtimoiy mavjudot sifatida mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni tugatmaydi. Bunday zarurat, jumladan, inson uchun bilimlarni qabul qilish va uzatishdir, ularsiz uning atrof — muhitda omon qolishi mumkin emas-bir xil tashkiliy ehtiyojlar qondiriladigan obyektlarni (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqalar) yaratish mumkin emas.). Insonlar mavjudligining zaruriy sharti, ya'ni ehtiyojning predmeti o'zaro ta'sir va o'zaro yordamdir, ya'ni hamkorlik va birgalikdagi say-harakatlarni muvofiqlashtirish, tartib va xavfsizlik va boshqa ko'plab narsalar. Boz ustiga, aytish joizki, inson ehtiyojlarining butun tizimi: defitsiyent va ekzistensial ehtiyojlar kabi ikki xil turga bo'linadi (XX asrning yeng buyuk psixologlaridan biri M. Maslou terminologiyasidan foydalanish)¹¹⁵. Kamchilik ehtiyojlarini insonlarning biologik va ijtimoiy hayotining haqiqatini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan barcha narsaga bo'lgan ehtiyoji sifatida tushunish lozim. Ekzistensial ehtiyojlar insonlarning ma'lum bir sifatini, nisbatan aytganda, bunday hayotning qulayligini saqlab qolish uchun zarur shart-sharoitlarga munosabatini bildiradi, ularsiz insonlar to'liq mavjud bo'lishi mumkin emas. Bu shuni anglatadiki, insonning ehtiyoj mavzusi nafaqat oziq-ovqat, balki ushbu taomning muayyan bir sifatidir, chunki insonning xulq-atvori nafaqat biron bir narsani iste'mol qilish, balki mazali ovqatlanish, ularning gastronomik moyilligini qondirish istagi sanaladi. Maslou bunday ijtimoiy ehtiyojlar orasida, xususan, sevgi va tegishli bo'lish ehtiyojlari (oila va do'stlikning ma'naviy asosiga aylanish), o'zini o'zi aniqlash, tan olish, hurmat qilish va o'zini-o'zi qadrlash zarurati, o'z qobiliyatlari va moyilliklarini rivojlantirish sifatida o'zini namoyon qilish zarurati, go'zalni boshdan kechirish zarurati va hokazo. Ijtimoiy ehtiyojlarning mavjudligi inson xulq-atvori mexanikasini qanday murakkablashtirishini anglab yetish mushkul emas, chunki ular hayot haqiqatidan ko'ra o'z sha'ni va qadr-qimmatini saqlashni afzal ko'radigan insonning "biologik noo'rin" harakatlari uchun asos bo'ladi. Inson ehtiyojlarini tasniflashga chuqurlashmay turib, ta'kidlash joizki, aynan ehtiyojlar xulq-atvorning

¹¹⁵ Karimov I, Valiyeva S, Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo'llanma).- T., 2008 yil.Havola: <https://www.samdu.uz/upload/content-files/Ijtimoiyfalsafa.pdf>

obyektiv negizi bo'lib, inson ongini tarbiyalaydi va inson erkinligini beqarorliklarini tizginlaydi. Boz ustiga, insonlarning ehtiyojlarini inson ongidan tashqarida mavjud bo'lgan, unga nisbatan birlamchi, ongni belgilovchi va undan mustaqil bo'lgan faoliyatining moddiy omillari sifatida ko'rib chiquvchi ijtimoiy-falsafiy oqimlarning mantiqini aniqlaydi. Aslida, yuqorida aytib o'tilganidek, inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, insonlarni harakatga keltiruvchi barcha hodisalar qandaydir tarzda ularning boshidan o'tishi kerak. Bu shuni anglatadiki, ehtiyoj haqiqiy inson faoliyatida muhim omilga aylanadi, agar u insonlar tomonidan amalga oshirilsa (faqat istisnolar, jumladan, nafas olish, kislorodni yutish zarurati bilan sodir bo'ladigan refleksli tarzda qondiriladigan "organizm" inson ehtiyojlaridir)¹¹⁶. Aksincha, ongsiz ehtiyoj va uning shartlari insonlarning xatti-harakatlariga hech qanday ta'sir qilmaydi — jumladan, suiqasd qurboni bo'lmoqchi bo'lgan inson vaziyatga nomuvofiq munosabatda bo'ladi, chunki uning xavfsizligiga haqiqiy tahdid, urinish uning ongi orqali hayotiy ehtiyojidan o'tmadi. Biroq ehtiyojlar va ongning o'zaro mustahkamlovchi faoliyat omillari sifatida bog'liqligi inson ehtiyojlari ong ekanligini anglatadimi? Bunday fikrni ma'qullash mushkul. Ma'lumki, haqiqiy ochlik tananing energiya manbalariga bo'lgan qondirilmagan ehtiyoji va bu ehtiyojni ongda ifodalash sifatida paydo bo'ladigan ochlik hissi, bu hodisalarning barcha o'zaro bog'liqligi sira bir-biriga o'xshamaydi. Xuddi shu narsani insonning haqiqiy xavfsizligi va uning xavfsizlik hissi va boshqalar o'rtasidagi munosabatlar haqida ham aytish mumkin va hokazo. Ijtimoiy faoliyatning barcha holatlarida ehtiyoj va ehtiyojni anglash bir-biriga o'xshash emasligi borasida bahslashish mumkin. Ushbu qoidadan istisno tariqasida, hatto ehtiyoj mavzusi inson ongining o'ziga xos ichki holatlari bo'lgan holatlar ham emas. Jumladan, biz bu bilimlarni tushunishimiz lozim, zotan insonlarning mavjudligi ularsiz mumkin emas va bilimga bo'lgan ehtiyoj bir-biriga o'xshash emas. Bunday holda, ehtiyoj obyektidir, biroq bilimga inson mulki sifatida borliqning zaruriy sharti

¹¹⁶ Falsafa asoslari. — T., "O'zbekiston" NMIU, 2005y. Havola: <https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/03/NamDU-ARM-3223-Falsafa.pdf>

sifatida munosabatda bo'lmaydi. Aynan shu narsani muxabbat xususida ongning insonning psixo-ijtimoiy tashkilotining qonunlaridan kelib chiqadigan sevgiga bo'lgan extiyoj borasida ham aytish mumkin.

Ilm-fan va texnologiyaning ijtimoiy rivojlanishga ta'siri

Ilm-fan va texnologiyaning mohiyati

Ilm-fan va texnologiya ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, ular jamiyatning barcha sohalarini rivojlantiradi. Ilm-fan orqali insoniyat tabiat qonuniyatlarini kashf qiladi, texnologiya esa ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etadi.

“Texnologik taraqqiyot ijtimoiy o'zgarishlarning eng kuchli mexanizmi hisoblanadi” (O. Kont)¹¹⁷.

1. Iqtisodiy sohada:

Texnologik inqilob ishlab chiqarishning samaradorligini oshiradi va yangi iqtisodiy sohalarni shakllantiradi. Masalan, sanoat inqilobi jamiyatni agrar iqtisodiyotdan sanoatlashgan jamiyatga o'tkazdi.

2. Ijtimoiy sohada:

Ilm-fan va texnologiyalar ta'lim tizimining rivojlanishiga hissa qo'shadi. Zamonaviy ta'lim usullari inson kapitalini boyitib, yangi ixtiro va innovatsiyalarga turtki beradi.

3. Ekologik sohada:

Texnologiyalar atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Yashil texnologiyalar va qayta tiklanadigan energiya manbalari ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Misollar qilsak

Tarixdan misol: XIX asrda elektr energiyasining kashf etilishi jamiyat hayotini tubdan o'zgartirdi. U ishlab chiqarish, transport va kundalik turmushga keng tatbiq etildi

Hozirgi zamon misoli: Sun'iy intellekt va robototexnika zamonaviy texnologiyalar natijasi bo'lib, ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga xizmat ko'rsatish sohasida inqilob qilmoqda.

¹¹⁷ КОНТ О. Курс положительной философии в 6 томах. — С.-Петербург, 1900
Havola: https://rusneb.ru/catalog/000199_000009_004450448/

Ilm-fan va texnologiya ijtimoiy taraqqiyotning uzluksiz harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib, ularning rivojlanishi jamiyatni yangi bosqichlarga olib chiqadi. Shu sababli, ilmiy izlanishlarni qo'llab-quvvatlash va texnologik innovatsiyalarga e'tibor qaratish har bir jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega.

Siyosiy va iqtisodiy omillarning ta'siri

Siyosiy omillar tushunchasi

Siyosiy barqarorlik, davlat boshqaruvi tizimi va qonun ustuvorligi ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartlari hisoblanadi. Siyosiy omillar orqali jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi va adolatli boshqaruv ta'minlanadi.

“Siyosat jamiyat taraqqiyotining yo‘nalishini belgilovchi kuchdir” (M. Veber)¹¹⁸.

Iqtisodiy omillar tushunchasi

Iqtisodiy barqarorlik, resurslarning samarali taqsimlanishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasini oshiradi. Bu omillar ijtimoiy farovonlikni ta'minlaydi.

1. Barqarorlik va rivojlanish:

Siyosiy barqarorlik iqtisodiy islohotlarning samaradorligini oshiradi. Buning natijasida yangi texnologiyalar joriy qilinadi va jamiyat farovonligi ta'minlanadi.

2. Siyosiy islohotlar:

Yaxshi boshqaruv tizimi va adolatli qonunchilik fuqarolarning huquqlarini himoya qiladi. Shu orqali ijtimoiy birdamlik kuchayadi.

3. Bozor iqtisodiyoti:

Iqtisodiy faoliyatning erkinligi innovatsiyalarga turtki beradi. Masalan, raqobat muhiti yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratadi.

Misollar qilsak

Tarixdan misol: AQShda 1930-yillardagi “Yangi kelishuv” dasturi siyosiy va iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiy inqirozni yengib chiqishga yordam berdi¹¹⁹.

¹¹⁸ Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978
Havola: <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=1381280>

Hozirgi zamon misoli: Xitoyning bozor iqtisodiyotiga o'tishi mamlakatning iqtisodiy qudratini sezilarli darajada oshirdi.

Siyosiy va iqtisodiy omillar jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Ularning o'zaro uyg'unligi jamiyatni barqarorlik va farovonlikka olib keladi.

4. Madaniy va ma'naviy qadriyatlar

Madaniy qadriyatlarning mohiyati

Madaniy qadriyatlar jamiyatni birlashtiruvchi va taraqqiyotni rag'batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ular jamiyatdagi odob-axloq me'yorlarini belgilab, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Ma'naviy qadriyatlarning roli

Ma'naviy qadriyatlar jamiyat a'zolarini maqsad sari yo'naltiruvchi ichki motivatsiyani shakllantiradi. Ular jamiyatdagi birdamlik va tinchlikni saqlashga xizmat qiladi. "Madaniyat — bu jamiyatning ruhiy dunyosidir" (F.Bekon)¹²⁰.

Ta'siri

Milliy g'oya va mafkura:

Ma'naviy qadriyatlar milliy birdamlikni ta'minlab, jamiyatni rivojlanishga undaydi.

2. Ijodiy rivojlanish:

Madaniyat rivojiga qo'shilgan har bir yangi hissa jamiyatni ma'naviy jihatdan boyitadi.

Misollar qilsak

Tarixdan misol: Uyg'onish davrida madaniyat va san'atning rivojlanishi ilmiy taraqqiyotga ham turtki bergan.

Hozirgi zamon misoli: Zamonaviy O'zbekiston madaniyati xalqaro aloqalarda milliy qadriyatlarni targ'ib etmoqda.

¹¹⁹ Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. I qism – T., O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashr., 2004 yil. Havola: https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/06/05/NamDU-ARM-3971-Ijtimoiy_falsafa.pdf

¹²⁰ Фрэнсис Бэкон и принципы его философии // Фрэнсис Бэкон: Сочинения в двух томах / Сост., общая ред. и вступит. статья - А. Л. Субботин (пер. Н. А. Фёдорова, Я. М. Боровского). — М.: АН СССР, Ин-т философии, изд-во соц.-эк. "Мысль", 1971. — Т. 1. — С. 5—55. — 590 с.

Madaniy va ma'naviy qadriyatlar jamiyatni birlashtirib, uning ruhiy va intellektual rivojlanishiga hissa qo'shadi. Shu sababli, bu qadriyatlarni asrab-avaylash ijtimoiy taraqqiyotning ajralmas qismidir.

Inson kapitali. Ilm-fan va texnologiya

Inson kapitalining tushunchasi

Inson kapitali — bu jamiyatning intellektual va ijtimoiy resurslari yig'indisi bo'lib, u ta'lim, sog'liqni saqlash va malakali ishchi kuchi orqali o'lchanadi.

Ta'siri

1. Ta'lim:

Yaxshi ta'lim inson kapitalini oshiradi, bu esa innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni tezlashtiradi.

2. Sog'liqni saqlash:

Sog'lom jamiyat ko'proq samaradorlikka erishadi va taraqqiyotga hissa qo'shadi.

Misollar qilsak

Tarixdan misol: Yaponiyaning ta'lim sohasiga investitsiya qilishi uning iqtisodiy rivojlanishida asosiy omil bo'lgan.

Hozirgi zamon misoli: Skandinaviya davlatlari inson kapitaliga sarmoya kiritish orqali yuqori farovonlik darajasiga erishgan.

Inson kapitali jamiyatning eng qimmatli resursi bo'lib, uning rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur shartdir. Shu sababli, inson kapitaliga qaratilgan investitsiyalar strategik ahamiyatga ega.

Ilm-fan va texnologiya ijtimoiy jarayonlarning yangi bosqichga chiqishini ta'minlaydi. Innovatsiyalar va texnologik yutuqlar iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni tezlashtiradi. S. Hawkingning fikricha, "ilm-fan taraqqiyotning eng kuchli harakatlantiruvchi omilidi"¹²¹.

Siyosiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot jamiyatning harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. J. Habermas siyosiy tizimni ijtimoiy rivojlanishning muhim omili deb biladi. Shuningdek, iqtisodiy

¹²¹ Hawking S. Brief Answers to the Big Questions. – New York: Bantam Books, 2018. Havola: [https://ia903405.us.archive.org/5/items/brief-answers-to-the-big-questions/BriefAnswers to the Big Questions.pdf](https://ia903405.us.archive.org/5/items/brief-answers-to-the-big-questions/BriefAnswers%20to%20the%20Big%20Questions.pdf)

resurslarning to'g'ri taqsimlanishi jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi¹²².

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ijtimoiy taraqqiyot subyektlari va harakatlantiruvchi kuchlari jamiyat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridir. Ushbu jarayonda shaxs, guruhlar va institutlarning faoliyati, shuningdek, ijtimoiy ehtiyojlar va texnologik yutuqlar muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Citti, Francesco (2015), "Seneca and the Moderns", in Bartsch, Shadi; Schiesaro, Alessandro (eds.), *The Cambridge Companion to Seneca*, Cambridge University Press, ISBN 978-1107035058

2. Hesiod. *Theogony; and, Works and days* / Hesiod; translated and with introductions by Catherine M. Schlegel and Henry Weinfield. Published in the United States of America. The University of Michigan Press. -2010

3. Plato. *Plato in Twelve Volumes, Vols. 5 & 6* translated by Paul Shorey. Cambridge, MA, Harvard University Press; London, William Heinemann Ltd. 1969.

4. Lord, Carnes (1984). *Introduction to The Politics*, by Aristotle. Chicago University Press. 5. Mackey, Louis (2011). *Faith Order Understanding: Natural Theology in the Augustinian Tradition*. Totonto: PIMS. ISBN 978-0-88844-421-9.

5. Abu Nasr Forobiy. *Fozil odamlar shahri*. – T.: Xalq merosi, 1993. – B. 159.

6. Abu Rayhon Beruniy. *Tanlangan asarlar. I tom.* / Tarjimon A.Rasulov. Izohlarni I.Abdullayev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullayev va O.Fayzullayev. –T.: Fan, 1968.

7. Фрэнсис Бэкон и принципы его философии // Фрэнсис Бэкон: Сочинения в двух томах / Сост., общая ред. и вступит. статья - А. Л. Субботин (пер. Н. А. Фёдорова, Я. М. Боровского). — М.: АН СССР,

¹²² Habermas J. *The Theory of Communicative Action*. – Cambridge: Polity Press, 1984. Havola: <https://teddykw2.wordpress.com/wp-content/uploads/2012/07/jurgen-habermas-theory-of-communicative-action-volume-1.pdf>

Ин-т философии, изд-во соц.- эк. “Мысль”, 1971. — Т. 1. — С. 5—55. — 590 с.

8. Gutting, Gary (1999). *Pragmatic Liberalism and the Critique of Modernity*. Cambridge University Press. p. 116. ISBN 9780521649735. *Modernity begins with Descartes' mutation of Augustinianism*. 1. Marx K., Engels F. *Kommunistik partiya manifesti*. — Toshkent: O‘zbekiston, 1989.

9. Тюрго, Анн Робер Жак // Тихоходки — Ульяново. — М.: Советская энциклопедия, 1977. — (Большая советская энциклопедия: [в 30 т.] / гл. ред. А. М. Прохоров; 1969—1978, т. 26).

10. Кондорсе Ж. Эскиз исторической картины прогресса человеческого разума = *Esquisse d'un tableau historique des progres de l'esprit humain*. — Либроком, 2011. — 280 с.

11. Конт О. Курс положительной философии в 6 томах. — С.-Петербург, 1900

12. Спенсер Г. Социальная статика: Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. — Санкт-Петербург, 1872. — 471 с.

13. Durkheim, Émile (1974) [1953]. *Sociology and Philosophy*. Translated by D. F. Pocock; with an introduction by J. G. Peristiany. Toronto: The Free Press. ISBN 978- 0-02-908580-6. LCCN 74-19680.

14. Popper K. *The Third Wave* (1980) Bantam Books, ISBN 0-553-24698-4

15. Bell D. *The Revolution of Rising Entitlement*. Fortune, 1975.

16. Toffler A. *The Third Wave* (1980) Bantam Books, ISBN 0-553-24698-4

17. Madaeva, S., & Tunis, K. (2019). ocio-philosophical bases of research of modernization processes in Uzbekistan. *International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering*, 9(1), 3119-3123.

18. Avazovna, D. N. (2022). PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES TO THE STUDY OF THE PARADIGM OF CIVILIZATION. *World Bulletin of Social Sciences*, 14, 6-11.

19. Sharofovich, S. A. (2022). VIRTUALIZATION OF ECONOMY IS THE MAIN MECHANISM OF VIRTUALIZATION OF

SOCIAL LIFE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(12), 62-68.

20. Sharofovich, S. A. (2021). Virtuality as a New Ontological Model of the World. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(10), 51-54.

21. Sharofovich, S. A. (2021). CONCEPT ANALYSIS: “INFORMATION”, “INFORMED SOCIETY”, “VIRTUALITY”, “VIRTUALIZATION”, “SOCIAL VIRTUALIZATION”. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 338-346.

22. Шукуров, А. Ш. (2022). ВЛИЯНИЕ ВИРТУАЛИЗАЦИИ НА СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ПРОЦЕССЫ. In 66-я Международная научная конференция Астраханского государственного технического университета (pp. 599-601).

23. To‘raqulov A. Jamiyatshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2015.

24. Weber M. Economy and Society. – Berkeley: University of California Press, 1978.

25. Durkheim E. The Division of Labor in Society. – New York: Free Press, 1997.

26. Comte A. The Positive Philosophy. – Cambridge: Cambridge University Press, 1853.

27. Hawking S. Brief Answers to the Big Questions. – New York: Bantam Books, 2018.

28. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Cambridge: Polity Press, 1984.

29. J.Tulenov Jamiyat falsafasi. Oltinchi bo‘lim.– T., 2001 yil.

30. V.S.Barulin. Sotsialnaya filosofiya– Moskva, 1999 g., str. 311-328.

31. Krapivenskiy S.E. Sotsialnaya filosofiya.– Moskva, «VLADOS» 1998 yil 55-101, 335-354 betlar

32. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q»- T., «O‘zbekiston» 215 1998 yil

33. Choriyev A. Inson falsafasi. – T., 2006 yil.

34. Karimov I, Valiyeva S, Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (uslubiy qo‘llanma).- T., 2008 yil.
35. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. T., “O‘zbekiston” 2001 y.
36. Xorazm Ma‘mun akademiyasi va uning dunyo ilm-fani taraqqiyotidagi o‘rni. – T., 2007 yil.
37. О.Г.Данилян, В.М.Тараненко Философия –Москва “Ексмо” 2005 Ф.
38. Sulaymonova, G‘arb va Sharq – T., 2000 yil.
39. Tulenova K. Predvideniye i realnost.- T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” ilmiy nashr., 1998 yil.
40. Bilish falsafasi. – T., “Universitet” nashr., 2005 yil.
41. Falsafa asoslari. – T., “O‘zbekiston” NMIU, 2005 y.
42. Jaxon falsafasi tarixidan lavxalar. I qism – T., O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashr., 2004 yil.
43. Алексейев П.В. Сотсиальная философия. Москва “ПРОСПЕКТ” 2003.
44. Yaxshilikov J.Ya., Muxammadiyev N.Y. Milliy g‘oya va mafkura. (Monografiya). T.: “Fan”, 2015 yil.
45. Turayev B.O. “Ontologiya, gnoseologiya, logika va fan falsafasi muammolari”. Tiklangan asarlar. 1-tom, “O‘zbekiston milliy kutbxonasi nashriyoti”, -T.: 2015 yil.

INTERNET RESURSLARI:

46. www.ziyounet.uz
47. www.philosophy.ru.
48. <http://www.intencia.ru>.
49. <http://www.anthropology.ru>
50. <http://www.ido.rudn.ru>.
51. <http://www.filosofia.ru>.
52. <http://www.falsafa.dc.uz>.
53. <https://izoh.uz/uz>

MAVZU YUZASIDAN GLOSSARIYLAR

Taraqqiyot — rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yoʻnalgan shakli, uning yuksalishi. Adabiyotlarda taraqqiyotni koʻpincha rivojlanish bilan aynanlashtirib koʻyishadi, aslida u rivojlanish falsafasining bir yoʻnalishidir. Shuningdek, taraqqiyotni ayrim adabiyotlarda faqat jamiyatdagi ijtimoiy rivojlanish maʼnosida qoʻllashadi, bu ham bir yoqlama yondashuvdir. Taraqqiyot falsafiy adabiyotlarda progressiv rivojlanish tarzida qoʻllanadi. Odatda rivojlanishning 2 muhim yoʻnalishi boʻlib, biri taraqqiyot (progressiv rivojlanish), ikkinchisi inqiroz (regressiv rivojlanish) hisoblanadi. Taraqqiyotni faqatgina jamiyatga qoʻllashning xato jihati shundaki, jamiyatdan tashqaridagi sistemalarda ham yuksalish roʻy beradi. Masalan, muayyan tirik organizmlarning taraqqiyoti, bemordagi kasallikning taraqqiyoti, kimyoviy jarayonning taraqqiyoti va boshqalar. Taraqqiyot nisbiydir. Rivojlanish bir sistema uchun taraqqiyot, boshqa sistema uchun regress boʻlishi mumkin. Masalan, kasallikning rivojlanishi, kasallikni vujudga keltiruvchi viruslar uchun taraqqiyot boʻlsa, bemor organizmi uchun inqiroz (regress) dir. Har qanday sistema oʻzining rivojlanishi mobaynida taraqqiyotni ham, inqirozni ham boshidan kechiradi. Sistemaning ravnaq topishi taraqqiyotni anglatga, uning yemirilishi esa inqirozni anglatadi. Taraqqiyot jonsiz, anorganik tabiatga ham, jonli, organik tabiatga ham, jamiyatga, inson tafakkuriga, ruhiyatiga ham xos boʻlgan tabiiy va zaruriy jarayondir. Taraqqiyot mikro, makro, megadunyoda ham sodir boʻladi. Taraqqiyot tufayli olamda mukammallashish, yuksalish roʻy beradi, u vujudga kelish, murakkablashish, ulgʻayish, yangilanish, tiklanish, sistema yasallish jarayonlari tarzida amalga oshadi. Taraqqiyot yaxlit jarayondir.

Teologik ong (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy talimotlar majmui. Xudo shaxsan oʻzini vahiy orqali kishilarga maʼlum qiladi degan konsepsiyaga asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar Teologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi. Teologiya turli diniy oʻquv yurtlari — seminariyalar, akademiyalar, madrasalar va boshqalarda oʻqitiladi. Teologiya tushunchasi avvalo iudaizm va xristianlikka nisbatan qoʻllangan. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamallari bilan ham ataladi. Kishilik jamiyatining

intellektual taraqqiyotini teologik-ilohiy bosqichida teologik ong ustun bo'lib, uni diniy-mifologik dunyoqarash sifatida ham tushuntiriladi.

Fatalizm (lot. fatalis – taqdirga oid) – hamma voqealarning azaldan belgilab qo'yilganligi to'g'risidagi ta'limot; mavhum taqdirga (antik stoitsizm), „peshonaga yozilgan“ taqdiri azalga (islom va boshqadinlar) ishonish. Fatalizm narsa va hodisalarning rivojlanishi, shu jumladan, insonning hayoti va oldindan belgilanganligi va binobarin, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishini inkor etadi. Falsafa tarixida fatalizmni iroda erkinligi qanday hal qilinganligiga qarab 3 asosiy turga ajratish mumkin: mifologik fatalizm – irodani aqldan tashqarida, „qorong'i taqdir“ deb qaraydi; teologik fatalizm – taqdir xudo qudratiga bog'liq, inson tug'ilishidan oldin uning kim bo'lishi, nimalar qilishi peshonasiga yozib qo'yilgan deyiladi. Bu nazariya kalomnint eng muhim aqidalaridan hisoblanadi, u kalvinizm va yansenizmga o'zining izchil ifodasini topgan; ratsionalistik fatalizm (mexanistik determinizm bilan qo'shiluvchi) – tasodifni va inson irodasi azaliy taqdirning zarur sharti deb qaraydi. Uning namoyandalari (pifagorchilar, Demokrit, Nitsshe va boshqalar) doiraviy aylanishning muayyan davrasida voqealar mutlaq takrorlanishini ta'kidlaydi.

Volyuntarizm(lotincha: voluntas — iroda) — 1) irodani borliqning eng oliy ko'rinishi, tamoyili deb qarovchi falsafiy oqim. V. ta'limotida insonning irodasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Qad. davr falsafasidagi aql-idrok, ratsionalizmdan farqli o'rta asr falsafasida, mas., A. Avgustin ta'limotida iroda birinchi o'ringa chiqdi. A. Shopengauer amaliy idrokni ilgari surgan Kant falsafasiga tayansa ham, lekin undan farqli ravishda irodaning aql-idrokdan ustunligini yoqlab chiqdi va bu bilan Kant falsafasi, klassik falsafadan o'zgacha yo'l tutdi. F. Nitsshe ham Shopengauer ta'sirida falsafaning markaziga inson irodasini qo'yadi. Lekin uning talqinida iroda hokimlikka intilishni bildiradi. Nitsshe hokimlikka erishish uchun irodani ishga solish inson faoliyatining hal qiluvchi hamda eng asosiy qobiliyatidir, deb talqin qiladi, mutlaq hokimlikka, hokimiyatga erishish uchun o'ta kuchli iroda egalari bo'lgan "oliy shaxoga sig'inishni falsafiy asoslashga urinadi; 2) tarixiy jarayonlarning obyektiv qonuniyatlariga rioya qilmasdan, jamoatchilik bilan hisoblashmasdan,

o'zboshimchilik bilan siyosat yuritish, o'z xohish- irodasini hamma narsadan yuqori qo'yish. V. sobiq Sho'rolar davrida keng quloq yoydi. O'zboshimchalik, xalq ommasi manfaatlariga zid qilmishlar salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

Paradigma (grekcha — „namuna, andoza“) — ilmiy yutuqlar majmui. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Mazkur tushunchani ilmiy muomalaga keng yoyilishida amerikalik tarixchi Tomas Kunning „Ilmiy inqiloblar strukturasi“ asari asosiy o'rinni egallaydi. Tomas Kunning fikricha, paradigma ilmiy jamoatchilik birligini ta'minlaydi. Ilmiy namunani, universal qonunlarni konkret hodisalarga tadbiq etish asosida fan rivojlanadi. Umuman olganda, paradigmani ilmiy tan olingan va qaysidir davrda ilmiy tadqiqot uchun yo'naltirilgan bir yoki bir nechta fundamental yig'indisi, deb ta'riflash mumkin. Shu boisdan ham ilmiy paradigma vositasida ilmiy muammolar o'rta tashlanadi va uni yechish modeli namoyon bo'ladi. Geosiyosiy paradigma esa tan olingan geosiyosiy nazariyalar orqali dunyoning geosiyosiy manzarasini ilmiy jihatdan aniqlash modelidir.

Ehtiyoj – insonning yashashi va kamol topishi uchun kerakli hayotiy vositalarga bo'lgan zaruriyat. Ehtiyoj kishilarning hayotiy vositalariga bo'lgan zaruriyatini ifodalovchi ilmiy kategoriya sifatida taraqqiyotning hamma bosqichlari uchun umumiy va doimiydir. Uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi tarixiy ko'rinishi talab tushunchasidir. Talab ehtiyojdan farq qilib, mustaqil iqtisodiy kategoriya (ilmiy tushuncha) sifatida amal qiladi. Ehtiyojning faqat pul bilan ta'minlangan qismi talabga aylanadi. Demak, talab – bu pul bilan ta'minlangan ehtiyojdir.

Ehtiyoj zarur miqdordagi pul bilan ta'minlanmasa, u „xohish“, „istak“ bo'lib qolaveradi. Talabning bir qator muqobil variantlari mavjud bo'ladi, chunki narx o'zgarishi bilan tovarning sotib olinadigan miqdori ham o'zgaradi. Barcha hayotiy ehtiyojlar (iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy, siyosiy ehtiyojlar) ichida ijtimoiy–iqtisodiy ehtiyojlar alohida o'rin tutadi. Bu ehtiyojlar kishilarning yashashi, mehnat qilishi va hayot kechirishi uchun turli ne'matlar hamda xizmatlarga zaruratdan iborat

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, adolat asosiy omil va uning ijobiy taraflari ham aytib o'tildi, biroq bu masalaga bir tomondan qarash yaramaydi. Ya'ni tanganing boshqa tomoni ham bor. Adolatli boshqaruvni amalga oshirishni asosiy maqsad qilib qo'yiladigan bo'lsa, birinchidan, adolatli bo'lgan qarorlar hamma uchun ham bir xil darajada qoniqarli bo'lmasligi mumkin. Masalan, bir guruh manfaatlari boshqa guruh manfaatlariga qarshi kelishi mumkin. Bu ijtimoiy norozilik va ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bir mamlakatda hukumat iqtisodiy resurslarni adolatli taqsimlash uchun ijtimoiy yordam dasturini yaratadi, bunda mablag'lar past daromadli oilalarga yo'naltiriladi. Bu qaror, o'z navbatida, yuqori daromadli guruhlar va tadbirkorlar orasida noroziliklarga olib kelishi mumkin. Ular bu yordamning o'zlarini nohaq ravishda chetlab o'tkazilganligini va ularning iqtisodiy muvaffaqiyatlariga zarar etkazayotganini his qilishlari mumkin. Natijada, bu qaror ijtimoiy barqarorlikka tahdid solishi, norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin. Bunday holatlarda, hukumatning maqsadi barcha jamiyat a'zolari uchun adolatni ta'minlash bo'lsa-da, qarorning amalga oshirilishi ijtimoiy guruhlar o'rtasida ziddiyatlar va noroziliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi bir salbiy tomon sifatida ko'rilishi mumkin. Ikkinchidan, adolatli boshqaruvni amalga oshirish uchun davlat va hukumatlar ko'pincha juda murakkab siyosiy qarorlar qabul qilishadi. Bu qarorlar ba'zan qisqa muddatda samarasiz yoki teskari natijalar berishi mumkin, masalan, resurslarni adolatli taqsimlash uchun qo'yilgan cheklovlar iqtisodiy rivojlanishni to'xtatishi mumkin. Masalan, eng yuqori daromadli shaxslar uchun soliq

¹⁴⁰ Temur tuzuklari // Forschadan A. Sog'unliy va X. Karomatov tarj: B. Axmedov tahrir. ostida/. - T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.- 144 b.

stavkalarini oshiradi va kambag'allarga subsidiya beradi. Bu qaror uzoq muddatda tenglikni oshirishni maqsad qilgan bo'lsa-da, qisqa muddatda iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga, investitsiyalarning kamayishiga va ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Uchinchidan, adolatli boshqaruvni amalga oshirish uchun jamiyatda kuchli tizim va infrastrukturani yaratish zarur. Bu jarayon ba'zida qarama-qarshi kuchlarni va o'zgarishlarga qarshi turishni keltirib chiqarishi mumkin, ayniqsa mavjud ijtimoiy tizimda va ijtimoiy guruhlar o'rtasida kuchli qarshilik mavjud bo'lsa. Bir mamlakatda hukumat korrupsiyani kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta'minlash maqsadida yangi siyosatlarini kiritishga qaror qiladi, masalan, yuqori lavozimli amaldorlar uchun moliyaviy shaffoflikni kuchaytirish, davlat tenderlarini ochiq tarzda o'tkazish va korrupsiyaga qarshi yangi qonunlarni joriy etish. Bu siyosatlar iqtisodiy tenglikni oshirish va resurslarni adolatli taqsimlashga yordam berishi kerak, ammo ularning amalga oshirilishi tizimda chuqur ildiz otgan korrupsiya va manfaatlar tarmog'iga to'qnashadi. Natijada esa noroziliklar paydo bo'la boshlaydi. To'rtinchidan, adolatli boshqaruvni amalga oshirishda resurslarni taqsimlashda yuzaga keladigan noaniqliklar va ba'zan qarorlarning turli guruhlar tomonidan noto'g'ri qabul qilinishi yoki noto'g'ri tushunilishi ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. So'ng qarabsizki butun jamiyatda jo'sh urayotgan "ijtimoiy barqarorlik" asta-sekin zinalardan pastga tushib ijtimoiy beqarorlikning qo'lidan tutadi.

3. Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik o'rtasidagi munosabatlar. Turli mamlakatlardagi ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik misollari.

Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik o'rtasidagi munosabatlar dialektik jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatda barqarorlikning yo'qolishi, yangi beqarorlik holatining yuzaga kelishi va uning o'zgarishi ijtimoiy tizimning moslashuvchanligiga bog'liqdir. Misol uchun, siyosiy inqirozlar, iqtisodiy inqirozlar yoki tabiiy ofatlar jamiyatda beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Biroq bu beqarorlik yangi tizim va strukturani yaratish uchun ham zamin yaratishi mumkin. Bu jarayon ijtimoiy tizimlarning o'zgaruvchanligini va ularning yangi sharoitlarga moslashuvini ko'rsatadi. Shunday qilib, ijtimoiy beqarorlik ba'zida yangi barqarorlik modelining shakllanishi va rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Misol uchun, **Sovet Ittifoqining qulashidan** keyingi davrni ko‘rishimiz mumkin. Sovet davrining ijtimoiy va siyosiy tizimi o‘zining barqarorligini uzoq vaqt davomida saqladi, ammo tizimning zaifliklari, erkinlikning yo‘qligi va iqtisodiy muammolar beqarorlikni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, Sovet Ittifoqining qulashidan keyin Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropadagi yangi mustaqil davlatlarning tashkil topishi, o‘ziga xos ijtimoiy tizim va strukturalarning shakllanishi ham barqarorlikka erishish uchun birinchi qadam edi. Bu jarayonda beqarorlikning vaqtincha yuzaga kelishi, tizimning yangi shakllariga moslashishini ko‘rsatadi.


Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlikni ta‘minlovchi omillar, sabablar va munosabatlar haqida gaplashdik endi ularga misol keltirmasak to‘g‘ri bo‘lmaydi. Hozirgi kunda Shvetsiya, Germaniya va Singapur kabi davlatlar ijtimoiy barqarorlik yo‘lidan ketayotgan davlatlarga misol bo‘la oladi.

Shvetsiya ijtimoiy barqarorlikning yuqori darajasiga ega bo‘lgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Uning ijtimoiy tizimi, iqtisodiy barqarorligi va siyosiy tashkiloti bu barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi¹⁴¹. Shvetsiyada sog‘liqni saqlash tizimi davlat tomonidan boshqariladi va barcha fuqarolarga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatadi. Bu aholi salomatligini saqlash va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Oila, bolalar, qariyalar va nogironlar uchun ijtimoiy ta‘minot dasturlari mavjud. Bu dasturlar ishsizlik, kasallik yoki boshqa muammolar tufayli daromadsiz qolgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shvetsiyada kuchli demokratik an‘analar mavjud bo‘lib, bu aholining siyosiy jarayonlarda ishtirok etishiga imkon beradi. Ochiq va shaffof siyosat ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shvetsiyada qonunlar ustuvor bo‘lib, fuqarolarning huquqlari himoya qilinadi. Korrupsiyaning pastligi va adolatli sud tizimi xalq o‘rtasida ishonchni oshiradi. Shvetsiya iqtisodiy o‘sish va raqobatbardosh sanoat bilan mashhur. Innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shvetsiya ko‘plab madaniyatlar va urf-odatlariga ega bo‘lib,

¹⁴¹ <https://worldview.stratfor.com/article/persistent-gang-violence-sweden-threatens-political-stability-and-economy>

bu madaniy xilma-xillik ijtimoiy birlik va hamjihatlikni oshiradi. Shvetsiya migrantlar va qochqinlarni qabul qilishga tayyor, bu esa ijtimoiy xilma-xillikni va madaniy boylikni oshiradi. Shvetsiya ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni saqlashga intiladi. Hukumat siyosati ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu barqarorlikni mustahkamlaydi.

Singapur ijtimoiy barqarorlikning muhim misoli sifatida tan olinadi. Bu mamlakat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlari orqali yuqori darajada barqarorlikni saqlab kelmoqda¹⁴². Ushbu diagrammada Singapurning ijtimoiy barqarorligini ta'minlayotgan omillar ko'rsatilgan. Har bir omilning ahamiyati teng, chunki barchasi mamlakatning barqarorligini saqlashda muhim rol o'ynaydi.



Venesuela, ijtimoiy beqarorlikning ko'plab misollaridan biri sifatida, so'nggi yillarda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda. Venesuela, jahondagi eng katta neft zaxialaridan biriga ega bo'lishiga qaramay, 2010-yillarning o'rtalaridan boshlab iqtisodiy inqirozga duch kelmoqda. Neft narxining pasayishi, yirik korrupsiya, va boshqaruvdagi noaniqlik iqtisodiyotni og'ir holatga keltirgan. Venesuela hukumatining ko'plab qoidalari va qonunlarini kuchaytirishi, muxolifatga nisbatan repressiyalar, siyosiy to'ntarishlar va mamlakat ichidagi ijtimoiy harakatlar siyosiy beqarorlikni yanada kuchaytirmoqda. Ijtimoiy beqarorlik va iqtisodiy inqiroz sababli ko'plab venesuelaliklar boshqa davlatlarga ko'chib o'tishga majbur bo'lmoqda. Bu migratsiya oqimi boshqa

¹⁴²

<https://daryo.uz/2023/05/24/singapur-rivojlanishi-tarixi-tasodifiy-emas-halima-yaqub-mamlakat-ravnaq-topishiga-sabab-bolgan-omillar-haqida-gapirdi>

mamlakatlar, jumladan, Kolumbiya va Braziliyaga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatda oziq-ovqat va dori-darmon etishmasligi muammolari keng tarqalgan.

Hindiston – ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ko'rsatadigan yana bir misol. Hindistonda siyosiy barqarorlik mavjud bo'lsa-da, ijtimoiy beqarorlik va iqtisodiy tengsizlik kabi muammolar davom etmoqda.

Suriya – ijtimoiy beqarorlikning salbiy misollaridan biridir. 2011-yilda Suriya inqilobi va urushining boshlanishi mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy tizimning beqarorligini namoyon etdi. Suriya misoli, ijtimoiy barqarorlikning qanday qilib iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy zaifliklar tufayli buzilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Fransiyada ijtimoiy beqarorlikning bir necha sabablari mavjud, jumladan, iqtisodiy tengsizlik, migratsiya siyosati va migratsiya oqimlari bilan bog'liq ijtimoiy ziddiyatlar. 2024-yilda Fransiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar ko'plab ommaviy noroziliklarga sabab bo'lmoqda.

Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik – bu jamiyatlarning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tizimlaridagi asosiy dinamikalaridir. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va uni saqlash, har bir davlatning eng muhim vazifalaridan biridir, chunki barqaror jamiyat fuqarolarining farovonligi, xavfsizligi va erkinligini kafolatlaydi. Barqarorlikning o'ziga xos mezonlari mavjud bo'lib, ular ijtimoiy adolat, siyosiy ishonch, iqtisodiy tenglik, huquqiy tizimning samarali ishlashi, shuningdek, madaniy va diniy bag'rikenglikni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ijtimoiy beqarorlik jamiyatda tarqoqlik, ishonchsizlik, ziddiyatlar va ijtimoiy tanglikni keltirib chiqaradi, bu esa o'z navbatida jamiyatning doimiy rivojlanishini to'xtatadi va uning kelajagi uchun xavf tug'diradi¹⁴³.

Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlikni falsafiy nuqtai nazardan tushunish, avvalo, jamiyatning nafaqat tashqi strukturalari, balki uning ruhiy, ma'naviy va axloqiy poydevorlari bilan ham bog'liq ekanligini anglatadi. Jamiyatda haqiqiy barqarorlikni ta'minlash uchun nafaqat siyosiy tuzilmalar, iqtisodiy tizimlar yoki qonunlar o'zgartirilishi kerak,

¹⁴³ T.Ismoilov "Ijtimoiy falsafa fanidan o'quv-uslubiy majmua" Namangan-2023

balki insonning ichki dunyosi, uning o'ziga va boshqalarga bo'lgan munosabati ham o'zgarishi kerak. Janubiy Koreyalik faylasuf Kim Il Sung ta'kidlaganidek "Jamiyatni o'zgartirishning eng muhim bosqichi – bu uning a'zolarining ruhiy o'zgarishidir". Ya'ni biror jamiyat barqarorlikka erishmoqchi bo'lsa albatta har bir "murvat"ning ruhiy va ma'naviy o'zgarishiga harakat qilishi lozim. Aristotelning adolatga asoslangan "o'rta yo'l" g'oyasi yoki Platonning "filozof-faroq" boshqaruvi haqidagi fikrlari jamiyatni boshqarishda axloqiy yondashuvni ta'kidlaydi. Insonlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, adolat va tenglik ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan eng kuchli poydevordir.

Ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik jamiyatning mustahkamligi va farovonligi uchun muhim omillardir. Barqarorlik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan barqaror muhitni ta'minlaydi, bu esa aholining hayot darajasini oshiradi, ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo'shadi va davlatga ishonchni mustahkamlaydi. Ijtimoiy beqarorlik xalqning ishonchini yo'qotishiga, iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishiga va siyosiy tuzumlarning mustahkamlanishiga to'sqinlik qiladi. O'z navbatida, bu muammolarning barchasi ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish uchun zaruriy choralarni ko'rishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy barqarorlik va beqarorlik – jamiyatlarning rivojlanishining muhim omillari bo'lib, ularning o'rtasidagi bog'lanishlarni va dinamikani to'g'ri tushunish, barqaror jamiyatlarni yaratish va ijtimoiy beqarorlikning oldini olishda muhimdir. Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun davlatlar, jamiyatlar va fuqarolar birgalikda ishlashlari va o'zgarishga ochiq bo'lishlari zarur. Hech qachon jamiyat faqatgina qonunlarga yoki yozma narsalarga tayanmasligi kerak, zero Sitseron aytganidek, "Hukumat – so'zlovchi qonun, qonun esa gung hukumatdir". Lekin bu degani jamiyatni faqat hukumat boshqaradi degani emas, jamiyatni men va siz boshqaramiz, men qanday bo'lsam, siz qanday bo'lsangiz jamiyat ham shunday bo'ladi.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.Ismoilov "Ijtimoiy falsafa fanidan o'quv-uslubiy majmua"
Namangan-2023.

2. Abdugʻaniyev A. *“Ijtimoiy tizim va barqarorlik”*, “Falsafa va jamiyat” (Toshkent, 2014)
3. I.A. Karimov *“Ijtimoiy barqarorlik va barqaror rivojlanish”* (Toshkent, 2000)
4. Abu Nasr Forobiy, “Fozil odamlar shahri”. “Yangi asr avlodi”, 2016-yil.
5. Temur tuzuklari // Forschadan A. Sogʻuniy va X. Karomatov tarj: B. Axmedov tahrir. ostida/. - T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.- 144 b.
6. Raymond Williams *“Culture and Society”* New York Anchor Book Edition 1960.
7. Avreliy Avgustin “Xudo shahri” (*“City of God”*) Rev. Marcus Dods, M.A.
8. Plato. *“The Republic” (Politeia)*, Translated by Allan Bloom, 1968.
9. Toby Wilkinson *“Qadimgi Misrning yuksalishi va qulashi”* asari 2010.
10. James Henry Breasted *“Misr tarixi”* New York 1909.
11. Ksenofon *“Ellenika”* Gutenberg, 2008.
12. Arsitotel *“Politika”* asari 1988-yil
13. Hobbes, T. (1651). *Leviathan*.
14. Rawls, J. (1971). *A Theory of Justice*.
15. Plato. *“The Republi” (Politeia)*, Translated by Allan Bloom, 1968.
16. Democritus. *“Moral Sayings”*. Translated by George H. R. Horsley, in *The Presocratic Philosophers*, 6th edition. London: Routledge, 1952.
17. Abdugʻaniyev A. *“Platon va ijtimoiy barqarorlik”*. Toshkent: Oʻzbekiston, 2015.

MAVZU YUZASIDAN GLOSSARIYLAR

Barqarorlik – tizimning yoki jamiyatning vaqt oʻtgan sari oʻzining asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi, muvozanat va tartibni taʼminlashi hamda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan rivojlanishi qobiliyatidir.

Beqarorlik – tizimning yoki jamiyatning muvozanatini yo‘qotishi, tartibsizlik va noaniqlik holatiga tushishi hamda davomiy o‘zgarishlar va o‘zgaruvchanlikka duch kelishi holatini anglatadi.

Madaniy identitet – shaxs yoki guruhning madaniyati, an‘analari, qadriyatlari, til, din va boshqa madaniy elementlar orqali o‘zligini anglatadi.

Ijtimoiy qatlam – jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy guruhlar yoki toifalar. Ijtimoiy qatlamlarning muvozanati va ularning o‘rtasidagi munosabatlar ijtimoiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosiy tizim – davlat yoki jamiyatning tashkil etilishida mavjud bo‘lgan boshqaruv usuli. Siyosiy tizim barqarorligini ijtimoiy tartib, qonunlar va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar belgilaydi.

Ijtimoiy integratsiya – jamiyat a‘zolari o‘rtasida birlashish, ya’ni turli ijtimoiy guruhlar va toifalar o‘rtasida aloqalar va hamkorlikni rivojlantirish jarayoni. Ijtimoiy integratsiya barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy normativlar – jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar, qonunlar va me‘yorlar. Ijtimoiy normativlar barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Nizolar nazariyasi (Conflict Theory) – ijtimoiy nizolar va beqarorlikning sabablarini tushuntiruvchi nazariya. Bu nazariya ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvi va kuch taqsimoti tufayli beqarorlik yuzaga kelishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Demokratik an‘analar – jamiyatda demokratik qadriyatlar, tamoyillar va amaliyotlarni uzluksiz saqlash va rivojlantirishni ta’minlaydigan ijtimoiy va madaniy kontekst.

Sitseronning “Oqilona davlat” nazariyasi – adolat, ma’rifat va fuqarolar huquqlari asosida tashkil etilgan davlat. “Oqilona davlat”da qonunlar adolatli va barcha fuqarolar uchun teng ta’sir ko‘rsatadi.

Siyosiy ishonch – fuqarolarning davlat va uning institutlariga nisbatan ishonchi va ularga bo‘lgan ehtiyoj. Siyosiy ishonch barqaror siyosiy tizim va jamiyatning samarali ishlashida muhim omil hisoblanadi.

Inflyatsiya – pulning qadrsizlanishi va tovarlar hamda xizmatlar narxlarining o'sishi. Inflyatsiya iqtisodiy o'sish va narxlar barqarorligini ta'sir qilishi mumkin.

O'zgaruvchan madaniy qadriyat – bu jamiyatdagi qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqodlar va an'analar vaqt o'tishi bilan, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy yoki texnologik o'zgarishlarga javoban o'zgarib boradigan, yangilanib, moslashuvchi madaniy nuqtai nazar yoki tamoyil.

Idealizm – falsafada, bu dunyo va haqiqatning asosiy tabiati g'oyalar, fikrlar yoki ongda mavjud bo'lishini ta'kidlovchi yondashuvdir.

Kulturaviy farqlar – turli jamiyatlarda yoki guruhlar orasidagi madaniy, urf-odat, qadriyatlar, til, din, san'at, ta'lim va boshqa ijtimoiy-xarakteristikalar bo'yicha farqlar.

MAVZU YUZASIDAN TEST

1. Jamiyatning o'zgarishlarga moslashishiga ta'sir qiluvchi omil qaysi?

- A. Iqtisodiy omil
- B. Qadriyatlar
- C. Tabaqalanish
- D. Madaniyat

2. Ijtimoiy barqarorlik tushunchasi qanday omillar bilan bog'liq?

- A. Ijtimoiy barqarorlik ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va siyosiy ishonch bilan bog'liq.
- B. Ijtimoiy barqarorlik faqat iqtisodiy omillar bilan bog'liq.
- C. Ijtimoiy barqarorlik faqat madaniyat bilan bog'liq.
- D. Ijtimoiy barqarorlik ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, siyosiy ishonch va madaniy qadriyatlar bilan bog'liq.

3. Madaniyat ijtimoiy barqarorlikni qanday shakllantiradi?

- A. Madaniyat ijtimoiy munosabatlarni belgilab beradi va umumiy qadriyatlarni yaratadi.
- B. Madaniyat ijtimoiy barqarorlikka ta'sir qilmaydi.
- C. Madaniyat faqat iqtisodiy munosabatlarga ta'sir qiladi.

D. Madaniyat ijtimoiy normativlarni belgilaydi va ijtimoiy xulq-atvorni boshqaradi.

4. Qadimgi Misrda ijtimoiy barqarorlik qanday hukmronlik ostida yaratilgan?

- A. Oliy ma'muriyat hukmronligi ostida
- B. Fir'avnlarning hukmronligi ostida
- C. Diniy rahbarlarning hukmronligi ostida
- D. Qishloq boshqaruvchilarining hukmronligi ostida

5. Qadimgi Misrda "Ma'at" tushunchasi nimani anglatadi?

- A. Diniy bayramlarni
- B. Ijtimoiy barqarorlik va adolatni
- C. Iqtisodiy rivojlanishni
- D. Siyosiy kuchni

6. Qadimgi Misrda ijtimoiy beqarorlikning sabablari nima?

- A. Faol iqtisodiy rivojlanish
- B. Siyosiy ziddiyatlar va vorislik muammolari
- C. Diniy bayramlar va marosimlar
- D. Ijtimoiy birlik va maqsadga erishish

7. Qadimgi Misrda diniy e'tiqodlar qanday rol o'ynagan?

- A. Ijtimoiy tartibni mustahkamlashda
- B. Iqtisodiy inqirozlarni keltirib chiqarishda
- C. Siyosiy kuchni zaiflashtirishda
- D. Xudolar o'rtasida raqobatni oshirishda

8. Aristotelning "o'rta yo'l" g'oyasi nimani nazarda tutadi?

- A. Fuqarolar o'rtasida adolat
- B. Harbiy kuch va muvozanat
- C. Boylik va kambag'allik o'rtasidagi muvozanat
- D. Diniy marosimlar

9. Sitseron ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda qanday tushunchani ilgari surdi?

- A. Oqilona davlat
- B. Davlat boshqaruvining samarasizligi
- C. Harbiy kuch
- D. Sanoat inqirozi

10. Qadimgi Gretsiyada “filozof-faroqlar” g‘oyasini kim ilgari surgan?

- A. Demokrit
- B. Sokrat
- C. Platon
- D. Ksenofon

11. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ijtimoiy barqarorlik uchun eng muhim omil nima deb hisoblaydi?

- A. Dono rahbarning mavjudligi
- B. Iqtisodiy rivojlanish
- C. Diniy e’tiqodlar
- D. Harbiy kuch

12. Shvetsiyada ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda qaysi tizim muhim rol o‘ynaydi?

- A. Harbiy tizim
- B. Sog‘liqni saqlash tizimi
- C. Diniy tizim
- D. Iqtisodiy tizim

13. Platon o‘z asarida ideal jamiyatni qanday ta’riflaydi?

A. Ijtimoiy beqarorlikni ta’minlash uchun kuchli harbiy hukumat zarur.

B. Adolatli boshqaruv va bilimdon rahbarlar ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

C. Har bir fuqaro erkinligi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhimdir.

D. Davlatni boshqarish faqat iqtisodiy omillarga asoslangan bo‘lishi kerak.

14. Aristotelning fikricha, qanday davlat shakli eng yaxshi hisoblanadi?

- A. Monarxiya
- B. Oligarxiya
- C. Demokratik davlat
- D. Politeya (aralash davlat)

15. Demokritning ijtimoiy barqarorlik haqidagi fikrlari qaysi prinsipga asoslanadi?

- A. Faqat bilim va oqilona rahbarlik.
- B. Insoniyatning tabiiy huquqlari va tengligi.
- C. Harbiy kuch va repressiyalar.
- D. Faqat iqtisodiy foyda.

7-MAVZU. IJTIMOIIY FALSAFADA ERKINLIK VA MAS'ULIYAT MASALASI

Reja:

1. Erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining ahamiyati.
2. Erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining falsafiy asoslari va talqini.
3. Bugungi zamonaviy dunyoda erkinlik va mas'uliyat masalalari.

Tayanch tushunchalar: erkinlik, mas'uliyat, ekzistensializm, falsafiy erkinlik, axloqiy mas'uliyat, shaxsiy mas'uliyat, vijdon erkinligi, ijtimoiy mas'uliyat, erkin tanlov, so'z erkinligi.

1. Erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining ahamiyati.

Erkinlik va mas'uliyat masalasi insoniyat tarixida va jamiyat rivojlanishida asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Insoniyatning asosiy tamoyillaridan biri bu erkin yashash huquqi bo'lgan bo'lsa-da, bu huquq mas'uliyat bilan bog'liq ekanligini har doim anglash zarur. Shu bois erkinlik va mas'uliyat bir-biridan ajralmas tushunchalar sifatida qadrlanadi. Falsafada bu kabi masalalarni o'rganuvchi yo'nalish ekzistensializm deb nomlanadi va uning tarafdorlari esa ekzistensialistlar hisoblanadi. Ekzistensializm tushunchasining o'ziga tarif beradigan bo'lsak bu tushuncha quyidagi ma'noni anglatadi.

“Ekzistensializm — insonning mavjudligi, erkinlik va mas'uliyatini markaziy mavzuga aylantiruvchi falsafiy oqimdir. Bu yo'nalish inson hayotining ma'nosi, uning o'zini anglash jarayoni va tanlov erkinligini tahlil qiladi. Ekzistensializmga ko'ra, inson o'z hayotini ma'no bilan to'ldirishi, o'z qismatini mustaqil ravishda shakllantirishi kerak, chunki hayotning oldindan belgilangan ma'nosi yo'q.

Asosiy ekzistensialistlar qatoriga Jean-Paul Sartre, Martin Heidegger, Albert Camus, va Soren Kierkegaard kiradi. Bu faylasuflar insonning shaxsiy tajribasi va erkinligini markaziy nuqtaga qo'yadilar. Ularning fikricha, inson hayotining ma'nosi tayyor holda kelmaydi, balki inson o'zi

ma'noni yaratishi kerak. Ekzistensializm da insonning erkinlikdan kelib chiqadigan asosiy muammolaridan biri mas'uliyatdir. Inson erkin tanlovlar qilish huquqiga ega bo'lsa-da, bu tanlovlarning oqibatlari uchun javobgarlikni ham to'liq o'z zimmasiga olishi kerak. Shu sababli ekzistensializm odamni hayotning absurdiy (ma'nisiz) sharoitlarida ham o'z qismati uchun javobgar bo'lishga chorlaydi. Shu o'rinda erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining ma'nosiga to'xtalib o'tish o'rinlidir".

"Erkinlik — kishining o'z istagi bo'yicha ish tuta olishi. Erkinlik boshboshdoqlikni emas, jamiyatdagi muayyan tartibni ifodalaydi. Erkinlik insonning jamiyat oldidagi vazifasini bajarishni erkin, ixtiyorish tanlashidir. Erkinlik insonning siyosiy, ma'naviy ta'qibdan, zo'ravonlikdan himoyalanganligini bildiradi. Erkinlik o'z baxtini o'zi yaratish vositasi bo'lib, insonning o'zligini anglash darajasini ifodalaydi. Erkinlik tushunchasi huquqshunoslik, siyosatshunoslik, etika, estetika shuningdek falsafa kabi ijtimoiy bilim sohalarida keng ishlatiladi. Masalan, vijdon erkinligi, so'z erkinligi, matbuot erkinligi va hokazo".

Falsafada esa erkinlik ko'pincha insonning mavjudligi bilan bog'lanadi. Martin Heidegger o'z asarlarida mavjudlik va erkinlik o'rtasidagi aloqani o'rganadi. Heideggerning fikriga ko'ra, "Inson "desain"(mavjud bo'lish) sifatida o'z hayoti va o'zini anglash jarayonida erkinlikni his qiladi. Bu erkinlik insonning o'ziga xosligi va o'z qismati ustida nazorat qilish imkoniyatidan iborat"¹⁴⁴.

Falsafiy erkinlik insonning o'zini anglash jarayoniga ham bog'liqdir. O'z-o'zini anglash orqali inson o'zining ichki ehtiyojlarini va maqsadlarini belgilaydi, bu esa erkinlikni anglash imkonini beradi. Jean-Paul Sartre "Erkinlik mahkumlighi" g'oyasi bilan tanilgan. Uning fikricha, "Inson o'z tanlovlari uchun mas'uldir, chunki erkinlik uning tabiati hisoblanadi"¹⁴⁵.

Mazkur mavzu bo'yicha falsafiy adabiyotlarni uch guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi, erkinlik g'oyasi klassik falsafiy metodologiya

¹⁴⁴ Heidegger, M. (1962). Being and Time. Translated by John Macquarrie & Edward Robinson. New York: Harper & Row.

¹⁴⁵ Sartre, J.-P. (1956). Existentialism is a Humanism. Translated by Philip Mairet. New Haven: Yale University Press.

aspektida ko‘rib chiqiladigan asarlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu kontekstda erkinlik muammosini ochishda shubhasiz ustuvorlik ratsionalistik falsafa tarafdorlariga tegishli: I.Kant, F.Gegel. Ular uchun erkinlik g‘oyasining asosini zaruriy ehtiyoj, xususiy mulk va davlat tuzilishi tashkil etadi.

Erkinlik muammosiga bag‘ishlangan adabiyotlarning ikkinchi guruhi ekzistensialist faylasuflarning asarlaridan iborat. Bunda rus falsafiy va axloqiy tafakkurining namoyandalari muhim o‘rin tutadi: F.M.Dostoyevskiy, S.A.Levitskiy, V.S.Solovyev.

Uchinchi guruhga erkinlik muammosini postklassik paradigma nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar kiradi, ular obyektiv voqelikning matnli aksi sifatida talqin etiladi. Bugungi kunda postmodernizm asosan til falsafasi va semantik va semiotik muammolar bilan bog‘liq tadqiqotdir. Ushbu masalani o‘rganishda taniqli faylasuflar R.Bart, V.Bryusov, J.F. Lyotard ma‘lum darajada hissa qo‘shdilar. Postmodernizm o‘z mohiyatiga ko‘ra fikrlar, tendentsiyalar va talqinlarning tub plyuralizmini nazarda tutganiga qaramay, erkinlik muammosining o‘ziga xos xususiyati to‘g‘risida kam sonli asarlar yozilgan.

Shuningdek, Abdurahim Erkayev, Ismoil Soifnazarov, Qiyomiddin Nazarov, Ibrohim Karimov, Muhammadjon Imomnazarov, Ibodullo Ergashev, Nigina Shermuxamedova kabi olimlarning e‘tiborga loyiq erkinlik g‘oyalari haqida ilmiyfalsafiy qarashlari, O‘zbekistonda jamiyatni demokratlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, demokratiyaning shaxs erkinligini shakllantirishdagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar talqin etildi.

Shuningdek, Abdurahim Erkayev “tafakkur erkinligi” kategoriyasini tarkibiy tahlil qilishga yondashgan bo‘lsa, Bahodir Zokir erkinlik g‘oyasining o‘ziga xos falsafiy negizlari haqida fikr yuritadi.

“Mas’uliyat – ma’naviy, ijtimoiy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo‘llaniladigan tushuncha; ma’naviyat nuqtai nazaridan yondashilganida burch; ijtimoiy ma’noda jamiyat va boshqa oldidagi ma’naviy qarzdorlik; ma’muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo‘lishi; huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma’noli kategoriya. Mas’uliyat muammosiga

fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o‘zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma’naviy-axloqiy jihatida nuqtai nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma’noda mas’uliyat tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xos ko‘plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi. Har qanday odam o‘zi uchun muhim biron bir maqsadga erishish yo‘lida harakat qilish usulini tanlashda o‘z tabiatiga ko‘ra erkin ekaniga qaramay, uning shaxsiy hayoti butun jamiyat hayoti, boshqalar oldidagi mas’uliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Jamiyat esa o‘z-o‘zini asrash va rivojlanish uchun muayyan ichki tartibni shakllantirib, o‘z a‘zolarining nomaqbul qilmishlarini amalda cheklashga majbur. Shunday qilib, odamlarning xulq-atvor me‘yorlari bilan mas’uliyati uzviy aloqadadir”.

Mas’uliyat bu majburiyatlarga rioya qilish va qaror qabul qilishda yoki biror narsa qilishda ehtiyot bo‘lishdir. Mas’uliyat, shuningdek, kimdir yoki biror narsa uchun javobgar bo‘lish faktidir. Boshqacha qilib aytganda, mas’uliyat odamlarning bir- biriga bo‘lgan ishonchiga javoban o‘zingizga va boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishni anglatadi. Biz mas’uliyat bilan javob beradigan bo‘lsak, biz boshqalarga qilgan jamoat va sadoqatimizni ifoda etamiz.

Mas’uliyat qadriyat va axloqiy amaliyotdir, chunki u oilaviy, o‘quv, ish va fuqarolik hayotiga ta’sir qiladi. Mas’uliyatli shaxs o‘z vazifalarini o‘z vaqtida va samarali bajaradi. Masalan, topshiriq va vazifalarni iloji boricha eng yaxshi bajaradigan, o‘z ishiga mas’uliyatli shaxs javob beradi. Shuningdek, kimdir o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini o‘z zimmasiga olganida javobgar deb aytiladi. Masalan, odam tasodifan begona narsaga zarar yetkazsa va uni ta’mirlashga yoki yangisini almashtirishga tayyorlansa.

Mas’uliyat va javobgarlik o‘rtasidagi asosiy farqlar vazifaga ega bo‘lish, vazifani bajarish uchun zarur bo‘lgan hamma narsani bajarish mas’uliyat deb nomlanadi. Shaxs o‘z xatti-harakatlari yoki qarorlariga egalik qilishi kutilayotgan holat javobgarlik deb nomlanadi. Mas’uliyat topshirilgan vazifani bajarish majburiyatini anglatadi. Boshqa tomondan, topshirilgan vazifaning natijasi uchun javobgarlik. Mas’uliyat yuklanadi,

javobgarlik esa qabul qilinadi. Mas'uliyatning kelib chiqishi tayinlangan hokimiyatdir. Aksincha, javobgarlik mas'uliyatdan kelib chiqadi. Mas'uliyat topshirilgan, ammo to'liq emas, ammo javobgarlikni topshirish kabi narsa yo'q. Shaxsning faoliyati, u javobgar bo'lganda, albatta o'lchanmaydi. Odamning faoliyati o'lchanadigan javobgarlikdan farqli o'laroq. "Mas'uliyat - bu narsa, odam vazifadan oldin yoki keyin javobgar bo'ladi. Odam faqat topshiriq bajarilgandan yoki qoniqarsiz bajarilgandan keyingina javob berishi mumkin bo'lgan javobgarlik".

2. Erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining falsafiy asoslari va talqini.

Erkinlik insonning mustaqil hayot kechirish, shaxsiy qarorlar qabul qilish va o'z xohishlariga binoan harakat qilish imkoniyati sifatida tasvirlanadi. Bu tushuncha qadimgi yunon falsafasidan boshlab zamonaviy huquqiy va axloqiy tizimlarda muhim o'rin tutadi. Yunon faylasuflari Platon va Aristotel erkinlikni "ruxsat etilgan amallar doirasi" sifatida tasvirlagan bo'lsa, zamonaviy faylasuflar bu tushunchani yanada chuqurlashtirganlar. Erkinlik insonning o'z taqdirini boshqarishiga imkon beradi, ammo bu tanlovlar ma'lum mas'uliyatlarni ham o'z ichiga oladi.

Mas'uliyat shaxsning o'z harakatlariga nisbatan javobgarligidir. Boshqacha aytganda, inson o'z tanlovlari va ularning oqibatlari uchun javobgar bo'lib, har bir tanlovning ijtimoiy va axloqiy oqibatlarini hisobga olishi kerak. Shaxsiy mas'uliyat insonning shaxsiy hayotidagi qarorlar uchun, ijtimoiy mas'uliyat esa jamiyat va boshqa odamlar oldidagi burchlari uchun javobgarlikni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda erkinlik va mas'uliyatning ahamiyati yanada dolzarblashmoqda. Insonlar texnologiya, ijtimoiy tarmoqlar va global ijtimoiy muammolar (masalan, ekologik inqiroz, pandemiya) kabi yangi hodisalar bilan o'z erkinliklari va mas'uliyatlarini qayta ko'rib chiqishlari kerak bo'layapti. Shu sababli, erkinlikning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarini kengroq o'rganish bugungi davrning muhim masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Quyida esa erkinlik va mas'uliyat haqida olimlarning falsafiy fikrlarini keltirib o'tamiz:

Jean-Paul Sartre va ekzistensializm

Ekzistensializm falsafiy oqim sifatida XX asrda rivojlangan bo'lib, insonning erkinligi va mavjudligi masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ushbu falsafa vakillaridan biri Jean-Paul Sartre bo'lib, u insonni butunlay erkin mavjudot sifatida ko'rib chiqadi. Sartrega ko'ra, inson o'z tanlovi orqali o'zligini shakllantiradi va "insonning taqdiri o'zining qo'lida" degan g'oyani ilgari suradi. Sartrening fikricha, erkinlik insonning asosiy xususiyati bo'lib, u o'z harakatlarida mutlaqo erkindir. Ammo bu erkinlik insonga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Inson o'z qarorlari uchun faqat o'zi javobgardir, va har bir tanlovning oqibatlari ham shaxsning o'z zimmasidadir. Masalan, Sartre o'zining mashhur "Ekzistensializm insonizm sifatida" asarida "Inson doimo o'z tanlovlaridan mas'uldir, chunki uning har bir harakati boshqa insonlarning hayotiga ham ta'sir qiladi,"¹⁴⁶ deb yozgan.

Bu o'z-o'zidan mas'uliyatning ijtimoiy ahamiyatini ham ochib beradi. Insonning erkinligi o'z-o'zidan jamiyat oldidagi javobgarlikni talab qiladi. Masalan, bir insonning erkinligi boshqa insonlarning erkinligini buzmasligi kerak. Shunday qilib, Sartre insonning har bir tanlovi bilan birga keladigan ijtimoiy mas'uliyatni chuqurroq anglashga undaydi.

Immanuel Kantning erkinlik va axloqiy tamoyillari

Immanuel Kant erkinlikni axloqiy qonuniyatlar bilan bog'laydi. Unga ko'ra, "Inson o'z axloqiy tanlovlarini amalga oshirishda erkindir, ammo bu tanlovlar ma'lum axloqiy tamoyillarga asoslangan bo'lishi kerak"¹⁴⁷. Kantning asosiy nazariyasi insonning amaliy aql orqali o'z vijdonini boshqarishi va axloqiy qoidalarni kashf etishi haqida bo'lgan. Bu erkinlik orqali inson o'z maqsadlariga erishadi, ammo har bir harakat axloqiy tamoyillarga mos bo'lishi zarur.

Kantning mashhur kategorik imperativ tamoyili insonni o'z harakatlarida universal axloqiy qoidaga bo'ysunishga undaydi. Bu tamoyil bo'yicha, inson har qanday tanlovni qilganda, uni dunyodagi barcha insonlar amalga oshirsa qanday oqibatlarga olib kelishini o'ylashi lozim.

¹⁴⁶ Jean-Paul Sartre, *Existentialism is a Humanism*, Yale University Press, 2007.

¹⁴⁷ Immanuel Kant, *Critique of Practical Reason*, Cambridge University Press, 1997.

Misol uchun, agar yolgʻon gapirishni axloqiy jihatdan toʻgʻri deb hisoblasa, bu butun jamiyat uchun qabul qilinadigan norma boʻladimi? Shu orqali Kant insonning erkinligi axloqiy masʼuliyat bilan chegaralanishini koʻrsatadi.

Erkinlik va axloqiy masʼuliyat oʻrtasidagi bu munosabat Kantning “Amaliy aql tanqidi” asarida keng yoritilgan. Kant insonning ichki erkinligini uning axloqiy tanlovlari bilan bogʻliq deb tushunadi va inson oʻz axloqiy majburiyatlarini bajarishda haqiqiy erkinlikka ega boʻlishini taʼkidlaydi.

John Stuart Millning erkinlik tushunchasi

John Stuart Millning “Erkinlik toʻgʻrisida” asari erkinlikni individual huquqlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Mill erkinlikni shaxsning oʻz hayoti va tanlovlarini boshqarish huquqi deb biladi, lekin bu huquq jamiyatning umumiy manfaatlari bilan cheklanadi. Mill erkinlik va davlatning aralashuvi oʻrtasidagi muvozanatni izlashga intiladi. Millning asosiy gʻoyasi shundan iboratki, davlat yoki jamiyat insonning erkinligiga faqat boshqa insonlarning huquqlarini himoya qilish uchun aralashishi mumkin. Boshqa holatlarda, shaxs oʻz harakatlarini oʻzi boshqarishi kerak va bu jarayonda davlat aralashmasligi lozim. Millning fikricha, “Insonlarning oʻz tanlovlarini amalga oshirish huquqi ularning shaxsiy rivojlanishi va erkinliklarini taʼminlaydi”¹⁴⁸.

Biroq, Mill individual erkinlik jamiyat oldidagi masʼuliyatni ham talab qilishini taʼkidlaydi. Inson erkin boʻlishi mumkin, lekin uning harakatlari boshqa insonlar va jamiyatga zarar yetkazmasligi kerak. Shu sababli, Millning erkinlik nazariyasi ijtimoiy masʼuliyat tamoyillari bilan birga koʻrib chiqiladi. Masalan, Millning soʻz erkinligi va fikr bildirish erkinligi toʻgʻrisidagi fikrlari bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u har bir insonning oʻz fikrini erkin bayon qilishi huquqini himoya qilsa-da, bu erkinlik boshqa insonlarning huquqlariga putur yetkazmasligi kerakligini eslatadi.

¹⁴⁸ John Stuart Mill, *On Liberty*, Cambridge University Press, 1989.

Friedrich Nietzsche: Erkinlik va Mas'uliyatning Kuchli Shaxs G'oyasi

Nietzsche falsafasi insonning erkinligi va mas'uliyatini kuchli shaxs — “Übermensch” tushunchasi orqali ko‘rib chiqadi. Nietzsche uchun erkinlik kuchli shaxsga tegishli tushuncha bo‘lib, bu shaxs o‘z taqdirini yaratishga qodir. “Übermensch” yoki "Oliy inson" o‘zining axloqiy qoidalarini o‘zi belgilaydi va ijtimoiy normativlardan ozod bo‘lishga intiladi.

Nietzschening asosiy g'oyasi shundaki, “Inson o‘z hayotida hech kimga bo‘ysunmasdan, o‘z qadrini bilib, barcha mas’uliyatni qabul qilishi kerak”¹⁴⁹. U erkin bo‘lishning maqsadi faqat o‘z hayotini boshqarish emas, balki hayotning barcha sohalarida ijodiy va kuchli bo‘lishdir. Nietzsche o‘zining “Zarathustra shunday dedi” asarida insoniyatning o‘z chegaralaridan chiqib, o‘zini yangi marralar sari olib borishini ta’kidlaydi.

Ammo Nietzsche erkinlik bilan mas'uliyat birgalikda bo‘lishi lozimligini qayd etadi. Oliy shaxs o‘z taqdirini boshqarish jarayonida jamiyatdagi boshqa insonlarga nisbatan mas'uliyatni ham anglashga majburdir. Shu nuqtai nazardan, inson kuchi o‘z ta’sir doirasini kengaytirish bilan birga o‘z qilmishlarining oqibatlari uchun ham javobgarlikni talab qiladi. Nietzsche erkinlikni kuchli shaxsning ichki olamida mustaqillikka erishish sifatida ko‘radi, bu yerda shaxsning axloqiy va ijtimoiy mas'uliyati kuchli ifodalanadi.

Erich Fromm: Erkinlik va qochoqlikdan Mas'uliyatga

Erich Frommning “Ozodlikdan qochish” asarida insonning erkinlikka bo‘lgan munosabati ijtimoiy va psixologik jihatdan o‘rganiladi. Frommning fikriga ko‘ra, “Insonlar ko‘pincha erkinlikdan qo‘rqadi, chunki erkinlik ulardan mas'uliyatni talab qiladi. Ko‘p hollarda insonlar o‘zlari uchun erkinlik va mustaqillikni tanlamasdan, o‘z erkinliklarini ijtimoiy strukturalar yoki avtoritetlarga topshirishni afzal ko‘rishadi”¹⁵⁰.

Fromm erkinlikni ikki turga ajratadi: salbiy va ijobiy erkinlik. Salbiy erkinlik insonni cheklovlar va bo‘ysunishlardan ozod qilishni anglatadi,

¹⁴⁹ Friedrich Nietzsche, Thus Spoke Zarathustra, Penguin Classics, 1961.

¹⁵⁰ Erich Fromm, Escape from Freedom, Farrar & Rinehart, 1941.

ammo bu erkinlik insonda ichki bo'shliq va mas'uliyatdan qochishga bo'lgan xohishni yuzaga keltirishi mumkin. Ijobiy erkinlik esa insonning o'z potensialini amalga oshirishi va to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini taqozo etadi. Frommning fikricha, insonlar haqiqiy erkinlikka yetishishlari uchun o'z tanlovlarining oqibatlarini chuqurroq anglab, o'z harakatlaridan mas'ul bo'lishlari kerak.

Fromm erkinlikni yuksak mas'uliyat bilan bog'laydi. U inson erkinlikni qo'lga kiritishi uchun avvalo o'zini, o'z istaklari va jamiyat oldidagi vazifalarini tushunishi kerakligini ta'kidlaydi. Mas'uliyatni rad etish esa erkinlikning salbiy shakliga olib keladi, bu esa insonga o'zining haqiqiy imkoniyatlarini ochib berolmaydi.

Viktor Frankl: Erkinlik va Mas'uliyatning Mazmuni

Viktor Franklning "Man's Search for Meaning" asarida erkinlik va mas'uliyat insonning hayot ma'nosini topish bilan chambarchas bog'liq ekani ko'rsatilgan. Frankl Auschwitz konslageridagi dahshatli tajribalardan kelib chiqib, insonning haqiqiy erkinligi uning ichki dunyosida, ya'ni u qanday sharoitda bo'lmasin, o'z munosabatini tanlash imkoniyatida ekanini ta'kidlaydi. Frankl hayotda ma'no izlashni inson erkinligining eng yuqori ko'rinishi deb biladi.

Franklning g'oyasi shundaki, "Inson o'z tanlovlari va harakatlariga javobgarlik bilan qarashi kerak, chunki bu uning ma'naviy va psixologik erkinligini ta'minlaydi. Hayotda qiyinchiliklar yoki sinovlar bo'lsa ham, inson bu vaziyatlarga o'zining mas'uliyati sifatida qarab, ularning ma'nosini topishi lozim. Shu orqali inson o'z hayotidagi qiyin vaziyatlarda ham erkin bo'la oladi va o'zining kuchli ruhiy holatini saqlab qoladi"¹⁵¹.

Frankl erkinlikning nafaqat individual, balki ijtimoiy ma'nosini ham chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, insonning har bir tanlovi boshqa insonlar va jamiyat oldidagi mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Bu ijtimoiy mas'uliyat o'z-o'zini shakllantirish jarayonining muhim qismidir.

Hannah Arendt: Siyosiy mas'uliyat va jamoatchilik

Hannah Arendt mas'uliyatni ijtimoiy va siyosiy nuqtai nazardan o'rganadi. Uning fikricha, "Insonlar jamoatchilikdagi harakatlari uchun javobgar bo'lishlari kerak, chunki har bir harakatning jamiyatga ta'siri

¹⁵¹ Viktor Frankl, Man's Search for Meaning, Beacon Press, 2006.

bor”¹⁵². U mas’uliyatni siyosiy jamiyatning ahamiyatli elementi deb hisoblaydi. Ayniqsa, totalitarizm va axloqsiz siyosiy amaliyotlar davrida insonlar ijtimoiy mas’uliyatni to’g’ri anglashlari kerak. Arendt shunday deydi: “Mas’uliyatni rad qilish — bu jamiyatning barbod bo’lishiga olib keluvchi xavfdir. Biz ijtimoiy va siyosiy oqibatlar uchun javobgarmiz.”

Emmanuel Levinas: Mas’uliyat va boshqalarga munosabat

Levinas mas’uliyatni insonning boshqa insonlarga bo’lgan munosabati orqali anglaydi. Uning fikricha, inson boshqalarga nisbatan axloqiy majburiyatlarga ega va bu mas’uliyat insonning insoniyat bilan aloqalarida o’z aksini topadi. Levinas mas’uliyatni o’z-o’zidan keladigan, ya’ni har bir inson boshqalarga nisbatan tabiiy mas’uliyatni his qilishi kerak deb hisoblaydi. Levinas shunday deydi: “Boshqalarga qarashim orqali men ularning hayoti uchun javobgar bo’laman, va bu mas’uliyatni rad etish insoniyatni rad etish bilan barobardir”¹⁵³.

Aristotel: Axloqiy fazilat va mas’uliyat

Aristotel mas’uliyatni insonning axloqiy fazilatlari bilan bog’laydi. Uning fikricha, insonning harakatlari va tanlovlari axloqiy jihatdan asosli bo’lishi kerak va bunday tanlovlar o’zini-o’zi tarbiyalash orqali shakllanadi. Aristotelning nuqtai nazarida, inson o’z hayotidagi yomon yoki yaxshi natijalar uchun mas’uldir, chunki harakatlar oqilona tanlovlardan kelib chiqadi.

Aristotelning so’zlari: “Fazilatli inson o’z harakatlarini axloqiy jihatdan asosli qiladi va bu orqali o’z qilmishlari uchun mas’uliyatni zimmasiga oladi”¹⁵⁴.

Yuqorida o’rganilgan olimlar mas’uliyatni turli yo’nalishlarda tushuntiradi. Sartre mas’uliyatni erkinlik bilan bog’lasa, Kant uni axloqiy qonunlar va burchlar bilan izohlaydi. Viktor Frankl insonning hayot ma’nosini kashf qilish bilan bog’liq mas’uliyatni ta’kidlaydi, Arendt esa mas’uliyatni ijtimoiy va siyosiy doirada o’rganadi. Nietzsche esa inson o’z qadriyatlari va iroda kuchi orqali mas’uliyatni qabul qilishini ta’kidlaydi.

¹⁵² Arendt, H. (1958). *The Human Condition*. Chicago: University of Chicago Press.

¹⁵³ Levinas, E. (1969). *Totality and Infinity*. Pittsburgh: Duquesne University Press.

¹⁵⁴ Aristotle (c. 350 BCE). *Nicomachean Ethics*. Translated by W. D. Ross.

Levinas boshqalarga nisbatan mas'uliyatni insonning boshqa insonlarga bo'lgan munosabati orqali izohlaydi. Shunday qilib erkinlik va mas'uliyat masalasi falsafaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib ularga berilgan ta'riflar va izohlar ham turlichadir.

3. Bugungi zamonaviy dunyoda erkinlik va mas'uliyat masalalari.

Zamonaviy siyosiy falsafada erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlik John Rawlsning "Adolat nazariyasi" orqali tahlil qilinadi. Rawlsning asosiy nazariyasi erkinlik va tenglikni adolatli taqsimlash asosida amalga oshirilishi kerakligi haqida bo'lib, bu tushunchalar mas'uliyat bilan chambarchas bog'liqdir.

Rawlsning adolat tamoyillariga ko'ra, har bir inson erkin va teng huquqlarga ega bo'lishi kerak. Ammo bu erkinlik ijtimoiy adolat mezonlari asosida amalga oshirilishi zarur. Shaxsiy erkinlik va iqtisodiy mas'uliyatni muvozanatda saqlash bugungi kunda ham muhim muammolardan biridir. Rawls o'zining "veil of ignorance" tamoyili orqali erkinlik va mas'uliyatni ijtimoiy hayotning har bir sohasida adolat bilan uyg'unlashtirishni taklif etadi. Bu tamoyil shundan iboratki, "Jamiyatdagi har bir inson o'zining kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyi va imkoniyatlarini hisobga olmasdan, jamiyat uchun adolatli qoidalar ishlab chiqishi kerak"¹⁵⁵.

Bugungi zamonaviy dunyoda erkinlik va mas'uliyat masalalari global miqyosda muhim falsafiy, siyosiy va ijtimoiy muammolar sifatida o'rganilmoqda. Ushbu tushunchalar shaxsiy huquqlar, siyosiy erkinliklar, texnologik taraqqiyot va global ijtimoiy masalalar bilan chambarchas bog'liq. Quyida zamonaviy dunyoda erkinlik va mas'uliyat masalalariga oid asosiy yo'nalishlarni batafsil bayon qilaman:

Zamonaviy dunyoda erkinlik tushunchasi ko'pincha individual huquqlar va shaxsiy tanlovlar bilan bog'lanadi. Odamlar o'z hayotlarini erkin tarzda boshqarish, kasb tanlash, din, siyosiy qarashlarni ochiq bildirish, madaniy an'analarga amal qilish kabi erkinliklarga ega bo'lishni xohlashadi. Biroq bu erkinliklar mas'uliyatni talab qiladi, chunki har

¹⁵⁵ John Rawls, A Theory of Justice, Harvard University Press, 1971.

qanday individual erkinlik jamiyat doirasida cheklanishi yoki boshqalarning erkinliklari bilan to'qnashishi mumkin. Masalan: mas'uliyatli erkinlik: insonlar o'zlarining harakatlari natijalarini hisobga olishi lozim. Biror shaxsning erkinligi boshqalarning huquqlariga zarar yetkazmasligi kerak. Siyosiy erkinlik, masalan, tinch yig'ilish huquqi yoki so'z erkinligi kabi huquqlar mavjud bo'lsa-da, bu erkinliklar boshqalarning qadr-qimmati va huquqlariga rioya qilish mas'uliyatini ham o'z ichiga oladi.

Bugungi zamonaviy sharoitda erkinlik va mas'uliyat masalasi shaxsiy, ijtimoiy, huquqiy, va global miqyosda dolzarb bo'lgan murakkab tushunchadir. Texnologik rivojlanish, globallashtirish va axborot oqimi erkinlikning yangi ko'rinishlarini shakllantirib, insonlarga ko'plab tanlov imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq, erkinlik bilan birga mas'uliyat kelishi zarurati ko'pincha chetda qolmoqda. Shu sababli, zamonaviy jamiyatlarda erkinlik va mas'uliyat muvozanati alohida ahamiyat kasb etmoqda va bu masalani ko'rib chiqish insoniyat taraqqiyoti uchun zarur hisoblanadi. Erkinlik tushunchasi zamonaviy sharoitda o'zining an'anaviy doirasidan tashqariga chiqmoqda. Bugungi kunda insonlar nafaqat shaxsiy tanlov va harakatlarda erkin, balki o'z fikrlarini ifoda etish, kasb tanlash, sayohat qilish, ta'lim olish va ijtimoiy mavqei belgilash borasida ham ko'plab imkoniyatlarga ega. Bu jarayonning kuchayishida texnologiyalar muhim rol o'ynamoqda; internet orqali kengaygan kommunikatsiya va axborot oqimi insonlarga yanada ko'proq ma'lumot olish va mustaqil qaror qabul qilish imkonini beradi. Shu sababli, erkinlikning zamonaviy shakllari globallashtirish va axborotlashuv bilan uzviy bog'langan.

Shunga qaramay, erkinlik har doim ham cheksiz emas. Qonun va me'yorlar erkinlikning chegarasini belgilaydi, va bu cheklovlar jamiyat manfaatlari, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Masalan, erkin so'zlash huquqi har bir fuqaro uchun asosiy erkinliklardan biri bo'lsa-da, bu huquq boshqa insonlarning obro'siga zarar yetkazmaslik yoki ijtimoiy tartibni buzmaslik uchun me'yorlar bilan cheklangan. Shu nuqtada huquqiy cheklovlar erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Mas'uliyatning ahamiyati va uning shakllari

Mas'uliyat tushunchasi erkinlikning tabiiy oqibati sifatida tushuniladi. Erkinlikka ega bo'lish orqali shaxs o'z tanlovlari uchun javobgarlikni ham qabul qilishi zarur. Shaxslar qabul qilgan qarorlari va harakatlarining oqibatlari uchun nafaqat o'zlari, balki jamiyat oldida ham javobgar bo'lishi kerak. Mas'uliyat shaxsiy, axloqiy va huquqiy mas'uliyat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shaxsiy mas'uliyatda inson o'z tanlovi natijalarini to'liq anglab, o'z ustida ishlash va o'z harakatlarining oqibatlarini qabul qilish jarayonida namoyon bo'ladi. Axloqiy mas'uliyat esa shaxsning jamiyat oldidagi axloqiy va ma'naviy javobgarligini ifodalaydi. Masalan, shaxs o'z harakatlari orqali boshqalarga yordam berish, tabiatni himoya qilish yoki ijtimoiy adolatni ta'minlashda qatnashishi mumkin. Huquqiy mas'uliyat esa qonuniy talablar doirasida harakat qilishni taqozo etadi va har bir fuqaro qonunlar oldida teng ravishda mas'uldir.

Emanuel Kantning axloqiy falsafasi mas'uliyatni anglashning asosiy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Uning fikricha, har qanday harakat shunday amalga oshirilishi kerakki, u umumiy qoidaga aylanishi mumkin bo'lsin. Shu bilan birga, Kantning yondashuvi mas'uliyatni tanlov erkinligi bilan bog'laydi, ya'ni inson o'z tanlovlarini amalga oshirishda axloqiy tamoyillarga rioya qilishi lozim.

Ijtimoiy va huquqiy me'yorlar konteksti

Erkinlik va mas'uliyat muvozanati saqlanishida ijtimoiy va huquqiy me'yorlar asosiy rol o'ynaydi. Huquqiy tizimda har bir shaxsning erkinligini himoya qilish bilan birga, uning ijtimoiy tartib va xavfsizlik uchun mas'uliyatini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Huquqiy me'yorlar har bir fuqaroning o'z huquqlari va majburiyatlarini to'g'ri anglashiga yordam beradi va shaxslarni qonuniy doirada faoliyat yuritishga undaydi. BMTning Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi kabi xalqaro hujjatlar erkinlik va mas'uliyatni umumiy qoidalarga asoslab, har bir inson uchun ijtimoiy va huquqiy chegaralarni belgilab beradi. Zamonaviy huquqiy tizimlarda, masalan, jamoat joylarida tartibni saqlash yoki ekologik qonunlar orqali atrof-muhitni himoya qilish me'yorlari ko'zda tutilgan. Bu qonunlar insonlarning cheksiz erkinlikka ega

bo'lmashligini ko'rsatadi va ularning erkinliklari boshqalarning huquqlari va xavfsizligi bilan chegaralanishini ta'minlaydi. Shu sababli, huquqiy me'yorlar erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi mexanizm sifatida qaraladi.

Shaxsiy rivojlanish va ma'naviy o'sish

Shaxsiy rivojlanish va ma'naviy o'sishda erkinlik va mas'uliyat muhim o'rin tutadi. Erkinlik insonning o'z istak va maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur shart bo'lsa, mas'uliyat esa bu jarayonning ijtimoiy va axloqiy jihatdan to'g'ri yo'nalishda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Psixologiyada, masalan, Abraham Maslowning ehtiyojlar piramidasida "O'z-o'zini amalga oshirish shaxsning to'laqonli erkinligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa-da, bu erkinlik ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak"¹⁵⁶. Boshqacha qilib aytganda, inson o'z maqsadlariga erishish jarayonida boshqalarning manfaatlarini ham hisobga olishi lozim. Erkinlik va mas'uliyatning uyg'unligi shaxsiy o'sish va rivojlanishda chuqur ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon odamlarni o'z ustida ishlash, ijtimoiy munosabatlarda faol va konstruktiv bo'lishga undaydi. Masalan, jamiyatdagi ijtimoiy rollarni to'g'ri bajarish, atrofdagilar bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirish yoki jamoat uchun foydali ishlar qilish – bularning barchasi mas'uliyatli shaxsiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Kelajakdagi rivojlanish va barqarorlik uchun mas'uliyat

Zamonaviy sharoitda texnologiyalar va globallashtirishning tez rivojlanishi kelajak uchun mas'uliyat tushunchasini ham dolzarb masalaga aylantirmoqda. Bugungi kunda global ekologik inqiroz, ijtimoiy adolatsizlik va texnologik xavfsizlik kabi masalalar insonlarning o'z erkinliklaridan mas'uliyat bilan foydalanish zarurligini anglatmoqda. Masalan, ekologik barqarorlikda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhimdir: har bir shaxs va korxona atrof-muhitni muhofaza qilishga o'z hissasini qo'shishi lozim.

Shuningdek, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (big data) va avtomatlashtirish kabi texnologik yutuqlar insoniyat uchun yangi

¹⁵⁶ Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*, 50(4), 370-396.

imkoniyatlar yaratmoqda, ammo ularning noto'g'ri qo'llanilishi turli xavf-xatarlarga olib kelishi mumkin. Texnologiyalar orqali insonlar ko'proq erkinlikka ega bo'lmoqda, ammo ular ushbu texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanishni ham o'rganishlari zarur. Shu nuqtai nazardan, texnologik mas'uliyat zamonaviy davrning eng muhim masalalaridan biriga aylanmoqda. Innovatsion texnologiyalar ko'pincha inson hayotini yengillashtiradi, turli sohalarda rivojlanish imkonini beradi va insonlarning erkinligini kengaytiradi. Ammo, bu texnologiyalarning noto'g'ri yoki nazoratsiz qo'llanilishi ekologik muammolar, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash masalalari va ijtimoiy adolatsizliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, sun'iy intellekt algoritmlarining noto'g'ri ishlatilishi noto'g'ri qarorlar qabul qilish yoki ayrim guruhlariga nisbatan diskriminatsiyaga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy jamiyatlarda texnologiyalardan mas'uliyat bilan foydalanish, ularning foydali va xavfsiz ekanligini ta'minlash uchun axloqiy va huquqiy mas'uliyat tushunchalarini qayta ko'rib chiqish zarurati paydo bo'lmoqda.

Shaxsiy ma'lumotlarning himoyasi ham bugungi texnologik muhitda mas'uliyat masalalaridan biridir. Ko'plab kompaniyalar insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash orqali o'z xizmatlarini rivojlantirishga intiladi, lekin bu ma'lumotlardan qanday foydalanilishi va ularning maxfiyligini ta'minlash masalalari katta e'tibor talab qiladi. Jamiyatlar ushbu texnologiyalardan foydalanishda har bir insonning shaxsiy huquqlarini hurmat qilish va himoya qilishni talab qiladi. Shu sababli, texnologiyalardan foydalanishda erkinlik mas'uliyat bilan birga olib borilishi, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarga xizmat qiladigan mexanizmlar bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

Globallashuv jarayoni natijasida erkinlik va mas'uliyatning faqat mahalliy yoki milliy darajada emas, balki global darajada ham ko'rib chiqilishi zarur. Xalqaro hamjamiyat har bir davlat va kompaniyaning global muammolarni hal qilishdagi mas'uliyatini anglashga intilmoqda. Masalan, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar dunyo miqyosida mas'uliyatni birgalikda amalga oshirishni talab qiladi. BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari ham barcha davlatlar va jamoalarning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikka intilishi uchun yo'l xaritasi sifatida

xizmat qiladi. Global darajada mas'uliyat tushunchasi barqaror rivojlanishga erishish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va dunyo aholisining yashash sharoitlarini yaxshilash uchun zarur. Bunday yondashuv shaxsiy va milliy manfaatlarni global miqyosda birlashtiradi, bu esa o'z navbatida har bir inson va tashkilotni o'z qarorlarining kelajakdagi avlodlarga ta'sirini anglashga undaydi.

Inson erkinliklari va mas'uliyatlari zamonaviy jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, ular xalqaro va milliy huquqiy me'yorlar orqali tartibga solinadi. Xalqaro hujjatlar – BMT Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar Xalqaro Pakti kabi hujjatlar – erkinlik va huquqni global miqyosda tan oladi va davlatlardan fuqarolarning asosiy huquqlarini himoya qilishni talab qiladi. Bu hujjatlar shaxsiy hayot daxlsizligi, fikr bildirish erkinligi va vijdon huquqi kabi fundamental erkinliklarni kafolatlaydi.

Milliy darajada, masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar inson erkinliklarini himoya qilish bilan birga, mas'uliyat va majburiyatlarni ham belgilaydi. Konstitutsiyaga ko'ra, har bir fuqaro qonun oldida teng bo'lib, jamiyatdagi huquqiy tartibni saqlashda mas'uliyatli bo'lishi zarur. Mehnat Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi va boshqa milliy qonunlar esa fuqarolar va tashkilotlarning ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat sohasidagi majburiyatlarini tartibga soladi.

Shunday qilib, erkinlik va mas'uliyat bir-birini to'ldiruvchi tushunchalar sifatida amal qiladi. Erkinlik fuqarolarga o'z tanlovlarini amalga oshirish imkonini bersa, mas'uliyat ularning bu tanlovlari uchun javobgarligini ta'minlaydi. Davlat va jamiyatda erkinlik va mas'uliyat muvozanatini saqlash fuqarolar huquqlarining himoyasini, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Bu muvozanatni himoya qilish esa davlatning qonuniy majburiyatidir va har bir fuqaro o'z huquqlaridan foydalanganda boshqalarning huquq va xavfsizligiga hurmat bilan yondashishi zarurligini anglatadi.

Erkinlik va mas'uliyat zamonaviy jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishi uchun asosiy tamoyillar hisoblanadi. Zamonaviy dunyoda erkinlik insonlarning o'z hayot yo'llarini tanlashda va imkoniyatlardan foydalanishda keng imkoniyatlar yaratmoqda, lekin bu imkoniyatlar to'g'ri

yo‘nalishda va mas’uliyatli yondashuv bilan amalga oshirilishi kerak. Mas’uliyat, o‘z navbatida, jamiyatdagi barqarorlik, adolat va kelajak uchun javobgarlikni ta’minlaydi.

Shuning uchun har bir inson o‘z erkinlik va mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri anglash va bu tamoyillarni o‘z hayotida uyg‘unlashtirishga intilishi lozim. Bu jarayon nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatga, balki butun jamiyatning farovonligi va kelajakdagi barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Zamonaviy davrning eng katta chaqirig‘i - erkinlik va mas’uliyatni birgalikda saqlash va rivojlantirishdan iborat bo‘lib, buni amalga oshirishda jamiyat, davlat va har bir inson o‘ziga yuklangan vazifalarni ado etishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Heidegger, M. (1962). Being and Time. Translated by John Macquarrie & Edward Robinson. New York: Harper & Row.
2. Sartre, J.-P. (1956). Existentialism is a Humanism. Translated by Philip Mairet. New Haven: Yale University Press.
3. Jean-Paul Sartre, Existentialism is a Humanism, Yale University Press, 2007
4. Immanuel Kant, Critique of Practical Reason, Cambridge University Press, 1997.
5. John Stuart Mill, On Liberty, Cambridge University Press, 1989.
6. Friedrich Nietzsche, Thus Spoke Zarathustra, Penguin Classics, 1961
7. Erich Fromm, Escape from Freedom, Farrar & Rinehart, 1941.
8. Viktor Frankl, Man’s Search for Meaning, Beacon Press, 2006.
9. Arendt, H. (1958). The Human Condition. Chicago: University of Chicago Press.
10. Levinas, E. (1969). Totality and Infinity. Pittsburgh: Duquesne University Press.
11. Aristotle (c. 350 BCE). Nicomachean Ethics. Translated by W. D. Ross.
12. John Rawls, A Theory of Justice, Harvard University Press, 1971.

13. Maslow, A. H. (1943). A Theory of Human Motivation. *Psychological Review*, 50(4), 370-396.
14. Toshpo'latov, Yo. T., & Xayitmetov, A. X. (Muharrirlar). *Ijtimoiy Falsafa*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, 2011.
15. Mamatqulov, M. (2020). *Ijtimoiy Falsafa: Asosiy Tamoyillar va G'oyalar*. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
16. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ekzistensializm>
17. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Erkinlik>
18. <https://oyina.uz/uz/teahause/1834>
19. <https://pubhtml5.com/acuzz/kxuu/basic/>

MAVZU YUZASIDAN GLOSSARIYLAR

Erkinlik — insonning o'z istaklariga binoan harakat qilish va o'z qarorlarini mustaqil ravishda qabul qilish huquqini anglatadi. Bu tushuncha huquqiy, ijtimoiy, axloqiy va falsafiy nuqtai nazardan insonning o'zligini anglash, shaxsiy maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Erkinlik turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: so'z, vijdon, matbuot va tanlov erkinligi. Falsafada erkinlik insonning o'z hayotini boshqarishga va hayot ma'nosini topishga bo'lgan huquqi sifatida qaraladi. Inson jamiyatda yashar ekan, uning erkinligi boshqa insonlarning erkinligi bilan cheklanadi. Shu sababli erkinlik insonning ichki mustaqilligi va tashqi cheklovlar bilan bog'liq. Erkinlik mas'uliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson o'z tanlovlari uchun javobgarlikni ham o'z zimmasiga oladi. Jamiyatda erkinlikning me'yoriy chegaralari mavjud bo'lib, ular odatda qonuniy va axloqiy tamoyillarga asoslanadi.

Mas'uliyat — insonning o'z qarorlari, xatti-harakatlari va ularning oqibatlarini uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishidir. Bu tushuncha ijtimoiy, axloqiy va huquqiy tamoyillarga asoslanib, shaxsning jamiyat oldidagi burchlarini ifodalaydi. Mas'uliyat odamning jamiyat oldidagi axloqiy va ijtimoiy majburiyatlarini anglatadi. Mas'uliyat tushunchasi ko'pincha burch, javobgarlik va axloqiy amallar bilan bog'liq holda ishlatiladi. Shaxsiy mas'uliyat insonning shaxsiy hayoti va qarorlari uchun,

ijtimoiy mas'uliyat esa jamiyat oldidagi vazifalari uchun javobgarlikni anglatadi. Har bir inson jamiyatda o'z o'rnini topib, o'z faoliyatini amalga oshirayotganida, mas'uliyatni ham o'z zimmasiga olishi kerak. Mas'uliyat jamiyatning ichki tartibini saqlashda va har bir shaxsning shaxsiy erkinliklariga hurmat bilan yondashishda muhim o'rin tutadi. Mas'uliyat tufayli jamiyatda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi. Shu sababli, mas'uliyat fuqarolarning o'z huquq va erkinliklarini to'g'ri yo'nalishda amalga oshirishiga ko'mak beradi.

Ekzistensializm — XX asr falsafiy oqimi bo'lib, insonning erkinligi, tanlovlari va shaxsiy mavjudligini markaziy mavzu sifatida o'rganadi. Bu oqimning tarafdorlari inson hayotining oldindan belgilangan ma'nosi yo'qligini ta'kidlashadi va inson o'z qismatini o'zi yaratishi kerakligini ilgari suradilar. Ekzistensialistlar inson hayotida tanlov erkinligi va mas'uliyatni asosiy tamoyillar deb hisoblaydilar. Ushbu yo'nalish vakillaridan biri Jean-Paul Sartre erkinlikni insonning o'ziga yuklangan ulkan mas'uliyat sifatida tasvirlaydi. Asosiy ekzistensialistlar qatoriga Jean-Paul Sartre, Martin Heidegger, Albert Camus va Soren Kierkegaardlarni kiritishimiz mumkin.

Falsafiy erkinlik — insonning o'z hayotini anglash va shakllantirish jarayonidagi erkinligi sifatida qaraladi. Bu erkinlik insonning ichki ehtiyoj va maqsadlariga asoslanadi va shaxs o'z hayotini ma'no bilan boyitishi uchun xizmat qiladi. insonning o'z xohishiga ko'ra harakat qilish va o'z taqdirini belgilash qobiliyatidir. Bu tushuncha, insonning o'z hayotidagi tanlovlar va qarorlar ustidan nazoratini anglatadi. Falsafiy erkinlik, shuningdek, insonning o'zini o'zi anglash, o'z ehtiyojlarini tushunish va ularga muvofiq harakat qilishida muhim ahamiyatga ega. Bu erkinlik individual mas'uliyatni talab qiladi, chunki har bir tanlov insonning hayotiga ta'sir qiladi. Falsafiy erkinlik, o'z-o'zini anglash jarayonida shaxsning o'zini tushunishi va o'zining ichki istaklari va qadriyatlariga muvofiq harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi.

Axloqiy mas'uliyat — insonning axloqiy me'yorlarga muvofiq o'z burchlarini bajarish va jamiyat oldidagi qarzдорlikni anglatadi. Bu tushuncha insonning ichki ongida shakllanadi va shaxsning jamiyat oldidagi javobgarligini ifodalaydi. Axloqiy mas'uliyat jamiyatda tartib va

barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shaxs o'z xatti-harakatlarini axloqiy tamoyillarga asoslanib bajarishi, boshqalarga zarar yetkazmasligi kerak. Axloqiy mas'uliyat shaxsiy qarorlar qabul qilishda va harakatlarda jamiyat me'yorlariga hurmat bilan yondashishni talab qiladi. Bu tushuncha shaxsiy va ijtimoiy hayotda o'z aksini topib, insonning boshqalar bilan munosabatlarini belgilaydi. Shu bilan birga, axloqiy mas'uliyat shaxsning o'z burchlarini to'g'ri bajarish, boshqa insonlar va atrof-muhitga hurmat bilan qarashni talab qiladi.

Shaxsiy mas'uliyat — insonning o'z hayoti va qarorlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishi va harakatlarini ongli ravishda boshqarishidir. Shaxsiy mas'uliyat insonning o'z shaxsiy hayotiga, oilasiga va yaqinlariga nisbatan qarzdorlik hisini anglatadi. Bu tushuncha odamning o'z kelajagi uchun mustaqil qaror qabul qilishi va harakat qilishiga asoslangan. Shaxsiy mas'uliyat odamning ichki dunyosida shakllanib, o'zini rivojlantirish va hayotiy maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inson shaxsiy mas'uliyat orqali o'z qadr-qimmatini anglaydi va boshqalarning huquqlariga hurmat bilan yondashadi. Bu tushuncha jamiyatdagi tartibga rioya qilgan holda, shaxsiy istaklar bo'yicha hayot kechirishni o'z ichiga oladi.

Vijdon erkinligi — insonning o'z ichki his-tuyg'ulari, ishonch va e'tiqodlariga asosan qaror qabul qilish huquqidir. Bu tushuncha insonning shaxsiy qadriyatlarini himoya qilish, diniy va axloqiy qarashlarini ochiq bildirish imkonini beradi. Vijdon erkinligi har bir insonning ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lib, uni tashqi ta'sirlardan himoya qilishni nazarda tutadi. Bu huquq davlat tomonidan himoya qilinadi va har bir fuqaroning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Vijdon erkinligi insonning o'z e'tiqodlariga muvofiq yashash va o'z qarashlarini jamiyatda ifodalash imkoniyatidir. Shu bilan birga, vijdon erkinligi insonni ichki mas'uliyatga undaydi va uning axloqiy qarashlarini mustahkamlaydi. Bu erkinlik insonning o'z qadr-qimmatini anglashiga va boshqalarning e'tiqodlariga hurmat bilan qarashiga yordam beradi. Vijdon erkinligi jamiyatda tinchlik va murosaga hissa qo'shadi, chunki har bir inson o'z e'tiqod va qarashlariga hurmat ko'rsatilishini talab qiladi.

Ijtimoiy mas'uliyat — har bir fuqaroning jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglash va o'z xatti-harakatlarini jamoat manfaatlariga mos ravishda amalga oshirishidir. Ijtimoiy mas'uliyat fuqarolarning jamiyatdagi xavfsizlik, barqarorlik va farovonlik uchun javobgarligini ifodalaydi. Bu tushuncha odamlarning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqalarning manfaatlarini hisobga olishni talab qiladi. Ijtimoiy mas'uliyat fuqarolarning ijtimoiy munosabatlarda adolatli va mas'uliyatli bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu tushuncha jamiyatda ijtimoiy tartib va xavfsizlikni ta'minlash, jamiyat a'zolarining bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning ijtimoiy va axloqiy burchlarini, o'z xatti-harakatlarining jamiyatga ta'sirini anglashini talab qiladi.

Erkin tanlov — insonning o'z xohishlari va ichki ehtiyojlariga binoan o'z yo'lini tanlash huquqini anglatadi. Bu tushuncha insonning o'z hayotini boshqarish, shaxsiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Falsafiy nuqtai nazardan, erkin tanlov insonning o'ziga xos xususiyati va o'z qismati ustida to'la nazorat qilish imkoniyatidir. Inson o'z tanlovlari orqali jamiyatdagi o'rnini belgilaydi va o'z shaxsiyatini namoyon qiladi. Shu bilan birga, erkin tanlov insonning ichki va tashqi omillardan mustaqil holda qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu huquq shaxsiy mas'uliyat va ongli yondashuv bilan bog'liqdir, chunki har qanday tanlovning o'ziga xos oqibatlari bo'ladi. Inson jamiyatda o'zining erkin tanlovlarini amalga oshirish uchun huquqiy va axloqiy me'yorlarga rioya qilishi lozim. Erkin tanlov insonni o'z-o'zini rivojlantirishga, ichki qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga undaydi va uni hayotdagi maqsadlariga yetishishga rag'batlantiradi.

So'z erkinligi — bu insonlarning fikrlarini, e'tiqodlarini va hissiyotlarini erkin ifoda etish huquqidir. Bu tushuncha, demokratiya va inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biridir. So'z erkinligi, shuningdek, axborot olish va tarqatish erkinligini ham o'z ichiga oladi. Odamlar o'z fikrlarini, g'oyalarini va tanqidlarini ochiq ravishda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. So'z erkinligi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u ijtimoiy muhokamalarni rivojlantiradi va turli fikrlarning ifodasiga yo'l ochadi. Bu, shuningdek,

davlat va hukumatning faoliyatini tanqid qilish imkonini beradi, bu esa shaffoflikni va mas'uliyatni oshiradi. So'z erkinligi, jamiyatda ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi.

MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Erkinlik va mas'uliyat tushunchalarining qaysi falsafiy oqim bilan chambarchas bog'liqligi aytilgan?

- A) Marksizm
- B) Ekzistensializm
- C) Panteizm
- D) Empirizm

2. Erkinlik qanday holatni anglatadi?

- A) Boshboshdoqlik
- B) Jamiyatdagi muayyan tartibni ifodalash
- C) Faqat shaxsiy manfaatlarni ko'zlash
- D) Ma'lum me'yorlarni buzish huquqi

3. Jean-Paul Sartrega ko'ra, insonning qanday o'ziga xos xususiyati bor?

- A) O'z tanlovlari uchun mas'ul bo'lishi
- B) Yashash uchun zarur ehtiyojlari bo'lmasligi
- C) Barcha tanlovlarda cheklovga ega bo'lishi
- D) Tabiatiga mos ravishda erksizlik

4. Heidegger fikriga ko'ra, "erkinlik" tushunchasi nimani anglatadi?

- A) Insonning zaruriy ehtiyojlari majburiyatini
- B) Insonning o'z hayoti va o'zini anglash jarayonidagi xosligi
- C) Jamiyatning qo'llab-quvvatlovchi me'yorlarini
- D) Faqat iqtisodiy erkinlikni

5. Quyidagi qaysi faylasuf erkinlik va axloqiy qonuniyatlar o'rtasidagi bog'liqlikni yoritadi?

- A) Friedrich Nietzsche
- B) Jean-Paul Sartre
- C) Immanuel Kant
- D) Viktor Frankl

6. Heideggerga ko‘ra, inson qanday tushuncha orqali o‘z erkinligini anglaydi?

- A) Jamiyatning qo‘llab-quvvatlashi orqali
- B) Tabiat bilan uyg‘unlik orqali
- C) O‘lim oldidagi mavjudlik orqali
- D) Axloqiy me‘yorlarga moslash orqali

7. Erich Frommning erkinlik haqidagi fikriga ko‘ra, ko‘pchilik insonlar erkinlikdan nega qochadi?

- A) Ularning shaxsiy hayotiga aralashgani uchun
- B) Erkinlik mas‘uliyatni talab qilgani uchun
- C) Erkinlik bilan iqtisodiy cheklovlar kelgani uchun
- D) Jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmagan uchun

8. Nietzsche erkinlikni qanday tushunchaga bog‘laydi?

- A) Tanlovlar uchun boshboshdoqlik
- B) Inson kuchi va o‘zini o‘zi yaratish
- C) Qonun va axloqiy cheklovlar
- D) Ijtimoiy tenglik va adolat

9. Viktor Franklga ko‘ra inson hayotda qanday maqsadga erishishi zarur?

- A) Iqtisodiy farovonlikka
- B) Axloqiy qoidalarga mos kelishga
- C) O‘z hayotiga ma‘no berishga
- D) Jamiyatda obro‘ orttirishga

10. Erkinlik va mas‘uliyat qanday tushunchalar bilan bog‘liq?

- A) Faqat individual ehtiyojlar bilan
- B) Mavjudlik, tanlov va ong bilan
- C) Yolg‘izlik va cheklov bilan
- D) Iqtisodiy farovonlik va axloq bilan

11. Viktor Frankl nazariyasida inson qanday jarayon bilan mas‘uliyatini his etadi?

- A) O‘z tanlovlaridan voz kechish orqali
- B) Hayotining mazmunini anglash orqali
- C) Axloqiy qoidalarni bajarish orqali
- D) Iqtisodiy mustaqillikka erishish orqali

12. Arendtga ko‘ra, jamiyatdagi mas’uliyat qanday omil orqali amalga oshiriladi?

- A) Shaxsiy manfaat
- B) Siyosiy va ijtimoiy harakatlar
- C) Faqat iqtisodiy taraqqiyot
- D) Falsafiy ong

13. Frommning ijobiy erkinlik tushunchasi nimani anglatadi?

- A) Tashqi cheklovlardan ozodlikni
- B) Insonning ichki ehtiyojlarini amalga oshirishini
- C) Siyosiy tizimga moslashishni
- D) Axloqiy qonunlarga bo‘ysunishni

14. Kant nazariyasiga ko‘ra, inson mas’uliyatini qanday asosda belgilaydi?

- A) Tabiat qonunlariga moslik asosida
- B) Kategorik imperativga muvofiq ravishda
- C) Jamiyat talablariga moslash orqali
- D) Shaxsiy qiziqishlarga muvofiq ravishda

15. Mas’uliyatli erkinlik qanday jihatlarni o‘z ichiga oladi?

- A) Faqat individual qoniqish
- B) Boshqalarga zarar yetkazmaslik tamoyili
- C) Faqat iqtisodiy mustaqillik
- D) Qonunga bo‘ysunmaslik huquqi

8-MAVZU. O‘RTA OSIYODA IJTIMOIIY FALSAFIY FIKRLARNING SHAKLLANISHIDA MUSULMON FALSAFASINING AHAMIYATI

Reja:

- 1. Islomning paydo bo‘lishi va asosiy ta’limotlari**
- 2. Jamiyatni tartibga solishda musulmon huquq manbalarining ahamiyati**
- 3. Markaziy Osiyoda musulmon madaniyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari**
- 4. Islomdagi oqimlar ta’limotlarining farqlari tahlili**
- 5. Tasavvuf – ijtimoiy-falsafiy qarashlar sifatida talqini**

***Tayanch tushunchalar:** Islom, Qur’oni Karim, Payg‘ambar, Sunnat, Ijmo’, Qiyos, Fatvo, Ratsionalizm, fanatizm, yevropatsentrizm, sunniylik, shia, xorijiylik, Imomat, Taqiya, Tasavvuf, So‘fiylik, Shariat, Tariqat, Ma’rifat, Haqiqat, Naqshbandiya, Kubroviya, Yassaviya, Tavba, Zuhdi, Tavakkul, Qanoat, Uzlat, Tavajjuh, Sabr, Muroqaba, Rizo, Aqida.*

1. Islomning paydo bo‘lishi va asosiy ta’limotlari

Musulmon faylasuflari ham odam va olam orasidagi o‘zaro aloqadorlik muammolarini bilishga intildilar. Odam deb ataluvchi mavjudotni kim yaratgan? Odam qanday unsurlardan tashkil topgan? Odamning inson darajasiga ko‘tarilishi qanday sodir bo‘ladi? Insonning jismi bilan uning ruhiyati, ma’naviyati orasidagi aloqadorlik mavjudmi? kabi savollarga javob topmoqchi bo‘ldilar. Turgan gapki, bunday savollarga javobni, eng avvalo, musulmon faylasuflari «Qur’oni Karim»dan izladilar.

«Qur’oni Karim»ning yettinchi — «A’rof» surasining o‘n birinchi, o‘n ikkinchi, o‘n beshinchi — «Xijr» surasining yigirma oltinchi oyatlarida dastlabki Odam(Odam Atoni) suratini, Olloh qora botqoqdan, ya’ni loydan yasaganligi¹⁵⁷, keyin unga tiriklik, ya’ni jon ato etganligi, Momo Havo esa Odam Atoning «chap biqinidan» yaratilganligi xabar

¹⁵⁷ Qur’oni Karim. Toshkent, 1992, 101, 181-betlar.

qilinadi. Islom qoidalariga muvofiq butun kishilik jamiyati Odam Ato bilan Momo Havodan tarqalgan. Rivoyatlarga qaraganda Odam Ato bilan Momo Havo bir ming-u qirq yosh umr ko‘ribdilar. Shu davr mobaynida, ulardan qirq bir farzand vujudga kelibdi. O‘sha qirq bir farzanddan yigirma bir nafar o‘g‘il va yigirma nafar qiz tug‘ilibdi. Ulardan paydo bo‘lgan nabiralar ming nafarga yetibdi¹⁵⁸. Odam Ato o‘g‘lonlarining qirq mingga yetganini ko‘rib, dunyodan ko‘z yumibdi.

Ko‘rinib turibdiki, musulmon falsafasining inson to‘g‘risidagi fikr-mulohazalari islom dinining paydo bo‘lishi va uning shakllanishi bilan bog‘liq. Islom dinining vujudga kelishi Arabistonning Makka shahrida tavallud topgan, yirik din va davlat arbobi Muhammad ibn Abdulloh¹⁵⁹ nomi bilan bog‘liq.

Muhammad(s.a.v) qabilasi, jinsi, ijtimoiy mavqei, iqtisodiy ahvolidan qat’iy nazar, barcha arablarni yagona Xudoga — Ollohga sig‘inishga da’vat etgan. O‘zini Xudoning yerdagi vakili — «Payg‘ambar» deb e’lon qilgan.

Muhammad(s.a.v) payg‘ambar tomonidan aytilgan islom dinining asosiy qoidalari, axloqiy va huquqiy normalari, musulmonlarning muqaddas kitobi hisoblangan «Qur’on»da rasmiylashtirilgan. Islomshunos, «Qur’on»shunos olimlarning fikriga ko‘ra, Muhammadning yagona Xudoga sig‘inishga asoslangan qarashlari, yaxlit bir sistema sifatida, uning tirikligi paytida yozib olinmagan. Muhammad vafot etgandan so‘ng uning fikr-mulohazalari xalifa Abu Bakr ko‘rsatmasiga asosan to‘plangan. Bunday murakkab ishni bajarish, Muhammad tiriklik vaqtida uning kotibi bo‘lib ishlagan Zaid ibn Sobitga yuklatilgan. Shunday sa’y-harakatlar tufayli 632-yilda «Qur’on»ning dastlabki matni vujudga kelgan. Ilmiy-tarixiy manbalarda ta’kidlanishicha, «Qur’on»ning dastlabki matni «Suhur» («Sahifalar») deb nomlangan. 651-yilda «Qur’on»ning yangi matni yaratilgan, uni «Mushaf», deb ataganlar. Ushbu matn xalifa Usmon

¹⁵⁸ Mirz o Ulug'bek. To‘rt ulus tarixi. Toshkent, 1994, 21-bet.

¹⁵⁹ Abulg‘oziy Bahodir xon. Shajarai turk. Toshkent, 1994, 19-bet.

ko'rsatmasiga asosan yaratilgani uchun «Usmon mushafi», deb ham yuritiladi¹⁶⁰.

«Qur'on» 114 suradan iborat. Har bir sura oyatlarga bo'lingan. Suralarning har biri nomlangan. Ular «Qur'on»da mazmuniga qarab emas, balki hajmiga, ya'ni har bir suradagi oyatlaming miqdoriga qarab joylashtirilgan. Shuning uchun ham ularda mantiqiy va xronologik izchillik yo'q. Suralar, asosan, Makka va Madinada yaratilgan. Chunonchi, ularning 90 tasi Makkada (610— 632-yillarda), 24 tasi Madinada (622— 632-yillar) yaratilgan¹⁶¹. «Qur'on»ning qariyb uchdan bir qismini yahudiy, xristian diniy manbalari va qadimiy afsonalari, rivoyatlari tashkil etadi. Shuningdek, «Qur'on»ning shakllanishida zardushtiylikning ham ta'siri borligini unutmaslik darkor. Alqissa, islom dinining paydo bo'lishi, jahon davlatchiligi tarixida markazlashgan yirik Arab davlatining vujudga kelishiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan musulmon madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishiga ham sabab bo'ldi.

2. Jamiyatni tartibga solishda musulmon huquq manbalarining ahamiyati

Inson qilmishlarining hukmi asosan to'rtta shar'iy manbadan chiqariladi. Ular Qur'on, sunnat, ijmo' hamda qiyos. To'rt manbaning hujjatligi hamda ularning tutgan o'rni to'g'risida olimlar yakdil qarorga kelishgan. Qoidaga ko'ra, muftahid u yoki bu masalani hal etish uchun avval **Qur'oni Karimga**, keyin **sunnatga**, keyin **ijmo'ga** va nihoyat, **qiyosga** murojaat qiladi.

Manbalarining haqqoniyligi to'g'risida Qur'oni Karim Niso surasi ning 59-oyatida shunday deyiladi: «Ey mo'minlar, Allohga itoat qilinglar va payg'ambarga itoat qilinglar hamda o'zlaringizdan (ya'ni musulmonlardan) chiqqan boshliqlarga itoat qilinglar. Agar biror masala javobida bir fikrga kelisha olmasalaringiz, u holda o'sha masalani Allohga va uning rasuliga qaytaringlar. Agar Allohga va qiyomat kuniga

¹⁶⁰ «Usmon mushafbdan ko'chirilgan eng qadimiy qo'lyozmalardan to'rttasi hozirgacha saqlanib qolgan. Ulardan biri Toshkentda saqlanadi.

¹⁶¹ Qarang: Ислom. Справочник. Тошкент, 1989, 298—301-betlar.

iymonlaringiz bo'lsa, shunday qilishlik eng yaxshi va xayrli ma'no berishdir».

Qur'on (arab. – qiroat, o'quv)da islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan. Qur'on 114 suradan iborat bo'lib, un dagi axloqiy va huquqiy normalar keyinchalik shariat (to'g'ri yo'l, qonunchilik) ga asos qilib olingan. Qur'onda 6666 oyat mavjud, ammo ayrim adabiyotlarda oyatlar sonini 6234 ta deb ham e'tirof etilgan. Bu Qur'onning turli tarzda o'qilishi bilan izohlanadi. Qur'on normalarining aksariyati diniy-axloqiy masalalarga taalluqli bo'lib, shundan 250 tasi huquqiy xususiyatga ega.

Qur'on (arab. – qiroat, o'quv)da islom aqidalari, e'tiqod talablari, huquqiy va axloqiy normalar o'z ifodasini topgan. Qur'on 114 suradan iborat bo'lib, un dagi axloqiy va huquqiy normalar keyinchalik shariat (to'g'ri yo'l, qonunchilik) ga asos qilib olingan. Qur'onda 6666 oyat mavjud, ammo ayrim adabiyotlarda oyatlar sonini 6234 ta deb ham e'tirof etilgan. Bu Qur'onning turli tarzda o'qilishi bilan izohlanadi. Qur'on normalarining aksariyati diniy-axloqiy masalalarga taalluqli bo'lib, shundan 250 tasi huquqiy xususiyatga ega.

Qur'on – musulmon huquqining asosiy manbayi sifatida Allohning o'z payg'ambarlari va elchilaridan oxirgisi Muhammad(s.a.v.)ga farishta Jabroil alayhissalom orqali yo'llagan vahiylardan iborat. Musulmonlar o'rtasidagi mu nosabatlarni tartibga solishda Qur'onning o'rni beqiyos.

Qur'on kishilar uchun hujjat bo'lib, uning hukmlariga qat'iy rioya etish lari lozim. Uni ilohiy qonun deb qarashlariga dalil – uning Alloh huzuridan kishilarga hech shubhaga o'rin qolmagan tarzda nozil bo'lganligidir.

Rasululloh (s.a.v.): «Men Alloh tomonidan sizlarga yuborilgan payg'ambarman, bunga hujjatim va dalilim – sizlarga o'qib berayotganim, menga Alloh tomonidan vahiy qilingan shu Qur'ondir», – dedilar. Kishilar payg'ambarning bu aytganlariga ishonmaganlaridan so'ng ularga aytdilarki: «Agar bunga ishonmasalaringiz, bu inson so'zi degan fikrga borsalaringiz, si zlar ham insonsizlar, binobarin, shu men aytgan Qur'ondek sizlar ham Qur'on keltiringlar. Yoki to'liq Qur'on keltirishdan ojiz bo'lsalaringiz, hech bo'lmasa, o'nta sura keltiringlar. Juda bo'lmasa,

loaqal bir dona Qur'on surasidek sura keltiringlar», – deb ularni munozaraga chaqirdilar.

Qur'oni Karim al-Isro surasining 88-oyatida shunday deyiladi: «Ayting (ey Muhammad): «Agar dunyodagi barcha insonlaru jinlar birgalashib, biz nozil qilgan Qur'ondek kitob keltirishga yordamlashsalar ham, keltira olmay dilar».

Hud surasining 13-oyatida shunday ta'kidlanadi: «Ular aytadilarmi bu so'zlarni Muhammad o'zi to'qigan deb. Agar shunday gumon qilsalar, aytingki, «Agar qo'llaringdan kelsa, qodir bo'lsalaring, sizlar loaqal o'n dona to'qima sura keltiringlar. Buning uchun Allohdan boshqa kimni yordamga chaqir salaring chaqiringlar. Agar qilgan da'volaring va aytgan so'zlaringda rostgo'y bo'lsalaring».

Xuddi shuningdek, Baqara surasining 23, 24-oyatlarida esa: «Agar sizlar bizning bandamiz Muhammadga nozil qilgan kitobimizga, bu ilohiy kitob emas, deb shubha qilsalaring, aynan shu kitobdagi suraga o'xshash hech bo'lmasa bir dona sura keltiringlar. Buning uchun yordamga Allohdan boshqa kimni istasalaring chaqiraveringlar (Chunki, Alloh shunday Qur'on keltirishga qodir). Agar qilgan da'volaringning uddasidan chiqa olmasangizlar, hech qachon chiqa olmaysizlar ham, bas, shunday ekan, o'tini odamlar va toshlardan bo'lgan, kofirlar, ishonmovchilar uchun tayyorlab qo'yilgan do'zaxdan qo'rqinglar», – deyiladi. Bu va shunga o'xshash dalillar bilan Qur'on ilohiy kitob ekanligi isbotlanadi.

Qur'oni Karimda kelgan qoida va me'yorlar uch xildir¹⁶²: birinchisi, e'tiqodga taalluqli qoida va me'yorlar. Bunga mukallaf (oqil kishi) e'tiqod qili shi lozim bo'lgan narsalar kiradi. Chunonchi, Allohga, uning farishtalariga, kitoblariga, payg'ambarlariga, qiyomat kuniga, o'lganidan so'ng tirilishiga ishonish va h.k.; ikkinchisi, axloqqa taalluqli qoida va me'yorlar. Bunda kishi qanday go'zal xulqlar bilan ziynatlanishi va qanday yomon, yaramas xulqlardan uzoq bo'lishi ko'rsatilgan; uchinchisi, amaliyotga taalluqli qoida va me'yorlar. Bular insonning ishlari va so'zlariga berilgan hukmlardir.

¹⁶² Abdulvahhob Xalof. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. – T.: 1997. – 30–31-betlar.

Qur'ondagi amaliy hukmlar ikki xil bo'ladi: a) namoz, ro'za, zakot, haj, qasam kabi ibodatga taalluqli hukmlar bo'lib, ular insonning Alloh bilan bo'ladigan munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan; b) insonning boshqa insonlar bilan bo'ladigan muomalasi, oila-nikoh, savdo-sotiq, jinoyat, jazo, ijara, garov kabi muomalaga taalluqli hukmlar.

Musulmon huquqining ahamiyatiga ko'ra ikkinchi manbayi – Sunnatdir. «Sunnat» so'zi «yo'l» ma'nosini anglatadi. U yo'l yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham sunnat deyiladi. Chunki, Rasululloh (s.a.v.) hadislarida shunday deyilgan: «Kimki bir yaxshi yo'lga birinchi bo'lib boshlasa, uning savobi o'sha boshlagan kishigadir. Aynan shu yo'lga undan so'ng to qiyomatgacha kim yursa, yurgan kishiga qancha savob bo'lsa, shu barobarida birinchi boshlagan kishiga ham savobi yetib turadi. Va kimki bir yomon yo'lga birinchi bo'lib yursa, uning gunohi o'sha boshlagan kishiga bo'ladi. Aynan shu yo'lga undan so'ng to qiyomatgacha kim yursa, yurganga qancha gunoh bo'lsa, birinchi bo'lib boshlagan kishiga ham shuncha gunoh yetib turadi».

Sunnatning shar'iy istilohiy ma'nosi – janobi Rasulullohning (s.a.v.) aytgan so'zlari, qilgan ishlari hamda taqrirlaridir (u zotning huzurlarida biron biror so'z aytsa yo biror ish qilsa, u so'z yo ishga Payg'ambar (s.a.v.) e'tiroz bildirmagan bo'lsalar, buni taqrir deyiladi va u ham sunnat hisoblanadi).

Sunnatda kelgan hukmlar darajasiga ko'ra Qur'on hukmlaridan keyin turadi. Bu normalarga bo'ysunish, ularga amal qilish musulmonlar uchun majburiydir. Sunnat uch xil bo'ladi: birinchisi, sunnati qavliy (aytilgan so'z); ikkinchisi, sunnati fe'liy (qilingan ish); uchinchisi, sunnati taqririy (payg'ambar (s.a.v.)ning e'tiroziga uchramagan so'z yoki ish)¹⁶³.

Qur'on oyatlarining bir qanchasida Payg'ambarga itoat etishga buyurilgan. Payg'ambarga itoat etish Allohga itoatdir deb ko'rsatilgan. Oli Imron surasining 32-oyatida: «Ey Muhammad, Allohga va uning rasuliga itoat qilinglar, deb ayting». Niso surasining 80-oyatida esa: «Kimiki Alloh ning rasuliga itoat qilsa, Allohga itoat qilibdur», deyilgan. Yoki «Agar Alloh va uning payg'ambari biror mo'min yo mo'minaga biror ish

¹⁶³ Abdulvahhob Xalof. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. – T.: 1997. – 36-betlar.

yuzasidan hukm chiqargan bo'lsa, u hukmni ijro etish yo etmaslik to'g'risida ularda hech qanday ixtiyor yo'qdir» (ya'ni hukmni bajarishlari shart) (Ahzob surasi, 36-oyat)». Hashr surasining 7-oyatida esa, bunday deyiladi: «Sizlarga nima narsaniki payg'ambar keltirsa, uni qabul qilinglar. Sizlarni nima narsadan qaytarsa, undan qaytinglar».

Qur'oni Karimda insonlarga bir qancha hukmlar berilgan, lekin ularni qay tartibda bajarish, miqdori va boshqalar ko'rsatilmagan. Shu holda uning bu qismini sunnat ko'rsatib beradi. Masalan, «Namoz o'qinglar va zakot beringlar» (Baqara surasi, 110-oyat); «Sizlarga ro'za farz qilindi» (Baqara surasi, 183-oyat); «Alloh savdoni halol qildi va riboni (pulni foydaga qo'yishni) harom qildi» (Baqara surasi, 275-oyat). Lekin ushbu oyatlarda qaysi kayfiyatda, qanday qilib namoz o'qish, zakotni qanday moldan, qachon va qay miqdorda berish, ro'zani qay tartibda ijro qilish, savdoning halol va harom turlari, riboning turlari ahkomlari yo'q. Bularning hammasini Payg'ambar (s.a.v.) bayon qilganlar va ko'rsatib berganlar.

Shunday qilib, sunnat orqali kelgan hukmlar, yo Qur'on hukmlarini tas diqlagan, yoki uning hukmlarini tafsir qilib bergan yoxud Qur'onda belgilan magan hukmlarni o'rnatgan.

Islom huquqining uchinchi manbayi **ijmo** hisoblanadi. Ijmo'ning lug'aviy ma'nosi «qasd qilmoq»ni anglatadi. Ijmo' deganda, musulmonlardan bo'lgan mujtahidlarning Rasululloh(s.a.v.)ning vafotlaridan keyin, biror-bir shar'iy ma sala yuzasidan yakdillik bilan qabul qilingan qarori tushuniladi.

Hukm ijmo' bo'lishi uchun to'rt shart bo'lishi: birinchisi, mujtahidlar bo'lishi; ikkinchisi, musulmon bo'lishi; uchinchisi, janobi Payg'ambar (s.a.v.) va fotlaridan so'ng bo'lishi (Rasululloh (s.a.v.)ning davrlarida ijmo' qo'lanilmagan, sababi, u kishi barcha masalalarda o'zlari yakka javob berganlar); to'rtinchisi, ijmo' qilinadigan masala shar'iy bo'lishi kerak.

Payg'ambar (s.a.v.)dan so'ng biror-bir voqeaning hukmi Qur'ondan ham, sunnatdan ham topilmasa, o'sha davrning mujtahidlaridan masalaning shar'iy hukmi so'ralgan. Ularning ushbu masala yuzasidan bir hukmga ittifoqi ijmo' bo'lib, u shar'iy qonun hisoblangan va unga itoat

qilish lozim, qarshi chiqish mumkin emas. Ijmo' qilingan masala ikkinchi bor keyingi davr mujtahidlari uchun ijthod mavzusi bo'lishi mumkin emas. Chunki ijmo' bilan chiqarilgan hukm qat'iy bo'lib, unga qarshi chiqish hamda uni bekor qilish mumkin emas.

Dunyoviy ishlar boshlig'i podsholar, amirlar, hokimlar bo'lib, diniy ishlar boshlig'i mujtahidlar va ahli fatvolar – fatvo berishga iqtidorli ulamolardir. Ishboshi bo'lgan mujtahidlar shariatda bir hukmga ittifoq qilsalar, unga itoat qilish lozim, ularning hukmlarini ijro qilish Qur'oni Karim oyatiga asosan bo'ladi. Qur'oni Karim Niso surasining 83-oyatida shunday deyiladi: «Agar oyati karimadan yo sunnati nabaviyadan javobi topilmagan masalani payg'ambarga qaytarsalar (ya'ni, payg'ambar sunnatiga solishtirsalar) va o'zlaridan chiqqan mujtahidlarga havola qilsalar, albatta, ijthod qilishga qodir bo'lganlar o'sha masalani bilardi».

Ijmo'ning ma'qul deb topilgani shu bilan asoslanadiki, Payg'ambar (s.a.v.) dan qolgan hadisi sharifga ko'ra, Islom ummatining barchasi jam bo'lgan holda xatoga yo'l qo'yishlari mumkin emas. Janobi Payg'ambar (s.a.v.) aytganlarki: «Mening ummatim xatoning ustida jam bo'lmaydi».

Musulmon huquqining to'rtinchi manbayi bo'lgan **qiyosga** katta ahamiyat beriladi. Qiyosda Qur'on va sunnatda berilmagan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqqoslash yo'li bilan sharh etiladi. Qiyos lug'atda ikki xil ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, bir narsani o'ziga o'xshash ikkinchi narsa bilan solishtirish; ikkinchisi, bir narsani o'ziga o'xshash ikkinchi narsaga tenglashtirish. Islom huquqida qiyos deganda, hukmiga Qur'on yoki sunnatda dalil kel magan voqeani, hukmiga Qur'on yoki sunnatda dalil kelgan voqeaga, har ikkala voqea hukm sababida bir xil bo'lganligi uchun o'xshatish tushuniladi. Masalan, Qur'onda xamr, ya'ni mast qiluvchi, kishining hushini yo'qotishga olib keluvchi narsa harom deb belgilangan. Baqara surasining 90-oyatida aytilganidek, «Ey iymon keltirganlar! Albatta, xamr, qimor, butlar va (fol ochadigan) cho'plar iflosdir. Shaytonning ishidir. Bas, undan chetda bo'ling. Shoyadki, najot top sangiz». Shunga binoan mast qilish xususiyati bo'lgan har bir narsa, u qanday bo'lmasin, uning hukmi ham harom bo'ladi.

Xuddi shuningdek, juma namoziga azon aytilayotgan vaqtda savdo bilan shug'ullanish mumkin emas. Bu to'g'rida Juma surasining 9-oyatida shunday deyiladi: «Ey, imon keltirganlar, qachonki, Juma kuni namozga nido qilinsa, bas, Allohning zikriga shoshiling va savdoni qo'ying. Ana shundoq qilmog'ingiz, siz uchun yaxshidir, agar bilsangiz». Demak, azon aytilayotgan vaqtda ijara ishlari, yoki biror narsani garovga qo'yish va boshqa manfaat keltiradigan ish bilan mashg'ul bo'lish ham man etiladi, sabab juma namozidan qolish xavfi bor. Mazkur to'rtta muhim manba bilan bir qatorda islom huquqida al-istihson (mujtahidning ochiq – ravshan qiyosdan maxfiy qiyosga o'tishi), al-maslahatul mursala (qayddan xoli bo'lgan, hech bir narsaga bog'lanmagan maslahat), urf (kishilar o'rganib, odatlanib qolganliklariga asosan qilib kelayotgan ishlari va so'zlari) ham manba sifatida tan olinadi.

3. Markaziy Osiyoda musulmon madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari

Ilmiy-falsafiy adabiyotlarda islom dini tarqalgan hududlar va unga e'tiqod qilgan xalqlar madaniyatini yaxlit qilib, bir ibora bilan «musulmon madaniyati» deb ta'riflash urf bo'ldi. Musulmon madaniyatining shakllanishi, uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr-mulohaza yuritganda quyidagi holatlarga e'tiborni qaratish zarur.

O'rta asr musulmon ziyolilari intellektual imkoniyatlarining ortib borishi bilan, ular nafaqat olam va Xudo borlig'i, balki inson borlig'i, xususan, uning xulq-atvori, xatti-harakatini o'zgartirishga, barkamol inson shaxsini shakllantirishga qaratilgan g'oyalarni bayon eta boshladilar. Shuning uchun ham IX— XII asr musulmon madaniyati, xususan, falsafasi barkamol inson shaxsini qaror toptirish, uning barkamolligi darajasini aniqlash borasidagi fikr-mulohazalari bilan o'tmishdan keskin farq qilar edi.

Bunday tendensiyaning o'rta asr musulmon faylasuflari asarlaridan darhol ilg'ab olish mumkin. Aniqroq qilib aytganda, o'rta asrlar musulmon faylasuflari barkamol inson shaxsini shakl - lantirishda adabiyotning pand-u nasihat janridan ustalik bilan foydalandilar. Pand-u nasihat janriga Unsurulmaoliy Kaykovusning «Qobusnoma» («Nasihatonoma»),

Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xusravning, «Safamoma», Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Navodirun-hikoyat» («Nodir hikoyatlar») asarlarida asos solindi. Shuningdek, IX—X asrlar musulmon faylasuflari barkamol inson g'oyasini shakllantirishda o'rta asrlarda keng tarqalgan adabiyotning munozara janridan ham unumli foydalandilar. Bunday tendensiyaning Ahmadiyning «Sozlar munozarasi», Yusuf Amiriyning «Bang va Chog'ir manzarasi», Yaqiniyning «O'q va Yoy munozarasi» asarlaridan darrov ilg'ab olish mumkin¹⁶⁴.

Musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida Eron, Movarounnahr, Xuroson xalqlarining madaniy an'analarining hissasi ham beqiyos bo'ldi. Chunki, Movarounnahr, Xuroson xalqlari qadimiy madaniy an'analarga boy va ma'naviy mavqei baland edi. Shuning uchun ham, qadimgi Eron va Turon arab xalifaligi tasarrufiga kirgandan so'ng musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida yetakchi o'rinlardan birini egalladi.

Madaniy-ma'rifiy aloqalarning rivojlanib borishi bilan xalifalik hududida yashovchi xalqlar madaniyati biri ikkinchisiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Turli xalqlar madaniyatining bir-biriga yaqinlashuvi, turli madaniyatlarning aralashuvi sodir bo'ldi. Qadimgi Hind, Xitoy, Yahudiy, Eron va Turon, Yunon xalqlari madaniyati qo'shib-qorilib ketdi. Ana o'sha yaqinlashuv, ana o'sha aralashuv oqibatida, jahon sivilizatsiyasi tarixida «Musulmon madaniyati»¹⁶⁵ deb nomlangan mutlaqo yangi madaniyat vujudga keldi.

Musulmon madaniyati vujudga kelishi bilan ilm-fanda, adabiyotda va san'atda, madaniy-ma'rifiy aloqalarda uyg'onish, jonlanish, ko'tarinkilik, ya'ni musulmon renessansi sodir bo'ldi. Ayniqsa, Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan, ma'naviy-ma'rifiy sohada tub sifatiy o'zgarishlar ro'y berdi. Yevropa mamlakatlarida Renessans XIII—XV asrlarda sodir bo'lgan bo'lsa, Sharq mamlakatlarida bunday qudratli voqea IX—XII asrlarda ro'y bergan edi.

¹⁶⁴ Mahmudov M. Komil inson ajdodlar orzusi. Toshkent, 2002, 156—157-betlar.

¹⁶⁵ Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent, 1994, 11-bet.

Musulmon renessansi o'zining shakllanishi va rivojlanishi jarayonida ikki yirik bosqichni bosib o'tdi. Musulmon renessansi birinchi bosqichining o'ziga xos xususiyati ratsionalizm rivojlanib boiganligi bilan xarakterlanadi. Aniqroq qilib aytganda, IX—XII asrlarda musulmon madaniyati, xususan, uning mag'zi hisoblangan musulmon falsafasida, fikrlash madaniyatida ratsionalizm ustuvorlik qila boshladi. Aql dalillariga, xususan, flkriy quwatga tayanish avj oldi. Aqlga erk berish, shubhasiz, aqidaparstlikning burdini ketkazar edi. Inson borlig'idagi g'ayriinsoniy illatlarni aql imkoniyatlaridan foydalanib bartaraf etish mumkinligiga ishonch hosil bo'la boshladi. Aqlni ulug'lash o'rta asr musulmon madaniyatining, xususan, falsafasining o'ziga xos xususiyati edi.

Ratsionalizm musulmon olimlariga erkin fikrlash uchun real imkoniyat yaratdi. Xuddi shuning uchun ham ratsionalizm sharqona hurfikrlilikning nazariy asosi vazifasini bajardi. Ana shunday nazariyaga suyangan ilg'or musulmon faylasuflari nafaqat olam borlig'i, hatto Xudo borlig'i muammolarini ham aql dalillari chig'irig'idan o'tkazib tahlil qila boshladilar. Aql dalillariga tayangan musulmon allomalari olam va odam muammolarini o'rganib, umumbashariy yutuqlarga erishdilar. Diniy fanatizmni qattiq tanqid qildilar. O'rta asr musulmon madaniyati yutuqlariga suyanib fikr-mulohaza yuritgan faylasuflar odam va olam orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmining sir-u asrorlarini aql imkoniyatlari yordamida o'rganib, odam bisotida mavjud bo'lgan, hali foydalanilmagan imkoniyatlarni qidirib topishga harakat qildilar. Inson tabiati, uning taqdirini o'zgartirishni orzu qildilar.

O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida musulmon renessansining ikkinchi bosqichi XIV—XV asrlarda ro'y berdi. Musulmon renessansining ikkinchi bosqichi birinchisidan farqli o'laroq Movarounnahr va Xuroson bilan chegaralanib qoldi. Bunday qudratli o'zgarishning ro'y berishi Temur va temuriylar sulolasining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi bilan dialektik aloqador edi.

Temur va temuriylar hukmronlik qilgan davr Eron, Movarounnahr, Xuroson tarixida alohida ahamiyatga ega. Bu davrda musulmon madaniyati yangi bosqichga ko'tarildi. Mug'ul bosqinchilari tomonidan

xonavayron qilingan shahar va qishloqlarga fayz kira boshladi. Madrasalar, masjidlar, kutubxonalar tiklandi, karvonsaroylar ishlay boshladi. Ilm-fan rivojlandi. Mamlakat poytaxti Samarqandga minglab olimlar, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar, xattotlar, me'morlar, musavvirlar boshqa yurtlardan ko'chirib keltirildi. Mamlakatda islom dinining obro'-e'tibori kundan kunga oshib bordi. IX—XII asrlar musulmon madaniy merosini o'rganish va uni qayta tiklash harakati avj oldi.

Barkamol insonni ulug'lovchi tasavvuf Eron, Movarounnahr, Xuroson madaniy-siyosiy hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yirik diniy-falsafiy ta'limotga aylandi. Xuddi shu davrga kelib, tasavvuf davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Tasavvuf nafaqat barkamol insonni shakllantirish, balki fuqarolarni yagona davlatga birlashtirishda, xalqlar o'rtasidagi turli nizolarni bartaraf etishda, ularni bir-biriga yaqinlashtirishda, Temur va temuriy shahzodalar uchun yirik g'oyaviy-nazariy qurol vazifasini bajardi.

XIV—XV asrlarda Eron, Movarounnahr va Xurosonda tibbiyot, riyoziyot, xandasa, jug'rofiya, falakiyot, mantiq, adabiyot, falsafa, axloqshunoslik fanlari har tomonlama rivojlandi. Musawirlik, naqqoshlik, xattotlik san'atining mohir ustalari paydo bo'ldi. Miroq Naqqosh (vafoti 1507-y), «Shoh Rafael» nomini olgan Kamoliddin Behzod (1455—1530-yillar) va shoh Muzaffar nomlari el orasida ma'lum va mashhur bo'ldi.

Insonning kundalik quvonchlari, tashvishlarini musiqa ohanglarida ifodalash avj oldi. Bunday holatni XIV—XV asrlarning movarounnahrlik mashhur sozandalari; Abduqodir Nayi, Husayn Udiy, Xoja Yusuf Andijoniy, Mavlono Najmiddin Kavkabiy, Shohquli G'ijjakiy, Darvesh Ahmad Qonuniy, Ustod Shodiy ijodlarida ko'rish mumkin. Bir ibora bilan aytganda, XIV—XV asrlar musulmon madaniyati go'zallikni ulug'lash, go'zal inson qiyofasini tasvirlash avj olganligi bilan IX—XII asrlar musulmon madaniyatidan keskin farq qilar edi.

XIV—XV asrlar musulmon madaniyati kutubxonachilikning ommaviylashayotganligi bilan IX—XII asrlar musulmon madaniyatidan keskin farq qilar edi¹. Buni birgina Movarounnahr, Xuroson misolida yaqqol ko'rish mumkin. Chunonchi, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelishi bilan o'zining ona shahri Keshda (Shahrisabzda) ulkan saroy

kutubxonasi tashkil etdi. O'sha saroy kutubxonasida yunon, lotin, arman, arab, fors va boshqa tillardagi noyob qo'lyozmalarni to'plattirdi. Bu qo'lyozmalarning aksariyat qismi Amir Temurning harbiy yurishlari vaqtida bosib olingan mamlakatlardan olib kelingan edi. Xususan, Turkiya zabt etilgach Bruss shahridagi mashhur antik Pergam kutubxonasining fondi, Armaniston zabt etilganda Gayev monastri qoshidagi universitet kutubxonasining katta qismi ham Samarqandga olib kelindi. Amir Temur kutubxonasidan faqat saroy ahli emas, balki ilm-fanga qiziquvchi barcha kishilar ham foydalandilar.

Temuriylar davrida barcha kitobxonlar foydalanishi mumkin bo'lgan jamoatchilik kutubxonalari ham bor edi. Bulardan biri taniqli shayx Muhammad Pars tomonidan XV asr boshlarida Buxoroda tashkil etildi. Shuningdek, Movarounnahr, Xurosonda yirik olimlar, yozuvchilarning kutubxonalar tashkil etish harakati avj oldi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Kamoliddin Behzodlarning kutubxonalari ana shunday kutubxonalardan edi.

Shunday qilib, XIII asrning boshlari va XIV asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda mug'ullar istilosi tufayli rivojlanishdan to'xtab qolgan musulmon renessansi o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Aniqroq qilib aytganda, XIV asrning 70-yillarida sohibqiron Amir Temur hokimiyatga erishib, Samarqandni poytaxt qilib olgandan so'ng musulmon renessansining ikkinchi bosqichi boshlandi. Temur va temuriylar davrida sodir bo'lgan madaniy-ma'naviy yuksalish, birinchidan, Movarounnahr, Xurosonning mug'ul istilosidan qutilishi, markazlashgan mustaqil davlatning ya'ni yagona boshqaruv tizimining vujudga kelishi, bu o'lkalarda tinchlik, osoyishtalikning qaror topishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, IX—XII asrlarda ro'y bergan sun'iy ravishda uzilib qolgan musulmon renessansini qayta tiklanishi bilan bog'liq. Uchinchidan, Temur va temuriylar davrida musulmon renessansining yangi bosqichga ko'tarilishi Eron, Movarounnahr, Xurosonda tasawuf g'oyalarining keng tarqalishi, uning davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilishi bilan bevosita bog'liq edi.

Ikkinchi musulmon renessansining eng baland cho'qqisi, mashhur musulmon astronomi, davlat arbobi Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq.

Shuning uchun XV asr Sharqda ham G'arbda ham «Ulug'bek asri» deb yuritiladi. Chunki Ulug'bek zamonasida ilm-fan rivojiga e'tibor kuchaydi. Samarqandda ko'p madrasalar qurildi. Idigu Temur, Qutbiddin Sadr, Amir shoh Malik, Bibixonim madrasalarining bunyod etilishi bunga dalildir. Shuningdek, Buxoro, G'ijduvon shaharlarida ham madrasalar qurildi: Madrasalar sonining oshib borishi diniy va dunyoviy ilmlarning uyg'unlashib borishi uchun real imkoniyat yaratdi.

Xullas, musulmon madaniyatining eng muhim xususiyati Sharq mamlakatlari, xususan, Movarounnahr va Xurosonda diniy, dunyoviy ilmlar baravar rivojlanib borganligi bilan xarakterlanadi. Ilm-fan, san'at, adabiyot, falsafa, dinshunoslikka oid asarlar uch tilda: arab, fors-tojik va turkiy tillarda yaratildi. Boshqacha aytganda, musulmon madaniyatining tili uch til edi. Xuddi shuning uchun ham, musulmon madaniyatining yana bir xususiyati ko'ptillilikdir.

Musulmon madaniyatining o'ziga xos eng muhim xususiyati, u o'zining kuchli gumanistik xarakteri, odamlarni yaxshilig-u savob ishlar qilishga, do'st-u birodarlikka da'vat etishi, bilimni, ilmni, aqlni, ma'naviyat-u ma'rifatni e'zozlashi, e'tiqodimon, halollikni qadrlashi bilan xarakterlanadi. Aniqroq qilib aytganda, o'rta asr musulmon madaniyati, ayniqsa, falsafasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri insonning insoniyligini, ya'ni uning barkamolligini ifodalovchi mezonlar sistemasini yaratishga qaratilganligidir.

Musulmon madaniyatining ko'zgusi bo'lgan adabiyotda, xususan, she'riyatda falsafiy she'r yozish avj oldi. Bunday tendensiyaning o'rta asr adabiyotidan darhol ilg'ab olish mumkin. Xuddi shuning uchun ham o'rta asr musulmon adabiyoti falsafiy she'riyatning rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Musulmon madaniyati «Osiyo daryolari kabi qumliklaiga singib ketib, o'z qobig'idan chiqolmay nomsiz-nishonsiz yo'qolgan»¹⁶⁶ emas. Aksincha, Yevropa madaniyatining rivojlanishi uchun asos Vazifasini bajardi. Aniqroq qilib aytganimizda, XIII—XV asrlarda sodir bo'lgan Yevropa Renessansini tayyorladi. Musulmon madaniyati tufayli jaholat

¹⁶⁶ Чаяоян В.К. Восток и Запад. М., 1979, 150-151-betlar. Iqtibos N.Komilovning «Tafakkur karvonlari» (Toshkent, 1999, 57-bet) kitobidan olindi.

changalida bo'lgan Yevropaning bir qator mamlakatlarida ilm-ma'rifat chirog'i yoqildi. Yevropa mamlakatlarida yashovchi birorta xalq madaniyat-ma'rifatning tamal toshi hisoblangan o'z yozuvini o'zi kashf etgan emas. Chunonchi, ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan. Shimoliy, G'arbiy va Sharqiy Yevropa madaniyati yunon-rum-arab urug'idan unib chiqqan¹⁶⁷.

Musulmon madaniyati tufayli Yevropa xalqlari qadimgi Misr va Vavilon, Hind va Xitoy, Eron va Turon xalqlari madaniyati, ilm-fani yutuqlari bilan tanishdilar. Sharq xalqlari adabiyoti, san'atining inson ruhiy-ma'naviy qiyofasiga ko'rsatayotgan ta'sir mexanizmining uslublari va usullarini o'iganib oldilar. Sharq allomalari, xususan, faylasuflari asarlarida bayon qilingan eng ilg'or falsafiy g'oyalar, olam va odam borlig'i to'g'risidagi qarashlarni qabul qilib oldilar va uni yanada rivojlantirdilar. Sharqda yaratilgan insonparvarlik va adolatparvarlik g'oyalari har tomonlama boyitildi¹⁶⁸.

Odamlarning kundalik turmush tarzlari, ayniqsa, fikrlash madaniyatidagi o'zgarishlar ham, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi faollik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik, bunyodkorlik hissining ortib borishi ham, yangilik tomon intilishning kuchayishi ham musulmon madaniyati ta'sirining oqibati edi¹⁶⁹. Shuning uchun ham musulmon madaniyati, xususan, falsafasining G'arbga ko'rsatgan ta'siridan ajablanmaslik, taajjubdan yoqa ushlamaslik darkor¹⁷⁰. Afsuski, zamonlar o'tishi bilan musulmon madaniyati erishgan yutuqlarni, hatto Sharq olimlari, xususan, faylasuflarining olam va odam borlig'i haqidagi fikr-mulohazalarini G'arb

¹⁶⁷ Гердер Г. Идеи к философии истории человечества. М., 1977, 473—477-бетлар. Iqtibos N.Komilovning «Tafakkur karvonlari» (Toshkent, 1999, 59-bet) kitobidan olindi.

¹⁶⁸ Musulmon madaniyati, xususan falsafasining G'arb madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirini yevropalik tadqiqotchilar: N.Konrad, I.Krachkovskiy, I.Orbeli, Adam Mets, V.Jirmunskiy, I.Braginskiy, P.Grinsler, B.Riftin, A.Sagadeev, S.Grigoryan, V.Chaloyan, J.Sarton, J.Timson, M.Rojenskaya, o'zbekistonlik tadqiqotchilar: I.Mo'minov, V.Zohidov, S.Tolstov, M.Xayrullayev, F.Sulaymonova, N.Komilov, A.Qayumov, M.Shohidiy, P.Bulgakov, Sh.Shomammedovlar har tomonlama isbotlab berdilar.

¹⁶⁹ Чалоян В.К. Восток и Запад. М., 1979, 476-бет.

¹⁷⁰ Менендес Пидаль. Избранные произведения. М., 1961, 484-бет.

olimlari «o'zlariniki» qilib olaboshladilar. Hatto musulmon olimlarining ismi shariflariga yevropacha nom berish urf bo'ldi. Chunonchi, Ahmad Fargʻoniy, yevropalik o'quvchilarga «Alfaragnus», Abu Ali ibn Sino esa «Avitsenna», Ibn Rushd «Averroes», deb tanishtirildi.

Yevropani ulug'lovchi-yevropatsentrizm tarafdorlari, Sharqda allaqachonlar erishilgan ilm-fan, ma'naviyat-ma'rifat yutuqlarini tan olgisi kelmas edi. Ular Yevropada sodir bo'lgan Renessans voqeasini tashqi ta'sirsiz sodir bo'lgan, faqat Yevropa ilm-fan, madaniyat beshigi, deb ayuhannos solar edilar. Shunday qilib, Yevropada o'z xalqi madaniyatini ilohiylashtirish, boshqa xalqlar madaniyatini mensimaslik illatlarining ildizlari uzoq-uzoqlarga — o'rta asrlarga borib taqaladi. Lekin vaqtning o'zi adolatli hakam, deganlaridek g'arbning ilg'or olimlari musulmon madaniyatining Yevropaga ko'rsatgan ta'sirini zukkolik bilan ilg'ab olaboshladilar. Chunonchi, rus sharqshunos olimlaridan biri S.S.Uvarov, «Barcha dinlar, hamma fanlar, butun falsafa Osiyodan kelib chiqqan, faqat Osiyogina ma'naviy dunyoning barcha katta xazinalarini paydo qiluvchi ajoyib zakovatni o'zida saqlab qolgan; bu yerda biz umumiy bilimlarning yaxlit va haqiqiy manbaini topa olamiz»¹⁷¹, deb yozgan edi. Bir ibora bilan aytganda, G'arbdagi uyg'onish musulmon renessansining yuksak darajada takomillashgan shakli edi.

4. Islomdagi oqimlar ta'limotlarining farqlari tahlili

Sunniylik siyosiy oqimi(“Sunna” soʻzidan olingan boʻlib, asl islom anʼanalari tarafdorlari degan maʼnoni bildiradi) – tarafdorlari oʻzlarini ahl as-sunna, yaʼni sunna ahli deb ataydilar va Muhammad paygʻambar (s.a.v.)ning shialar tomonidan buzilayotgan anʼanalariga faqat bizgina amal qilyapmiz, deb hisoblaydilar. Islomning Muhammad (s.a.v.) davridayoq shakllangan ta'limotining toʻgʻriligini, Sunnani (Hadisni) Qurʻondan keyingi ilohiyoti va shariatning ikkinchi manbai deb tan olgan, islomning anʼanaviy diniy marosimlariga, maishiy, ijtimoiy qoidalariga amal qiladigan har bir musulmon sunniy hisoblanadi. Bugungi kunda sunniylar butun jahon musulmonlarining asosiy qismini tashkil etishadi.

¹⁷¹ Вестник Европы, 1811, ч.55, №1, 47-bet. Iqtibos, N.Komilovning «Tafakkur karvonlari» (Toshkent, 1999, 264—265-betlar) kitobidan olindi.

Sunniylikning belgilari:

1. Iymon shartlari 7 ta aqidaga asoslanishi:

1) Allohga ishonish: Alloh dunyodagi barcha mavjudotlarni yaratgan.

2) Farishtalarga ishonish: farishtalarning mashhurlari: Jabroil, Mikoil, Isrofil, Azroil.

3) Payg'ambarlarga ishonish. Qur'onda 25 payg'ambarning ismlari zikr etilgan. Payg'ambarlar 2 xil: a) rasullar; b) nabiylar.

4) Muqaddas kitoblar (Alloh taoloning kitoblari)ga ishonish. Alloh taolo payg'ambarlarga 100 sahifa va 4 kitob yuborgan. 100 sahifa Odam, SHis, Idris, Ibrohimga, 4 kitob esa Muso, Dovud, Iso va Muhammad (s.a.v.)ga yuborilgan.

5) Oxiratga ishonish. O'lgan bandalar go'rga qo'yilgandan so'ng, go'rlarga Munkar va Nakir ismli 2 farishta kirib, ularni so'roq qiladi...

6) Taqdirga ishonish.

7) Qiyomat kuniga ishonish.

2. Islom ta'limotida "Islom arkonlari", 5 ta Islom ustunini tan olish:

a) Kalima keltirish: Kalimai ibodat; Kalimai shahodat.

b) Namoz o'qish.

c) Ro'za tutish.

d) Zakot berish.

e) Haj qilish (imkoni bo'lsa).

3. Dastlabki 4 Xalifa hokimiyatini tan olish:

a) Abu Bakr Siddiq (r.a-raziyallohu anhu);

b) Umar (r.a);

c) Usmon (r.a);

d) Ali (k.v – karramallohu vajhahu)

4. Oltita hadis to'plamini ishonchli(sahih) deb bilish:

a) Buxoriy;

b) Muslim;

c) Termiziy;

d) Abu Dovud;

e) Nasoiy;

f) Ibn Moja.

5. 4 ta diniy-huquqiy mazhabni tan olish:

- a) Hanafiylik
- b) Molikiylik.
- c) Shofiylik.
- d) Hanbaliylik.

Shialik(arab, gurux, tarafdorlar, partiya, ya'ni Alining guruhi degan ma'noni anglatadi) – islomdagi ikkinchi yo'nalishdan biri. Ali va uning avlodini Muhammad(s.a.v) payg'ambarning birdan-bir qonuniy vorislari deb tan olinadigan turli yo'nalish va sektalarning umumiy nomidir. O'zining tarqalishi va ijtimoiy-siyosiy mohiyati jihatidan sunniylikdan keyingi o'rinda turadi. Jahondagi musulmonlarning taxminan 8% i shialikka mansub. Shialik VII asr o'rtalarida xalifa Ali ibn Abu Tolib (k.v. –karramallohu vajxaxu) hokimiyati tarafdorlaridan iborat guruh sifatida vujudga kelgan.VII asr oxiriga kelib Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo'nalishga aylangan.

Shialikning belgilari:

1. Shialikdagi 5 aqida

1) Allohning yagonaligi (ya'ni tavhid).

2) Adolat(adl)ga ishonish, ya'ni taqdir aqidasiga.

3) Oxirat(qiyomatga) va o'lganlarning tirilishiga ishonish.

4) Payg'ambarlik(Nubuvvat)ka ishonish.

5) Imomatga(imomlar hokimiyatini e'tirof etish) ishonadi. Ali avlodlariga aloqador “abadiy ilohiy nur”ning namoyon bo'lishidir, ular ilohiy mohiyatga, beayb va g'ayriinsoniy bilimga ega.

2. Shialar aqidasiga binoan, “imomlar” oddiy insonlar jumlasidan bo'lmay, quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladilar:

1) Faqat Muhammad payg'ambarning(s.a.v.) qizlari Fotimadan tug'ilgan zotlar va ularning bolalari Payg'ambar oilasi hisoblanib, imomlik vakolatining haqiqiy va qonuniy egalaridirlar.

2) Imom Payg'ambar emas. Ammo Payg'ambar bilan oddiy insonlar o'rtasida turadi.

3) Imom har qanday gunohlardan pok bo'lib, hech qachon gunoh va xato qilishi mumkin emas.

4) Imom barcha bo'lib o'tgan va qiyomat kunigacha yuz beradigan ishlardan ilhom orqali voqifdir.

5) Qur'onni tafsir qilish faqat imomga xosdir.

3. Shialarga, ayniqsa, ja'fariya mazhabiga xos bo'lgan bir qator xususiyatlar:

1) Imomat – davlat boshqaruvini imomlarga xos deb ishonish.

2) Qur'onni va undan keyin o'z imomlari tomonidan rivoyat qilingan hadislarni asosiy manba sifatida qabul qilib, ijmo' va qiyosni rad etish.

3) Ayrim namozlarni bir vaqtda qo'shib o'qish.

4) Tahorat qilishda oyoqlarni yuvmasdan unga mash tortish.

5) Vaqtincha nikohni qonuniy deb bilish (Eron Islom Respublikasida).

6) Taqiya, ya'ni xavfli joylarda o'z e'tiqod va mazhabini yashirish.

7) Azon aytishda “ashhadu anxa Aliyan vali-yulloh” (guvohlik beraman Ali Allohning valiyasi, ya'ni do'stidir) iborasini qo'shib aytish.

8) Nasroniy va yahudiy ayollarga uylanish harom deb bilish. Shuningdek, taloq 2 odil kishi guvohligida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

Xorijiylar (arab. – ajralib chiqqan, isyonchi) – islomdagi ilk radikal oqim tarafdorlari. Xalifa Ali (k.v.) bilan ummaviylar o'rtasidagi kurash davomida VIII asr ikkinchi yarmi boshlarida vujudga kelgan. Ular o'z saflariga qo'shilmaganlarni “dindan qaytgan” deb ayblab, ularga qarshi murosasiz kurash olib borgan diniysiyosiy oqim.

Umaviy va abbosiy xalifalar VII-IX asrlarda xorijiylarga qarshi kurash olib borib, ularni qirib tashlagan. Ularning qolganlari Shimoliy Afrikada o'z davlatini vujudga keltirgan. Xorijiylar xalifalikdagi ko'pgina qo'zg'olonlarda (Zinjiylar, Abu Muslim qo'zg'oloni) qatnashgan. Hozirgi davrda xorijiylarning ibodiylar firqasi G'arb mamlakatlari (Jazoir, Tunis va boshqalar)da, Ummon, Tanzaniyada uchraydi¹⁷².

Xorijiylar belgilari

1. O'zlarini haqiqiy musulmon deb hisoblagan va “dindan qaytgan”larga nisbatan murosasiz bo'lgan.

2. Xorijiylar ta'limotiga ko'ra, xalifa diniy jamoa tomonidan saylanadi va jamoaga bo'ysunadi.

¹⁷² Islom. Insiklopediya. –T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -547 -bet.

3. Har qanday taqvodor musulmon(qul, qora tanli bo'lsa ham) xalifa bo'lib saylanishi mumkin.


4. Agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo'shatiladi va hatto qatl qilinadi.

5. E'tiqodni amaliy faoliyat bilan mustahkamlash lozim, deydi.

6. E'tiqod, gunohlar kishilarni jazolash masalalarida murjiylar qarama-qarshi turgan.

5. Tasavvuf – ijtimoiy-falsafiy qarashlar sifatida talqini

Tasavvuf(so'fiylik) – islomda insonni ruhiy va axloqiy komillik sari yo'llovchi ta'limot. 30 dan ortiq tasavvuf(ya'ni so'fiylik) tariqatlari mavjud. Tasavvuf atamasi(so'fiylik qiluvchi) tasavvuf izidan boruvchi so'zlaridan kelib chiqqanligi haqida turli taxminlar mavjud. Tasavvuf, suvf – jun, po'stin so'zidan olingan. Ilgari zamonda tarki dunyo qilgan zohid, o'zini Xudoga bag'ishlagan odam, odatda, dag'al jundan kiyim kiyib yurgan. Tasavvufga(so'fiylikka) asos solgan tarkidunyochilik islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'lgan. Muhammad(s.a.v.)ning ayrim safdoshlari Abu Dardo, Abu Zarr, Huzayra ibn Yamon va boshqalar shunday kayfiyatda bo'lgan. Islomda zohidlik oqimi VII asr o'rtalari va IX



asr boshlarida shakllangan. So'fiylik(tasavvuf) namoyondalari Qur'on oyatlari mazmuni ustida mushohada qilish, ilohiy kitob va Muhammad (s.a.v.) hadislari ko'rsatmalariga qat'iy rioya qilgan. Bog'dod va

Xurosonda so‘fiylik maktablari mavjud bo‘lgan. Inson va uning Xudoga munosabati qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi ta’limotni yaratgan.

Naqshbandiylik – tasavvuf tariqatlaridan biri Bahouddin Naqshband (1318-1389) Buxoro viloyati Kogon tumanida tug‘ilgan, naqshbandiya tariqati asoschisi. Abdul Xoliq G‘ijduvoni hamda Bahouddin Naqshband tomonidan yaratilgan, keyinchalik “Naqshbandiya” tariqati deb nom olgan tamoyillar 11 nomdadir.

1. Hush dar dam – har bir nafasni hushyorlik bilan olish.
2. Nazar bar qadam – har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosish.
3. Safar dar vatan – o‘z vatanida, uyida bo‘la turib fikran va zikran butun borliq haqida tafakkur yuritish.
4. Xilvat dar anjuman – o‘zi xalq ichida anjumanda bo‘la turib, xilvatda o‘tirgandek Allohning zikrida bo‘lish.
5. Yod kard – til va dil bilan zikr qilish.
6. Boz gasht – zikr paytida xotirni parishon qilmay, Allohning yodida bo‘lish.
7. Nigoh dosht – bir nafasda “Kalimai tayyiba”ni dil huzuri bilan tilda takror qilish.
8. Yod dosht – Allohni mudom yod etib, g‘aflatdan saqlanish.
9. Vuqufi zamoniyy – o‘z holidan ogoh bo‘lib, shukr va uzrda bo‘lish.
10. Vuqufi adadiy – zikrlarda muayyan adadga rioya qilish.
11. Vuqufi qalbiy – dilni Alloh zikri bilan ogoh qilish.

Naqshbandiylikning asosiy mohiyati “Qo‘l ishda, Alloh dilda bo‘lsin”, ya’ni “Dil ba yoru, dast ba kor” shiori edi.

Yassaviylik tariqati. Xoja Ahmad Yassaviy (1105-1166) Sayramda (Qozog‘istonning Turkiston viloyati) dunyoga kelgan. Yassaviylik – tasavvufdagi tariqatlardan biri. Yassaviy turkiyzabon shoir sifatida ham mashhur. Yassaviy tasavvufda “Yassaviya” tariqatiga asos solgan. Yassaviy tariqatining barcha aqidalari uning asari “Hikmat”da bayon etilgan. Yassaviy ta’limotidagi poklik, halollik, to‘g‘rilik, mehr-shafqat, o‘z qo‘l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan insonni ham botinan, ham zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg‘or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Yassaviy mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmagan, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lgan. Yassaviy zamonining ezilgan toifasi "g'arib", "etim", "faqir"larning homiysi deb hisoblaydi. Mol-dunyo, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni beayov tanqid qilgan. Yassaviy ta'limotida insonning o'zligini bilishni ustun qo'yadi. O'zini bilsa yerdi Haqni biladi, Xudodan qo'rqadiyu, insofga keladi. Lekin, Haqqa yetishish oson emas, uning o'ziga xos qiyinchiliklari bor. Yagona to'g'ri yo'l, u aslida Xudo yo'lidir. Har bir inson komil inson bo'lib yetishishida "shayton vasvasasi"dan qutilish uchun o'z jonini ham, mol-mulkini ham ayamasi lozim.

Kubraviylik – tasavvuf tariqati. XIII asr boshida Xorazmda Najmiddin Kubro(1145-1221) asos solgan Kubroviya tariqati. Kubro buyuk vatanparvar inson edi. U 1221-yilda Xorazmga hujum qilgan Chingizxon qo'shinlariga qarshi jangda shahid bo'ladi. Uning aqidasi ko'ra, inson "olami sug'ro", ya'ni kichik olam bo'lib, unda "olami kubro"ning ya'ni katta olamning barcha xususiyatlari mujassamdir. Kamolotga erishish uchun inson ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishi zarur. Buning uchun har bir kishi quyidagi 10 asosga tayanmog'i kerak:

1. **Tavba** – barcha amallarning ibtidosi. Tavba qilgan kishi o'z gunohlarini anglab etadi.

2. **Zuhdi** – bu taqvo, parhez demakdir. Tavba qilgan kishi haromdan hazar qiladi. Man etilgan ishlarni qilmaydi.

3. **Tavakkul** – o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz, Allohga suyanish demakdir.

4. **Qanoat** – kamolotning eng maqbul yo'li, oznarsa bilan cheklanish, hirsdan yuz o'girish.

5. **Uzlat** – tanholikda ruhni mustahkamlashdir.

6. **Tavajjuh** – butun ichki mohiyatni Allohga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. Murid hamma vaqt yaratganga yuzlanib, undan madad so'rab, unga qalban intilmog'i kerak.

7. **Sabr** – muridlarning toqat va bardoshini sinashdir. Haq yo'li og'ir va mushkul yo'l, uning azobu izzatlariga chidagan kishilargina maqsadga erishadilar.

8. **Muroqaba** – tafakkurga g'arq bo'lish demakdir va ma'rifatini oshirib borish.

9. **Mulozamat az-zikr (uzluksiz zikr)** – bu o'z xohishicha Allohning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbini u bilan band qilish. SHunday qilganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikki yuzlamachilik kabi razilliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.

10. **Rizo.** Murid o'zini butunlay Alloh irodasiga topshiradi va Alloh zikri bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u Haqqa yaqinlashadi. Najmiddin Kubroning tasavvufdagi yana bir buyuk xizmati – uning javonmardlik g'oyalari tariqatga joriy etganligidir.

Shunday qilib, tasavvuf o'rta asr musulmon falsafasining eng yirik yutug'i bo'lib, insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti to'g'risidagi ta'limotdir. Bu ta'limot musulmon falsafasi va axloqi zaminida vujudga keldi. Lekin musulmon falsafasi va axloqi yutuqlari bilan chegaralanib qolgani yo'q, balki jahon ilm-fani yutuqlariga tayandi. Xususan, Hind, Xitoy, Eron, Turon va Yunon madaniyati xazinasidan bahramand bo'ldi. O'z navbatida, musulmon madaniyati, xususan, falsafasiga yangi ma'no, yangi mazmun ato etdi. Uni demokratlashtirdi. Nafs, mol-u dunyo, ta'ma va shahvoniy hirs qurbonlariga, shon-shuhrat, mansab va amal shaydolariga, ikkiyuzlamachi, riyokor taqvodorlarga shafqatsiz zarba bo'ldi.

Tasavvuf har qanday aqidaparastlikdan ustun turadigan ta'limotdir. Aqidaparastlik, mazhabparastlik insonning ruhiy-ma'naviy olamini toraytiradi, zaiflashtiradi. Tasavvuf ta'limotining bilimdoni, professor Najmiddin Komilov ta'kidlaganidek, insonni muayyan bir sxolastik tushunchalar kishaniga solib qo'yadi¹⁷³. Xuddi shuning uchun ham tasavvuf mazhablari orasida sodir bo'lgan turli bahs, munozaralarni ma'nosiz, behuda qilingan sa'y-harakatlardir, deb qaraydi. Musulmonlarni ushbu haqiqatni anglab olishga va yagona sunniylik g'oyalari atrofida birlashishga da'vat etadi. Tasavvuf gumanizmining umumjahon ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga aylanib ketishining asosida ham xuddi shu haqiqat yotadi.

¹⁷³ Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. Birinchi jild. Birinchi kitob. Toshkent, 1999, 5—13-betlar

Tasavvufning jahon ma'naviy madaniyati xazinasiga qo'shgan eng muhim hissalaridan biri — uning taqlidchilik, zohirbinlikning jaholat ekanligini isbotlab berganidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Qur'oni Karim. Toshkent, 1992, 101, 181-betlar.
2. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Toshkent, 1994, 21-bet.
3. Abulg'oziy Bahodir xon. Shajarai turk. Toshkent, 1994, 19-bet.
4. Ислom. Справочник. Тошкент, 1989, 298—301-betlar.
5. Abdulvahhob Xalloy. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. — T.: 1997. — 30—31-betlar.
6. Abdulvahhob Xalloy. Usulul fiqh (islom qonunshunosligi asoslari). Birinchi, ikkinchi qismlar. — T.: 1997. — 36-betlar.
7. Mahmudov M. Komil inson ajdodlar orzusi. Toshkent, 2002, 156—157-betlar.
8. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent, 1994, 11-bet.
9. Чаяоян В.К. Восток и Запад. М., 1979, 150-151-betlar. Iqtibos N.Komilovning «Tafakkur karvonlari» (Toshkent, 1999, 57-bet) kitobidan olindi.
10. Гердер Г. Идеи к философии истории человечества. М., 1977, 473—477- betlar. Iqtibos N.Komilovning «Tafakkur karvonlari» (Toshkent, 1999, 59-bet) kitobidan olindi.
11. Чалоян В.К. Восток и Запад. М., 1979, 476-bet.
12. Менендес Пидаль. Избранные произведения. М., 1961, 484-bet.
13. Вестник Европы, 1811, ч.55, №1, 47-bet. Iqtibos, N.Komilovning «Tafakkur karvonlari» (Toshkent, 1999, 264—265-betlar) kitobidan olindi.
14. Islom. Insiklopediya. —T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -547 -bet.
15. Jaloliddin Rumiy. Ma'naviy masnaviy. Birinchi jild. Birinchi kitob. Toshkent, 1999, 5—13-betlar

MAVZU YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Muhammad(s.s.v) vafot etganlaridan so‘ng uning fikr-mulohazalari kimning ko‘rsatmasiga asosan to‘plangan?

- A) Xalifa Usmon
- B) Xalifa Abu Bakr
- C) Xalifa Umar
- D) Xalifa Ali

2. Qur’onda oyatlarning ketma-ketligi nimaga qarab belgilangan?

- A) Ma’nosiga
- B) Nozil qilingan vaqtiga
- C) Alifbo ketma-ketligida
- D) Hajmiga

3. Qur’onning ilohiy qonun deb qarashlariga dalil ekanligining sababi nimada?

- A) Payg‘ambarlar yetkazgani uchun
- B) Barcha musulmonlar tan olganligi uchun
- C) Eng katta kitob ekanligi va jamiyatdagi barcha qonuniyatlarni o‘zida mujassam etganligi uchun
- D) Alloh huzuridan kishilarga hech shubhaga o‘rin qolmagan tarzda nozil bo‘lganli uchun

4. Qaysi so‘zning lug‘aviy ma’nosi “qasd qilmoq” degan ma’noni anglatadi?

- A) Jihod
- B) Qiyos
- C) Zakot
- D) Ijmo’

5. «Shoh Rafael» nomiga kim sazovar bo‘lgan?

- A) Kamoliddin Behzod
- B) Nizomiddin Ushiy
- C) Darvesh Ahmad Qonuniy
- D) Mirzo Ulug‘bek

6. ... - «Osiyo daryolari kabi qumliklaiga singib ketib, o‘z qobig‘idan chiqolmay nomsiz-nishonsiz yo‘qolgan» emas. Ushbu o‘xshatish nimaga nisbatan qo‘llanilgan?

- A) Islom huquqi
- B) Rivoyatlar
- C) Musulmon madaniyati
- D) Islom falsafasi

7. Quyida rus sharqshunos olimlaridan biri S.S.Uvarov fikri keltirilgan. Siz nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri javobni belgilang.

«Barcha dinlar, hamma fanlar, butun falsafa ...dan kelib chiqqan, faqat ...gina ma’naviy dunyoning barcha katta xazinalarini paydo qiluvchi ajoyib zakovatni o‘zida saqlab qolgan; bu yerda biz umumiy bilimlarning yaxlit va haqiqiy manbaini topa olamiz»

- A) Osiyo
- B) Yevropa
- C) Yunoniston
- D) Sharq

8. Dastlabki 4 xalifa hokimiyatini ketma-ketlikda belgilang.

- A) 1)Umar (r.a); 2)Usmon (r.a); 3)Abu Bakr Siddiq; 4)Ali (r.a)
- B) 1)Umar (r.a); 2) Ali (r.a); 3)Abu Bakr Siddiq; 4) Usmon (r.a)
- C) 1) Abu Bakr Siddiq; 2) Ali (r.a); 3) Umar (r.a); 4) Usmon (r.a)
- D) 1)Abu Bakr Siddiq; 2)Umar (r.a); 3)Usmon (r.a); 4)Ali (r.a)

9. Islomdagi qaysi oqimlarda agar xalifa jamoa manfaatlarini himoya qilmasa, vazifasidan bo‘shatiladi va hatto qatl qilinadi?

- A) Sunniylik va Xorijiylik
- B) Shialik va Xorijiylik
- C) Faqat Shialikda
- D) Faqat Xorijiylik

10. Tasavvuf ta’limotining 4 bosqichi ketma-ketligini to‘g‘ri ko‘rsating

- A) Shariat, Tariqat, Ma’rifat, Haqiqat
- B) Tariqat, Shariat, Ma’rifat, Haqiqat
- C) Ma’rifat, Tariqat, Shariat, Haqiqat
- D) Haqiqat, Tariqat, Shariat, Ma’rifat

MAVZUGA ALOQADOR GLOSSARIYLAR

Avliyo (arab. valiy soʻzining koʻpligi, xudoga yaqin odam) - tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan oʻzini saqlovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan yuz oʻgiruvchi kishi. Islom anʼanasida A.lar qaysidir bir ishi, xizmati yoki xislati tufayli Allohga yaqin boʻlib qolgan, duolari mustajob, solih, qobil, kamtar kishilardir. A.lar paygʻambarlar darajasidan keyin turadi. A.larning mozorlarini ziyorat qilib ibrat olish islom dinining hanafiylik mazhabida savobli ishlardan hisoblanadi.

Adab (arab.) - tasavvufda tariqatdan saboq beruvchi pir yoki shayx va saboq oluvchi murid yoki solikning rioya qilishi zarur boʻlgan qonun-qoidalar. Shayxlar va soliklar A.i xususida koʻplab asarlar yozilgan.

Adl ("adolat", "toʻgʻrilik") - 1) adolat va toʻgʻrilik nuqtai nazaridan shaxsni axloqiy baholash tushunchasi. Qurʼoni karimda A.-yaxshilik uchun ham, yomonlik uchun ham birday adolatli hukm chiqaruvchi Allohning sifatlaridan biri. Biroq Allohning A.i -inson ongi, tafakkuri anglab yetmaydigan darajadagi oliy adolat. Shu tufayli inson Allohdan adolat qilishni emas, raxm-shafqat qilishni soʻrab iltijo qilishi lozim. Insonga nisbatan A. - bu birovga nisbatan yomonlik (jabr) qilish niyati borligani payqab olish va uni bartaraf etish imkoniyati, shuningdek umumiy maʼnodagi adolat tushunchasi. Gʻazoliy A.ni ehson ("chin koʻngillik", "vijdon") tushunchasi bilan birgalikda qoʻllaydiki, bular "adolat va vijdon" maʼnosini anglatgan. Davlat xizmatidagi biror mansabga daʼvogar yoki biron-bir muhim jamoatchilik majburiyatlarini, chunonchi: vasiylik, vakillik, guvoxdik va b.ni bajaruvchi har qanday shaxsda A. boʻlishi lozim. Birovga jabr qilmagan, gʻayriaxloqiy (fisq, fujur) harom yoʻllarga yurmagan har qanday musulmon odil, yaʼni A.i bor kishi deb qaraladi. Bu sifatlarni yoʻqotganlar (fosiqlar) agarda solih amallar bajo keltirib tavba qilsalar va shundan soʻng haqiqiy musulmonga xos hayot kechirsalar A.ni tiklashlari, unga erishishlari mumkin. 2) shialikdagi 5 aqidadan biri.

Ajam (arab. - arab emas) - arablardan boshqa Sharq xalqlarining umumiy nomi. Shuningdek, arablar yashaydigan Sharq mamlakatlari, xususan, Turon, Eron .ham "Mulki ajam" deb yuritilgan. Bu yerlardan

yetishib chiqqan olimlar "ajamiy" deb atalgan. Keyinchalik A. nomi faqat eronliklarga nisbatan qo'llanilgan, Eronni esa, A. yoxud Ajamiston deb ataganlar.

Ajr (arab. - to'lanadigan haq, mukofot) - islomdagi tushuncha. Qur'onga ko'ra, odamlar bu dunyodaga yaxshi ishlari uchun oxiratda A. ini topadi, ya'ni nasib etgan mo'minmusulmonlarga savobli ishlari evaziga turli maqom va martabalar, nozu ne'matlar beriladi.

Azroil - islom dinida to'rt bosh farishtadan biri (Jabroil, Mikoil va Isrofil bilan birga), jon oluvchi farishta. Rivoyatlarga ko'ra, A. dastlab oddiy farishta bo'lgan, Alloh Odamatoni yaratish uchun farishtalarni yerdan tuproq olib kelishga yuboradi. Yer qarshilik ko'rsatadi va farishtalar undan bir siqim ham yulib ololmaydilar. Bu ishni faqat A. bajarganligi sababli u o'limdan ustun turuvchi farishta deb hisoblangan. A. taqvodorlarning jonini oson, gunohkorlarning jonini esa qiynab oladi degan fikrlar mavjud.

Al-Asmo Al-Husno (arab. - go'zal ismlar) - Allohning ismlari. Mazmunan uning sifatlari, fazilatlarini ifodalaydi. Qur'onda Allohni shu ismlar bilan yodga olish buyuriladi: "Allohning go'zal ismlari bordir. Bas, uni o'sha ismlar bilan chorlanglar (yod etinglar)" ("A'rof" surasi, 180-oyat); "Alloh, deb chorlangiz, yoki Rahmon - Mehribon, deb chorlangiz. Qanday chorlasangizlar-da (joizdir). Zero, U zotning go'zal ismlari bordir" ("Al-isro" surasi, 110-oyat). Bu ismlar - 99 ta. Ular musulmon ilohiyotida muhim o'rin tutadi. Alloh ismlari ko'p duolarda qo'shib aytiladi. Odatda tasbih donalari soni Alloh ismlari soni bilan tengdir. Hamma ismlar Qur'onning turli joylarida uchraydigan Alloh sifatlaridan kelib chiqadi va ular bilan bog'langan fe'llaridan hosil bo'lgan. Bu ismlar va ularning mazmuni quyidagicha: 1. Alloh - Tangri, Ma'budi bar haq. 2. ar-Rahmon - o'ta mehribon. 3. ar-Rahim - juda rahmli. 4. al-Malik - podshoh. 5. al-Quddus - nuqsonlardan xoli. 6. as-Salom - ofat va balolardan salomat. 7. al-Mu'min - amonli va omon beruvchi. 8. al-Muhaymin - egallab, qoplab oluvchi. 9. al-Aziz - izzat va qudrat sohibi. 10. al-Jabbor - bandalari ishini isloh etuvchi. 11. al-Mutakabbir - kattalik yarashuvchi zot. 12. al-Xoliq - yaratuvchi, vujudga keltiruvchi. 13. al-Bori' — yaratuvchi. 14. al-Musavvir - maxluqot va mavjudotlarga surat va shakl beruvchi. 15. al-

G'affor - bandalarning aybu nuqsonlari va gunohu ma'siyatlarini fosh qilmay yopib turuvchi, kechiruvchi. 16. al-Qahhor - barchani bo'ysundiruvchi, g'olib. 17. al-Vahhob - o'z ne'matlarini tekin ato etuvchi. 18. ar-Razzoq - barcha tirik mavjudot rizqini yetkazib beruvchi. 19. al-Fattoh - kushoyish beruvchi, rahmat xazinalarini ochuvchi. 20. al-Alim - biluvchi, dono, ilm sohibi. 21. al-Qobiz - kimlarningdir rizqini qiyuvchi, ruhlarni qabz etuvchi (oluvchi). 22. al-Bosit - kimlargadir keng rizq beruvchi, ruh baxsh etuvchi. 23. al-Hofiz - kofirlar martabasini tushiruvchi. 24. ar-Rofi' - mo'minlar martabasini ko'taruvchi. 25. al-Muizz - kimlarnidir aziz, qadrli etuvchi. 26. al-Muzill - kimlarnidir xoru zalil qiluvchi. 27. as-Sami' - maxfiy va oshkora gap va sharpalarni, hatto dildan o'tganini ham eshituvchi. 28. al-Basir - hamma maxfiy va oshkora narsalarni ko'ruvchi. 29. al-Hakam - qat'iy hukm etuvchi. 30. al-Adl - o'ta adolatli. 31. al-Latif - bandalariga sezdirmay o'z lutfu ehsonini yetkazib beruvchi. 32. al-Xabir - hamma maxfiy va oshkora ishlardan xabardor. 33. al-Halim - jazolashga shoshmaydigan, yumshoqlik bilan yaxshilik qilib turuvchi. 34. al-Azim - ulug', buyuk, katta. 35. al-G'afur - gunohlarni yashirib, jazo bermay turuvchi. 36. ash-Shakur - oz ishga ko'p mukofot beruvchi. 37. al-Aliy - ulug' martabali, buyuk. 38. al-Kabir - katta, har jihatdan yuqori. 39. al-Hafiz - saqlaguvchi (o'z panohida). 40. al-Muqit - moddiy va ma'naviy oziq beruvchi. 41. al-Hasib - har bir ishga o'zi kifoya qiluvchi. 42. al-Jalil - barcha sifatlari mukammal, ulug' zot. 43. al-Karim - karamli, sahovatli, kechirimli. 44. ar-Raqib - hamma narsani kuzatib, nazorat ostiga olib turuvchi. 45. al-Mujib - duolarni qabul etuvchi. 46. al-Vosi' - mulki, rahmati va qudrati keng zot. 47. al-Hakim - hikmat sohibi. Daqiq va nozik ilmlarni biluvchi. 48. al-Vadud - do'st, xayrixoh, mahbub. 49. al-Majid - ne'mati va ehsoni bepoyon. 50. al-Bois - payg'ambarlar yuboruvchi, o'lgandan keyin qayta tiriltiruvchi. 51. ash-Shahid - hamma narsani bilib, ko'rib turuvchi, guvoh. 52. al-Haq - haqiqatan mavjud zot. 53. al-Vakil - hamma ishlarni o'z zimmasiga, kafolatiga oluvchi. 54. al-Qaviy - haqiqiy quvvat va qudrat egasi. 55. al-Matin - quvvatli, matonatli. 56. al-Valiy - do'stlariga do'st, madadkor. 57. al-Hamid - hamdu sanoga, maqtovga loyiq zot. 58. al-Muhsiy - barcha maxluqot va mavjudotlarning hisob-kitobini yaxshi biluvchi. 59. al-Mubdi' - yo'qdan bor qiluvchi,

yaratuvchi. 60. al-Muid - hayotdan o'limga, o'limdan yana hayotga qaytaruvchi. 61. al-Muhyiy - tiriltiruvchi. 62. al-Mumit - o'ldiruvchi. 63. al-Hay - tirik. 64. al-Qayyum - o'z-o'zidan turuvchi, boshqalarni turg'izuvchi. 65. al-Vojid - xohlagan narsasini topuvchi. 66. al-Mojid - karamli va sharaflı zot. 67. al-Vohid - yagona, bir (xudo-bir). 68. as-Samad - hojatbaror. 69. al-Qodir - qudratli. 70. al-Muqtadir - qudratli, qodir. 71. al-Muqaddim - o'ziga yaqin qiluvchi. 72. al-Muaxxir - o'zidan uzoq etuvchi. 73. al-Avval - hamma narsadan avval, boshlanishi chegarasiz. 74. al-Oxir - hamma narsadan boqiy, oxiri cheksiz. 75. az-Zohir - borligi hamma tomonlama bayon bo'lmish zot. 76. al-Botin - o'zi mavjud, lekin sezgi vositalarimizdan maxfiy zot. 77. al-Voliy - barcha ishlarni tasarruf etuvchi hokim. 78. al-Mutaol - ulug', oliy martabali. 79. al-Barr - yaxshilik va ehson sohibi. 80. at-Tavvob - tavbalarni qabul etuvchi. 81. al-Muntaqim - gunohkor bandalaridan o'ch oluvchi, jazolovchi. 82. al-Afuv - gunohlarni afv etuvchi. 83. ar-Rauf - o'ta mehribon, rahmati keng. 84. Molikul-mulk - mulk, saltanat, hukm sohibi. 85. Zul-jaloli val-ikrom - sharaf va karam egasi. 86. al-Muqsit - adolatli, odil. 87. al-Jomi' - to'plovchi, qiyomat kuni xaloyiqni mahshargohga jam etuvchi. 88. al-Raniy - boy, ehtiyojsiz. 89. al-Mugniy - boy etuvchi, kifoya qiluvchi. 90. al-Moni' - do'stlarini himoya etuvchi, noloyiqlarga o'z ne'matlarini man etuvchi. 91. az-Zorr - xohlagan bandalariga ofat, zarar va musibat yetkazuvchi. 92. an-Nofi' - xohlagan bandalariga manfaat va foyda yetkazuvchi. 93. an-Nur - o'z-o'zidan borligi ayon va borliqni ham ayon etuvchi. 94. al-Hodiy - yo'l ko'rsatuvchi, hidoyatga soluvchi. 95. al-Badi' - yaratuvchi (ixtiro ila) 96. al-Boqiy - doimiy, abadiy mavjud. 97. al-Voris - borliqni meros qilib oluvchi. 98. ar-Rashid - barcha ish va tadbirlari to'g'ri chiquvchi. 99. as-Sabur - gunohkor-isyonkorlarga jazo berishga shoshilmaydigan zot.

Arsh, Arshi a'lo (arab. taxt) - buyuk taxt. Aqoid ilmi ulamolari fikri, oyat hamda hadislarga ko'ra, A. oyoqlari bor taxt bo'lib, uni farishtalar ko'tarib turadi. U xuddi olam ustidagi kubbagga o'xshash. U maxluqotlarning shiftidir. Alloh taoloning A.ga ehtiyoji yo'q, balki uni O'zi bilgan hikmat uchun yaratgandir. A. faylasuflar aytganidek falak emasdir. Ular A.ni to'qqizinchi falak yoki atlas falaki deyishgan. Arablar A.ni hech qachon bu ma'noda ishlatmaydilar. Alloh taolo A.ga barobar

bo'lib, uning ustida turgani unga muhtojligidan emas. Alloh bundan oliy va ulug'dir. U o'z qudrati ila o'zidan pastdagi A.ni, uni ko'tarib turuvchilarni va undagi narsalarni ko'tarib turuvchidir. Shuningdek, Alloh A.ni va undagi narsalarni ihota qiluvchidir. A. Allohning qudrati ostida chegaralangan va Unga muhtojdir. Qur'oni Karim oyatlarida A. to'g'risida 23 joyda bayon etilgan.

Assalomu Alaykum (arab. sizga tinchlik, salomatlik tilayman) - musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatiladigan salomlashuv iborasi. Salom qabul qiluvchi "Va alaykum assalom" ("Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman"), deb javob qaytaradi. A.a. tanigan va tanimagan musulmonlarga beriladi. Kichik yoshdagilar yoshi ulug'larga, ulov mingan odam piyodaga, piyoda ketayotgan kishi o'tirganga, ozchilik ko'pchilikka salom beradi. A.a. ko'pchilik huzuriga kirib o'tirishda ham aytiladi. A.a. deyish sunnat, javob qaytarish esa vojib hisoblanadi. A.a. namoz o'qiyotgan kishining namozi tugaganining alomati hamdir.

Aqida (arab. "aqd" - bir narsani ikkinchisiga mahkam bog'lash; ko'plikda -aqoid) - balog'atga yetgan kishi e'tiqod qilishi, imon keltirishi, islom dinining zarurlari shaklida tasdiq qilishi, qalbiga mahkam bog'lab olib undan ajralishi mumkin bo'lmagan shar'iy e'tiqodiy hukmlar. Insonning ikki dunyodagi saodati aynan A.siga bog'liq. Agar A.si pok bo'lsa, yo'li to'g'ri bo'ladi, qilgan barcha amallari qabul bo'ladi va bandalik bilan sodir etgan ba'zi gunohlari afv etiladi. Agar A.si sof bo'lmasa, buzuk bo'lsa, yo'li noto'g'ri bo'ladi, qilgan amallari behuda ketadi va oxiratda jahannam ahlidan bo'ladi. A. masalasi o'ta muhim bo'lganidan ham, Odamatodan boshlab, oxirgi payg'ambar Muhammad (sav)gacha bu masalani Alloh taoloning o'zi ko'rsatib bergan. Odamatodan tortib hozirgacha A. masalasi bir xil bo'lib kelgan. Islom A.larining asosi Qur'onda berilgan, hadislardagi ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Islomning sunniylik yo'nalishi ilohiyotda e'tirof etiladigan A.lar yoki imon talablari 7 ta: Allohning yagonaligiga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg'ambarlarga, oxiratga, takdirga va qiyomat kuni barchaning qayta tirilishiga ishonish (q. Sunniylik). Shialik yo'nalishi ilohiyotida 5 A. tan olinadi: tavhid (Allohning yagonaligi), nubuvvat (payg'ambar)ga ishonish, adl (ilohiy takdirning adolatligiga

ishonish), imomat (imomlar hokimiyatini tanish), maod (oxiratga ishonish) (q. Shialik).

Baraka – islom ilohiyotida biror ishga Allohdan rivoj tilash, oq fotiha berish mazmuniga ega bo'lgan tushuncha; xayrli istak va qo'rqu. Qur'onda B. uch harf, ya'ni BRK ildizidan chiqqan bir qancha so'z va tushunchalardan iborat. B. so'zi ko'plik shaklida barakot deb yuritiladi. Qur'onda keltirilishicha, B.ning nozil etuvchisi Alloh bo'lib, u B.ni payg'ambarlarga (Iso - 19:31/ 32, Muso - 27:8, Ibrohim, Ishoq - 37:113) va ularning yaqinlariga (11:48/50, 76/73) ato etgani zikr etiladi. B. istagi musulmonlar o'rtasidagi an'anaviy salom-alikning tarkibiy qismiga aylangan. Oddiy xalq tilida B. mehnat va faoliyatda, hosil va daromadda unum, mo'l-ko'llik ma'nosini bildiradi.

Baqo va Fano (arab. baqo - boqiylik, barqarorlik; fano - foniylilik, yo'qolish, o'tkinchilik) - islomdagi tushuncha. Islom dinida baqo - Alloh sifatlaridan biri. Tasavvufda baqo Allohning boqiy do'sti bo'lib qolish uchun o'zidan voz kechish, barcha yaxshi sifatlarni o'zida mujassam qilish deb ham tushuniladi. Fano - o'zidagi barcha yomon sifatlarni yo'q qilish yo'li bilan Allohga yaqinlik hosil qilishlikdir. Tasavvufda solik fano maqomiga yetgach, Allohning haqligi va ulug'ligi to'g'risidagi fikru zikrga g'arq bo'lib, bu foniyl dunyodagi jamiki narsalarni unutib yuboradi. Bu maqom "fano filloh" deb ataladi (yana q. Fano).

Dajjol (arab. - aldamchi, firibgar) – islom diniga ko'ra, qiyomat oldidan paydo bo'ladigan va dindorlarni xudo ko'rsatgan to'g'ri yo'ldan ozdiradigan bir ko'zli odamsimon maxluq. U, shuningdek, al-Masih al-Kazzob va al-Masih al-Dajjol deb ataladi. Qiyomatga yaqin u yovuzlik timsoli sifatida ezgulik tarafdorlari bilan jang qilib, oxir-oqibatda mag'lub bo'lishi haqida rivoyatlar bor. Islomga ko'ra, D. Iblis bilan aloqador bo'lib, qiyomatga yaqin insonlarni to'g'ri yo'ldan og'dirish uchun o'zini haqiqiy Iso (as) yoxud al-Mahdiy deb ataydi. Bungacha u Hind okeanidaga orollardan birida qoyaga zanjirband qilingan holda yashaydi: orol yaqinidan o'tayotgan kemadagalar u yerdan musiqa tovushini eshitadilar. D. bir ko'zli, terisi qizil, peshonasida kof harfi yoxud kofir yozuvi bor. Qiyomatdan oldin D. Sharq tomondan ulkan, bahaybat eshakda paydo bo'ladi, uning ortidan barcha dinsizlar va munofiqpar ergashadi. U Makka

va Madinadan boshqa butun dunyoda o'z hokimiyatini o'rnatadi. Uning podsholigi 40 kun (yoxud yil) davom etadi, so'ngra Alloh tomonidan yuborilgan Iso (as) va al-Mahdiy uni mag'lub etib, o'ddirishadi.

Eshon(forscha: ular) – so'fiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvoni. Odatda, E.lar darvishlik, so'fiylik oqimlarining biriga mansub bo'lgan. Ismoililar firqasi dindorlar jamoasining rahbari ham E. deb atalgan. Urta asrlarda so'fiy rahnamolariga murojaat qilishda ularning ismlari o'rnida E., ba'zan "pir" so'zlari qo'shib ishlatilgan. E.larga muriddarni so'fiylik yo'liga o'rgatuvchi (murshid), bemorlar dardiga shifo beruvchi, kelajakni oldindan aytuvchi sifatida qarab kelingan.

Farishta (forscha, arab. malak - maloika) - islom e'tiqodiga ko'ra, xudoning amrini bajaruvchi mavjudotlar. Flar son-sanoqsiz bo'lib, har biri ma'lum vazifani bajaradi. Mas., islomda har bir odamning savob va gunoh ishlarini hisobga olib yuruvchi F.lar, jannat va do'zahda darvozabonlik qiluvchi, odamlarni qabrda so'roq qiluvchi (Munkar va Nakir), Alloh taxtini osmonda ko'tarib turuvchi va b. xizmatlarni bajaruvchi F.lar mavjud deb qaraladi. Bu F.lardan 4 tasi: Azroil, Jabroil, Mikoil, Isrofil bosh F. hisoblanadi. F.larga e'tiqod qilish sunniylik akddalaridan biridir.

Fosiq (arab. - yo'ldan adashgan, axloqsiz) - 1) islom an'anasida diniy majburiyatlarni ado etmagan gunohkor; 2) axloqiy ma'noda -fahsh, buzuc odam. "Fosiq" kalimasi johiliyat davrida qo'llanilmagan. Qur'oni karimda o'zak holida yetti, tushlangan fe'l sifatida o'n va "fosiq" shaklida esa (ikkitasi birlikda, boshqalari ko'plikda) o'ttiz yetti joyda keladi. Ba'zi oyatlarda yahudiylar, xristianlar, mushriklar va munofiqlar haqida so'z borarkan, ko'plarining F. ekanlari bildiriladi (mas., Baqara, 99; Oli Imron, 110; Movda, 47, 59; Tavba, 67); boshqa ayrim oyatlarda esa, fisq va fusuq mo'minlarga nisbatan ham ishlatiladi (Baqara, 197, 282; Nur, 4). Oyatlarda ma'lum qilishiga ko'ra, Alloh F.lardan rozi bo'lmaydi, moliy ehsonlarini qabul etmaydi va o'zlarini hidoyatga erishtirmaydi. Ularni dunyoda jazolagani kabi, oxiratda ham jahannamga tashlaydi.

Gunoh (fors - jinoyat, ayb; asli shu ma'nodagi arab. "junoh" so'zidan olingan) -shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki harakat. Islom dinida eng katta G. - shirk, ya'ni Allohni butunlay inkor etish yoki unga teng keladigan boshqa ilohiy kuchlar bor, deb e'tiqod

qilish hisoblanadi va bunday G.ni Alloh kechirmaydi. Ammo undan boshqa katta va kichik G.larni xohlaganicha kechirishi yoki ma'lum me'yorda jazolashi mumkin. Katta G.larning adadi to'g'risida islom manbalarida turlicha fikrlar aytilgan. Ota-ona qarg'ishini olish, sehr-jodu bilan shug'ullanish, qotillik, yolg'on guvovlik berish, o'g'rilik, chaqimchilik, qimorbozlik, riyokorlik, firibgarlik, harom qilingan narsalarni iste'mol qilish, dilozorlik va h.k. katta G. hisoblanadi. Ba'zi islom olimlari katta G.lar sonini 300 tagacha sanab o'tganlar. Kichik G.lar behisobdir.

Hadis (arab. - "xabar", "yangilik"), hadislar - Muhammad (sav)ning aytgan so'zlari, qilgan ishlari, ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo'ladi: matn va isnod. H. ikki turga bo'linadi: 1. Hadisi qudsiy; 2. Hadisi Nabaviy. H.lar e'tiborga olinishi jihatidan yana uch qismga bo'linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif. Qur'oni karimda barcha huquqiy va axloqiy masalalar umumiy tarzda bayon etilgan. Ularga aniklik kiritish va izoxdab uqtirish uchun Muhammad (sav) o'z H.larini aytardi. Bu H.larni payg'ambarning safdoshlari yodda saqlashga harakat kdlardi. Rasululloh (sav) hayotlik chog'larida sahobalarning Qur'oni karimga H.larni aralashtirib yuborishlaridan qo'rqib, H.larni yozishdan qaytarar edilar Rasululloh (sav) vafotlaridan so'ng H.larni nakd qilish odat tusiga kirdi. Shu munosabat bilan bir guruh musulmonlar Payg'ambarimiz (sav) Hlariga begona so'z aralashib qolishidan va H. nakd qiluvchi sahobalar vafot etishlari bilan H. zoe bo'lishidan qo'rqib, uni yozma shaklda to'play boshladilar. Bu odamlar turli yurtlarga tarqalib ketganlar. 7-a. o'rtalaridan boshlab ularni topib, H. larni ogizlaridan yozib olishga harakat qilingan. Bunda turkistonlik muhaddislar katta xizmat qilishgan. Islom olamida eng obro'li hisoblangan H. to'plamlari quyidagilar hisoblanadi: 1) "al-Jomi' as sahih" yoki qisqacha, "Sahihi Buxoriy"; 2 "Sahihi Muslim", 3) "Sunani Termiziy"; 4 "Sunani Abu Dovud"; 5) "Sunani Nasoiy"; 6 "Sunani Ibn Moja". Shuningdek, Ibn Hanbal musnadi ham katta shuhrat qozongan (yana q Hadis to'plamlari).

Hadisi Qudsiy – ma'nosi Alloh taoloniki bo'lib, aytilishi Rasululloh (sav)dan bo'lgan hadislar. Shuningdek, "Hadisi Rabboniy", "Hadisi ilohiy" deb ham aytiladi. Uni Alloh taolo o'z nabiysiga ilhom berish, tushida

ko'rsatib bildirish orqali xabar beradi, Payg'ambar (as) esa, buning ma'nosi Alloh nomidan, Alloh taolo aytdi, deb sahobalariga yetkazganlar. H.q-ning martabasi Qur'oni karim bilan hadisi Nabaviy o'rtasida. H.q. talaffuzi bilan ibodat qilinmaydi, namozda qiroat etilmaydi, u bilan bahsga chorlanmaydi. U Qur'onning naqliga o'xshab mutavotir holda naql qilinmagan. Balki, uning sahih, zaif va mavzu-yolg'onlari mavjuddir.

Hidoyat (arab. - to'g'ri yo'l) - haqiqiy e'tiqod yo'lidan yurish. Zalolatning qaramaqarshisi. H. Alloh o'z bandalari uchun ko'rsatgan eng to'g'ri yo'l hisoblanadi. Qur'oni karimning yuzlab oyatlarida H. to'g'risida ma'lumotlar bor. Ularda ta'kidlanishicha, alloh taolo H. yo'lga hammani ham boshlamaydi, balki o'zi xohlagan, tanlagan kishilarnigina bu ne'matga musharraf etadi. Hatto Payg'ambarimizga xitob qilib: "Sen xohlagan kishingai H.ga erishtira olmaysan, lekin Alloh o'zi xohlaganiga H. ato qilur" –degan mazmunda oyat nozil qilgan. Demak, H. sari da'vat qilish yaxshi, lekin unga erishish Allohning izni bilan amalga oshar ekan.

Ilohiyot (arab. - xudo to'g'risidagi ta'limot) - xudo, uning sifatleri, belgilari va xususiyatlari to'g'risidagi diniy ta'limot. Muayyan diniy akdda va ular haqidaga ilohiy ko'rsatmalarni o'rgatadi. I. muqaddas kitoblar, rivoyatlar kelib chiqishining ilohiy ekanini, shuningdek ibodatni bajarish bilan bog'liq bir qator amaliy bilimlar yig'indisini o'z ichiga oladi. I.ning barcha tizimlari dunyoni yaratgan va uni inson bilolmaydigan qonunlar orqali boshqaradigan xudoni tan olishga asoslanadi. Islom dinida I. shakllanish davrida xilma-xil I. oqimlari (jabariylar, qadariylar, mutaziylar, murji'iyalar va b.) vujudga kelgan. Islomda I. ilk shakllanishi davridan boshlab kalom deb atalgan. I. diniy o'quv yurtlarida o'qitiladi.

Ilohiy kitoblar – muayyan dinda muqaddas va ilohiy hisoblanadigan kitoblar. Diniy ta'limotga ko'ra, Alloh o'tgan payg'ambarlarning ba'zilariga sahifalar, ba'zilariga esa, kitoblar nozil qilgan. 100 sahifa va 4 kitob - 100 sahifadan 10 sahifani Odam (as)ga, 50 sahifani Shis (as)ga, 30 sahifani Idris (as)ga, 10 sahifani Ibrohim (as)ga yuborgan. Muso (as)ga Tavrot, Dovud (as)ga Zabur, Iso (as)ga Injil va Muhammad (sav)ga Qur'onni nozil qilgan. Qur'ondan boshqa ilohiy kitob va sahifalar bir yo'la bir daf'ada nozil qilingan, deb hisoblanadi. Qur'on hazrat Jabroil orqali 23 yil mobaynida oyat-oyat, sura-sura shaklida yuborilgan. Diniy aqidaga

ko'ra, Alloh bandalarining ruhiy va moddiy ahvollarini yaxshi bilgan holda har bir payg'ambarga uning ummatlariga munosib hukmlar bayon etilgan kitob va sahifalar yuborib turgan. Ular o'z davrida ummatlar uchun hidoyat manbai bo'lgan. Islom ta'limoti bo'yicha, Qur'oni karim Allohning qiyomatgacha hukmi o'zgarmaydigan, tillarda va dillarda saqlanib qoladigan oxirgi kitobidir.

Irim – g'ayritabiiy hodisalarning kishilarga ta'sir qilishiga ishonib, biror niyat bilan qilinadigan odat, xatti-harakat. I. o'zni ehtiyotlash, birovlariga yaxshilik tilash yoki zarar yetkazish va b. niyatlarda qilinadi. Jahovdagi deyarli hamma xalqlarda va turli kasbhunar sohalarida uchraydi. I., bir tomondan kishilarning ezgulikka intilishlari, orzulari bilan bog'lansa, ikkinchi tomondan, tabiat va jamiyatda qandaydir g'ayritabiiy sehrli kuchlarning borligiga ishonishga asoslanadi. I.ni Islom dini bilan hech qanday aloqador joyi yo'q. Islom diniga ko'ra, bu amal xurofot sanaladi.

Kabira (arab. katta, yirik) - islomda eng katta va og'ir gunoh. Islomda gunoxlar katta - K. va kichik - sag'iraga bo'linadi. Ulamolar qaysi gunohlar K. va qaysinisi sag'ira ekani xususida fikrlari turlicha. Gunohi K. – hadd jazosiga loyiq, ya'ni, shariatda jazosi belgilab qo'yilgan gunoh yoki do'zaxga kirishga, la'natga va g'azabga sazovor qiladigan gunoxlar K.. gunoxdardir. Sag'ira (kichik) gunoh esa: "Bu dunyoda haddga loyiq emas, u dunyoda do'zax, la'nat va g'azab ila qo'rqitilmagan gunoxlardir. K.ning eng birinchisi va Alloh tomonidan kechirilmaydigani - kufr (Allohni inkor etish) va shirk (Allohgga biror narsani teng qilish)dir. K.ning turlari ko'p. Mas., ota-onani norozi qilish, birovning joniga nohaq qasd qilish, sehr-jodu bilan shug'ullanish, yolg'on guvohlik berish, tuhmat yoki bo'hton qilish, zinokorlik, o'g'rilik, sudxo'rlik, farz ibodatlarni bajarmaslik, harom qilingan narsalarni iste'mol etish va h.k. Shirk va kufrdan boshqa gunoxdar qiyomat kuni Alloh tomonidan kechirilishi yoki ular uchun ma'lum me'yorda jazo berilishi mumkin. Mo'min odam gunohi K. qilishi bilan kofir bo'lib qolmaydi. Agar o'sha ishni halol sanasa kofir bo'ladi. Yoki Alloh halol qilgan narsani harom qilsa, kofir bo'ladi. Shuningdek, gunohi K. tufayli ularni kofirga chiqarish ham to'g'ri yo'qdan chiqishdir. Ahli sunna va jamoa biror kishini gunohi K. qilgani uchun kofir

qilmaydilar Murji'iyalar gunohi K. qilganni kofir qilmaydilar va imon bo'lsa, gunohi K. zarar qilmaydi, deb hisoblaydilar. Xorijiylar esa gunohi K. qilganni kofir, deydilar Mu'taziliylar gunohi K. qilganni iymondan: chiqaradilar va kufrga kirgazmaydilar.

Komil inson – tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalaridan biri. Har jihatdan yetuk kishi. Axloqiy jihatdan oliy poklikka erishgan, borliq va Allohni anglashda to'liq bilimga ega bo'lgan va natijada Haqqa yetishgan (yoki Qur'on oyatlarining tub mohiyatini tushunadigan) inson. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, Alloh K.i.da o'zining barcha xislat va alomatlarini bamisoli ko'zguda ko'rgandek ko'rib turadi. U borliqning bir-biriga zid ikki jihati: ma'naviy va moddiy jihatlarini birga qo'shadi. Uning butun olam uchun bo'lgan favkulodda ahamiyati ana shundan kelib chiqadi, u - Koinotning botiniy hukmdori, Olam yaratilishining sababchisi va maqsadidir. K.i. haqidagi ta'limot so'fiy faylasuf Ibn alArabiy tomonidan yaratilgan, keyinchalik uning izdoshlari, jumladan O'rta Osiyoda Ahmad Yassaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va b. tomonidan rivojlantirilgan. O'zbekiston mustaqshshikka erishgach, K.i.ni voyaga yetkazish milliy istikdol mafkurasining asosiy vazifalaridan qilib qo'yildi. Birinchi Prezident I.Karimov asarlarida K.i.ni voyaga yetkazish vazifalari atroflicha bayon etilgan.

Mavlono (arab. - bizning janob) - O'rta Osiyo, Afg'oniston va Pokistonda eng yuqori lavozimdagi amaldorlar, yozuvchi, olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatiladigan so'z. M so'zi hurmat ma'nosida shaxs nomlaridan avval aytilgan (mas., Mavlono Alisher Navoiy, Mavlono Jomiy, Mavlono Muqimiy va b.). O'rta Osiyoda o'rta asrlarda qo'llanilgan.

Mazhab (arab. - yo'nalish, oqim, yo'l, ta'limot), shariat mazhablari — islomda diniy huquq tizimlari va yo'nalishlari. 8-9-a.larga k.elib shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik - fiqh sohasida juda ko'p M.lar yuzaga kelgan. Hoz. vaqtda sunniilikda to'rtta M. - hanafiylik, molikiylik, shofi'iylik, hanbaliylik (M.lar nomi ularning asoschilari: Abu Hanifa (Imomi A'zam), Molik ibn Anas, Shofi'iy, Ibn Hanbal nomidan olingan), shialikda bir M. -ja'fariylik (asoschisi - Ja'far as-Sodiq) saqlanib qolgan. Shariat M.lari diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikdagi to'rttala

M. ham teng hisoblanadi, yirik musulmon universitetlarida to‘rt mazhab bo‘yicha alohida dars o‘qitiladi. M.lar umuman an‘anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Hozir islom mamlakatlarida hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston va h.k.), molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofi‘iylik (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni) M.lari, shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va h.k.)ning huquqiy hayotida ja‘fariylik M.i o‘z mavqeini ma‘lum darajada saqlab kelmoqda. O‘rta Osiyoda, xususan, O‘zbekistonda hanafiylik M.i keng yoyilgan.

9-MAVZU. YANGI O‘ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI BARPO ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: YUTUQLAR, IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLARI

Reja:

- 1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi mazmuni.**
- 2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari va istiqbollari.**
- 3. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari tamoyili.**

***Tayanch tushunchalar:** adolat, demokratiya, elektron hukumat, fuqarolik, fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari, globallashuv, huquq, huquqiy davlat, jamiyat, milliy o‘zlikni anglash, strategiya, suverenitet, shaxs.*

1. Fuqarolik jamiyati tushunchasi mazmuni.

Bugungi kunda jamiyat rivoji va davlat barqarorligining muhim asosi fuqarolik jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati – davlat va jamoat o‘rtasida o‘zia xos ko‘prik vazifasini o‘taydigan tashkilotlar, birlashmalar va faollardan iborat. U fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan mustaqil faoliyat imkoniyatlarini taqdim etadi. Yangi O‘zbekiston sharofati bilan ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar xalqning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Davlat va jamiyat qadimdan bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanib kelayotgan ijtimoiy hayot birliklari hisoblanadi. Davlat kishilik jamiyati shakllanishining muayyan bosqichida vujudga kelgan. O‘z o‘rnida fuqarolik jamiyati insoniyat tomonidan asos solingan davlat va jamiyat hayotining eng oliy shaklidir.

Davlat va jamiyat qadimdan bir-biri bilan o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanib kelayotgan ijtimoiy hayot birliklari hisoblanadi. Davlat kishilik jamiyati shakllanishining muayyan bosqichida vujudga kelgan. O‘z o‘rnida fuqarolik jamiyati insoniyat tomonidan asos solingan davlat va jamiyat hayotining eng oliy shaklidir. Fuqarolik jamiyati to‘g‘risidagi g‘oyalar va ta’limotlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hayotga joriy

etilayotgan bo'lsa-da, ushbu hodisa va uni tashkil etgan tarkibiy unsurlar azal-azaldan insoniyat tafakkuriga begona bo'lmagan. Ushbu tushuncha – insoniyatning bir necha asrlar mobaynida shakllangan tafakkuri mahsuli bo'lib, u jamiyatning o'ta siyosiydashgan shaklidan insoniy, fuqaroviy shakliga o'tish, inson huquqlari va erkinliklarini yuqori darajada ta'minlash mezoni sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslari qadim zamonda, mahalla instituti sifatida paydo bo'lgan. Mustaqillik yillarida bunday jamiyatni rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar qabul qilindi va amalga oshirildi. Taraqqiyot strategiyasining — Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotga eng asosiy va zarur shartiga aylashtirish deb nomlangan ikkinchi bo'limida 20-maqсад – Faol fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va itoat qilish hissini shakllantirish deb belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ham – “Erkin va ochiq fuqarolik jamiyati”¹⁷⁴ to'g'risida nazariy g'oyalar bayon qilingan.

G'arbiy Yevropa tadqiqotchilarining falsafiy, siyosiy va huquqiy qarashlarini tahlil qilgan K.Ganjiyev, fuqarolik jamiyati G'arb sivilizatsiyasiga xosligi, uning muayyan bir tarixiy rivojlanish bosqichida yuzaga kelgan hodisa ekanligi, fuqarolik jamiyatining ildizlari esa qadimgi Gretsiya, Afinaga borib taqaladi, deydi. SHu nuqtai nazardan kelib chiqib, u “fuqarolik jamiyati” tushunchasining Arastu asarlaridagi talqinini keltiradi. “Hozirgi zamon talqinidagi fuqarolik jamiyati haqida, - deb yozadi. K.S. Ganjiyev - fuqaroning o'zini jamiyagning individual a'zosi sifatida anglaganidan, uning komil huquq va erkinliklarga ega bo'lgani holda, jamiyat oldida ma'naviy jihatdan hamda o'z xatti-harakatlari uchun mas'ul ekanligini anglaganidan boshlab gapirish mumkin”.¹⁷⁵ Xo'sh, qadimgi Gretsiyada fuqaroning shunday huquq va erkinliklari ta'minlanganmidi? Albatta, yo'q. Lekin bu qadimgi yunonliklarning ijtimoiy-siyosiy tajribasi va falsafiy merosiga murojaat qilishga xalaqit

¹⁷⁴ Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent, O'zbekiston, 2021, 93-bet.

¹⁷⁵ Ijtimoiy falsafa o'quv-uslubiy majmua – Namangan, 2023, 156-157-betlar.

bermaydi. Fuqarolik jamiyatini hamyurtlarimizdan M. Sharifxo‘jayev, N. SHodiyev, S. Hasanov, T. Do‘stjonov va M. Qirg‘izboyev ham Arastudan boshlab o‘rganadilar. Masalan, M. SHarifxo‘jayev “Arastu, davlat – bu fuqarolarning, fuqarolik jamiyatining umumuyushmasidan bo‘lak narsa emas, deb ta‘kidlangan edi.”¹⁷⁶ deb yozadi. T. Do‘stjonov va S. Hasanovlar esa “Qadimgi dunyo mutafakkirlari Suqrot, Demokrit, Aflotun, Polibiy, Sitseron huquqiy davlat hususiyatlari va nazariy asoslarini birinchi bo‘lib ochib berishga urinishgan. Binobarin, huquqiy tan olinadigan va ayni paytda cheklangan davlat hokimiyati, qadimgi mutafakkirlar fikricha, adolatli huquqiy davlat hisoblanadi... Xullas, qadimgi Yunon va Rim mutafakkirlarining g‘oyalari ulardan keyingi taraqqiyparvar siyosiy-huquqiy ta‘limotlarning yuzaga kelishi va rivoj topishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.”¹⁷⁷ deb yozadilar.

Falsafa va jamiyatshunoslik tarixida fuqarolik jamiyatiga davlatning adolat va farovonlikni ta‘minlashda erishgan darajasi, deb qarash Yangi davrgacha saqlanib qolgan. Konfutsiy jamiyatning barqaror ishlashini tashkil etishda, davlat boshqaruvida ma‘naviyat va axloqning o‘rnini yuksaklikka ko‘targan. U shunday deb yozgan edi: — “Agar qonunlar yordamida boshqarilsa, tartibot jazolashlar vositasida ta‘minlansa, odamlar jazolashlardan o‘zlarini olib qochishga intiladi. Lekin ular or-nomusni o‘zlarida his qilmaydilar; agar davlat ma‘naviy-axloqiy vositalar yordamida boshqarilsa, tartibot qadriyatlar yordamida ta‘minlansa, odamlar or-nomusni his qiladilar, halol va sofdil bo‘ladilar”¹⁷⁸. O‘rta asrlarda fuqarolik jamiyati haqidagi g‘oyalar, ayniqsa Sharq allomalari tomonidan keng tahlil etildi. Ular o‘z asarlarida – “fuqarolik jamiyati” tushunchasini – “fozil shahar”, “saodatli jamiyat” tushunchalari orqali ifodalaganlar. Xususan, Abu Nasr Forobiy Sharq falsafasida ilk bor fuqarolik jamiyati (fozil shahar) barpo etish uchun mamlakatda adolatli boshqaruvni joriy qilish zarurligini ta‘kidlaydi. Jumladan, u mutafakkir boshqaruv shakllari xususida mulohaza yuritir ekan, davlatning ichki va

¹⁷⁶ M.Sharifxo‘jayev. O‘zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. Toshkent, “Sharq”. 2003, 9-bet

¹⁷⁷ T.Do‘stjonov, S.Xasanov. O‘zbekiston demokratik taraqqiyot yo‘lida. Toshkent, 2004. 8-bet

¹⁷⁸ Конфуций. Суждения и беседы. Конфуций -М.: Рипол Классик 2017. – 360 с

tashqi funksiyalarini sanab o'tadi. Ushbu funksiyalar samaradorligi (ichki – fuqarolar baxt-saodatini ta'minlash; tashqi – shaharni muhofaza etish) boshqaruvning oqilona tashkil etilishiga borib taqaladi. Forobiy bunday boshqaruv shakllariga yakka hokimlik, kichik guruh tomonidan mamlakatning boshqarilishi va xalq tomonidan saylangan hukmdor hokimiyatini kiritadi. Oqilona siyosatgina insonning jamiyatdagi huquq va mas'uliyatini kuchaytiradi, deb hisoblaydi.¹⁷⁹ Forobiy orzu qilgan fozil va adolatli jamoaning johil jamoalaridan farqi shundaki, unda odamlar eng go'zal va yaxshi maqsadlarga hamda umumiy manfaatlarga erishish yo'lida bir-birlariga yaqindan yordam beradilar. Forobiy fozil jamoa qurish uchun insonlarning ma'naviy yuksalishi, fuqaroviy fazilatlarga ega bo'lishi talablarini ilgari suradi. Forobiy X asrning boshlaridayoq adolatli fuqarolik jamiyatining sodda va oddiy modeli loyihasini quyidagicha ta'riflangan: - "Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma barobar bo'ladi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunari bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'noda ozod bo'lib, biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton (ya'ni, podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi"¹⁸⁰.

Forobiy fuqarolik jamiyati qonuniyatlari, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining yangi tajribalari va ilmiy tahlili asosida o'ziga xos fikr yuritadi¹⁸¹. U shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolotga erishishi uchun zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Alloma butun insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. U inson qadr-qimmatini kamsituvchi jamiyatga qarshi chiqadi. "Davlat arbobining hikmatlari" risolasida esa, u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatning adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi. Forobiyning komil inson va fuqarolik jamiyati xususidagi

¹⁷⁹ A.N.Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Xalq merosi, 1993. 159-161-betlar.

¹⁸⁰ A.N.Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent.: Xalq merosi, 1993. 190-bet.

¹⁸¹ Narzulla Jo'rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. Toshkent, - "Ma'naviyat", 2008, 64-bet .

fikrlariga yakun yasab, shuni aytish lozimki, ushbu buyuk ajdodimiz g'oyalarida inson komilligi bevosita jamiyat taraqqiyotiga, Vatan ravnaqiga uzviy bog'liq ekanligi yaqqol aks ettirilgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida bir qancha olimlar ushbu masalaning yurtimizga taalluqli jihatlarini keng tadqiq etdilar. 2010-yilda Fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Nodavlat notijorat tashkilotlar soni va sifati ortib bordi, ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi roli oshdi. Demak, fuqarolik jamiyati – bu, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etishda faol qatnashadigan, davlatning bedodligi va aralashuviga yo'l qo'ymaydigan huquq hukmron bo'lgan, fuqarolar va davlat hamkorlik asosida ishlaydigan ongli individlar jamiyatidir.

Fuqarolik jamiyati – o'zini-o'zi rivojlantiruvchi va o'zini-o'zi boshqaruvchi tizim. Insonlar har xil tashkilotlarga birlashib bir-biri bilan rang-barang munosabatlar o'rnatib, o'zlarining ba'zan qarama-qarshi, ba'zan umumiy manfaatlarini ro'yobga chiqarib, jamiyat siyosiy hokimiyati kuchiga ega bo'lgan davlatning aralashuvisiz uyg'un va izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Fuqarolik jamiyati davlatda mustaqil ravishda o'z-o'zini rivojlantirishning ichki manbalariga egadir. Fuqarolik jamiyati o'zining kommunikatsiyalarini, mamlakatning iqtisodiy va siyosiy sohalariga tegishli prinsiplardan farq qiladigan, o'ziga xos qonuniyatlar – tenglik, birdamlik, ochiqlik, o'zaro hurmat, ishonch asosida shakllantiriladi. Shuning bilan birga, fuqarolik jamiyatining yetuklik darajasini asosiy ko'rsatkichi – bu jamoat tashkilotlarning soni emas, balki fuqarolarning mazkur tashkilotlarga jalb etilganligi, ya'ni mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni belgilab beradigan fuqarolik jamiyatining ijtimoiy bazasini tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyati huquqiy davlat bilan uyg'unlikda yashaydi. Bu yerda inson va fuqaroning tabiiy va o'zlashtirilgan huquqlarini tan olish, ta'minlash va himoya qilish ularni bir – biriga bog'lovchi omil sifatida amal qiladi. Fuqarolik jamiyati hokimiyatning oqilonaligi va odilonaligi, shaxs erkinligi va farovonligi haqidagi g'oyalarning huquqiy ustunligi,

huquq va qonunning birligi, davlat hokimiyatining turli tarmoqlari faoliyatini huquqiy chegaralash g'oyalari bilan mushtarakdir¹⁸².

“Fuqarolik jamiyati” kategoriyasi nafaqat yuridik, balki tarixiy, falsafiy va siyosiy kategoriya hamdir. Shu sabab so‘nggi yillarda turli yo‘nalishlardagi olimlar “fuqarolik jamiyati” tushunchasining mazmuni borasida o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Fuqarolik jamiyati hayot, jamiyat va mehnat tizimlarini qaytadan o‘zgartirishni tezlashtirishga moyilligi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsata olishi mumkin.

2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirishning imkoniyatlari va istiqbollari.

Mustaqillikning ilk kunlaridan fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga ko‘maklashmoqda. O‘zbekistonda tub o‘zgarishlar jarayonlaridagi davlatning bosh islohotchilik o‘rni asosan fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslarini shakllantirish jarayonlarida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy va markaziy, mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyatlari hamda boshqaruv idoralarining vazifalari, faoliyatining kafolatlari, mahalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi munosabatlar tartibga solindi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatiga ta‘rif berilmagan bo‘lsa-da, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e‘tirof etilgan, ularning davlat bilan o‘zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan.

¹⁸² O‘tamurodov A. va boshqalar. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. / Uslubiy qo‘llanma – T-Info Kapital Grooup, 2019, - 12 bet

Mustaqillik yillarida totalitar boshqaruv tizimidan qolgan davlatga sigʻinish va qaramlik siyosatining salbiy illatlari tugatilib, davlatning xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida masʻulligi kabi demokratik tamoyillarga asoslangan xalq hokimiyatchiligi qaror topdi. Darhaqiqat, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining barcha boʻgʻinlarida aholining turli guruhlar va qatlamlari qancha faol ishtirok esa, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning, birinchi navbatda siyosiy tizimdagi yangilanishlarning koʻlami va samaradorligi shuncha oshadi.

“Davlatning kuch-qudrati boshqaruvning barcha vakolatlarini oʻz zimmasiga olishi hamda davlat idoralarining hukm va tazyiq oʻtkazuvchi organ sifatidagi vazifalarini kuchaytirish bilan belgilanmaydi. Davlatning kuch-qudrati avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat koʻrsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini roʻyobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan oʻlchanadi¹⁸³. Fuqarolik jamiyati sharoitida davlat jamiyat taraqqiyotining strategiyasi va taktikasini belgilovchi, mahalliy hokimiyat organlari erkinligining meʼyorini aniqlab beruvchi, ular bilan oʻzaro munosabatlarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etuvchi institut vazifasini oʻtamogʻi lozim.

Fuqarolik jamiyatining belgilari, mezonlari va institutlarini tasavvur qila olgan har bir kishiga koʻrinib turibdiki, bunday demokratik jamiyatning asosini fuqarolik jamiyatining institutlari – siyosiy partiyalar, oʻzini-oʻzi boshqarish, nodavlat, jamoat tashkilotlarining oʻzaro munosabatlari majmuasi tashkil etadi.

Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida oʻz funksiyalari, fuqarolik jamiyati institutlarining esa alohida funksiyalari boʻladiki, ular bir-birini toʻldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini taʼminlaydi. Davlatning ham, nodavlat tashkilotlarning ham oʻz harakat doirasi yoxud belgilagan faoliyatlari u yoki bu tomonga

¹⁸³ I.A.Karimov Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: Oʻzbekiston, 2000. 334-335-betlar.

ozgina o'zgarishi natijasida ijtimoiy-siyosiy muvozanatlar buzilib, demokratik me'yordan chekinishi, chetga chiqib ketish hollari sodir bo'lishi mumkinligini asrimizning so'nggi davrdagi taraqqiyot amaliyoti ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'ektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu kabi jamiyatda shakllangan fuqarolar siyosiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning institutlari tizimidagi barcha – davlat va nodavlat jamoat tashkilotlariga a'zolikning ixtiyoriy shaklda bo'lishidir. Bu qoida, birinchidan, shu jamiyatdagi demokratiyaning yuqori darajasini namoyon qilsa, ikkinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy ongi va faolliklari yuksakligini bildiradi. Qolaversa, har bir fuqaro o'zi ko'rmoqchi bo'lgan tashkilot faoliyatida o'zining manfaatlari va ehtiyojlariga mos maqsadlarga erishishiga ishonch hosil qilganidan so'nggina shu tashkilotga ixtiyoriy ravishda a'zo bo'la oladi.

Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari, nodavlat va notijorat tashkilotlar mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqda. Jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli manfaat va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydi. Bunday sharoitda jamoat, nodavlat va notijorat tashkilotlar oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishdagi ishtirokini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, - "Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga

oshirilayotgan islohotlarimizda nodavlat – notijorat tashkilotlarning o‘rni va roli beqiyos ekanini alohida ta’kidlash joiz.”¹⁸⁴

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblangan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlaridan biri - mahallaning o‘rni beqiyosdir. Fuqarolik jamiyati jamiyatning eng yuqori shakli hisoblanib, u o‘z ichiga turli - uyushmalarni qamrab oladi. Ular o‘z mohiyatiga ko‘ra jamiyatdagi adolatlilik tamoyiliga asoslangan hamjamiyat bo‘lishini ifoda etadi. Bu jamiyatda har bir kishi o‘zi uchun oliy farovonlik topishi mumkin. Fuqarolik jamiyati insonni va uning ulug‘vorligini yuksaklikka ko‘taradi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi tarixda ilk bor Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashi a‘zolidan saylanganligi, ushbu yo‘nalishdagi islohotlarimizning xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilayotganligi ayni haqiqatdir. Demokratik jamiyat tuzumi va faoliyatida demokratik tamoyillar va me‘yorlar qanchalik to‘la va chuqur mujassam bo‘lsa fuqarolik jamiyatining faoliyati ham shunchalik keng, uning davlat bilan aloqalari xilma-xil bo‘ladi. Agar davlat fuqarolik jamiyati manfaatlaridan uzilib qolsa, unda albatta inqirozga uchraydi va bora-bora yo‘qoladi. Har bir davlatda demokratiya va fuqarolar jamiyatining tenglik darajasi fuqarolarning siyosiy va jamiyat tashkilotlarining ta‘siri va taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi.

Demokratik tuzum fuqarolik jamiyatining birinchi bosqichi bo‘lib, hisoblanadi. Demokratiyani anglash – shaxsning hamma uchun birday zarur bo‘lgan qonunlarga to‘la rioya etishi, aniq tartib intizomga tayanib yashash salohiyati. Demokratiya bizga inson haq-huquqlarini himoya qiladigan, umumxalq va umumdavlat manfaatlarini asraydigan barcha qonunlarga bo‘ysunib yashashni o‘rgatadi.

Fuqarolik jamiyati insonni yuksak ulug‘vorligini e‘zozlash munosabati bilan ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati insonning o‘zini-o‘zi ongli boshqarishiga asoslanar ekan, u, albatta, adolatli qonun-qoidalarga rioya qilishi shart. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan

¹⁸⁴ Sh.M.Mirziyoyev Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – 2 Tom – Toshkent, O‘zbekiston, 2018 yil, 102-bet.

jadal va keng ko‘lamli islohotlar yurtimizda yangi davrni – yangi O‘zbekiston davrini boshlab berdi.

3. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari tamoyili.

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati barpo etilayotgan bir paytda milliy istiqlol g‘oyasining keng ko‘lamda ijtimoiy - siyosiy hayotda qo‘llanila boshlaganligi – bu istiqlolli jamiyatning ob‘ektiv qonunining mahsulidir. Chunki istiqlolli jamiyatning istiqlolli g‘oyasi bo‘lishini hayot taqozo etmoqda. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, milliy g‘urur insonning rangi, gavda tuzilishi, irqi yoki diniga qarab belgilanmaydi. Agar milliy g‘urur shu mezonlar orqali belgilansa, unda nazariy - amaliy jihatdan xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘ladi va shovinizmga yo‘l ochib beradi. O‘zbek xalqi intellektual - mentalitetga saviyaga tarixan baland bo‘lganligi uchun ham bunday adolatsizlik qarashlarini o‘ziga yot deb bilgan, o‘z milliy g‘ururini adolatli insonparvarlik ruhi asosida shakllantirib kelgan va shuning negizida hozirgi vaqtda adolatli jamiyatni barpo qilishga safarbar etmoqda.

O‘zbekistonda adolatli fuqarolik jamiyati qurish jarayonida milliy mentalitetning roli haqida fikr yuritilganda, istiqlol mafkurasining negizlaridan biri bo‘lgan milliy iftixorning bu ijtimoiy - siyosiy masalalar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini e‘tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Milliy iftixor o‘zbek millatining o‘zligini anglash, o‘ziga xos tili, madaniyati, san‘ati, urf - odatlari, turmush tarzi, kiyinishi, an‘analari, rasm - rusumlari, boy ma‘naviy - tarixiy obidalar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy jarayon hisoblanadi. Bunday ijtimoiy adolatli jamiyat qurishga safarbar etish ijtimoiy hayot ehtiyojlaridan kelib chiqadigan qonuniyatdir. Chunki bu bevosita milliy mentalitetning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, demokratik tamoyillarni adolatli turmush tarziga tadbiq etishda asosiy omillardan biri sifatida xizmat qilishi mumkin.

Jahon miqyosida o‘zbek xalqi mehr - oqibatlilik, mehmondo‘stligi, iymonli, e‘tiqodlilik, mehnasevarligi kabi insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan millat sifatida tanittirgan ekan, istiqlol sari qadam tashlayotgan bir paytda undan unumli foydalanish ijtimoiy hayot talabidan kelib chiqadigan ma‘naviy ehtiyojdir. Adolatli ijtimoiy hayotning bunday ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, ularni odillik yo‘li bilan kishilar

turmushiga tadbiq etib borish fuqarolik jamiyatini qurishning mohiyat va mazmuni bilan uyg'unlashib ketadi.

O'zbek xalqining shunday urf-odatlari, an'analari, udumlari, rasm-rusmlari borki, ular nafaqat milliy g'ururni ijtimoiy hayotda namoyon etadi, balki shu bilan bir qatorda, adolatli milliy davlatchilikni barpo qilishda, ma'naviy hayotning ravnaq topib borishida ijobiy rol o'ynab kelmoqda. Bunday an'analar Mustaqillik kunini nishonlash, Navro'z va hayit bayramlari, Vatan xizmatiga yuborish arafasidagi tadbirlar, hosillar sayli, Xotin-qizlar bayrami, Konstitutsiya nishonlanadigan kun, aholining to'y marosimlari, yubileylari, xotira kunlari, salom va alik, gap-gashtak, holvi to'ylari, hashar, ziyorat kabilar shular jumlasidan bo'lib, xalqimizning erkin, ozod, farovon hayot kechirishlari uchun asosiy omil sifatida xizmat qilmoqda. Bunday ijtimoiy - intellektual ahamiyatga molik bo'lgan ishlarni hayotga tatbiq etishda mahallaning roli nihoyatda kattadir. Chunki Vatanning beshigi hisoblangan mahalla fuqarolarning xulq - atvorini, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turuvchi asosiy omil hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy negizini tashkil etuvchi o'zini-o'zi boshqarishga asoslangan mahalla xalqimizning azaliy udumlari, urf-odatlari va an'alariga tayangan holda ulkan tarbiyaviy vazifani bajarib kelmoqda. Mahallada istiqomat qiluvchi barcha aholi keksalarning odilona bergan pand-nasihatlariga, shaxsiy ibratiga milliy qadriyatlarimizga, sharqona iffat va axloq - odob qoidalariga rioya qilgan holda yashab faoliyat ko'rsatishlariga, chaqirishlariga joylarda sog'lom, barqaror ijtimoiy muhitni barpo etish uchun zamin yaratilmoqda. Umuman olganda, bugungi kunda O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanib bormoqda. Aynan mana shu jarayonlar olib borilayotgan islohotlarning eng katta natijasidir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi zahirada ana shunday ulug' ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va

Ikkinchi uygʻonish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam”¹⁸⁵.

Maʼlumki, bugungi Oʻzbekiston zamini qadimda ikki buyuk uygʻonish davriga – Birinchi (maʼrifiy – IX-XII asrlar) va Ikkinchi (Temuriylar – XIV-XV asrlar) Renessansga beshik boʻlgani, bu – jahon ilm-fanida oʻz isbotini topgani ayni tarixiy haqiqatdir. Prezidentimiz tomonidan hozirda mamlakatimizda yana bir muhim uygʻonish jarayoni kechayotganligi eʼtirof etib oʻtilgani, “Yangi Oʻzbekiston” va “Uchinchi Renessans” soʻzlari hayotimizda oʻzaro uygʻun va hamohang boʻlib yangrayotganligi, xalqimizni ulugʻ maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Yangi Oʻzbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subʼektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega boʻlgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, maʼnaviy-maʼrifiy vaziyatning oʻzi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga toʻla javob beradigan obʼektiv zaruratdir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng koʻlamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bagʻrikenglik muhitini taʼminlash uchun muhim poydevor boʻldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi va amalga oshirilib kelinmoqda. Iqtisodiyotda maʼmuriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta oʻylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori surʼatlar bilan oʻsishini, inflyatsiyani prognoz koʻrsatkichlari darajasida saqlab qolishni taʼminladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi. Ayni vaqtda

¹⁸⁵ Yangi Oʻzbekiston demokratik oʻzgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. //Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning —Yangi Oʻzbekiston gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. “Yangi Oʻzbekiston” gazetasi, №165,(421), 2021 yil 17 avgust

mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Uning xodimlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining xodimlari hisoblanishi belgilab qo'yildi. 2017-yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Xalq qabulxonalari negizida, Prezident huzurida alohida tuzilma – Tezkor davlat xizmatlari agentligini tashkil etish g'oyasini ilgari surdi.

2017-yil ya'ni bir yil davomida sinovdan o'tib, tobora takomillashtirilib borilgan ushbu mexanizm dunyo hamjamiyatiga chinakam demokratiya yo'lidagi muvaffaqiyatlarimizdan biri sifatida namoyish etildi. Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida, xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashni global maqsad sifatida belgilab, mamlakatimiz barcha hududida Prezidentning virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini hamda hozirgi kungacha bir milliondan ortiq fuqarolarimiz bu qabulxonalar orqali o'zlarining dolzarb muammolarini hal qilganini ta'kidlab o'tdi.

Mamlakatimiz, xalqimiz hayotida har kuni yangidan-yangi o'zgarishlar, yangilanishlar ro'y bermoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha tizimi - Xalq qabulxonalari instituti o'tgan vaqt mobaynida bajarilgan ishlardan ko'ra hali etilishi lozim bo'lgan vazifalar yanada ko'proq ekanligini namoyon etdi. Zotan, haqiqat bahslarda, oshkora muloqotlarda bo'y ko'rsatadi. Prezidentning joylarda Xalq qabulxonalari,

virtual qabulxonasi tashkil etilganidan keyin xalqning real hayotidan xabardor bo'lish, odamlarning ko'p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o'rganish, ularni hatto joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Fuqarolar bilan ochiq muloqotlar o'tkazish yo'lga qo'yilib, Prezidentning virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, qator muammolar bilan birga, aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish borasida ham ko'plab yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Holbuki, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 2003-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini "Yagona darcha" tamoyili asosida ro'yxatdan o'tkazish uchun shahar, tuman hokimliklari huzurida maxsus inspeksiyalar tashkil etilgan. 2016-yildan esa ular negizida Davlat xizmatlari ko'rsatish markazlari ish olib borgan. Ammo ushbu sa'y-harakatlar ham aholining bugungi talab va ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli emasligi ayon bo'ldi. Binobarin, odamlarning har bitta hujjat uchun turli-tuman idoralarga murojaat qilishi, soatlab navbat kutishlar, qog'ozbozlik, turli ovoragarchiliklar barham topmadi. Shu boisdan mamlakatimizda davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish borasida keng ko'lamli ishlar boshlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan hayotga tatbiq etilgan, yurtimizni har tomonlama rivojlantirish, xalq bilan ochiq-oshkora muloqot qilishning yangicha tizimi - Xalq qabulxonalari instituti o'tgan vaqt mobaynida bajarilgan ishlardan ko'ra hali etilishi lozim bo'lgan vazifalar yanada ko'proq ekanligini namoyon etdi. Zotan, haqiqat bahslarda, oshkora muloqotlarda bo'y ko'rsatadi. Prezidentning joylarda Xalq qabulxonalari, virtual qabulxonasi tashkil etilganidan keyin xalqning real hayotidan xabardor bo'lish, odamlarning ko'p yillik muammolarini, talab va ehtiyojlarini yaqindan o'rganish, ularni hatto joyida hal etish, zarur chora-tadbirlarni belgilab, ijtimoiy adolatni ta'minlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasida demokratiyaning ilg'or mexanizmi sifatida jamoa bo'lib elektron murojaat kiritish tartibini joriy etishni taklif etdi. Ya'ni, bir guruh fuqarolar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni Oliy

Majlis yoki xalq deputatlari kengashlari ko`rib chiqishi majburiy ekani qonunda belgilab qo'yilishi lozim. Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo'yicha o'z fikrlarini bildirishlari uchun internet tarmog'ida "Mening fikrim" deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi. 2018-yilda O'zbekistonda jamoaviy murojaatlar uchun yagona mahalliy portal paydo bo'ldi. U yerda fuqarolar davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar bo'yicha o'z fikr va tashabbuslarini e'lon qilishlari mumkin. "Mening fikrim" veb-portali mamlakatimizda fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatining ochiqligi, qabul qilinayotgan qonunlarning hayotiy va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida yaratildi. Bu esa elektron hukumatga o'z hissasini qo'shdi.

O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya jarayonidagi islohotlar va ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar asosiy e'tibor doirasida turibdi. Axir, yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo'lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta bu davlatimiz oldiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, ertaga ulkan yutuq va tajribalarni ham beradi. Chunki hozir O'zbekiston mehnat resurslarining yarmidan ko'pi yoshlardir. Kelgusdi har uchunchi rashbar ham yoshlardan biri bo'ladi. Shu bois mamlakatimizda eng kata e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashgfa qaratilgan bo'lib, bu vazifa O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, ko'plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotining kelajagi sanoatlashtirish, raqamli iqtisodiyotga o'tish va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish bilan bog'liq. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapitalni jalb qilish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikka alohida e'tibor qaratiladi. 2030-yilgacha O'zbekistonni sanoat jihatidan rivojlangan davlatlar qatoriga kiritish maqsadi belgilangan. Yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, jumladan, avtomobilsozlik, elektronika, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati kabi sohalar kengaytirilmoqda. Rivojlangan texnologiyalar asosida qayta ishlash sanoatini rivojlantirish xomashyoni eksport qilishdan ko'ra yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishni ta'minlaydi. Sanoatlashtirish jarayonida kichik va o'rta korxonalarni qo'llab-quvvatlash orqali ishlab chiqarish hajmi va ish o'rinlari ko'paytiriladi.

